

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

QADRIYATLAR FALSAFASI FANI BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA

**(5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishiga
mo'ljallangan)**

SamDU O'quv-uslubiy kengashining

2015 yil _____dagi ____raqamli

majlisida muhokama qilib

nashrga tavsiya etilgan

S A M A R Q A N D – 2 0 1 5

UDK I

BBK

Sh

Qadriyatlar falsafasi fani bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Samarqand:
SamDU nashri, 2015.- bet.

Qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hodisa emas. U asrlar davomida shakllanadi, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari asosida rivojlanadi, xalq, millatning ma'naviy borlig'i sifatida sayqal topadi. Inson ham aynan qadriyatlar ta'sirida kamolga yetadi. Bu qadriyatlar tizimi o'zining dunyoviy va diniy xarakteri, moddiy va ma'naviy asoslari, estetik va axloqiy mohiyati bilan jamiyat va inson taraqqiyotiga xizmat qiladi hamda insonni komillikka etkazuvchi omil vazifasini bajaradi. Sharq va G'arb mutafakkirlari qadriyat haqida mumtoz asarlar yozganlar va u bizgacha yetib kelgan. Ularning asarlarida insonni barkamol qilib tarbiyalashga doir ko'plab fikrlar bayon qilingan. Mazkur uslubiy qo'llanmada qadriyat nazariyasiga, falsafasiga, qadriyatshunoslik mezonlariga tegishli masalalar va o'ziga xos qarashlar tahlil qilingan.

Tuzuvchi: dots. A.Q.Aymatov.

Mas'ul muharir: O.G'aybullaev, falsafa fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: A.R.Samadov, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

S.Norov, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

M U N D A R I J A

KIRISH		
I-BOB. QADRIYATSHUNOSLIK TARIXI VA NAZARIYASI		
1-§.	Qadriyatshunoslikning predmeti, mavzulari, maqsad va vazifalari.	
2-§.	Qadriyatshunoslikning sharqona ildizlari	
3-§.	Qadriyatshunoslikning G'arbdagi rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlari	
4-§.	Aksiologik ong va qadrlash tuyg'usi	
5-§.	Qadrlash va qadrsizlanish muammolari.	
II.BOB. JAMIYAT QADRIYATLAR SOHASI VA TUZILISHI		
6- §.	Moddiy – iqtisodiy qadriyatlar, inson hayoti va ularni jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.	
7- §.	Madaniy – ma'naviy qadriyatlar, ularni inson va jamiyat hayotidagi o'rni.	
8- §.	Ijtimoiy – siyosiy qadriyatlar demokratik tamoyillarni joriy qildirish asoslari.	
9- §.	Axloqiy, badiiy-estetik qadriyatlar, ularning tiklanishi va ahamiyati	
10- §.	Milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning mushtarakligi.	
11- §.	Mustaqillik va yangi qadriyatlar tizimi.	
	XULOSA	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	
	GLOSSARIY	

Kirish

O'tgan yigirma uch yil ichida respublikamizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda keng islohotlar o'tkazildi, xalqimiz ongi va hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bugun «yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas. Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor»¹.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” ta'lim sohasida o'qitiladigan “Qadriyatlar falsafasi” fani ishchi o'quv rejaga kiritilgan asosiy fanlar blokida mavjud bo'lib, dasturda jamiyat taraqqiyotini hozirgi bosqichida keskin tub burilishlar, qadriyatlar va madaniyatlarni tez-tez o'zgarib turishi, jamiyatda mavjud muammolarni falsafiy tahlil etish, tarixiy jarayonlarga to'g'ri baho berish e'tibor qaratilgan.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib, ular umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan holda yanada rivojlangandagina jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatga erisha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta oladi.

¹ Каримов И. А. Юсак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – Б. 125-126.

Mazkur uslubiy qo'llanmada qadriyatlarning dolzarb mavzularini quyidagi ilmiy-nazariy va ijtimoiy-amaliy omillar bilan belgilash mumkin:

Birinchidan, jamiyatning ma'naviy yangilanishi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liqdir. Ma'naviy hayotning ko'p omilli xususiyati muammoga kompleks yondashishni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston jahon hamjamiyati bilan keng integrasiyaga kirishish yo'lidan bormoqda. Mazkur maqsad jahon hamjamiyati shakllantirgan, o'zining taraqqiyot modeliga aylantirgan umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lishga, ulardan milliy rivojlanishda foydalanishga undaydi.

Uchinchidan, o'zbek xalqining sho'rolar davrida unutilgan milliy qadriyatlarida shunday pozitiv, hayot sinovidan o'tgan tomonlar borki, ularni qayta tiklash, milliy taraqqiyotda ulardan foydalanish xalqimizning, millatimizning tarixiy-madaniy paradigmasiga ham, azaliy orzu-tilaklari – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish maqsadiga ham muvofiq keladi.

To'rtinchidan, uzoq tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida shakllangan o'zbek xalqining milliy qadriyatlari o'zida umuminsoniy qadriyatlarni ham ifoda etadi. Bu o'zbek xalqining boshqa xalqlar, millatlar bilan teng va keng integrasiyaga kirishib yashab kelganini ko'rsatadi, aynan ushbu aloqalari bois u jahon sivilizasiyasiga muhim hissa qo'shgan.

Beshinchidan, keyingi yillarda qadriyatlar masalasiga oid ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Xususan, ilk marta J.To'lenov, T.Abdullayev, Q.Nazarov va R.Ro'ziyeva va boshqalarni dissertasiya ishlari yoki o'quv qo'llanmalari chop etilgan. Biz o'z uslubiy ishimizda ulardan unumli foydalandik.

I-BOB. QADRIYATSHUNOSLIK TARIXI VA NAZARIYASI

1-mavzu. Qadriyatshunoslikning predmeti, mavzulari, maqsad va vazifalari.

1. Qadriyatlarshunoslik muammolari va uning aksiologiya tarixida o'rganilishi.
2. «Qadriyatlar falsafasi» fanining predmeti va vazifalar.
3. Jamiyatimiz rivojining hozirgi davrida “Qadriyatshunoslik” va qadriyatlarga munosabatining tubdan o'zgarganligi.

1. Qadriyatlarshunoslik muammolari va uning aksiologiya tarixida o'rganilishi

Mustaqilligimizning o'tgan yigirma yili ichida hayotimizning barcha jabhalarida «istiqlol», «qadriyat», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iftixor», «erkinlik» kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Ushbu tushunchalar milliy-ma'naviy mustaqillik ramzlari bo'lib, ularsiz biz o'z istiqlolimizni namoyon qila olmaymiz. Ammo shuni ta'kidlash joizki, o'tgan asrda mustabit tuzum siyosati davrida bu atamalarni ishlatish mumkin bo'lmay, ularni hatto o'zbekcha lug'at boyligidan surib chiqarishga harakat qilgan edi. Bunga dalil sifatda 1959 yili Moskvada «Xorijiy va milliy lug'atlar davlat nashriyoti» tomonidan chop etilgan, 40 mingdan ortiq so'zdan iborat «o'zbekcha-ruscha lug'at»ga ham, 1988 yili O'zSE Bosh tahririyati chop etgan 50 ming so'zlik «O'zbekcha-ruscha lug'at»ga ham «qadriyat», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy iftixor» kabi tushunchalarning kiritmaganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, 1981 yili Moskvada «Rus tili» nashriyoti tomonidan chop etilgan, 60 ming so'zni qamrab olgan ikki jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham bu so'zlar uchramaydi. Shunisi borki, hatto ba'zi ruscha – o'zbekcha lug'atlarda ham «qadriyat» so'zi qo'llanilmagan. Jumladan, 1976 yili «Fan» nashriyotida chop etilgan «ijtimoiy – siyosiy terminlar lug'atida» «sennost» so'zining to'rtta ma'nosi alohida lug'at maqolasi tarzida belgilangani haolda ularning birortasi «qadriyat»

ma'nosi o'z ifodasini topmagan. Lekin lug'atlarda «millatchi», «millatchilik» so'zlari bor¹.

Xo'sh, buni sababi nimada? Bizni fikrimizcha, bunday vaziyat tasodif emas. Bu mustabit tuzumning mintaqamiz xalqlarini o'zlarining ko'p asrlik tarixi, boy va noyob milliy merosi, qadriyatlari, ma'naviyatidan judo etib, manqurtlarga aylantirishga qaratilgan siyosati natijasidir.

Hukmron siyosat tarafdorlari «milliy istiqlol», «milliy iftihor», «milliy g'urur» kabi atamalarni kishida millatchilik kayfiyatini uyg'otadagin tushunchalar deb baholadilar va ularni ifoda etuvchi mahalliy millat vakillari millatchilikda aylanib, tazyiq ostiga olingan. Shuning uchun milliy ma'naviyat va hurfikrlilikni madh qiladigan tushunchalar ko'p yillar davomida ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ishlatilmay kelindi. Hatto ularni milliy so'z boyligimizdan chiqarib tashlash xavfi ham tug'ildi. Istiqlol xalqimizga so'z va fikr erkinligi bilan bir qatorda, ilgari taqiqlanib kelingan ko'pgina milliy tushunchalarni ham hayotimizga qaytardi. Endilikda «qadriyatlar», «mustaqqillik», «erkinlik», «istiqlol», «milliy iftixor» kabi tushunchalar o'zining asl mazmuniga ega bo'lmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, mazkur atamalarning hayotimizga kirib kelishi va qisqa vaqt ichida teran ildiz otib ketishida muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning xizmatlari katta. «Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, - deb yozadi I.Karimov, - jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, oliyjanob milliy va diniy an'alariga hurmat bilan qarash, ularni asrab avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizasiyasi va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab etilganligi mana shularning hammasi

¹ Туленов Ж., Туленова К. Қадриятлар фалсафаси. –Т.: «Меҳнат», 2007 -56бет

hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy etukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi»¹.

Xo'sh, qadriyatlar tushunchasining o'zi nima? Uning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat? Eng avvalo shuni qayd etish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun tushunchadir. Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin.

Qadriyatlar falsafasining tarixi o'zoq bo'lsada, bu to'g'risidagi fan akseologiya o'tgan asarning o'rtalarida shakllandi. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asarning ikkinchi yarmida nemis akseologi E. Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Akseologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan-to'g'ri qadriyatshunoslik, deb atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchasi ham qadriyatshunos atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G'arbda bu atama yunoncha «axio» (qadriyat), «logos» (fan, ta'limot) tushunchalariga asoslanadi.

Har qanday fanni ilmiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash ushbu fanga xos bo'lib, mavzular, funksiyalar, tushunchalar, qonunlar, kategoriyalar mavjuddir. Akseologiyani ijtimoiy – falsafiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash ham bundan istisno emas. Unda ham bu sohadagi fanlarga xos bo'lgan hamma xususiyatlarni kuzatish mumkin. Qadriyatshunoslik «akseologik ong, qadrlash tuyg'usi, akseologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasidir»².

Masalan, «Faylasuf ensiklopediyasi»ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflanadi: «Qadriyatlar falsafiy va sosiologik tushuncha. U birinchidan, biror ob'ektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодиёти ислохотларини чуқурлаштириш йўлида.-Т.:Ўзбекистон, 1995, 140-бет

² Фалсафа. Қомусий луғат. Тошкент, “Шарқ” 2004-17-бет

ongining normativ belgilovchi – baholovchi jihati (sub’ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi»¹. Shunga yaqin nuqtai nazar O’zbek Sovet ensiklopediyasida ham bayon etilgan: «Qadriyatlar (falsafa sosiologiyada) – voqelikdagi muayyan xodisalarning inson, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llaniladigan tushuncha»².

Taniqli faylasuf olim V.P. Tugarinovning fikricha, «qadriyatlar muayyan jamiyat va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne’matlari bo’lgan tabiat va jamiyat xodisalarining mohiyati yoki hodisaning bir jihatidir. Bu ne’matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o’z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o’zlari uchun maqsad yoki ideal qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o’zidir, chunki hayotda muhim bo’lish boshqa barcha qadriyatlardan foydalanishni yo’qqqa chiqaradi,... qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne’matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir»³. Tugarinovning ushbu fikri sinfiy yondashuv asosida amalga oshirilgani, qadriyatlarni milliy va umuminsoniy tomonlariga e’tibor berilmaganidan dalolat beradi.

Olimning fikricha, «qadriyat» va «baho» tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini o’qtiradi. Qadriyat real yoki orzusidagi hodisa (bor narsa yoki ideal)dir, ya’ni esa shu hodisaga munosabatni bildiradi. U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub holda hisoblash, ya’ni uni qadriyatlarga qo’shish yoki qo’shmaslik ana shu munosabatga – ijobiy va salbiy bahoga bog’liq.

Darhaqiqat, qadriyatlarning hayotdagi o’rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari,

¹ Философская энциклопедия. 5-Жилд. -М.: Наука, 1970, 462-бет.

²Ўзбек Совет Энциклопедияси. 14 – жилд. -Т., 1980, 7- бет.

³Тугаринов В.П. О ценностях жизни культуры.- Л.,1960, 3-бет.

qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma'lumki, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo'lib, ko'pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo'lib, hisoblanib kelingan tabiat va jamiyat hodislari boshqalar uchun qadriyat bo'lmasligi ham mumkin va aksincha.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan shunday xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, tabiat va jamiyat xodisalarini qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu-umidlari, maqsadlari bilan belgilanadi; ikkinchidan, qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlardir; uchinchidan, qadriyatlar voqelikda mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarni ifodalaydi; to'rtinchidan, ularni qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik ehtiyojlarini, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlari bilan belgilanadi; beshinchidan, tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarning qadriyatlar turkumiga kiritilishini asosiy sababi –bu qadriyat insonlarning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boytadi.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalaridagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi oqibatida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi. Insonning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, orzu-istaklari, ideallariga mos kelmaydigan tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat deb baholash noo'rindir. Masalan, tabiatdagi qazilma boyliklar inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatila boshlangandan keyingina qadriyatga aylangan. Shungacha ularni tabiiy boyliklar deb nomlaymiz xolos.

Qadriyatlarning mamlakatimizda ilmiy tadqiqot mavzusiga aylanganiga unga ko'p bo'lgani yo'q. Bu mavzu ilgari falsafiy fanlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, kitoblar, risolalar va darsliklarda alohida tilga olinmasdi.

Falsafadan qomusiy lug'atda qadriyat tushunchasiga quyidagi ta'rif keltirilgan. Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qullaniladigan falsafiy – sosiologik va akseologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obid-yodgorlik, go'zallik axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblandi¹. Qadriyatlarni klassifikasiya qilish borasida ham ushbu manba shunday deyiladi: Qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy shaxsiy bo'lishi mumkin. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot maxsuli sifatida, o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega tushuncha bo'lib, avvalo ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyat insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi va aylanmoqda².

Qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, sosioloik nuqtai nazaridan ta'riflari kupgina ilmiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ba'zan esa ularning butunlay bir-birini inkor etish hollari xam uchraydi.

Taniqli qadriyatshunos olim, faylasuf Q.Nazarov o'zining bir qator ishlarida, ushbu muammoning o'ta dolzarbligini ta'kidlash bilan birga, uning mazmuni, tuzilishi, asosiy shakllari, namoyon bulish xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilib, mazkur masalalarga e'tibor kam

¹ Фалсафа. Қомусий луғат. Тошкент, “Шарқ” 2004-476-бет

² Ўша жойда

ekanligini kursatib o'tgan edi. Uning fikricha, qadriyat tushunchasi - vokelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axlokiy, madaniy-ma'naviy axamiyatini kursatish uchun qullanadigan falsafiy-sosiologik va aksiologik tushunchadir¹.

T.Abdullayev "Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning dialektikasi" nomli doktorlik dissertasiyasida turmushdagi milliy va baynalminallik munosabatlarini, ular bilan bog'liq qadriyatlarni taxlil qilgan².

I.Saifnazarov, F.Saifnazarovalar fikricha, "milliy-ma'naviy qadriyatlar - murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bulib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki ma'naviy boyliklarini qamrab oladi"³. Bizning fikrimizcha qadriyat deyilganda, inson, millat, jamiyat uchun axamiyatli bulgan, ayrim shaxs, millat, elat yoki ijtimoiy guruhlarining ma'naviy-madaniy ehtiyojlari evolyusiyasi davomida vujudga kelgan, o'z manfaatlari va maqsadlari uchun xizmat qiladigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini tushunishimiz mumkin.

Qadriyatlar sermazmun va kup qirrali tushuncha bulib, uz ichiga tabiiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, moddiy, ma'naviy, diniy, axlokiy, badiiy-estetik va hokozolarni oladi. Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning atrof-muhitga nisbatan bulgan munosabatining ifodasidir. Qadriyat jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy mahsulidir. Har bir qadriyat muayyan bir tarixiy davrning ma'naviy mag'zi bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy-siyosiy manzarasida namoyon bo'ladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, «qadriyat» so'zining mazmuni sodda va aniq bo'lib, uning etimologik kelib chiqishiga ko'ra qadriyatlar – hayotda odamlar

¹ Назаров Қ. Қадрият тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари): фалс..ф.д-ри дисс...-Т., 1996.-Б.105

² Абдуллаев Т. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: фалс..ф.д-ри дисс...-Т., 1992.


³ Саифназаров И., Саифназарова Ф. Маънавиятимизнинг умрбоқий сарчашмалари.-Т.: Мехнат, 1997.-Б.10

qadrlaydigan narsalardir. Bular atrofimizdagi predmetlar, voqea va hodisalar bo'lib odamlarning kundalik hayotiy ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan narsalardir.

Yuqorida ikki ta'rifda ham keltirishicha qadriyat insonning ma'naviy va moddiy hayotidagi ahamiyatini, ehtiyojlarini qondira olishini ifodaydi.

Qadriyat insonning borlig'i ham jamiyatning axloqiy estetik, huquqiy sohalarni ham, ijtimoiy ong sohasining ham qamrab olgan murakkab jarayondir. Insonning o'zligi, menligi borlig'ining asosiy fundamenti qadriyat bilan boyitiladi, to'ldiriladi. Kishilar o'zlarining amaliy faoliyatida hayot uchun zarur bo'lgan tabiiy talab, ehtiyojlarini predmetlar va hodisalarning xossa–xususiyatlaridan foydalanib qondiradilar. Masalan, odamning chanqovini suv, ochlik xissini non, kislorod nafas oliy orqali tananing unga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham ham biz bu «ne'matlarni qadrlaymiz. Lekin shunday narsalar ham borki, ular bizga yoqmaydi, ular hayotimiz uchun zarardir. Qo'pollik, behayolik, o'g'rilik, yolg'onchilik, ifloslik, loqaydlik va hokazolar ana shunday yoqimsiz narsalar bo'lib, biz ulardan qo'tilishga intilamiz.

Binobarin, biz kundalik amaliy faoliyatimizda atrofimizdagi predmetlar dunyosi bilan munosabatga kirishganmiz, u yoki bu predmetga, hodisa yoki voqeaga, ularning biz uchun qadrli yoki qadrsiz ekanligiga qarab baho beramiz, ularning talab ehtiyojlarimizni qanchalik qondira olish xususiyatlarini aniqlaymiz. Ammo bu hol u yoki bu predmet va hodisaning inson ehtiyoji, talabi va maqsadiga qay tarzda muvofiq kelishini, foydali yoki zararliligini, yoqimli yoki yoqimsizligini baholash uchun unga zamon va makon jihatdan konkret, nisbiy yondashish zarurligini istisno qilmaydi.



2. «Qadriyatlar falsafasi» fanining predmeti va vazifalari

Insoniyat XX asrni turli muammolar qoʻrshovida yakunlab XXI asrda globallashuv taʼsiri asosida yashab kelmoqda. Insoniyat foydadan koʻra qadrini, qiymatdan koʻra qadriyatni ustivor biladigan zamonlar keldi. Bugungi kunda butun dunyoda qadr va qadriyat toʻgʻrisidagi fan akseologiya, yaʼni qadriyatlar falsafasi yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyat sayyoramizda yashagan eng qadimgi davrlardan boshlab foyda, qiymat va kapital kabi qadriyatni ham ustivor bilganida, bugungi er yuzining manzarasi butunlay boshqacha boʻlgan, insoniyatni esa turli ekologik boʻhronlar, iqtisodiy inqirozlar, urush – xavfi va maʼnaviyat tanazzuli kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan boʻlar edi.

Sanoat, texnika va kapital inson hayotining barcha jabhalarida ustivor tushunchalarga aylanishi uchun odamzot naslining qancha –qancha avlodlari olamga kelib ketmadi deysiz. Bugungi kunga kelib esa insoniyat yana olam, tabiat va odamzot naslining uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat ham zarur ekanligini asta – sekin angladi.

Madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik kabi fanlar o'z tadqiqot ob'ekti, predmeti va vazifalariga ega bo'lganicha ham ko'p bo'lgani yo'q. Ular maxsus tadqiqot ob'ektiga, ilmiy sohaga aylanishiga to'rtki bo'lgan bu milliy mustaqillikdir. Qadriyatlar falsafasi fanning rivojlanishi, maxsus maqomga (statusga) ega bo'lishi ham o'z istiqbolimiz sababi bo'ldi. Chunki bu o'tish davrida qadriyatlar ham yo'nalishini, tarkibini o'zgartirishi tabiiy holdir. Shunday ekan, qadriyatlar haqida falsafiy bilimlarning oshirishimiz, rivojlantirishimiz davr talabidir. Tadqiqotlar orasida qadriyatlar to'g'risidagi bilimlarga nisbatan turli munosabatni kuzatish mumkin. Bu munosabatni shu sohada qo'llaniladigan atamalarda ham namoyon bo'lmoqda. «Akseologiya», «qadriyatshunoslik», «qadriyatlar falsafasi», «qadriyatlar nazariyasi» kabi atamalarda xilma-xil ma'no va mazmun ifodalanadi. Masalan, «akseologiya» va «qadriyatshunoslik» atamalari muayyan ilm sohasi yoki bilimlar sistemasini ifodalaydi, «qadriyatlar falsafasi» esa, qadr va qadriyatlar bilan bog'liq falsafiy yo'nalishni anglatadi, ammo bunda alohida fan sohasi to'g'risida gap bormaydi. Qadriyatlar nazariyasi ko'proq sobiq sovet ittifoqi davrida ishlatilgan atama bo'lib, u qadriyatlar sohasidagi bilimlarni falsafaning nihoyatda mo'jaz qismi sifatida e'tirof etishni anglatar edi.

Aksiologiya - Qadriyatlar falsafasining predmeti - qadriyatlar reallikning namoyon bo'lish shakllari, voqelikdagi narsa, hodisa va jarayonlar, baholash muammolari, o'lchov, mezonlar, olamda ro'y berayotgan o'zgarishlar, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy sub'ektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik jihatini tashkil qiladi.

Ob'ekti esa - qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, ob'ektiv asoslari, sub'ektiv anglab olinishi, tuzilishi, namoyon bo'lish shakllari, jamiyatda mavjud qadriyatlarning umumiyligi, xususiyligi va alohidaligini o'rganish tashkil etadi. Aksiologiya jamiyat qadriyatlarini ana shunday umumiylik, xususiylik va alohidalikning qadriyatlarda namoyon bo'lishini bilishning analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktililik va konkretlik usullari asosida o'rganadi.

Shu tariqa umumiy, xususiy hamda alohida qadriyat shakllari tavsiflanadi, ular orasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Qadriyat shakllarining namoyon bo'lishidagi o'zaro aloqadorlik va dialektik bog'liqlik, buning ifodasi bo'lgan qadriyat tizimlarining vujudga kelishi, amal qilishi, barqaror va beqaror holatlari, o'zgarishlari kabi masalalar ham aksiologiya doirasida o'rganiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, u yoki bu fan sohasi haqida fikr yuritganda, uning vujudga kelishida qaysi mamlakat yoki hudud muhim rol o'ynaganligi yoxud fanning nomi g'alati eshtilishi asosiy mezon sifatida qaralmasligi lozim. Gap fanning dastlab qacda ilmiy kurtak sifatida paydo bo'lganligi, uning nomini kim birinchi bo'lib ishlatganligi yoki muayyan mamlakatda shu sohada ilk bora kimning tadqiqot olib borganligi to'g'risida emas, balki masala ana shu fanning ahamiyati, zamona talablariga javob berishi, davrning mezonlarini echishdadir. Akseologiyaning muhimligi, dolzarbligi jamiyatimizda qadriyatlarning qayta baholash jarayoni borayotgani hozirgi globallashuv davrining qonuniyatlarini tushunib olishda yana ham bilinadi.

3. Jamiyatimiz rivojining hozirgi davrida “Qadriyatshunoslik” va qadriyatlarga munosabatining tubdan o'zgarganligi.

Hozirgi paytda qadriyatlar mavzusining o'rganilishi darajasi qoniqarli darajada bo'lib, mustaqillikni o'tgan yigirma ikki yili ichida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tadqiq etish, ularni milliy ma'naviyatimizga ta'sirini o'rganish jadallashdi.

Xususan, birinchidan, qadriyatlar mavzusiga mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov juda katta e'tibor bermoqda. Prezidentimizning nutq, maqola, kitoblarida bu mavzuning juda ko'p qirralari ochib berilgan. I.A.Karimov mustaqillikni mustahkamlashda qadriyatlar omilidan foydalanish, ma'naviy taraqqiyotimizning qadriyatlarga asoslangan mezonlari, islohotlari va bozor munosabatlarining yangicha iqtisodiy qadriyatlar tizimiga olib kelishi, ijtimoiy o'zgarishlarning demokratik umuminsoniy kabi bir qator masalalarni ijodiy asoslab bergan. Ikkinchidan, Sobiq ittifoq xududidagi boshqa birorta davlatda qadriyatlar mavzusiga bunchalik ko'p e'tibor berilayotgani yo'q. Barcha davlatlarda ham, jamiyatlarda ham, ijtimoiy tizimlarida ham inson eng oliy qadriyat hisoblanishini e'tiborga olsak, unda bizning yurtimizda inson qadri, uni huquqi, erkinligi taminlanayotganidan darak beradi.

Moddiy va ma'naviy, ijtimoiy – siyosiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni jamiyatni go'zal va farovon qilish, tinchlik, demokratiya, yangi hayot uchun ko'rashayotgan mehnatkash inson – eng oliy darajadagi boylik, qadriyatlardir. Insonning oliy qadriyat ekanligi uning dastavval o'z-o'ziga va jamiyatning insonga bo'lgan axloqiy munosabatlarida ifodalanadi. Qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatda va shaxsning o'z xulqini tartibga solishda ijodiy rol uynaydi. Inson qadr-qimmatini anglash shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishga asoslanadi.

O'zligini hurmat qilish ko'p jihatdan shaxsning taqdirini belgilovchi, erga o'radigan, xo'rlaydigan va shu bilan qadr-qimmatini yo'qotishga sabab bo'ladigan qiliqlariga yo'l qo'ymaydigan to'siqqa aylanadi. Har bir inson eng avvalo o'zini hurmat qilishi, qadr-qimmatini, or-nomusi, sha'niga dog' tushurmasligi lozim. Qadr-qimmatini, or-nomusini saqlay bilish muhim insoniy fazilatdir. Izzat-hurmatni bilmasdan turib ma'naviy boylikka etishish, elda qadr-qimmat topishni tasavvur qilish qiyin. O'zini hurmat qilmagan kishi o'zgalarni qadrlay olmaydi.

Qadr-qimmat insonning eng yuksakka ko'taradigan, uning faoliyatiga butun intilishlariga olijanoblik bag'ishlaydigan narsadir.

Qadr-qimmat shaxsning hurmatlashish, uning huquqlarini e'tirof etishni ham qamrab oladi. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va ma'naviy erkinligini muhim tomoni sifatida yuzaga keladi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Milliy madaniyat va qadriyatlarning tiklanishi, jamiyatimiz taraqqiyoti va inson shaxsining, madaniy, ma'naviy, axloqiy rivojlanishi, kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalash, voyaga etkazishda keng istiqlol yo'lini ochib beradi.

O'zbekistonning qadriyatlarini jamiyat va xalq hayotida tutgan o'rni beqiyos ekanligini e'tiborga olib, uni tiklash, yanada rivojlantirish va takomillashtirishning, undan xalqimizni bahramand qilishning yaqin va uzoq yillarga mo'ljallangan rejalarini ishlab chiqdi. Qadriyatlar xalqimizning tengsiz boyligidir. Uni avaylab-asarash, rivojlantirish, boyitish muqaddas burchimizdir. Shuning uchun ham bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki, yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'ladigan yana yangidan o'zimizni betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi insonlarga kerakli qadriyatlarimiz tizimi barpo etilmoqda.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Bugungi kunga kelib qadriyatlar tushunchasi nihoyatda mashhur bo'lib ketdi. Ammo, alohida ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda qadriyat iborasini juda keng ma'noda ishlatish, ayniqsa, madaniy-ma'naviy hodisalar, urf-odatlar, an'analar va boshqalarga nisbatan bu tushunchani umumiy atama sifatida qo'llash hollari ko'p uchramoqda. Kundalik muloqotda qadri bor narsa, voqea, hodisa, xususiyat va

boshqalarga nisbatan qadriyat iborasini qo'llashga ko'pchilik ko'nikib qoldi. Ammo aynan shu kundalik hayotdagi ma'nosi ilmiy adabiyotlarga ko'chib qolayotganligi tashvishli holatdir. Hamma tushunchani o'z joyiga, o'z ko'lamiga ishlatish ilmiylik talablaridan biridir. Qadriyatlar haqidagi ilmiy bahslar, falsafiy mulohazalar doim davom etadi.

Savollar va torshiriqlar:

1. Qadriyat deganda nimani tushinasiz?
2. Qadriyat to'g'risida qanday ta'limotlarni bilasiz?

2-mavzu. Qadriyatshunoslikning sharqona ildizlari.

1. Qadimiy Sharq va O'rta Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi g'oyalar takomili va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.
2. Diniy va mifologik qadriyatlar.
3. Avesto qadriyatlari.
4. Tasavvuf qadriyatlari.

1. Qadimiy Sharq va O'rta Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi g'oyalar takomili va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.

Jahon madaniyatining rivojiga jamiki halqlar baholi qudrat o'z ulushlarini qushganlar. Ammo bunda Sharq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo halqlarining hissasi alohidadir.

Sharq halqlarining tarixi va madaniyati, ilk siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy, falsafiy qarash va tasavvurlari haqidagi, ularning mazmun va mohiyati haqidagi qimmatli material va ma'lumotlar antik zamon mualliflarining asarlarida, arxeologik manbalarda, xalq og'zaki ijodiyotida keng ko'lamda aks etgan.

Dastlabki falsafiy tasavvurlar Sharqning eng qadimgi mamlakatlaridan biri — Bobilda miloddan avvalgi turtinchi ming yillik boshlarida paydo bulgan. O'sha davrlardanoq odamlarning dunyoda ruy berib turadigan xilma-xil hodisa va jarayonlarga bo'lgan munosabatlari va qiziqishlarini, garchi sodda, yuzaki, ibtidoiy shaklda bo'lsada, o'zida aks ettirgan falsafiy qarashlar namoyon bula boshlagan.

Qadimgi Bobil adabiyotining mashxur asarlaridan biri «Gilgamesh haqida doston» bo'lib, unda tuproq, suv, xavo, quyosh inson hayoti va tirikligining abadiy manbai ekanligi, Gilgameshning obi hayot qidirib, boshidan kechirgan sarguzashtlari va chekkan azob yqybatlari, odamlarning tabiat qonunlari asosida yashash zarurligi, ular hayot va ulim sirlarini bilishga azaldan intilib kelganligi xikoya qilingan.

Gilgamesh haqidagi dostonda qadimgi kishilarning baxt va farovonlikka, salomatlik va bardamlikka, ulimni engib, mangu hayot kechirishga intilishlari, abadiy umr ato qiluvchi obihaet, usimlik hap xil meva va ma'danlarni izlab topish xakidagi orzu niyatlari o'z ifodasini topgan.

Adapa xaqidagi dostonda esa insoniyatning abadiy hayot to'g'risidagi orzulari ko'rsatilgan. Unda «o'lgan va qayta tirilgan» xudolarga, jumladan Bobil xudosi Mardukka nisbat berilgan.

Inson o'zini qurshab olgan muxit, koinot bilan doimo aloqadordir. Binobarin, u shu muhit, koinot xaqida uylaydi, fikr yuritadi, er yuzidagi hodisa va jarayonlarni koinot bilan boglashga intiladi, samoviy sir asrorlar xaqida hayol suradi, faraz qiladi, har xil ertaklar, rivoyatlar, afsonalar tukishdi. Bobilliklarning Etapa xaqidagi afsonalari ana shu zaminda paydo bo'lgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi o'rtaga quygan talablar va inson amaliy faoliyati ehtiyojlari asosida Bobilda tabiat hodisalarining ichki mazmunini ilmiy asosda tushunib, ulardan turmushda foydalanish zaruriyati tobora kuchayib borgan. Maxsulot va mollarning miqdorini, og'irligini o'lchash, ish kuchlari miqdorini

aniqlash, binolar hajmini belgilash, er satxini hisoblab chiqish zaruriyati eng qadimgi matematik hisoblarning paydo bo'lishiga va bu sohada tegishli bilimlar to'planishiga hamda arifmetika va geometriyaning tug'ilishiga olib kelgan.

Vaqtni hisoblash zaruriyati kalendar (taqvim) paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu esa, odamlardan astronomiya sohasida ma'lum bilimlarni talab etilgan. Bobilliklar Quyosh soatini, quyosh qo'rsatkichini va kunning 12 bulakka bulinishini azaldan bilishgan. Antik davr ma'lumotlariga ko'ra, Bobilda matematika, arifmetika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda medisina, tarix va filologiya, muzika, tasviriy san'at, astrologiya ham sekin-asta kurtak ota boshlagan.

Qadimgi Sharq halqlarining madaniyatlari singari Bobil xalqi madaniyati, falsafasi, axloqi, urf-odatlari, dunyoqarashi ham asosan diniy g'oyalar bilan sug'orilgan. Odamlarda diniy e'tikrd kuchli bo'lgan. Quyosh, oy, yulduzlar xudo hisoblangan, ibodatxonalarda ularga topinganlar. Xalqlarning, davlat, xukmdorlar va odamlarning kelgusidagi taqdirini yulduz va sayyoralarning vaziyatiga qarab oldindan aytib berish qadimgi Mesopotamiya va Bobilda astrologiya nomini olgan.

Bobilliklarning qadimgi madaniyati, diniy e'tiqodlari, falsafiy qarashlari, adabiy asarlari, bilimlari, o'lchov birliklari, afsona va rivoyatlari hayoldan hayolga o'tib, rivojlanib, boyib Sharqdagi ko'pgina xalqlarning madaniy-ma'naviy tarakqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

Misr madaniyati jahon madaniyatining eng qadimgilaridan bo'lib hisoblanadi. Qadimgi Misrda ilk madaniy yodgorliklar miloddan turt ming yil ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Sharq madaniyatining boshqa namunalari singari Misr izdaniy yodgorliklarida, xususan, ertak rivoyat, gimn, duo, masal, epos, lirika va boshqalarda usha davrdagi ijtimoiy muxit, iqtisodiy hayot, nabobat, urf odatlar,

tabiat hodisalari, diniy, axloqiy, huquqiy, falsafiy qarashlar, garchi yuzaki tarzda bo'lsa-da, o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Misr mifologiyasida, hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va hamma narsalarda ham havo bor, deyiladi. Shuning uchun ham misrliklar suvni odamga oziq ovqat beruvchi dastlabki ulug' ne'mat deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning asosi bo'lib ko'ringan. Misrliklar, hayot suvdan boshlanadi, deb bilib, suvsiz hech qanday hayot bo'lmasligini ko'rib, suvni ulug'lovchi qanchadan qancha rivoyat va afsonalar to'qiganlar. Ular Nil Daryosini nihoyatda ulug'lashtirganlar, ilolhiylashtirganlar, uni «odamlarga hayot baxsh etish uchun toshib turadigan Nil», deb ulug'langanlar. Shuning uchun misrliklar marxumlar ruqiga duo qilib, uning abadiy yashashini ta'minlamoqchi bo'lganlarida xudoga quyidagicha nola qilganlar: «Sen ulug' xudoga— Osirisga marhamat aylaganingda unga Nil keladigan bo'ldi, uning uchun yaylovlarda o't paydo bo'ldi va papirus o'sadigan bo'ldi. Xuddi shu singari unga — marxumga ham marhamat aylagilki, u sening suvingdan baxra mand bulsin, u sening oqar suvlaringdan icha olsin».

Misrliklar o'zlarining dunyoviy va diniy falsafii poeziyalarida odamlarni bu dunyoning butun noz-ne'matlaridan tula baxramand bo'lib yashashga, quvnoq, shod xurram xayot kechirishga, ulim, oxirat xaqida xadeb uylayvermaslikka chaqirgan.

Qadimgi misrliklarning xalq og'zaki ijodiyotida, ayniqsa diniy mifologik asarlarida tabiat hodisalari va tabiat kuchlari ilolhiylashtirilgan. Usimlik va daraxtlarga topinish Misrda eng qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. «Hayot osmon daraxti» to'g'risidagi qadimgi afsonada, usimliklar simvoli bo'lgan daraxt insonning er yuzidagi hayoti uchun zarurdir, degan fikr ilgari surilgan. Misrliklarning har holda sodda bo'lsa ham tabiatni, dunyoni unga asoslanib turib tushuntirish uchun qilgan urinishlari o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

Qadimgi Misrda falsafiy fikr kurtaklarining shakllanishi va rivojida tabiatshunoslik fanlarining ham xissasi bor. Bundan bir necha ming yillar ilgari Qadimgi misrliklar astronomiya sohasida ba'zi bir bilimlarga ega bo'lganlar. Osmondagi yulduzlarni doim kuzatish natijasida sayyoralarni yulduzlardan ajrata bilganlar va, xatto ular osmon kartasini ham tuzganlar.

Misrliklar astronomik bilimlari asosida aloxida kalendarъ — taqvim tuzganlar. Kalendar yili 12 oy ga bulingan, qar bir oy 30 kundan iborat bo'lgan, yil oxiriga esa yana 5 ta bayram kuni qo'shilgan. Shunday qilib bir yil jami 365 kun bo'lgan.

Bashariyat tarixida qariyb birinchi sivilizasiya beshigi hisoblangan Hindiston falsafasi o'zining juda qadimiy va boy tarixiga ega. Hindistonda eramizdan uch ming yil avval erni sun'iy sug'orish taraqqiy etgan, anxorlar qazilgan, kulolchilik yogochsozlik tuqimachilik zargarlik rivojlangan, yog'och va metallardan jang aravalari yasashgan, pishiq g'ishtdan ko'p qavatli binolar qurishgan. Jun va zig'ir tolasidan matolar tayyorlashgan, mis va temirdan, jezdan qurol aslaxalar yasashgan.

Abu Rayqon Beruniyning «Hindiston» nomli asarida aytilishicha, Hindistonda eraning birinchi asrlaridayoq tib, riyoziyot, ilmi hujum, din, kimyo, musiqa, poeziya, san'at, falsafa rivojlangan.

Antika tabiatga, saxiy zaminga, ajoyib hayvonot va nabobot olamiga ega bo'lgan qadimiy Hindistonda falsafa, badiiy adabiyot o'tmish davrlardan boshlab vujudga kelgan va g'oyat darajada rivojlangan. «Ramayana», «Maxabharata», «Kural», «Megatuta», «Regxuvensha», «Kumarasambxava», «Dashakumacharita», «Pan chataitra», «Xitopadesha», «Shashuntala», «Mudrarak shasa», «Kalila va Dimna» kabi mashxur asarlari shu lar jumlasidandir.

Yuksak nafosat va mangu xikmat xazinasini bo'lgan ana shu asarlarda Hind xalqining urf odatlari va an'analari, odob axloqi va madaniyati, dini va tarixi,

milliy qadriyatlari, ijtimoiy siyosiy, huquqiy, badiiy, falsafiy, diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. Ana shu nodir asarlar, o'z navbatida, qadimgi Hind falsafasini o'rganish va ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilib olishda asil manbalar bo'lib ham xizmat qiladi.

Hind madaniyati va falsafasining ana shu bebaho yodgorliklarining har birida aql idrok adolat, insof diyonat, halollik poklik mehnatsevarlik milliy totuvlik to'g'ri so'zlilik va'daga vafo qilish to'g'risida, zulm va zo'ravonlikka, xiyonat va riyokorlikka, nafsi buzuvchilik va ochko'zlikka, fitnachilik va qalloblikka, munofiqlikka qarshi kurashish zarurligi haqida juda muxim va foydali falsafiy g'oyalar, hikmatlar, rivoyatlar, maqol va matallar bayon etilganki, ular shakl shubhasiz, ham milliy, ham umuminsoniy, umumbashariy ahamiyatga molikdir.

Hind falsafasining paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasi bo'yicha so'z yuritilganda, odatda uch asosiy davr alohida ajratib ko'rsatiladi, Bular eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning boshi va eramizning dastlabki asrlarini qamrab oladigan eng qadimgi davr, X-XI asrlardan XVII—XVIII asrlargacha bo'lgan ilk O'rta asr va kech O'rta asrchilik davri qamda yangi (bunga hozirgi davr ham kiradi) davrlardan iborat.

Hindistonning eramizdan oldingi birinchi ming yilliklardagi dastlabki falsafasini o'rganishda qadimgi Hindlarning «Beda» deb ataladigan diniy tuplamlari va ikkita katta epik dostoni — «Ramayana» va «Mahabharata», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asari muhim ahamiyatga egadir.

«Veda» deb ataladigan muqaddas kitobning «ma'nosi bilmagan narsani bilishdir. Hindlar «Veda» kitobini, oliy tangrining Baroxim og'zidan aytilgan so'zi, deyilar»¹. «Veda» kitobi Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atharvaveda

¹ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2 жилд.- Т.:Фан,1968,106- бет.

deb ataladigan to'rt bo'limdan iborat. To'rt bulimning har birini o'ziga xos o'qish yuli bor. Mazkur bo'limlarning hap birida muayyan falsafiy g'oya ilgari surilgan.

Qadimgi Hindiston dini, va falsafasida suvning muqaddaslashtirilishi, uni dunyoni tashkil etgan unsurlardan biri sifatida qaralishi, bunga «Veda» va «Rigveda»da alohida e'tibor berilganligi bejiz emas, albatta. «Ammo hindlar fikricha, - deyiladi Abu Rayxon Beruniyning «Hindiston» asarida, - yaratilgan narsalarning oldingisi suvdir. Chunki ular «to'zonga aylangan hamma narsa suv bilan birikadi, hamma unadigan narsa suv bilan unib chiqadi va hamma jon egasi suv bilan tirik turadi; suv san'at egasi, biron moddadan ma'lum bir narsa ishlatmoqchi bo'lganida unga suv vosita bo'ladi, deydilar»¹.

«Veda» gimnlariga qadimgi Hind diniy falsafiy sharqlardan iborat bo'lgan urganishadalarda borlikning bosh manbai, moddiy ibtidosi deb hisoblangan Suv, olov, havo, yorug'lik tuproq, oziq-ovqat, fazo, vaqt, olamning to'zilish va uni boshqaruvchi qonunlar, inson bilimining manbalari va turlari, ijtimoiy tafovutlarning kelib chiqishi, Insonning ijtimoiy majburiyatlari, hayotining oliy maqsadiga erishish kabi qator falsafiy masalalar qarab chiqiladi. Upanishadalar ta'limotiga ko'ra, inson er yuzida yangi tug'ilishlar girdobidan qutilmoq uchun o'z ruhining barkamol braxman bilan birligi haqidagi uy fikrga berilmog'i lozim. Unda ta'kidlanishicha, tana jonning qobig'i bo'lib, jon esa — dunyoviy ruhning bir bulagidir. Upanishadalar shu tariqa butun qadimiy Hind falsafasiiiiig keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilganlgan va sharoit yaratib berganligi tufayli ham alohida ahamiyat va ilmiy himmatga egadir.

Milodgacha bo'lgan VIII—VII asrlarda Hindistonda Lakayati (faqat shu lokyani tan oluvchi kishilarning qarashlari) falsafiy ta'limoti shakllana boshlaydi. Bu ta'limot asoschisi Brixaspati va uning izdoshlari erdan boshqa tarzda hayotning bo'lishi mumkin emas, degan fikrni olga surdilar.

¹ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2 жилд.- Т.:Фан,1968,177-бет.

Charveka nomi bilan ataladigan qadimiy Hind falsafiy oqimi tarafdorlari, dunyoni, tabiat hodisalarini qanday bo'lsa ushunday tushuntirmoq kerak degan talabni ilgari so'rgan edilar. Ular nuqtai nazaricha, butun olam olov, suv, xavo, tuproq yigindisidan iborat, inson ham ana shu turt unsur birikmasidan tashkil topgan.

Charvakalar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning zaminida moddiy elementlar birikishi yotadi, deb hisoblaydilar. Ular «o'tni kim issiq haroratli qildi, suvni kim sovuq qildi», degan savol berib, «bularning hammasini shu hodisalarning o'zidan qidirish kerak», - deb javob qaytaradilar. Ular dunyoni bilish mumkin va bu bilimning manbai idrokdir deb, bilishda xissiyotning rolini burtirib yuborganlar, xulosalar yolg'on bo'lishi mumkin, deb hisoblaganlar.

Xitoyda dastlabki falsafiy ta'limotlar Hind falsafasi bilan taxminan bir vaqtlarda— eramizdan avvalgi IX—VII asrlardayoq paydo bo'lgan edi. Ilk falsafiy ta'limotlarda dunyo abadiy va u besh unsur — olov, suv, er, daraxt va metallardan tashkil topgan, deb uqdiriladi.

Eramizdan oldingi VII—VI asrlarda esa dao qonuniga binoan harakat qiluvchi si — elementining mavjudligi xaqida fikr yurgizilgan. Xitoy mutafakkirlari fikricha, tabiat hodisalari si degan moddiy zarralardan tarkib topib, dao degan ob'ektiv tabiiy qonuniyatga buysunadi. Xitoyliklarning tabiat hodisalari qonuniyatli asosda taraqqiy qiladi, degan tasavvurlari, ularning, dunyo moddiydir, degan ta'limotiga bog'likdir. Dao xaqidagi ta'limot falsafadagi qonun tushunchasini xosil qilishdagi dastlabki urinishdir.

«Daosizm» so'zining o'zi «dao» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «yo'l», «taraqqiyot», «dunyo negizi» degan ma'noni bildiradi. Daosizmning asoschisi Dao o'zi bo'lib, u dunyo abadiy harakat va o'zgarishda bo'ladi, deb hisoblagan. Masalan, Dao o'zi bu haqda bunday degan: «Ulug' Dao hamma yoqqa qarab

oqadi. U o'ngga ham, chapga ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudod tug'iladi. Bu mavjudod hamisha o'zgarishda bo'lib bir joyda tuxtab qolmaydi».

Daosizmda dunyoda qarama-qarshiliklarning bir biriga borliqligi amal qiladi, tabiat hodisalari o'z ziddiga aylanib rivojlanadi, deb fikr yuritiladi. Ta'kidlanishicha, go'zallik va xunuklik balandlik va pastlik yaxshilik va yomonlik bog'liq va yo'qlik, uzun bilan kaltalik bir birini tuldiradi, birin ketin keladi, bir biriga bog'liq bo'ladi, tabiatdagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi.

Daosizm vakillari bilishda hissiy va mantiqiy jihatlarining mavjudligi masalasini o'rta qo'yib, bilishda xissiyot va amaliyotning ahamiyatini kamsitib, aqliy bilishni bo'rttirib yuborganlar.

Miloddan avvalgi V—III asrlarda vujudga kelgan konfusiychilik qadimgi Xitoyda keng tarqalgan falsafiy ta'limotlaridan bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Xitoy mutafakkiri Konfusiyl Miloddan oldingi 551—479 yillarda yashagan. Konfusiyl ta'limotiga ko'ra, odamlarning hammasi ham tug'ma xususiyatlariga ko'ra bir-birlariga yaqindir. Tug'ilgandan keyin xosil qilgan xususiyatlariga ko'ra, ular bir birlaridan farq qiladilar.

Konfusiyl, agar podsho osmon va dengiz kabi ulug'vor bo'lsa, halq uni hurmatlaydi, uning aytganlariga quloq soladi va uning ishlariga xayrixoxlik qiladi, deb podshoxni ilolhiylashtiradi. U to'g'ridan-to'g'ri imperator Osmon o'g'li, uning erdagi ko'rinishi Osmonning jonli timsolidir. Er yuzidagi quriqlikning markazi Osmon o'g'lidir. Har qaysi xalq o'z chegarasida bir knyazga itoat qiladi. Osmon ug'li amrni osmondan oladi, tobe knyazlar esa buyruqni Osmon ug'lidan oladilar, deydi.

Aytib o'tilganlarning hammasi Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy singari qadimgi Sharq mamlakatlari va boshqa davlatlarda paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan, dastlabki falsafiy bilim va tasavvurlarning ildizlari, boshlang'ich

asoslari jahon halqlari tarixi va madaniyatining o'zoq o'tmishiga borib taqali shini ko'rsatib va isbotlab turibdi.

Qadimgi Sharq falsafasining dastlabki ko'rtaklari jahon falsafasining ilk yutuqlariga asoslangan, ulardan oziqlangan ijodiy foydalangan holda shakllanib, rivojlanib borishi bilan bir qatorda, o'z navbatida insoniyat falsafiy bilimlarining kelgusi taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi hamda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo jahonning ilmu fan, falsafa, din, adabiyot va san'at qadimdan rivojlangan, tarixini g'oyatda boy mintaqalaridan biridir. Sunggi tarixiy va arxeologik tadqiqotlar ana shu muqaddas zaminda odamzodning ilk faoliyati bir million yilga yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Juda ko'plab og'zaki va yozma manbalar, turli asori-atika obidalaridan ma'lum bo'lishicha Dneprdan Oltoygacha bo'lgan mintaqada skiflar, Kaspiy orti tekisligida massagetlar, ulardan sharqroqda saklar, surdlar, baktiriyaliklar, xorazmiylar, parfyanlar yashaganlar.

Hozirgi Markaziy Osiyoliklarning o'tmishdagi ana shu ajdodlari asrimizdan bir necha ming yillar ilgari sug'orishga asoslangan dexqonchilik hamda chorvachilik ovchilik balikchilik bilan shug'ullanganlar. Hozirgi tojiq, o'zbek, turkmanlarning ajdodlarida sug'orma dehqonchilik madaniyati shu qadar rivoj topganki, hatto birgina Araks (hozirgi Amudaryo) xavzalarida juda ko'plab sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari kazilib chul va saxrolarga suv olib chiqilgan. Shu tariqa moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilgan. Ajdodlarimiz yashagan xududlarda qadimda xilma xil madaniyat uchoqlari tarkib topgan va rivojlangan».

Markaziy Osiyo xalqlarining eng buyuk madaniy muvaffaqiyatlaridan biri yozuvni ixtiro etganliklaridir. Bu erda yozuvning tarixi juda qadim zamonlardan boshlangan. Miloddan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi keng

tarqalgan. Iskanjar Zulqarnayn, Aleksandr Makedonskiy) istilosidan keyin yunon yozuvi ham kirib kelgan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, Sug'd, Kushon, Urxun-Enisey, Uyg'yp yozuvlari vujudga kelgan. Yozuvning ixtiro "qilinishi, inson bilim doirasi va dunyoqarashi kengayishi va chuqurlasha borishiga xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo ma'naviy merosida aks etgan milliy istiqlol g'oyasi ma'naviy ildizlari halqning mustaqillikka, kelajakka intilishlarini, o'zligini, milliy manfaatlarini turli tarixiy davrlarda anglash darajasini mujassam holida ifodalaydi. Shu bois adabiy meros durdonalaridan jamiyatdagi barcha yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarini, ta'lim-tarbiyani xalqning erki, ozodligi, ma'murligi kabi oliy maqsadlari va komil inson tarbiyasi bilan bog'langanlari milliy g'oyaning ma'naviy ildizlarini tadqiq qilishga jalb etilishi maqsadga muvofiq.

Adabiy merosda aks etgan ilg'or g'oyalarni turli ilmiy usullarni qo'llagan holda tizimli, kompleks o'rganish, bunda tadqiqotga jalb qilinadigan asarlar turli tarixiy davrlarga mansub bo'lishi lozim. Shunda milliy istiqlol g'oyasining ma'naviy ildizlari qanday tadrij etgani hamda mazmunan va shaklan boyib borgani aniqlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodida, qahramonlik eposlarida, yodnomalarning deyarli har bir satrida vatanparvar bobolarimizning ijtimoiy tajribasi, hayot saboqlari, avlodlarga o'gitlari, da'vatlari aks etgan. Ularda mardlik va fidoyilik, do'stlik, muhabbat va sadoqat, haqiqat va adolat, har qanday holatda ham burchiga, imon-e'tiqodiga, Vataniga xiyonat qilmaslik, kuchsizlarni himoya qilish, o'z qavmi, xalqi manfaatlari, xavfsizligi va tinchligi, jipsligi va yuksalishi uchun xizmat qilish, zarur bo'lsa, zahmat chekib, jonini ham ayamalik g'oyalari olg'a suriladi.

2. Diniy va mifologik qadriyatlar.

Xalq og'zaki ijodiyotining namunalari bo'lgan ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bilan tanishar ekanmiz, xalqda voqealarni oldindan kura biluvchi ajoyib qobiliyat va iste'dod bor ekanligini, u hech qachon orzu umidsiz yashamaganligini, har doim kelajak tomon intilganligini anglab olamiz.

Har qanday mif, ertak va afsonaning, qadimgi rivoyatning zamirida xalqning muayyai maksad va niyatlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bo'lgan munosabatlari, mehnat mashaqqatlarini engillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlari yashirinib yotgan bo'ladi. Ular xalq ommasining daxosi, uning talab va ehtiyojlarn asosida vujudga kelishi bilan bir qatorda, o'z navbatida ularning o'zi kishilarning ma'naviy, akliy, axloqiy taraqqiyotiga turtki vazifasini ham o'tagan; mehnatni sevishga o'rgatgan, tabiatning xatarli kuchlariga qarshi kurashish va ularni oldini olishda kishilarga yordam bergan, olamda ro'y berib turadigan murakkab hodisa va jarayonlar sir asrorlarini bilib olishga da'vat etgan, inson, fikri, tafakkuri va hayolotini o'tmishdan kelajakka tomon tortgan, hayotiy sevishga chorlagan.

Miflar, ertak va rivoyatlar, termalar, dostonlar, barcha folklor asarlari o'tmishning eng katta tarixiy xujjati, ajdodlarimizdan bizga qolgan nodir boylikdir. Jamiki san'at asarlari va madaniyat yodgorliklarini hech ikkilanmay inson ko'nglidagi shodlik va quvonchning, g'am va anduhning ifodasi, inson aql idroki diniy komusi, bitmas tuganmas xikmatlar xazinasi, deb aytish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotining eng qadimgi turlaridan biri — mifdir. Yaxshilik bilan yomonlik nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik urtasidagi kurash va bu kurashda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi xaqidagi g'oya dunyoning boshqa xalqlarida bo'lganideq bizning miflar uchun ham xarakterlidir. Qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda, yomonlik olamiga esa Axriman boshchilik qiladi, baxt va baxtsizlik hayot va mamot shu qarama-

qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash va uning oqibatlariga bog'lik. YAxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi jangu jadallar ezgulik uchun kurashadigan Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Gershasp obrazida va baxtsizlik timsoli bo'lgan Axriman, dev, ajdar, jinlar bilan borlik miflarda o'z ifodasini topgan.

Ezgulik miflarida Mitra kishilarga nur, issiqlik baxt saodat baxt etadigan, dushmanlarga dahshat soladigan, kishilarni ofatdan qutqaradigan quyosh xudosi sifatida, Anaxita esa er, suv va xosil ma'budasi, qaxramonlarga kuch-quvvat va muvaffaqiyat baxsh etuvchi tarzida tasvirlanadi. Miflarda tasvirlanishicha, Qayumars Axuramazda tomonidan yaratilgan birinchi odam va insoniyat ibtidosidir. Jamshid — Yima — adolatli xukmrondir. Yimaning xukmronlik davri oltin davr hisoblanadi. U davrda odamlar go'yo o'lim va qarilik nimaligini bilishmagan. U er yuzini uch baravar kengaytiradi, chorvani va turli xil kushlarni nihoyatda ko'paytiradi.

Eng qadim zamonlarda asotirlar, rivoyatlar, qahramonlik dostonlari, xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida milliy erk va vatan himoyasi uchun jonni ayamasklik, o'zaro birlik, jipslik g'oyalari eng muhim qadriyat sifatida ifodalangan. Shuning uchun ham «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Rustamxon», «Kuntug'mish» epik dostonlari, To'maris, Muqanna, SHiroq haqidagi rivoyatlar, adabiy merosimizning boshqa namunalarida ma'naviy qadriyatlarimizning birlamchi fundamental asoslari aks etgan. Ularni bugungi mustaqillik g'oyalarining qadim ildizlari deb dadil aytish mumkin. Mazkur manbalarda ota-bobolarimizning eng ulug' orzu va maqsadlari, ishonch va umidlari muhrlanib qolgan. Biz, shubhasiz, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga bel bog'laganimizda, avvalambor, ajdodlarning ma'naviy merosiga tayanamiz. Zotan, xalqning ma'naviy merosida mash'aladek porlab turgan g'oyalar biz shunday erksevar, matonatli, mehnatkash va bag'rikeng xalqning davomchi vorislarimiz degan ishonchni mustahkamlaydi. O'z mustaqilligini qadam-baqadam yuksaltirib borayotgan xalqimizning ma'naviy qiyofasini qayta gavdalandirish imkonini beradi. Buyuk madaniy, adabiy merosga

ega xalqning kelajagi ozod va farovon bo'lmog'i zarur degan rag'batni kuchaytiradi.

Xalq orzu-intilishlari, ijtimoiy va ma'naviy ideallarini aks ettirishda qadimiyligi, ijtimoiy-g'oyaviy ahamiyati, keng tarqalishi, ta'sirchanligi jihatidan og'zaki ijod namunalari alohida ajralib turadi. Bu mifologiyaga ham, ertak va dostonlarga ham, maqol va naqlarga ham xos. Albatta, xalq og'zaki ijodi janrlarining ma'naviy qadriyatlarni ifodalash va aks ettirish imkoniyatlari bir xil emas. Lirik janrlarda (qo'shiq, lapar va hokazo) ko'proq estetik va ba'zi bir axloqiy qadriyatlar o'z aksini topgan bo'lsa, qahramonlik eposlarida o'z zamonasi qadriyatlarining butun rang-barangligi qamrab olinadi. Chunki qahramonlik eposida estetik qarashlar bilan bir qatorda axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, harbiy, etnik, maishiy va boshqa turli munosabatlar, qarashlar, baholar, mezonlar nisbatan keng va batafsil ifodalanishi mumkin.

Qahramonlik eposlari vujudga kelishi ma'lum tarixiy davrda urug' va qabilalarning birlashib elatlarga aylanishi jarayonida o'zligini, o'z manfaatlarini anglash darajasi o'sishi va umumiy yovga qarshi kurashda birlashishi bilan bog'liq. Shu bois milliy istiqlol g'oyasining qadim ma'naviy ildizlarini eng avvalo o'zbek xalqining qahramonlik eposlaridan izlash lozim. Shuningdek, qisqa mujassam obrazli shaklda xalq maqollari va aforizmlarida ifodalanadi: «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar», «To'rtovlon tugal bo'lib, o'nmaganni o'ndirar, o'novlon tarqoq bo'lib, og'zidagin oldirar», «O'zga yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida ulton bo'l», «Botir bir marta o'ladi, qo'rqqoq har kuni o'ladi», «Tuqqan erda tug'ing tik», «Vatanning vayronasi - umrning g'amxonasi», «Suvning oqishiga qara, xalqning xohishiga qara», «Ayron osh bo'lmas, nodon - bosh», «YOv makrini yolg'on yashirar», «Joningni fido qilsang qil, nomusingni fido qilma», «Aqlli aqliga yo'ldosh, yomon yomonga ko'ldosh», «Qayrag'och qalin bo'lsa, yomg'ir

o'tmas, og'a-ini totuv bo'lsa, xo'rlik etmas», «Qal'a ichidan olinar»¹ kabi maqollarni eslash mumkin.

O'zbek xalqi orasida qadimgi davrlardayoq keng tarqalgan dostonlardan biri «Alpomish»dir. Ilmiy manbalarda mazkur dostonning 100 dan ortiq variantlari borligi qayd etilgan. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarida «Alpomish» dostonining tarix va bugungi kun uchun ahamiyatini ochib berdi: «Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi».²

«Alpomish» dostonining g'oyasi birinchi galda milliy jipslik, g'oyaviy bag'rikenglik, or-nomus, milliy g'urur sabog'idir. Ikki aka-ukaning kelishmay qolishi xalqni bo'lib yubordi. «Bo'linganni bo'ri er» deganlaridek, o'zga yurtda musofirlik xalqni qanchadan-qancha xo'rlik va azob-uqubatlarga duchor qildi. Buning birinchi sababi Boybo'ri va Boysarida murosayu madora, o'zga fikrga nisbatan bag'rikenglik etishmaganidir. Milliy jipslik, murosayu madora, o'zaro bag'rikenglik, o'z risqing va baxtingni begona yurtlardan izlash xato ekanligi saboqlari bugun ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan.

¹ Ўзбек халқ мақоллари.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.

² Ислон Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008. - 32 б.

Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To'maris va SHiroq to'g'risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylilik ruhi badiiy tasvirlangan. "Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bilan qiyoslash mumkin"¹.

Qadimgi ajdodlarmiz borliq to'g'risida o'ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzot aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto ularning ba'zilarini ilohiylashtirganlar.

Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarash va ularning eng qadimgi shakllarida ham o'z aksini topgan, Har bir o'ziga xos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir-biridan ana shu dinlarining asosiy kitoblari Qr'oni karim, Injil, Veda, Upanishada va boshqalarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari takomillashib borgan sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

3. Avesto qadriyatlari.

Ilm va ijod «Avesto»² davridayoq umuminsoniy mazmun kasb etgan, insoniyat tarixida birinchi bo'lib Zardusht insonlarning bugungi dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri hal bo'lajagi haqidagi ta'limotni yuzaga keltirdi. Akademik S.F.Ol'denburgning fikriga tayanadigan bo'lsak, «Zarostriзм insonning er yuzidagi hayotini engillashtirishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan eng oqilona din».³ Unda behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlari qoralanib, odamlar osoyishta hayot kechirishga, mehnatga da'vat qilingan. Umuman moddiy hayotni yaxshilashga urinish yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblangan, xayrli ish turli diniy aqidalarga mutlaq amal qilishdan

¹ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1995, 6-бет

² Авесто. -Тошкент: Шарқ, 2001.

³ Фозила Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - 23 б.

ustun qo'yilgan. Bunyodkor inson ilohiyot rahmatiga uchraydi deyilgan va insonga hayot bergan ona tabiat muqaddaslashtirilgan.

«Avesto»da axloqiy me'yorlar, qadriyatlarni ifodalashda ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasida doimiy qarama-qarshi kurash mavjudligi ta'kidlanadi. Ezgulik ibtidosi, asoschisi, yaratuvchisi Ahura Mazda, yovuzlik ibtidosi va yaratuvchisi Ahriman o'rtasidagi kurash natijasi insonning ongli ravishda ezgulik tarafida turmog'iga bog'liq. "Ibtidoda bu ikki tug'ishgan – hamzodlar andisha, kalom va amalda biri – ezgulik, biri – yomonlik o'zaro suhbat qurdilar. Bu ikkidani biri, ya'ni ezgulikni undan ogohlar, yomonlikni esa noogohlar tanladilar".¹ "Avesto" mazmunini tashkil etuvchi barcha tashviqot yoki da'vatlar ezgulik yo'lini tanlashga yo'naltirilgan. Insonda ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal mushtarak, chambarchas va yaxlit bo'lmog'i lozim. Shundagina ezgulik yovuzlikdan ustun keladi, degan bunyodkorlikka asoslangan «Avesto» bosh g'oyasi ma'naviyatimizning ilk sarchashmalaridan biridir.

Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida bu xaqda shunday deyilgan: «Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi, Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun Abistoning beshdan uchi yuqolib ketdi. Abisto o'ttiz nask (qism) edi. Majusiylar qo'lida un ikki nasq chamasi qoldi.»

O'ziga xos qomusiy bilimlar majmuasi bo'lgan «Avesto» bir qancha kitoblarga bulingan bo'lib, xap qaysi ichki kitob yana bir necha boblarga bulingan. Masalan, uchinchi kitob «YAsna» deb atalgan bo'lib, u 72 bobdan iborat. Buning 28 bobidan 53 bobigacha bo'lgan qismlarida zardushtiylik dini asoschisi Zardushtning o'ziga nisbat berilgan. Uning 17-bobi gotlar gimn (qismi) lar deb

¹ Авесто. -Тошкент: Шарқ, 2001. -10 б.

atalgan. «Avesto»ning 22 bobdan iborat bo'lgan «Vendidat» degan qismi Axuramazda bilan Zardushtning savol javobi shaklida yozilgan.

«Avesto»da o'tmish ajdodlarimizning diniy tасasvurlari, koinot va sirdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'lik afsona va rivoyatlar, O'rta Osiyo, Eron va Ozarboyjonning tarixi, ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy hayoti, geografiyasi, tabiati, naboboti, ilm fani o'z aksini topgan. Unda kadimgi Turon o'lkasi va Eronning o'ziga xos iqlimi, suvi, xayvonot dunyosi, er tuzilishi, saxrolari, tog'lari xakida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ajdodlarimiz ishlab chiqarishga o'tish sharoitida, axloqiy-falsafiy tushunchalarida ham muayyan tizim paydo bo'lganligi «Avesto»da yaqqol ko'zga tashlanadi. YAxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi zardushtiylarning asosiy axloqiy mezoniga aylanadi. Bu tushuncha, o'z navbatida, ezgulik va yovuzlik, ornomus va burch, oilaparvarlik va pokdomonlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik, mardlik va fidoiylilik, tinchlik va ozodlik kabi tushunchalar, axloqiy qadriyatning shakllanishiga olib keldi. Totemizm, fetishizm, animizm va sehr-jodular bilan bog'liq mavhum-diniy qadriyatlar o'rniga bevosita inson hayoti va faoliyatiga aloqador bo'lgan er, suv, havo va olov-tiriklik va ezgulik, hayot va najot timsoli darajasiga ko'tarildi. Bu to'g'risida I.A.Karimov shunday deydi: «Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiboringizni jalb qiladi»¹.

«Avesto»da axloqiy qadriyat sinkretik tarzda ko'proq umumlashmantiqiy ko'rinishda namoyon bo'lgan. Keyinchalik jamiyat sinf, guruh va tabaqalarga ajralishi, mehnat taqsimotining kengayishiga monand ravishda ideallar

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 32 б.

va ularga bo'lgan munosabat va talablar ham o'zgargan. F.Brentanoning ta'kidlashicha, «har bir jamiyat o'z qahramonlariga ega, ideal inson xilini etishtiradi; har holda bu ideal namuna axloqiy tarbiyada ma'lum rol o'ynaydi va shuning uchun uning o'zi jamiyatning axloqiy ahvolini aks ettirishga xizmat qilishi mumkin»².

«Avesto»da zikr etilgan axloqiy qadriyat – bu haqiqatgo'y, oqilona yashagan taqvodor insondir. Bu narsa butun «Avesto» uchun shior bo'lib qolgan «ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» iborasida mujassamdir: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman. Fikr, so'z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon so'z va yomon amaldan yuz buraman»². «Avesto»da bu uchlikning ma'nosi quyidagicha talqin qilinadi:

«- Ezgu fikr nima?

- Dastlabki pok niyat.

- Ezgu so'z nima?

- Muqaddas so'z.

- Ezgu amal nima?

- Alqov qo'shig'i va pok

xilqatni e'zozlamoq»³.

Bu uchlikning birinchi qismi (ezgu fikr) shubhasiz xudoni tanish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi (ezgu so'z) odamlar bilan muloqotni nazarda tutsa, uchinchisi (ezgu amal) jamiyat bilan bog'lanish xususiyatini ifoda etadi. Shu tariqa «Avesto»da axloqiy qadriyatni individual va ijtimoiy mohiyati, ya'ni alohidalik, xususiylik va umumiylikdan tashkil topuvchi falsafiy mohiyati ifoda etiladi.

² Қаранг: Брентано Ф.О. Происхождении нравственного познания. – Алетеия: СПб, 2000. – С.22.

² Ўша манба: – 34 б.

³ Ўша манба: – 65 б.

Axloqiy qadriyat xudo amriga itoatgo'y, atrofiga yaxshilik urug'ini sochib, undan o'zi va boshqalar bahramand bo'lishini tushunib etgan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallarni bajaruvchi inson tarzida tasavvur qilingan. Xulosa qilib aytganda:

Birinchidan, «Avesto»dagi qadriyatlar ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal birligidan iborat insoniy fazilatlar sifatida bayon etilgan, sinkretik tafakkur qadriyatlarni rivoyatlar, g'ayritabiiy holatlar, jihatlarining real insonlar hayot tarzi bilan hamohang tarzda idrok etgan;

Ikkinchidan, «Avesto»da ilk marta uchragan «poklanish» tushunchasi keyinchalik diniy-axloqiy qadriyatlarni belgilashda katta ahamiyat kasb etib, islom va tasavvuf ta'limotida ma'naviy-axloqiy komillikka intilishning asosiy mezonlaridan biriga aylangan;

uchinchidan, Zardushtiylik ta'limotida qadriyatlarning hayot bilan bog'langan o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy va falsafiy tizimi yaratilgan;

to'rtinchidan, Zardushtiylik dinida suv, tuproq, olov, va havoni ilohiylashtirgan holda e'zozlash va ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal birligida ekologik sofliğini o'zida ifodalagan;

beshinchidan, zardushtiylik qadriyatlariga umrboqiylik ezgulik, ezgu amal, ezgulikka intilish va ularni qo'llab-quvvatlash xosdir. Ezgulik va yovuzlikning kurashini azaliy deb bilish va o'z navbatida dinlardagi ilohiy transtsendentni azaliy ezgulik, umrboqiy axloq qadriyat timsoliga aylantiradi.

4. Tasavvuf qadriyatlari.

Islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan tasavvuf o'z davri ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotining falsafiy tadqiqi sifatida shakllandi. «So'fiy» degan istilohning kelib chiqishi haqida sakkiz xil fikr mavjud¹ bo'lib,

¹ Окмуродов. Т. О. Тасаввуф – саодат илми // Фалсафа ва тасаввуф: Республика Илмий-амалий семинар материаллари:– Бухоро, 2008. – Б.139

namoyandalarini avliyo, darvesh, qalandar, faqir, botiniy hamda zohiriy ilmlar donishi sifatida e'tirof etilgan. «Ularning dunyo lazzeatlaridan voz kechishlari, g'ayri oddiy so'zlari, ishlari, karomatlari xalqni lol qoldirar shuning uchun ham xalq ularni hurmatlab, avliyo, ahli hol, ahli betin, darvesh, qalandar, faqir degan nom bilan tilga olar edilar. Keyinroq, ularga nisbatan umumiy qilib, so'fiy degan nomni qo'llay boshladilar»¹.

Najmiddin Komilov e'tiroficha, so'fiy mayda manfaatlar, odamlarning kundalik tashvishlarigina emas, umuman foni dunyoning g'amu muammolaridan ustun turadigan, tafakkurining sathi falaklar qadar qamrovli, qalbida ma'nolar bulog'i qaynab turgan komil inson hisoblangan. Shuning uchun ularning yurish-turishi, so'zu muloqoti, odobu axloqi boshqalarga ibrat namunasi sifatida qaralgan.

Tasavvuf tarixi shundan dalolat beradiki, u VIII asrdan XIV asrgacha o'tgan vaqt mobaynida ilohiy va dunyoviy ilm jabhalarini tutashtirdi va sharq falsafiy-axloqiy tafakkur xususiyatini o'zida aks ettirgan buyuk ma'naviy qadriyatga aylandi.

Tasavvuf ta'limoti targ'ibotchilari bo'lgan so'fiylarning turli- tuman aqida, tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishiga qaramay, tasavvuf falsafasining soflik, ezgulik, haqiqat, go'zallik va kamolot idealini targ'ib qilishi va bu ideallarning ilmiy-badiiy ijodiyotda aks etganligi diqqatga sazovordir.

Tasavvufning axloqiy ideal haqidagi ta'limoti umumtasavvufiy diniy-falsafiy qarashga borib taqaladi. Agar «SHariat», «Tariqat», «Ma'rifat» va «Haqiqat» tasavvuf falsafasining yaxlit bir tizimi sifatida shakllanib, inson ruhiyatini tarbiyalash, chiniqtirishning tadbir-usullarini o'z ichiga olsa, «Tariqat» so'zining o'ziyoq ilohiy ma'rifat yo'liga qadam qo'ygan so'fiyning axloqiy-ideali ruhiy-ma'naviy kamolot sari intilish manzilini ifodalar edi.

¹ Жўраев З. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.15-17.

Zayniddin Muhammad G'azzoliy ta'kidlaganiday² Ollohni sevish barcha odamlarga xos xususiyat. Olloh hamma uchun sevimli. CHunki, insonga o'z kamoloti uchun zarur, unga yaxshilik qiluvchi, saxovatli odamlarni, go'zal narsalarni, maslakdosh do'stlarni sevish xos fazilat. Bu fazilatlarga bo'lgan muhabbat yig'indisi ollohga bo'lgan ishqni kuchaytiradi. Shu tariqa «Ollohni sevish orqali biz abadiyatni, abadiy adolat va haqiqatni sevamiz. Inson ana shu ideal etuklik va kamolni qo'msaydi, o'zining barcha niyatlari, orzularini shu bilan bog'laydi»³.

Ulug' mutafakkirlar Jaloliddin Rumiy bilan SHams Tabriziy, Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtalaridagi munosabatlar ilohiy sifatlarning inson qiyofasidagi namunalaridir. Bu ulug' siymolar bir-birlaridan andoza olganlar, bir-birlariga kamolot mezonini, etuklik timsoli vazifasini o'taganlar.

Bu yo'nalishning sharq falsafiy tafakkuridagi ahamiyati shundaki, keyinchalik axloqiy ideal mavhum ilohiylikdan konkret shaxs va insonlarning axloq-odobi va xatti-harakatlari sari yuz o'girdi.

Tasavvuf qadriyatlarini hayotiy lashuv jarayonida Mansur Xalloy, Boyazid Bistomiy, YAhyo Suxravardiy, Aynulquzzot Hamadoniy, Imomiddin Nasimiy, Badriddin Hiloliy, Zunnun Misriy, Abdulloh Ansoriy, Jaloliddin Rumiy, Ibn-al Arabiy, Junayd Bag'dodiy, Hakim Termiziy, Abusaid Abulxayr, Fariddin Attor, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Tasavvuf ta'limotining keyingi faoliyati ijtimoiy hayotdagi ibratli pirlarni, ya'ni komil insonlarni shakllantirishga va uning jamiyatdagi kishilarga ta'sirini oshirishga qaratildi. Shu paytda tasavvuf ta'limotining markaziy o'rinlarini egallagan komil inson to'g'risida qarash va g'oyalar rivojlandi. Ushbu yaratilgan

² Зайниддин Мухаммад Газзолий. Кимёи саодат. – Тошкент: Камалак, 1995. – 50 б

³ Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. – Тошкент: Моавна-О'zbekiston, 2009. – 52 б

konsepsiyada «inson va uning mohiyati, yashashdan maqsadi, dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy masalalar, komil inson va unga etishish yo'llari, komillikka etishgan ulug' zotlar, avliyo, anbiyolar, mashoyix va pirlarning ibratli hayoti va inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalar yoritiladi»¹.

Tasavvufdagi tarkidunyochilik mohiyati dunyoparastlikka qarshi qaratilgan tadbirdir. Agar dunyoparastlik yuksak ruhiy-ma'naviy balog'atga zid, molu dunyoga hirs qo'yish kasofati ekan, nafsni tiyish, jilvali va o'tkinchi shonu shavkatdan yuz o'girish, xilvat anjumanini imonni mustahkamlovchi malham tarzida tushunish tarkidunyochilikni yuksak axoqiy idealga boshlovchi ma'naviy ehtiyoj tarzida tushunishga olib keldi. Buni Zayniddin Muhammad G'azzoliy bunday ta'riflaydi: «Bas, ilmni lazzati va munojot lazzati va Haq-taoloning zikriga uns-ulfat olgonning lazzati hamma lazatlardan xo'broq va ulug'roqdir»².

Shu tariqa tasavvuf falsafasida Haq bilan hamsuhbatu, xalq orasida bo'lib, ya'ni botinan Haq bilan, zohiran xalq bilan bo'lib, o'z ma'naviy- axloqiy idealini ko'zlash tushunchasi qaror topadi.

Tasavvufshunos olimi G.N.Navruzovaning fikricha, «tasavvufiy qarashlarda komil inson va akmal kishilar bir-biridan farq qiladi. Bularni avliyo va anbiyo deb ataymiz. Bularning ham darajalari bor: ba'zilari komil, ba'zilari akmal, bir qismi esa, fozil, yana bir qismi afzal, yana biri afzalu akmaldir»³. Islom dini va tasavvufiy qarashlar sintezi natijasida komil inson axloqiy ideal ramzi sifatida dastlab Muhammad payg'ambarga, aziz va avliyolarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, asta-sekin piru muridlar, shayxu donishlar ham komil, fozil, akmal, afzal sifatlari ila komil inson tushunchasini to'ldirib, kengaytirib bordi.

¹ Пардаева М.Д. Тасаввуфда комил инсон масаласи // Фалсафа ва тасаввуф: Республика Илмий-амалий семинар материаллари: – Бухоро, 2008. –Б.223 .

² Зайниддин Муҳаммад Ғаззолий. Кимиёи саодат. – Тошкент: Камалак, 1995. – 62 б.

³ Наврӯзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: фалсафа фанлари д-ри дисс. автореферати. – Тошкент: 2002. Б. 29.

Shunday qilib, agar Qur'oni Karim va Muhammad payg'ambar hadislarida Oллоh sifatlari komil inson qiyofasida namoyon bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy hayot va inson tafakkurining kengayishi komillik fazilatlarining, idealining boshqa shaxslarga nisbatan qo'llash tamoyili vujudga keldi

Bu ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy hodisa edi. Aks holda, komil inson tushunchasi xalq ongidan axloqiy ideal mezoni, ma'naviy qadriyat sifatida chuqur o'rin egallamagan bo'lardi. Aziziddin Nasafiy «Komil inson» asarida yozadi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda etuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirki, unda quyidagi to'rt narsa kamolga etgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif»¹.

Bu iqtibosdan shu narsa ayon bo'ladiki, ajdodlarimizning ilk muqaddas kitobi «Avesto»ning asosiy axloqiy tamoyili Aziziddin Nasafiyning komil inson haqidagi qarashlariga ham asos bo'lgan; ikkinchidan, Nasafiy o'z davri ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotidan kelib chiqib, «Avesto» dagi uchlikka to'rtinchi tushuncha «maorif» ni ham qo'shgan va komillik me'yorini yanada kengaytirgan va chuqurlashtirgan; uchinchidan, komil inson mavhum zot emas, u yuqoridagi sifatlarga ega yoki shunday martabaga ega bo'lishi mumkin.

Demak, tasavvuf falsafasida komil inson tushunchasi axloqiy idealning qotib qolgan mutlaq ramzi emas, balki uni yanada boyitishga intilishning ma'naviy ifodasidir. Komil inson bo'lish, axloqiy idealga intilish uzluksiz jarayon. Axloqiy ideal-komilik rutbasiga etishning chegarasi yo'q. Har bir odamiylik sari tashlangan qadam, har bir erishilgan ezgulik, har doim Haq va xalq ruhi, talabi bilan nafas olgan zot, har kun o'z fikri, tanu jonini pok saqlab, olijanob amallarga baxshida etgan inson o'zini axloqiy ideal shafolatiga tobora yaqinlashtirib boradi. Komillik sari harakat insonni axloqiy idealga chorlovchi ma'naviy-ruhiy rag'batdir.

¹ Қаранг: Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. – Тошкент: Мованнаҳр-О'zbekiston, 2009. –Б.133.

«Tasavvuf ta'limoti bo'yicha komil inson allaqanday ideal, xudoga yaqin bir vujud. O'sha g'ayb olamidan oddiy odamlarga xabar beradigan, ilmi o'sha g'ayb ilmiga ulangan kishidir. Albatta, ma'naviy barkamollikni niyat qilar ekanmiz, idealga intilishimiz kerak bo'ladi. Xo'sh, idealga intilish degani nima o'zi? Menimcha, bu – idealning xislatlarini o'zida singdira borish, o'zida kashf etish, paydo qilish, shakllantirish deganidir»¹.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta'limotida qadriyatlar mutloq ilohiy emas, balki o'zlikni anglash, insoniy xislatlarni ulug'lash, hayotning qadri va zavqiga etish, botiniy mavhumlikdan zohiriy ma'nilikka, ma'naviy kamolot orqali barkamol inson konsepsiyasini yaratishga qaratilgan. «Komillikning falsafiy asoslari avvalo mutlaq haqiqatga, xudoga bo'lgan munosabatlar majmuidir. Inson qanday qilsa, haqiqatga, xudoga, o'zining insonlik maqomiga munosib bo'ladi, degan masala komillik haqidagi barcha ta'limotlarning mazmun-mohiyatini belgilaydi»¹;

ikkinchidan, tasavvuf ta'limotida komil inson g'oyasi ilk bor shakllandi, uning diniy-falsafiy va amaliy jihatlari ishlab chiqildi. Iloh ishqida yashash va Haqqa intilish diniy, axloqiy qadriyatlarning ilohiylashuv, ayni chog'da insoniylashuv xususiyatini ifodalaydi. Ruhiiy-ma'naviy takomillashuv tasavvufda komil inson qiyofasini belgilaydi;

uchinchidan, Tasavvuf g'oyalarining «falsafiylashuv» jarayoni tadrijiy ravishda davom etdi. Ayniqsa tasavvufiy qadriyatlarining falsafiy mohiyati Ibn Arabiy, Muhammad G'azzoliy, Fariddin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suxravardiy, Abdurazzoq Koshoniy, Mahmud Shabistoniy, Jaloliddin Rumi,

¹ Қаранг: Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. – Тошкент: Мованнахр-О'zbekiston, 2009 –Б.434

¹ Қаранг: Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001 – Б.20

Abdurahmon Jomiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulqodir Bedillar ijodida olam va odam, vaqt va zamon, aql va ruh, tasavvur va tafakkur, xayol va borliq, botiniy va zohiriy bilimlar, iymon va ruh singari muammolar qatorida komil inson fazilatlari keng hissiy-emosional va rasional-mantiqiy jihatdan tadqiq etildi

Savollar va torshiriqlar:

1. Sharqona qadriyatlarining negizi qaysi manbalarga oziqa oladi?
2. Zardushtiylik dinida qanday ekologik munosabatlar mujassam?
3. Sharq allomalarining asarlarida qanday ekoestetik masalalar yoritilgan?

3-mavzu. Qadriyatshunoslikning G'arbdagi rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.

1. Antik dunyo va G'arbda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlarning takomil bosqichlari.
2. XV-XVII asrlardagi ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon qadriyatlarining shakllanishi
3. XVIII va XIX asrda qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar va hozirgi davr G'arb aksiologiyasi.

1. Antik dunyo va G'arbda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlarning takomil bosqichlari.

Voqea va hodisalarning ilm-fan, tadqiqot ob'ektiga aylanishi ijtimoiy borliqda yuz bergan o'zgarishlar, inson aqlu idrokining ularni anglash jarayonlari bilan bog'liqdir. Ijtimoiy borliqdagi o'zgarishlar va ularni anglash jarayonlari bir-biriga bog'liq hodisalar sifatida yangi-yangi mavzularni, tushunchalarni, usullarni tadqiqot ob'ektiga aylantiradi, natijada u yoki bu mavzular, tushunchalar, usullarni kengroq, chuqurroq o'rganishga ehtiyoj, qiziqish paydo bo'ladi. «Qadr», «qadrlash», «qadr-qimmat», «qadrshunoslik», «qadriyat» tushunchalarining, voqea va hodisalarining

keng tadqiqotlar ob'ektiga aylanganini ana shunday ehtiyoj va qiziqishlar bilan izohlash mumkin.

Antik davr mutafakkirlari «qadriyat», «qadr», «qadrlash» tushunchalarini ijtimoiy borliq, inson faoliyatining bahosi, baholanishi, boshqalar tomonidan ma'lum bir normalar (maromlar) asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Diogen Laertskeyning yozishiga ko'ra, Zenon va stoiklar narsalarni ikkiga – «afzal va afzal bo'lmagan»ga ajratishgan. «Qadrli bo'lgan narsalar – afzal, qadri yo'q narsalar afzal emas. Stoiklarning so'ziga ko'ra, qadriyat (axio), birinchidan, hayotga muvofiq keladigan barcha ezgu narsalarga xos; ikkinchidan, hayotga, tabiatga muvofiq ma'lum bir foyda yoki ko'mak keltiruvchi narsalar, masalan, sog'lik va boylik shu narsalardandir; uchinchidan, tovarning ayriboshlash bahosidir...»¹. Shu tariqa stoiklar «afzal»larga iqtidor, san'at, etuklik kabi ruhiy xususiyatlarni, «hayotga muvofiq keladiganlar»ga sog'lik, kuch-quvvat, farovonlik, go'zallik kabilarni, «afzal emas»ga esa badavlatlik, shuhrat, mashhurlik kabi tashqi belgilarni kiritishgan². Demak, iqtidor, etuklik va hayotga muvofiq keladigan, insonni sog'-salomat, farovon va go'zal yashashiga yordam beradigan narsalar qadriyatdir. Stoiklar bergan mazkur ta'rif, substansional mohiyatiga ko'ra, o'z qimmatini yo'qotmagan va u barcha faylasuflarning asarlarida, nazariy konsepsiyalarida davom ettirilgan.

Suqrot foyda keltiradigan narsalarni qadrli deb bilgan. «Nima foyda keltirsa, u qadriyatdir»³. Shu nuqtai nazardan u ezgulikni ham qadriyatga kiritadi⁴. Platon asarlarida g'oya, ideal, haqiqat va qadriyat bir-biridan ajratilmagan, «umuminsoniy qadriyatlar, adolat, mardlik, nomus, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, ezgu ishlarni amalga oshirish kabi masalalar»⁵ga e'tibor qaratilgan.

¹ Қаранг: Лаэртский Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. – М.: Мысль, 1979. – С. 306.

² Ўша асар. – Б. 301.

³ Платон. Диалоги. – М.: Мысль, 1986. – С. 351.

⁴ Ўша асар. – Б. 351-352.

⁵ Афлотун. Қонунлар. –Т: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 4.

Aristotel ustozlari Suqrot va Platon qarashlarini davom ettiradi. Uning fikriga ko'ra, hayotga, undagi barqarorlikni ta'minlashga, ezgulikka qaratilgan amallar, narsalar qadrlidir¹.

Aristotel qadriyatlarning eng muhimi, yuqori ko'rinishi «siyosat (yoki davlat haqidagi fan)»² deb hisoblaydi. Buyuk tabiblar inson tanasini davolaydilar, siyosat, davlat boshqarishi bilan shug'ullanuvchilar esa nafaqat kishilar qalbini, kasalini, shuningdek, butun jamiyatni davolashi bilan ijtimoiy muhim qadriyat yaratadilar. Bu o'rinda faylasuf siyosiy ijtimoiy faoliyatni jamiyat, taraqqiyot uchun eng muhim qadriyat darajasida talqin etishga yaqinlashganini sezamiz.

Aristotel donishmandlikni, bilimga intilishni «o'z tabiatiga ko'ra eng ko'proq qadrlidi»³ narsalar qatoriga kiritadi. U qadrlidi narsalar, qadriyatlar rang-barangligini, bir individga muvofiq kelgan qadriyatlar boshqa individga to'g'ri kelmasligini, ijtimoiy voqea va hodisalarni har kim qiziqishi va maqsadlariga muvofiq baholashini, qadrlashini qayd etadi. Ammo ezgu amallar hammaga birdek qadrlidi ekanini uqtiradi⁴. Eng muhimi, Aristotel falsafada qaror topgan va barcha aksiologik ta'limotlar asosini belgilab bergan konsepsiyani ilgari surgan. Mazkur konsepsiya uning quyidagi g'oyasida o'z ifodasini topgan: «Qancha imkoni bo'lsa, shuncha yuqoriga ko'tarilish lozim va barcha narsani, o'zingdagi eng oliy narsa – hayot uchun qilish darkor; agar u o'z ko'lamiga ko'ra oz miqdorda bo'lsa-da, o'zining quvvati va qadriga ko'ra, u hamma narsadan yuqoridir»⁵. Demak, barcha xatti-harakatlar, amallar hayotga xizmat qilishi, uni e'zozlashi, ulug'lashiga muvofiq qadrlidir.

¹ Аристотель. Сочинения. В четырех томах. Т.4. – М.: Мысль, 1983. – С. 71.

² Ўша асар. – Б. 75.

³ Аристотель. Сочинения. В четырех томах. Т.4. – М.: Мысль, 1983. – С.179.

⁴ Ўша асар. – Б. 280.

⁵ Ўша жойда.

2. XV-XVII asrlardagi ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon qadriyatlarining shakllanishi

Yangi davr falsafasining asoschilari F.Bekon va R.Dekart asarlarida «qadr» va «qadriyat» tushunchalariga alohida voqelik sifatida qaralmaydi. Ular ilm-fanni, aqlu idrokni, olamni, borliqni rasional anglashga xizmat qiluvchi «kuch-qudrat» sifatida qayd etsalar-da, bilimni irrasional kuch bilan bog'lashga, natijada olamning aksiologik asosini transsendentdan izlashga moyildirlar. Mazkur dualistik yondashuv aqlu idrokni, rasionalni insonning gnoseologik izlanishlariga xos qadr, qadriyat ekanini shubha ostiga qo'ygan va turli teologik yondashishlarni keltirib chiqargan. Bu o'rinda gap F.Bekon va R.Dekartning ilm, ong, aqlu idrok, rasional to'g'risida bildirgan u yoki bu fikrlari ustida ketayotgani yo'q. Bu borada ularning asarlaridan turli dalillar keltirish mumkin. Aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrimiz shundaki, F.Bekon ham, R.Dekart ham «qadr», «qadriyat» kategoriyalarini qo'llamadilar. F.Bekon induksiyaning ulug'lab, B.Rassel iborasi bilan aytganda, o'z falsafasini «ko'p sohada qoniqarsiz qildi»¹. R.Dekart esa «zamonaviy ilm-fan bilan sxolastika o'rtasida sarson kezdi»². To'g'ri, ularning kamchiliklari bevosita «qadr» va «qadriyat» kategoriyalari bilan bog'liq emas, biroq ular olib borgan ilmiy, falsafiy-nazariy izlanishlari va davr taqozosi ehtiyoji «qadr» va «qadriyat»ni yangicha talqin qilishga imkoniyat yaratdi.

J.Lokk qadrlil narsalarni ikkiga ajratadi: birinchisini tabiat beradi, uni inson tabiatdan tayyor holda oladi; ikkinchisini esa inson mehnati, xatti-harakatlari orqali yaratadi. Faylasufning fikriga ko'ra, inson mehnati bilan yaratgan narsalar biz uchun qadrliroqdir.

D.Yum narsalarni qadrlashni affekt bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, inson ma'lum bir narsalarni o'ziga e'zozli, kerak bo'lgani uchun yuqori baholashga, ikkinchi narsalarni ko'p yoki o'ziga zarur bo'lmagani uchun

¹ Рассел Б. История западной философии. – Новосибирск, Новосибирск. ун-та, 1999. – С. 505, 528.

² Локк Дж. Сочинения в трех томах. Т.3. – М.: Мысль, 1988. – С. 286.

qadrlamaslikka moyil. Shuning uchun narsani e'zozli qilgan sabab yoki bizda qoniqish uyg'otgan predmet bilan affektga ega «men» o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish darkor. Shu bilan birga D.Yum, narsalar o'z sohasiga, ta'sir doirasiga ega, deb ko'rsatadi. Demak, narsalarni baholash, qadriga etish, qadrlashda inson o'zining ob'ektiga munosabatidan, o'zining holati, baxtli yoki baxtsiz sezishi kabi affektlaridan kelib chiqadi. U hatto shu ma'noda, «qadr, baho foydaga bevosita taalluqlidir», deb yozadi. Bu o'rinda u narsaning affektiv nuqtai nazardan insonga keltiradigan foydasiga diqqatini qaratadi.

Qadriyatlar falsafasining shakllanishiga I.Kant katta hissa qo'shgan. Uning «har qanday ongli mavjudot o'zi o'ziga maqsaddir» degan g'oyasi negizida insonga vosita emas, oliy qadriyat sifatida qarash zarur, degan fikr yotadi. Qolgan barcha narsalar, inson mayli, istagi, qiziqishi tufayli «nisbiy qadrga egadir»¹. Nisbiy qadrga ega bo'lgani uchun ular narsalar deb ataladi va inson ehtiyojlarini qondiruvchi vositalardir. Ongli mavjudotlar shaxslar deb ataladi, chunki ular sub'ektiv qadriyatlarga egadir. Shu bilan I.Kant falsafaga «absolyut qadriyat» kategoriyasini ham olib kirdi².

I.Kant «baho» va «qadriyat» tushunchalarini bir-biridan farqlaydi. Uning fikriga ko'ra, kishilarning mayl va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi narsalar «bozor baho»siga; ruhiy kuchlarning bemaqsad o'yinlari yoki tahdidlar»ni qondirishga qaratilgan narsalar «affektli baho»ga va o'zi o'ziga maqsad narsalar «ichki qadrga», qimmatga egadir³. I.Kant ushbu «ichki qadr»ni, qimmatni faqat insonda, uning ongli mavjudot sifatida amalga oshiradigan ma'naviy-axloqiy fazilatlarida ko'radi. Faqat inson «ichki qadriyat»dir, chunki u o'zining xatti-harakatlari, axloqiy imperativi orqali haqiqiy ijtimoiy boylik yaratadi.

¹ Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысль, 1966. – С. 269.

² Ўша жойда.

³ Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысль, 1966. – С. 276-277.

I.Kant mazkur «ichki qadriyat»ni insonning erki, irodasi, avtonomiyasi, aqlu idroki, ezgu amallari, «tabiatning umumiy qonunlari»ga itoat etishi, umumiy axloqiy normalarga muvofiq yashashi, ijtimoiy burchini ado etishi kabi fazilatlari bilan ham bog'laydi. Aslida bu «qadr», «qimmat», «qadriyat»ni ijtimoiy-axloqiy voqelikka yaqinlashtirish, axloqiy imperativni insonning ezgulik yaratib yashashga intilishini ifoda etuvchi qadriyat sifatida talqin qilishga intilish edi.

F.Nisshening «Hokimiyatga intilgan iroda. Barcha qadriyatlarni qayta baholash tajribasi» deb atalgan asari G'arbiy Evropa falsafasida, tafakkurida XIX asr oxirida yuzaga kelgan tushkunlik va ma'naviy tanglikni ifoda etadi. F.Nisshening ta'kidiga ko'ra, nigilizm bizning buyuk qadriyatlarimiz va ideallarimizning oxirigacha o'ylangan mantig'idir. Shuning uchun G'arbiy Evropa yaratgan qadriyatlarni nigilistik qayta ko'rib chiqish va «bizga qachondir yangi qadriyatlar topish zarur bo'ladi»¹. Shu tariqa F.Nisshe «Evropaning ilk tugal nigilisti»ga aylanadi.

Faylasufning falsafiy-aksiologik qarashlari haqida kelgusi mavzuda aniqroq to'xtalamiz. Bu o'rinda shuni aytishimiz lozimki, aynan F.Nisshe asarlarida qadriyat alohida ijtimoiy voqelik, falsafiy tadqiqot ob'ekti darajasiga ko'tariladi. Uning nigilistik qarashlari Evropa qo'ynida tug'ilayotgan revolyusiyalar va jahon urushlarining o'ziga xos darakchisi edi.

3. XVIII va XIX asrda qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar va hozirgi davr G'arb aksiologiyasi.

Aksiologiya ijtimoiy fanlarning maxsus sohasi sifatida shakllangan. G'arb mamlakatlarida bu sohada maxsus qo'llanma va kitob chop etilmoqda, qadriyatshunoslik bo'yicha mtaxssislar bor, xilma-xil ilmiy anjmanlar o'tkazish

¹ Ницше Ф. Воля к власти. Опыт переоценки всех ценностей (1884-1888). – М.: ТОО «Транспорт», 1995. – С. 30.

yo'lga qo'yilgan, hozirgi davrda G'arb mamlakatlarida aksiologiya bilan bog'liq xilma-xil ilmiy yo'nalishlar dunyoga keldi.

G'arb qadriyatshunosligida mashhur nemis faylasufi I.Kantning izdoshlari V.Vindelband, G.Rikkert, M.Sheler, N.Gartman, G.Elzenberg va boshqalarning qarashlari keng tarqalgan. Ushbu olimlar reallikdan alohida yashashi mumkin bo'lgan muayyan qadriyatlar olami borligini e'tirof etadilar. Ularning qariyb hammasi uchun umumiy bo'lgan mayyan qadriyatlar olami borligini e'tirof etadilar. Ularning qariyb hammasi uchun umumiy bo'lgan ushbu qarash tarixi uzoq o'tmishga, qadimgi falsafaning mashhur namoyandasi bo'lgan Aflotun zamonlariga, uning g'oyalar dunyosi bilan bog'liq fikrlariga taqaladi.

Nemis olimlari V.Vindelband (1848-1915) va G.Rikkert (1863-1936) qadriyatlar muammosi borasida qariyb bir xil mulohaza yuritganlar va ularning qarashlari haqli ravishda Vindelband – Rikkert aksiologik ta'limoti, deyildi. Bu olimlarning fikricha, qadriyatlar o'ziga xos ideal ahamiyat sifatida zohir bo'ladi, ob'ektdan ham, sub'ektdan ham alohida mustaqil olamni vujudga keltiradi, bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Ana shu ma'noda qadriyatlar olamdagi mavjud narsalardan ko'ra bir qadar ulug' zohiriylik va mutlaq haqiqatlardir.

Ayrim faylasuflar, aksiologlar borliqda qadriyat degan fenomenni borligi e'tirof qilsalarda, uni mohiyatini inson aqli bilishga ojizlik qiladi degan fikrni bildiradilar. Aksiologiya sohasida ijod qilgan faylasuflarni haqli ravishda ikki yo'nalishga ya'ni ob'ektiv va sub'ektiv qadriyatshunoslarga bo'lish mumkin. **Ob'ektiv aksiologlar** ya'ni qadriyatlar muammosiga ob'ektiv nuqtai nazardan yondashgan olimlar orasida M.Sheler (1874-1928) va N.Gartman (1882-1950) larni e'tirof etish joiz. "M.Sheler G'arb aksiologiyasining va undagi "O'zgarmas axloqiy qadriyatlar" nomli nazariyaning asoschisi hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra qadriyatlar mustaqil yashashlari mumkin, ular o'zgarmaydilar balki bizning

qadriyatlar haqidagi fikrimiz o'zgaradi, bugun olam qadriyatlar bilan to'yingandir, qadriyatlarning mavjudligi borliqqa ma'no baxsh etadi, voqelik qadriyatlarning o'ziga xos namoyishidan iborat"¹.

M.Sheler shunday yozadi: «tajribani shunday turi borki, uning predmeti aql uchun yopiqdir: quloq rangni idrok qila olmagan kabi uni (tajribasi predmetini) bilishga aql ojizlik qiladi... Shu tajriba orqali abadul – abad mangu bo'lgan predmetlarni, masalan qadriyat va ularning ierarxiasini o'rganamiz». Gap ilohiy hissiyot va muloqot tajribasi haqida borayotgan bo'lsa kerak. Shelerni fikricha xudo g'oyasi oliy qadriyatdir. Borliqni eng muhim xususiyati uni fojealigidir. Qadriyat bilan qiyoslanganda ma'lum bo'ladiki, barcha narsalarda fojeaviy xislat bor. Borliqni fojealigini namoyon bo'lishini bitta zamini – vaqtdir, unda barcha narsa paydo bo'ladi (tug'iladi) va yo'qoladi (o'ladi). Borliqni fojealigini, undagi narsalarni vaqtinchaligini bartaraf etadigan yoki yumshatadigan muhim – mangu xislatiga ega bo'lgan ma'naviy qadriyatlardir. Shelerni fikricha, ma'naviy qadriyatlar, masalan ezgulik, nafosat, adolat va boshqalar fazo va vaqtdan tashqari turadi. Tarixiy shart-sharoitga bog'liq emas. Uning fikricha, ma'naviy qadriyatlarni tahlil qilishda ularni ideal ob'ektlar bo'lib, shu ideal ob'ektlar, uning nazarida, kishilarga doimo ta'sir qilib turadi, ularning hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi². Garman esa o'zgarmas axloqiy qadriyatlar nazariyasini ilgari surmoqchi bo'ldi. Qadriyatlar ob'ektiv baholash esa sub'ektivdir.

Sub'ektiv aksiologlar. G'arbda aksiologiya sohasida ijod qilgan bir guruh faylasuflar, U.Jeyms, J.Dyui (1859-1952), A.Meynong (1879-1961), A.Bergson (1879-1961)lar qadriyatlarning vujudga kelishini inson, uning sifat va faoliyati bilan bog'laydilar. Ularning g'oyalari G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan. Masalan XX asrning boshlarida U.Jeyms qarashlari, keyinchalik J.Dyui

¹ Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, “Академия” 2004,34-бет

² Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, “Академия” 2004,34-бет

g'oyalari keng yoyilgan va G'arb madaniyatining barcha sohalariga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

G'arb olimlari orasida V.Diltey, X.Erenfels, O.Shpengler, A.Toyinbi, P.Sorokinlarni alohida ta'kidlash lozim. Bu olimlar nazarida qadriyatlarni mavhum emas, balki aniq tahlil qilmoq kerak. Ana shunda ularning kelib chiqishi, mohiyati va namoyon bo'lish shakllarini aniqlash oson bo'ladi. Bu diqqatga sazovor fikr bo'lib, undan hozirgi zamon qadriyatshunoslari ijodiy foydalanmoqdalar. Bizning fikrimizcha, qadriyatshunoslik muammolarini tahlil etish borasidagi qarashlarni hisobga olib, bu oqim vakillarini **“plyuralistik aksiologiya”** tarafdorlari, deb atash mumkin. Ular qadriyatlarni bir tomondan, voqelik shakllarining mohiyati, ahamiyati, ikkinchi tomondan, shaxs kechinmalari, tuyg'u va xususiyatlari bilan bog'laydilar.

G'arb qadriyatshunosligining B.Esup, M.Roder, T.Munro kabi olimlar mansub bo'lgan individual-psixalogik yo'nalishi ham mavjud bo'lib, bu yo'nalish vakillari kishining shaxsiy-individual qadriyatlarini atroflicha talqin qilganlar. Ular hozirgi zamon industrial jamiyati sharoitida shaxs qobiliyati, tashabbuskorligi juda qo'l keladi, u aynan shlar bilan bog'liq shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishga erishishi lozim, deya alohida ta'kidlaydilar.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, antik davrda hali «qadr», «qadriyat» tushunchalari falsafiy mushohadalarning maxsus ob'ekti bo'lmagan, u davrda qadriyatlarni insonning ijtimoiy amallari, ezgu xatti-harakatlari tizimida, ko'pincha yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik, xotirjamlik, insof, qanoat, huzur-halovat, hayotni, borliqni ulug'lash, boshqalarga ko'rsatiladigan mehr-oqibat kabi voqeliklar bilan, ularning ichki

mohiyati orqali talqin etish an'ana bo'lgan. Hatto falsafa va etikani ilm darjasiga ko'targan Aristotel asarlarida ham «qadr», «qadriyat» keng, umumiy, falsafiy, ko'p o'rinlarda etikaga oid voqelik sifatida qaraladi. Ammo o'sha davrdayoq «qadr» va «qadriyat»ning falsafiy, etikaviy mohiyati, hatto ta'rifi to'g'ri belgilab berilgan;

ikkinchidan, demak, yuqoridagi misollar va tahlillar ko'rsatadiki, qadriyat haqidagi qarashlarning genezisini antik davr falsafasidan izlash o'rinlidir. Evropa va jahon falsafasida sezilarli iz qoldirgan barcha mutafakkirlar «qadr», «qadriyat», «qadrli» kabi kategoriyalarga murojaat etib, ulardagi ijtimoiy mazmunni, inson hayoti va faoliyatiga bevosita taalluqli jihatlarni ochib berganlar;

Savollar va torshiriqlar:

1. G'arbda qadriyat ilm-fan sifatida o'rganilganmi?
2. G'arb allomalarining asarlarida qanday qadriyatli ekologik muammolar tahlil qilingan ?

4-mavzu. Aksiologik ong va qadrlash tuyg'usi.

1. Aksiologiyaning asosiy mavzulari va ularning ilmiy- nazariy tavsifi.
2. Qadriyatli munosabat va uning ahamiyati.
3. Baholash: funktsiyalari, turlari va strukturasining xilma-xilligi.

1. Aksiologiyaning asosiy mavzulari va ularning ilmiy- nazariy tavsifi.

Qadriyatshunoslik asosan qadriyatlar, ularning namoyon bo'lish shakllari, qadrlash hissi, qadrlash tuyg'usi, reallikka qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar, qadrlash va qadsizlanish muammolari, tarixni aksiologik tushunish, qadriyat tizimlarining amal qilish xususiyatlari to'g'risidagi masalalarni o'rganadi.

Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi, bu bog'liqlikning rivojlanish bosqichlari, sivilizasiyalar hayotining muayyan davrlarida o'ziga xos holda namoyon bo'lishini o'rganish ham aksiologiyaning asosiy mavzulari qatoriga kiradi. Bunda asosiy e'tibor tarixni aksiologik tushunishga qaratiladi. Tarixni materialistik, idealistik, metafizik, politologik, kulturologik tushunish usullari borligi ko'pchilik mutaxassislariga ma'lum. Sobiq ittifoq davrida tarixni materialistik tushunishga eng asosiy e'tibor qaratilar, idealistik, teologik, metafizik tushunishlar asosan tanqid qilinardi. Uni politologik, kulturologik tushunish yaqindan boshlab keng e'tirof etila boshlandi. Ammo tarixni aksiologik tushunish to'g'risida tadqiqotlar yo'q hisobi, u endigina e'tirof etilmoqda.

Aksiologiya qadriyatlar va qadriyat sistemalarining jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyatini, ularning ijtimoiy funksiyalarini ham o'rganadi. Ma'lumki, qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida ma'naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yo'lga solib turadilar. Bunda qadriyatlarning regulativ funksiyasi va ma'naviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo'lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo'nalishini belgilaydi. Masalan, hozirgi davrda mustaqillik va uni mustahkamlash respublikamiz hukumati, aholisi, undagi millat va ijtimoiy sub'ektlarning faoliyatini belgilab turgan asosiy mezondir. Aksiologiya ana shunday jarayonlarning umumiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi. Bunda qadriyatlarni qayta baholash, qadrlash me'yorlari, qadriyat mo'ljallari, qadrsizlanish darajalari bilan bog'liq muammolarni ilmiy o'rganish nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon xaritasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, sobiq sho'rolarning tarqalib ketishi, unga xos qadriyatlar tizimining o'tmishga aylanishi, O'zbekistonning istiqlool yo'lidan borayotganligi, respublikamizda mustaqillikka asoslanadigan qadriyatlar sistemasini shakllantirish imkoniyatlari va ehtiyojlari qadriyatshunoslik borasidagi yangi-yangi izlanishlar uchun asos bo'lmoqda. Bu jarayonning umumaksiologik qonuniyatlari, mintaqaviy jihatlari va respublikaga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish muhim aksiologik vazifaga aylanmoqda. O'zbekistonda azaliy sharqona qadriyatlarni qadrlash, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhini tarbiyalash, milliy qadriyatlarni tiklash, avaylab-asrash, inson qadri, haq-huquqlari va manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash borasidagi vazifalar ham muhim masalalar qatoriga kiradi.

Qadriyatshunoslik mavzularining sof ilmiy, ya'ni bevosita aksiologiya fani bilan bog'liq jihati ham bor. Bunda muammolar qadriyatshunoslikning bahs mavzularini aniqlash, ularni ilmiy asoslash, aksiologik tushuncha, kategoriya, qonunlar va jarayonlarni nazariy jihatdan tavsiflash kabi masalalarni o'zida aks ettiradi. Qadriyatshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasini o'rganish ham muhim. Bu sohada falsafa, huquqshunoslik fanlarining yutuqlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bularga aksiologiyaning tarixiy ildizlarini nafaqat G'arbdan, balki Sharqdan izlash, qadriyatshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar va turli xil qadriyat nazariyalarini ilmiy tavsiflash, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini ko'rsatish vazifalari ham qo'shilishini hisobga olsak, masalaning muhimligi yanada oydinlashadi. Bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlardagi har bir ijodiy va ijobiy natija aksiologiyaning rivojiga yordam beradi, unga xos mavzularni izohlash, muammolarni baholi qudrat echish imkoniyatini yaratadi.

Aksiologik ong va qadriyatli dunyoqarash

Olam cheksiz, ko'p qirrali, uni insoniy o'zlashtirish, anglash, unga munosabat bildirish ham xilma-xil. Bu xilma-xillik olamga qadriyatli

munosabat, qadriyatli yondashuv va aksiologik ongni ham o'zida aks ettiradi. **Aksiologik ong** – qadriyatlarni anglash jarayonida vujudga keladigan, qadrlash tuyg'usi, aksiologik tushuncha, xulosalarni ifodalaydigan va aks ettiradigan ijtimoiy ong shaklidir. Unda qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari, ahamiyati va xususiyatlari o'z aksini topadi. Ijtimoiy fanlarda, siyosiy ong, ekologik ong, estetik ong kabi iboralarga ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ilmiy tushunchalar sifatida qaraladi. Ammo aksiologik ong iborasi ko'pchilikka notanish, uning mazmuni to'g'risida fikr-mulohazalar nihoyatda kam.

Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, olam, voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Unga asoslangan munosabat, yondashuv, amaliyot va faoliyatlar ham boshqalardan farq qiladi. Masalan, huquq kishilarning huquqiy munosabatlari va bu boradagi faoliyatini aks ettiradi. Huquqiy talablar va normalar esa qonun yoki qoidalarga aylangan, muayyan hujjatlarda aks ettirilgan bo'ladi. Ularga rioya qilish ko'p hollarda majburiy bo'lib hisoblanadi, bu borada bir qator idora va tashkilotlar ish olib boradilar. Axloq, estetika va aksiologiya esa huquqdan farq qiladi. Ular bilan bog'liq qoida va talablarni hayotga joriy etadigan maxsus tashkilot va idoralar yo'q hisobi. Ushbu qoida va talablar esa ko'p hollarda jamoatchilik fikri, faoliyat va yashashning ma'naviy mezonlari sifatida namoyon bo'ladi. Ularning foyda yoki ziyonini aniqlashning aniq o'lchami yo'q. Bu, ayniqsa, qadrlash tuyg'usi, qadrni anglash hissi va aksiologik ongning boshqa jihatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Insonda olam, tabiat, jamiyat va o'zga odamlarni, hayot, umr va boshqalarni qadrlash tuyg'usi bor. Bu tuyg'u ularning qadrini anglab olish, qadriyatni idrok qilish, uning ahamiyatini his qilish kabi insoniy xususiyatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Odam zoti olam hodisalariga nafaqat baho beradi, balki ularga qadr va qadrlash nuqtai nazaridan ham qaraydi. Insoniy qadrlash

tuyg'usi kishining narsa-hodisalarni oddiy baholashdangina iborat emas, balki qadriyatli yondashuv asosida shakllanadigan serqirra ma'naviy xususiyatdir. Shu ma'noda, u inson zotining eng botiniy ma'naviy xislatlaridan biridir.

Qadriyatlarga va qadrlash tuyg'usiga asoslangan aksiologik qarashlar ilmiy jihatdan asoslangan, nazariy tahlil qilingan, muayyan tamoyil asosida to'plangan bilimlar sistemasini ifodalaydi. Ular qadriyatlar sohasida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, bu boradagi nazariyalar, kitob va risolalarda o'z aksini topadi. Tugallangan, ozmi-ko'pmi mukammal, izchil bayon qilingan va qadriyatlar to'g'risidagi sistemaga ega bo'lgan aksiologik qarashlar majmuasi qadriyatlar nazariyasi, deb yuritiladi. Aksiologik qarashlar tarixida qadriyatlar, ularning shakllari va amal qilish xususiyatlari to'g'risida bir qator nazariya hamda aksiologik konsepsiyalarni uchratish mumkin.

Aksiologik ong, o'z navbatida, aksiologik hissiyot, aksiologik idrok, qadrlash tuyg'usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulosa va tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg'usi boshqalardan ko'ra kuchliroq namoyon bo'lishi, uning qalbida qadrlash tuyg'usi bilan bog'liq hissiyot ko'proq g'alayon qilishi mumkin. Bunday kishida muayyan qadriyatni qadrlash bilan bog'liq mas'uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko'zga tashlanib turishi tabiiy.

Aksiologik bilishda qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. Qadrlash tuyg'usi aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biridir. U tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Olam va odam o'z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi voqea, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg'usini uyg'otuvchi asosdir. Shu ma'noda ob'ektiv voqelikka, uning namoyon bo'lish shakllari, ko'rinishlariga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lmagan qadrlash tuyg'usi hamda uning mutlaq sub'ektiv

xususiyat ekanligini e'tirof etish qiyin. Zero qadrlash uchun qadrlanadigan «nimadir», ya'ni moddiylik yoki ma'naviylik bo'lmog'i, qadrlash tuyg'usini uyg'otish uchun esa, ana shu tuyg'uni vujudga kelishi uchun sabab bo'ladigan «ob'ekt» bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma'volar qadrlash tuyg'usini shakllantiradigan asosiy mezonlardir.

Aksiologik dunyoqarash – ijtimoiy dunyoqarashning o'ziga xos tarkibiy qismlaridan biri sifatida, kishilarning voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining yo'nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyillar va maslamlarning majmuasidir. Dunyoqarashning aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilarni qamrab oladi. Umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qo'shilishi bilan ijtimoiy sub'ektlarning voqelikka munosabatida qadrlash tuyg'usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bunda aksiologik tamoyillar kishilarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o'zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma'naviy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular kishilarning faoliyatlarini amalga oshirishdagi manfaat va maqsadlarida ham ko'zga tashlanadi.

Biror bir yo'nalishga qaratilgan qadrlash tuyg'usi va bu asosdagi bilimlar, intilish, maqsad hamda manfaatlar kishilarning amaliy faoliyati uchun ma'naviy boshqaruvchanlik (regulyatorlik) vazifasini ham bajaradi. Albatta, bunda qadriyatlar bilan bog'liq omillardan tashqari boshqa sabablar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo kishilarni birlashtirib, muayyan maqsadga intilishdagi umumiy faoliyatda omilkor bo'lishni ta'minlaydigan omillar orasida qadriyatlar omili etakchi o'rinni egallashi mumkin. Masalan, hozirgi davrda O'zbekistonning mustaqilligi hamda uni yanada mustahkamlash vazifalari jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash, demokratik tamoyillarga asoslangan hayot tarzini shakllantirish jarayonlarida qadriyatlar omili katta ahamiyat kasb etmoqda.

Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining etuk inson sifatida voyaga etishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan, o'zi, o'zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini anglash tomon boraveradi. Bu foniyl dunyoning o'tkinchiligi, umrning mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga etishni o'rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiy jarayonini anglatadi. Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ushbu ma'noda aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual hamda ijtimoiy namoyon bo'lish darajalarini, alohida, xususiy, umumiy shakllarini ko'rsatish mumkin. Bu borada quyidagi misolga murojaat qilaylik. Sobiql ittifoql miqyosidagi g'ayriaksiologik yondashuvga ko'ra, Markaziy Osiyo xom ashyo etkazib beradigan xudud sifatidagi ahamiyatini saqlab qolaverdi. Unga ana shunday yondashuv sobiql SSSR hayotining so'nggi davrlarigacha davom etdi. Amu va Sirdaryolarga solingan to'g'onlar, qurilgan kanallar, cho'llarning o'zlashtirilishida Ona-Vatanimizning tabiatini qadrlash, uning kelajagini o'ylash hissini topa olmaysiz. Aynan g'ayriaksiologik munosabat Orolning asta-sekin yo'qolib borishiga, Markaziy Osiyoning «sho'r yuvgichlari» bo'lgan Amu va Sirdaryolarning sho'r tuzlarni dengizga emas, balki ona-zaminimiz hududiga quyishi oqibatida misli ko'rilmagan ekologik halokat sodir bo'lishiga, Orol fojiasiga olib kelgan asosiy sabablardan biridir. To'g'ri, o'sha asrimizning o'rtalaridan boshlab qurilgan kanallaru suv omborlari qanchalar foyda keltirgandir. Ammo ular Orolning qadrini bosa olarmikin? Ular yana Orolni qayta to'lg'izish va ro'y berayotgan ekologik halokatning oqibatlarini tugatishga etarmikin? Yo'q! Ko'hna va navqiron tarix soxta qadriyatlarni ustuvor bilishga asoslangan g'ayriaksiologik yondashuvning bu kabi fojeaviy misollariga ko'p bora guvoh bo'lgan. Ana shu misollar butun insoniyat, qolaversa mintaqamiz aholisida to'g'ri aksiologik yondashuvni, azaliy umuminsoniy ma'volarni

qadrlash tuyg'usiga asoslangan qadriyatli munosabatni shakllantirishga undaydigan ibratli hodisalar yanglig' kishini hushyorlikka undaydi. Ijtimoiy hushyorlik, ma'naviy mas'uliyat qadrlash tuyg'usining to'g'ri shakllanganligini, olamga qadriyatli munosabatning to'g'ri vujudga keltirilganligini ifodalaydi.

2. Qadriyatli munosabat va uning ahamiyati.

Qadriyatlar inson, ijtimoiy guruhlar va uyushmalarni biror-bir ehtiyojlarini qondirish, ularni manfaatlarini va ezgu – niyatlariga xizmat qilishga qodir moddiy va ma'naviy predmetlar, shu predmetlarga nisbatan bo'lgan munosabatdir. Inson va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan narsa, hodisa qadriyatga, qadriyatli xislatlarga ega bo'ladi.

Inson voqelikka nisbatan turli munosabatlarda (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va hokazolar) bo'ladi. Voqelikka bo'lgan munosabatlar doirasida inson predmet va hodisalarni, o'zini ehtiyojlarini qondirish uchun o'rganadi, biladi, o'zlashtiradi, ularga baho beradi, ahamiyatini aniqlaydi. Mana shu baho berish, ahamiyatini aniqlash paytida inson va predmet o'rtasidagi qadriyatli munosabatlar paydo bo'ladi.

Bilishda narsa va hodisalarning mohiyati xususiyatlari in'ikos etiladi, ularga baho berishda inson uchun ahamiyati, uni qaysi ehtiyoji qondirilishi aniqlanadi. Birinchi gnoseologik munosabat doirasida amalga oshirilsa, ikkinchi qadriyatli munosabatlarni bildiradi.

Munosabatni asosida, aloqadorlik, bog'lanish, o'zaro bo'yo'nish yotadi. Qadriyatli munosabatlar zaminida esa inson va tevarak – atrof o'rtasidagi bog'lanishga olib keladigan inson ehtiyoji yotib, u narsalarga faol munosabatda bo'lishga, bu munosabatni ruyobga chiqishi, baho berishi, qadrlash, predmetini inson uchun ahamiyatini ochib berish bilan yakunlanadi.

Demak, inson va kelajak o'rtasidagi bog'lanish:

- birinchidan, zaruriyatchilik, insonning tevarak – atrofsiz (undan moda, energiya, ashyo, bilish uchun in'ikos, obrazlar olmasdan) yashay olmasligi:

- ikkinchidan, tabiat va jamiyatdagi predmetlar va tizimlarga nisbatan muhtojlik, talab, hojat, kerakli shaklda qadriyatli munosabatni yuzaga keltiradi.

Tabiatda mavjud bo'lgan predmetlar, tizimlar jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar manfaat, zaruriyatchilik asosida o'rganilgan qadriyatli munosabatlar doirasida bir necha xil ehtiyojlarni qondirishlari mumkin, shu bois xilma-xil qadriyatli belgilarga, hislatlarga ega bo'ladilar.

Masalan, ichish texnologiyasi bo'lgan piyola o'zining, foydali xususiyatlari tufayli, iste'mol qiymati, moddiy ne'mat sifatida qadriyatli tomonini namoyon etadi. Mehnat mahsuloti va tovar ayriboshlash buyumi sifatida piyola iqtisodiy qadriyat, qiymat sifatiga maydonga chiqadi. Agar piyola o'tmish an'alarini o'zida aks ettiruvchi san'at buyumi bo'lsa, u vaqtda piyola estetik qadriyat, estetik zavq oladigan ob'ektga aylanadi. Qadriyatli munosabatda turli ijtimoiy manfaatlar va ehtiyojlarni qondiradigan g'oyalar, ta'limotlar (qondirish, baho berishda namoyon bo'ladi; yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, axloqiy qoidalar va hokazolar) qadriyatga aylanadilar.

Inson faoliyatini barcha sohasi qadriyatli munosabatlar bilan o'ralgan, ijtimoiy munosabat doirasida doim ahamiyatli, foydalilik belgilari insonlarni faoliyatini asosini belgilab kelgan.

3. Baholash: funksiyalari, turlari va strukturasi xilma-xilligi.

Qadriyatni belgilash, aniqlash, baho berish orqali sodir bo'ladi. Baho berish narsa va hodisani ahamiyatini ochib berish, u yoki bu ehtiyojni qondirishni anglash, qadriyatlarni bir-biri bilan qiyoslash demakdir. Inson qadri ham baho berishga asoslanadi.

Baholash narsa va hodisani (qadriyatni) inson faoliyati va ehtiyoji uchun, ehtiyojni qondira olish uchun ahamiyatini belgilash natijasidir. Inson tabiatni, real voqelikni ikki yo'l bilan o'zlashtiradi: moddiy va ma'naviy. Moddiy o'zlashtirish – tabiatni o'zgartirishda, uni energiyasi va ashyolaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Ma'naviy o'zlashtirishda voqelikni tushuntirish va tushunishga qaratilgan g'oyalarni, ta'limotlarni, nazariyalarni ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi.

Voqelikni ma'naviy o'zlashtirish ikkita narsaga tayanadi:

1) narsalar mohiyatini ochish, bilish, in'ikos etish, tegishli g'oyalar, tegishli ijtimoiy ongni shakllantirish, rivojlantirish va nazariyalarni yaratish faoliyati. (Qadimda YUnonistonda Atomni tuzilishi va joylashishiga qadriyatli yondashilgan.)

2) bilishni ob'ekti, vositasi va natijalarini baholash, ularni bilish va amaliyot uchun ahamiyatini belgilash, anglash.

Baholashni ob'ektiv mezonlari va sub'ektiv shakllari, vositalari bo'ladi. Birinchi ob'ektiv mezon va amaliyot, amaliy natijadir. Bundan tashqari turli ijtimoiy – gumanitar fanlarda baholashni o'zlari ishlab chiqqan mezonlari va vositalari bor. Masalan, mantiq fanida bildirilgan hukmlarni chin va yolg'onligini aniqlash vositalari ishlab chiqilgan. Falsafa va fanda ishlab chiqilgan tamoyillar (masalan, fizikada saqlanish, simmetriya, falsafada ob'ektivlik, tolerantlik, tizimlilik tamoyillari) izlanishda baholash vositasi sifatida amal qilishlari mumkin.

Baholash turli funksiyalarni (vazifalarini) bajaradi: qadriyatlar ahamiyatini asoslash, faoliyatini boshqarish, sifatini aniqlash va boshqalar. Baholashni funksiyalari amal qilish qadriyatlarni qadrlash imkoniyatini beradi, bilish natijalarini amaliyotga tadbiiq qilishi yo'lini ochadi. Baholashning funksiyalari ham uning ichki ziddiyatli, qonuniy jarayoni bilan belgilanadi. Professor N.SHermammedovanning fikricha, hozirgi qadriyatshunoslikda baholashni quyidagi funksiyalari mavjud.

Dunyoqarashli funksiyasi. Mazkur funksiyaga muvofiq baholash sub'ekt o'zligining shakllanishi, amal qilishi va kamol topishining zaruriy sharti hisoblanadi, chunki har doim uning atrof borliqning ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Gnoseologik funksiyasi. Borliqning in'ikosi, ob'ektlarning ijtimoiy ahamiyatini anglab etish omili sanalgan baholash va bilishning o'ziga xos jihati hisolanadi.

Faollashtiruvchi funksiyasi. Baholash bilishning bilimlardan foydalanishga qaratilganini aks ettiradi, amaliy faoliyatga faol intilish va munosabatni shakllantiradi.

Variativlik (tanlash, chinligini aniqlash) funksiyasi. Baholash tanlashni, sub'ekt muayyan ob'ektlarni, ularning xossalari, munosabatlarini afzal ko'rishini nazarda tutadi. Baholash hodisalarni taqqoslash va ularning jamiyatda mavjud me'yorlar, ideallar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali amalga oshiriladi¹.


Inson nafaqat qadriyatlarni yaratadi, balki ularni baholaydi, qiyosiy tahlildan o'tkazadi. Shu bois qadriyat tushunchasi «baholash» tushunchasi bilan bog'langan. Baholash gnoseologik kateogriya bo'lib, uni estetik va hissiy – emosional tomonlari haam mavjud. Baholash gnoseologik kategoriya bo'lib, uni estetik va hissiy – emosional paytda, qadriyatni o'zi ham moddiy, ham ma'naviy (ideal) bo'lishi mumkin. Falsafada ta'kidlashicha baholash ikkilamchi xislat, u qadriyatga bo'lgan munosabatdan kelib chiqadi.

Ayrim falsafiy yo'nalish namoyondalari (yangi kantchilik, ekzistensializm) bilish va baho berishni qarama-qarshi tomonlari sifatida talqin

¹ Шермухаммедова Н.А. Қадриятларни баҳолашнинг категориал тизими // ЛСА – Япония ҳамкорлик агентлигининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси билан ҳамкорликда 2012 йил 13 апрелда Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган “Шахс баркамоллиги: ахлоқий-эстетик жҳатлар” мавзуидаги халқаро конференция материалларидан.Б-127

qiladilar. Bilish «bu narsa nima?» degan savolga, baholash esa «bu narsa biz uchun qanday ahamiyatga ega?» degan savolga javob beradi.

Qadriyatni belgilash va bilish natijasida baholovchi bilim yuzaga keladi. Bunda bilish va baholash birlashadi. Baholashning turlari mavjud?



1. Ilmiy baholash. Fanda ilmiy tadqiqot natijalarini ilmiy baholash bo'lib, ularni yangi haqiqatni qo'lga kiritishi, amaliyotga tadbiq qilish imkoniyatini belgilashdir. Ilmiy natijalarni baholash turli shaklda sodir bo'ladi. Buni zaminida tadqiqot natijalarini qanday ahamiyati borligi, qanday funksiyalarni bajarishi yotadi.

2. Siyosiy baholash. Bu ma'lum hodisalarni siyosiy hayotda qanday o'rinni egallash mumkinligini, qanday ahamiyati boriligin anglash, belgilashdir.

Siyosiy baholashni yo'nalishini ijtimoiy, guruhiy va boshqa uyushmalarini, manfaatlari, maqsadlari va harakat dasturlari belgilaydi.

3. Etik (axloqiy baholash). Bunda odamlarning hatti-harakati qabul qilingan axloqiy normalar asosida baholanadi. Axloqiy qoidalar va ideallar (ezgulik) insonni hatti-harakatini baholash uchun masshtab va mezon funksiyasini bajaradilar.

4. Estetik baholash. Voqelikni badiiy obrazini ishlab chiqarish orqali o'zlashtirish, Ayni paytda, unga baho berishni taqozo etadi. Nafosat ideallari asosida abadiyatni yaratish obrazlarga baho beradi. Baholash esa san'at, estetik faoliyat natijalarida obrazdagi kamolot darajasi aniqlanadi. Estetik ehtiyojni qondirish miqyosi belgilanadi. Hayotga, muloqotga bilishdan baho berish yaqinroq turadi. Shunday bo'lsada, bilish va baholash, in'ikos va qadriyat o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjuddir. Bu dialektik aloqadorlik shunda namoyon bo'ladiki, bilish va baholashni yuzaga keltiradigan ehtiyojlar bir-biridan farq qiladi. Mazmunan turli tomonga yo'naltirilgan bo'ladi. Lekin biri ikkinchisini taqozo etadi.

Bilish qonuniyat, mohiyat, uni mazmuni insonga, uni baholab berishga bog'liq bo'lmaydi. Bu jarayonda bilish ob'ektini obrazi, modeli shakllanadi. Baholashda esa sub'ektivlik jihatida ustun bo'ladi, uni predmetga xos bo'lgan inson ehtiyojini qondiradigan hislatni miqyosi belgilanadi. Belgilash uchun esa baholovchi bilim kerak. Demak, bilimni gneseologik (in'ikos etuvchi) va akseologik (baho beruvchi) jihatlari bo'ladi. Bilishni akseologik jihatida bog'lovchi bilishda ifodalanadi. Bilishni aniqlash darajasini belgilashda uning natijalarini ishlab chiqarishga tadbiq qilish zaruriyatchiligi paydo bo'lganda baholash ehtiyoji vujudga keladi. Baholashda bilimni dolzarbligi, ahamiyati, aniqligi, mintaqaviyligi va boshqa hislatlari aniqlanadi.

Baholash strukturasida ikki tomonni shartli ravishda farqlash mumkin. Birinchi tomoni narsalar, xossalar, jarayonlar va hokozolarning ayrim ob'ektiv

xususiyatlarini qayd etgani bilan bilimga yaqinligi namoyon etsa, ikkinchi tomoni sub'ektning ob'ektga bo'lgan munosabati: ma'qullash yoki qoralash, xayrixohlik yoki yomon ko'rish singari axloqiy munosabatlarni o'z ichiga olib me'yorga yaqin turadi.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, baholash uchun ham bilim kerak. Lekin baholashni birinchi navbatdagi vazifasi o'rganish, tadqiqot olib borish emas. Bilim gneseologik munosabat doirasidan tashqariga chiqqanda baholanadi. Har bir fan bilish va baholash jihatlariga ega. Bilish bilan hayotni, amaliyotni bog'lovchi muhim bug'in – baholashdir. Baholashsiz bilish, uning natijasini tadbiq qilib bo'lmaydi.

ikkinchidan, globallashuvni o'tkirlashib borishi, bir ijtimoiy – siyosiy tartibotdan boshqasiga o'tish qadriyatlar muammosi va ularning ahamiyatini oshiradi. Baholash tarixiy shakl va vositalar orqali namoyon bo'ladi. U jamiyatni taraqqiyoti darajasiga bog'liq.

Savollar va torshiriqlar:

1. Qadriyatli bilish va baholashning birligi mavjudmi?
2. Aksiologik ong boshqa ijtimoiy ong shakllaridan nimasi bilan ajralib turadi?
3. Biror predmetni olib unga baholashning hamma shakllarini qo'llab ko'ring?

5- mavzu. Qadrlash va qadrsizlanish muammolari.

1. Qadrlashning aksiologik mohiyati va mazmuni.
2. Qadrlash mezonlari va me'yorlari, ular buzilishining salbiy oqibatlari. Qadrlashning shaxsiy, milliy, umuminsoniy va boshqa darajalari.
3. Moddiy, ma'naviy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa sohalardagi qadrsizlanishning o'ziga xosligi va oqibatlari.

1. Qadrlashning aksiologik mohiyati va mazmuni.

XIX asr oxirida, ayniqsa birinchi jahon urushidan keyin klassik fan va falsafada ishlab chiqilgan inson to'g'risidagi tasavvurlar, ta'limotlar ko'p jihatdan asossiz ekanligi namoyon bo'ladi, insonning rasionalistik talqini inqirozga uchradi. Inson uning hayotini qadriyati, ob'ektiv bilim va qadriyat nisbati nihoyatda dolzarb muammoga aylandi. XX asrning 20- yillaridan boshlab, ekzistensializm, falsafiy antropologiya, germenevtika kabi gumanitar bilim yo'nalishlari rivojlandi. Yangi kantchilar esa qadriyat va uning mohiyati masalasini gumanitar sohadagi ilmlarni bosh masalasi sifatida o'rta qo'ydilar. Insonni faoliyatini, o'zligini qadriyatli tomonini muhokamasi yagona konsensiyaga olib kelmadi.

«Qadriyat nima?» degan savolga bir xil ma'noga ega bo'lgan javob olinmadi. Tabiatda namoyon bo'lgan xossalardan farqli o'laroq qadriyatda ob'ektiv va sub'ektiv jihatlar mavjud. Bundan tashqari qadriyat fenomeni (xodisasi) ehtiyojlar, manfaatlar, mafkura to'qnashuvi, e'tiqod va iymonni shakllanishi kabi ma'naviy jarayonlarni va omillar ta'sirida o'zini inson va jamiyatga nisbatan qiymatini, ahamiyat darajasini o'zgartirib turadi. Shuning uchun bo'lsa kerak qadriyat xususida aniq ma'noga ega bo'lgan, ko'pchilik olimlar va faylasuflarni qoniqtiradigan ta'rif yoki talqin hali etarlicha aniqlanmagan.

Qadriyat narsa, predmet emas, balki predmetda insonni ehtiyojini qondiradigan, ezgu - niyatlarga monand keladigan xislatlar mavjud bo'lgandagina qadriyat paydo bo'ladi. Bir xil ehtiyojlarni qondirish insonni kamol tomon olib

boradi, bunda qondirish vositalari qadriyatli bo'ladi. Lekin Mussolini, Gitler kabi fashist manyaklar ehtiyoj va manfaatlarini qondirish insoniyatni boshiga katta kulfatlarni keltiradi. Inqirozga olib boradigan ta'limotlar, vositalar, qadriyatli xislatlarga ega bo'ladilarmi? Bularni bahosini beradigan, nimani qadriyati bor, nimani qadr – qimmatini yo'qligini belgilaydigan mutloq hakam bormi?

Qadriyatlar – jamiyatimizning boyligi, bizning milliy iftixorimiz. Ularni avaylab asrash va muhofaza qilish barchamizning burchimizdir. Milliy qadriyatlarga xurmat bilan qarash – millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo'g'inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy - ma'naviy taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy, ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi.

Qadriyatlarning barcha turlari insonning farovon hayot kechishi, erkin yashashi, ma'naviy – axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham qadriyatlarni avaylab – asrash, ularni qo'riqlash, yuksaltirish shaxsiy inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar katta ijtimoiy – siyosiy, falsafiy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi ma'naviy hayotni ifodalaydi, shu tufayli millatning tarixi, uning o'tmish hayoti, madaniyati gavdalanadi. Shuning uchun ham har bir siyosiy tuzum, har bir davlat qadriyatlaridan o'z maqsadi, manfaati yo'lida foydalanib kelgan va hozir ham shunday bo'lmoqda. Qadriyatlar o'z-o'zidan bevosita insonning ma'naviy qiyofasi, turmush tarzi, umuman jamoat taraqqiyotini belgilay olmaydi. Qadriyatlarning ahvoli, ahamiyati insonga ko'rsatadigan mavjud ijtimoiy tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosat, uning manfaatlarini bilan uzviy bog'langandir. Buni biz O'zbek xalqi milliy qadriyatlarning o'tmishdagi va hozirgi ahvolidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Qadriyatlar tarbiyaviy ahamiyati juda ham zaruriy hisoblanadi. Tarbiya yoshlarda insoniylik xususiyatlarini tarbiyalash jarayonidir. Bu jarayon tarbiyani

aniq maqsadga yo'naltirishni taqozo etadi. Uni amalga oshirish vositalari, amalga oshirish usullari aniqlanadi. Ana shunday tarbiya vositasi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni odamlar ongiga etkazish, yoshlarni qadriyatlarini aniqlash, ularni ardoqlash ruhida tarbiyalashdir. Chunki biz hayotda ko'p narsa inson uchun, uning sog'lig'i uchun zararli ekanligini bilamiz, lekin o'z bilganlarimizga amal qilmaymiz.

Masalan, chekish, ichish, sog'liqqa zarar keltirishini bilamiz, lekin bu odatni tashlashga kelganda, o'zimizda iroda, matonat etishmaydi. Insoniylik nuqtai nazaridan ko'pgina odatlar, masalan ota-ona, qarindosh-urug'ni hurmat qilmaslik, transportlarda yurganda kattalarga, bolali ayollarga, nogironlarga joy bermaslik, qo'pollik, betgachoparlik, axloqsizlik, uyat ekanligini bilganmiz holda hamma vaqt ham ana shunday salbiy ko'rinishlarning oldini ololmaymiz.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bir rivojlanish bosqichidan boshqasiga o'tilganda, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarda o'zgarish bo'lgani singari, qadriyatlar sohasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. Bunda aslo, barcha qadriyatlar yo'qolib ketmaydi, balki yangi davrning ijtimoiy tuzilishiga va zamona realliklarining talablariga mos keladigan eskidan farq qiladigan yangi qadriyatlar tizimi shakllanadi. Bu jarayon qadriyatlar tizimidan ikkinchi o'tish davri, deyiladi. Ana shu ma'noda, jamiyat rivojining muayyan bosqichini iqtisodiy, siyosiy va boshqa nuqtai nazardan ham o'rganish mumkin. Bunda biz muqarrar ravishda bir davrning qadriyatlar tizimi boshqasiga xos tarzda farq qilishining guvohi bo'lamiz. Bu esa qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotiga bog'liqligi qonunning asosiy mazmunini ifodalaydi.

Biz qadriyatlarni bilish jarayonida ob'ekt bilan sub'ektning dialektik aloqadorligini ko'rsatib, uning mazmun va mohiyatiga, metodologik munosabat jarayonida ilmiy izlanishlarni yo'nalishiga umumiy munosabatda bo'lishni, har bir ijtimoiy – siyosiy qadriyatni tarixiy ko'zguda muhokama qilishni tavsiya etamiz.

Masalan, erkinlik tushunchasining mazmuni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida qanday tushunilganini ochib berish zarur. Ammo tarixda erkinlik mazmunini anglagan, erkinlikni sevuvchi shaxsni tarbiyalashning o'zi etarli emas, bu erkinlikni hayotimizning kundalik e'tiqodiga, tamoyiliga aylantirish uchun kurashuvchan zamona qahramonini tarbiyalashimiz zarur.

Kishilar amaliy faoliyatini o'zlarida shakllangan ko'nikmalar bilan, ilg'or g'oyalar ta'sirida tashkil qilar ekan, ma'naviy maqsad moddiylashadi. G'oya ijtimoiy haqiqatning maqsadiga aylanishi uchun tarbiyalanuvchida sog'lom e'tiqod, ko'nikma hosil bo'lishi kerak. Shuni alohida takrorlash kerakki, biz atrofimizdagi mavjud qadriyatlarni ko'rishimiz, anglashimiz, ularni qadrlashimiz uchun o'tmish bilan hozirgi kunni taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lishimiz zarur. Qadriyatli munosabat, bahoviy munosabatlarni endi biz milliy g'oyaning talablari, tamoyillari va ko'rsatmalari asosida metodologik tahlil qilishimiz zarurdir.

2. Qadrlash mezonlari va me'yorlari, ular buzilishining salbiy oqibatlari.

Qadrlashning shaxsiy, milliy, umuminsoniy va boshqa darajalari.

Qadrlash va qadrsizlanish aksiologiyaning eng asosiy masalalaridan biridir. Hamma zamonlarda kishilarda qadrlash tyg'sini shakllantirish va to'g'ri tarbiyalash nihoyatda muhim. Qadrlash tuyg'usining qanday shakllanganligi qadrlash darajalarida ko'zga tashlanadi. Shaxsiy darajada u insonning ma'naviy kamolotini, uning qanday qadriyatlarni barqaror qilishdagi faoliyatini ifodalaydi. Qadrlashning milliy va umuminsoniy darajalarida esa muayyan milatning ma'naviy etukligi, jamiyatning barkamolligi, undagi mavjud hayot tarzining insonparvarligi namoyon bo'ladi. Ammo, hayotdagi doimo ham qadrlash mo'ljallari to'g'ri belgilanavermaydi, gohida qadrlash mezonlariga amal qilinmaydi yoki ularga ahamiyat berilmaydi. Bu esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. jahon tarixi shaxsiy mahdudlik, milliy manqurtlik, buyuk davlat shovinizmi, ma'nosiz kosmopolitizm, fashistlarcha oliy irq da'vosi

kabi illatlar paydo bo'lmasligi uchun qadrlash me'yorlari va qadriyat mo'ljallari to'g'ri belgilangan bo'lishi, ular kishilarning hayoti va faoliyatining ma'naviy mezonlariga lozimligini isbotlab turibdi.

Qadrlashning belgilab qo'yilgan chegarasi bo'lmasada, u cheksiz hissiy jarayon emas. Balki muayyan qadrlash me'yorlari mavjud. Qadrlash me'yorlari qadriyat mo'ljallari va qadrlash mezonlari bilan uzviy bog'langan. Qadrlash tuyg'usi natijasida shakllangan ma'naviy kamolot va ijtimoiy komillik darajasini, axloqiy etuk, nafosat, madaniyatlilik, huquq va odillikning zaruriy talablarini o'zida aks ettiradigan aksiologik tushunchalaridir. Bu tushunchalar ostida turmushning qog'ozlarda yozilmagan, aql va idrok bilan anglab olinadigan, faqat o'qib emas, uqib o'rganiladigan hayotiy qonunlari, talablari ifodalangan. U yoki bu narsa, voqelik shakli, kishi, unga xos faoliyat va xususiyatni qadrlashda ana shularga e'tibor bermoq kerak.

Qadriyatning qadrsizlanishi birdaniga va tasodifiy ro'y bermaydi. Qadrsizlanish muayyan aksiologik jarayondir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, moddiy sohada qadrsizlanish ma'naviy sohadagidan farq qiladi. Bir moddiy asbob, uskuna, jism yoki narsa vaqt o'tishi bilan eskirishi, qadr-qimmatini yo'qotishi mumkin. Ammo biror narsaning kerakli yoki kerak bo'lmay qolishi uning butunlay qadrsizlanishini anglatmaydigan hollar ham uchraydi. Bunday hollarda kishilar qadriyat "ob'ekt"ni esdalik sifatida saqlab yuradilar, ular muzeylardan joy oladi yoki biror-bir tarzda asraladi. Fransiyaning poytaxti parijdagi *Eyfel minorasi* o'zining asl funksiyasini butunlay yo'qotganida ham fransuzlar uchun qadrini yo'qotmaydigan qadriyat ob'ektidir. *Ulug'bek rasadxonasi* qoldiqlari orasidan topilgan *usturlob (sekstant)* ham bugungi kundagi astronomik izlanishlarda amaliy foydalanishga yaramaydi. Ammo uni buyuk bobolarimizning nazari tushgan yodgorlik sifatida o'z qadrini yo'qotgan, deb bo'lmaydi.

Qadrsizlanish muammosi ustida fikr yuritish, muqarrar ravishda, qadriyatlarni qadrlash mezonlari, qadrlash me'yori to'g'risidagi masalani chetlab o'ta olmaydi. Bu masala B.R.Karimov va B.O.To'raevlarning "Oqilona qadriyat mo'ljallari" risolasida ilmiy-aksiologik tahlil borasidagi tadqiqotlarning ob'ekti sifatida kn tartibiga qo'yilgan. Ular bu risolada "inson konsepsiyasidan oqilona qadriyat mo'ljallarini shakllantirishda foydalanishga oid bir qator metodologik xulosalar"¹ berganlar.

Har bir qadriyat ob'ektining qadrlash mezoni bor. Bu mezon u yoki bu qadriyatni qadrlashning ob'ektiv me'yorini anglatadi. Ana shu me'yorning buzilishi u yoki bu qadriyat qadrining, bir tomondan, xuddi ortiq mutlaqlashtirilishi, ikkinchi tomondan esa, aksincha, bu qadrning mutloqo e'tiborga olinmasligiga sabab bo'ladi. Xullas, qadrlash me'yorning buzilishi, har qanday holatdan ham qadrsizlanishning asosiy sabablaridan biridir.

Shaxsiy qadriyatlarni haddan ortiq mutlaqlashtirish oxir-oqibat shaxsiy egoizmga, bu darajadagi qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib keladi. Shaxs qadriyatlarini mensimaslik esa insonni tahqirlashga, uni qadriyat ob'ekti sifatidagi qadrini erga urishga, ma'naviy kamsitishga olib keladi. Bundan tashqari, qadriyatning shaxsiy darajada qadrsizlanishi, ba'zida umr ma'nosining qolmaganligi, ma'naviy tushkunlik, hayotdan to'yish, yashashdan vos kechish tarzida ham namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, xristianlikka o'tish «Bibiliya»da uch bosqichli etib ko'rsatiladi. *Birinchi* bosqichda odam xudodan va do'zax azoblaridan qo'rqqani uchun qullardek, shunchaki bir dinga e'tiqod qiladi. *Ikkinchi* bosqichda esa xudoga yalinib-yolvorib, o'z taqdirini yaxshilashni iltimos etadi. *Uchinchi* bosqichda «Injil»dagi g'oyalar uning ongi va qalbidan mustahkam o'rin olib, muqaddas ruh qaror topgach, individ erkin ravishda diniy ibodatlar, rasm-rusumlar, urf-odatlarini

¹ Каримов.Б.Р, Тўраев. Б.О. Оқилона қадрият мўлжаллари. – Т.: ТошДУ, 1994. 5-бет

bajaradi. K.Marks ham jamiyat taraqqiyotini shunga o'xshash tarzida tasavvur etib, odamzod quldorlik jamiyatida quldordan qo'rqib, feodal va kapitalistik jamiyatlarda mulkdorlarga yalinib-yolvorib hayot kechiradi. Kommunizmda esa erkin mehnatkashlar jamoasi shakllanib, ular sinfsiz va davlatsiz jamiyatda farovon turmush kechirishlarini «bashorat» qiladi. Ma'lumki, olimlar, faylasuflar azal-azaldan tenglik, adolat, erk, ozodlik, farovonlik qaror topgan ideal jamiyatni orzu qilganlar va bunday jamiyatga erishishning yo'llari haqidagi turli-tuman qarashlarni ilgari surganlar. Xristianlikdagi haloskorning kelishi va zolimlarning jazolanishi haqidagi g'oyalar ruhida tarbiyalangan Ovrupo aholisi orasida marksizm keng tarqalib, Rossiyada u o'zining takomilini topdi. Bolshevizm bu mamlaktda pravoslaviyening dunyoviy ko'rinishidagi dinga aylandi. Agar xristianlikda xristianlar chin insonlar sanalib, yereslar – dindan qaytganlar g'ayriinsonlar, ularni jazolash savob hisoblangan bo'lsa, *marksizmda mulkdorlar g'ayriinsoniylar, mulksizlar esa chin insonlar sirasiga kiritildi*. Binobarin chinakam insoniy jamiyat shakllanishi uchun mulkdor sinflarni qatli om etish qonuniy jarayon sifatida talqin etildi. Bu hol marksizmning jamiyat to'g'risidagi ta'limotining qadrsizlanishiga olib keldi.

O'tmishda xalqimizning boshiga tushgan ko'p kulfatlarning yana bir sababi shundaki, mamlakatda hamma vaqt bitta kommunistik partiya va uning oliy organi — Siyosiy byuro hukmronlik qilib kelganidadir. Hokimiyatni o'z qo'liga kiritib olgan kommunistik partiya davlatning ichidagi davlat kabi edi. Undan yuqori to'rgan hokimiyat yuq edi. Uni tanqid qiladigan, xatolarini fosh etadigan, kamchiliklarini yuzga soladigan boshqa partiyalar bo'lgan emas. Shu sababli kommunistik partiya yo'l qo'ygan xatolar ham to'g'ri deb tasdiqlanib kelingandi. Pirovard natijada bu xatolar yanada jid diylashib, chuqurlashib borib, batamom inqirozga olib keldi.

Konstitusiyada ko'rsatilgan fuqarolarning huquqlari amalda har kadamda poymol qilinib kelindi. Natijada jamiyatimizda barqarorlik, tinchlik urniga —

notinchlik doimiy siyosiy kurash xukmronlik qildi, Sobiq sho'rolar 74 yil hukmronlik qilgan bo'lsa, xalqimiz ana shu 74 yil mobaynida bir biri bilan kurashib kelishdi. Oktyabr inqilobi fuqarolar urushiga tutashib ketdi, u esa kollektivlashtirish, industrializatsiyalash jarayonida ruy bergan katta siyosiy kurashlarga aylanib ketdi. Qatag'on yillaridagi kurashlar o'z navbatida 1941 — 1945 yillardagi fashizmga qarshi olib borilgai urushlar bilan qushilishib ketdi. Bu esa o'z navbatida 50—70 yillarda jamiyatimizda avj olib ketgan kosmopolitizm, dissidentlarga qarshi olib borilgan siyosiy kurashlarni yuzaga keltirdi.

Ma'lumki, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillarida iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishi juda zaiflashib ketdi. Jamiyatning g'oyat muhim tamoyili—mehnatga yarasha taqsimlash tamoyillari buzila boshladi. Ba'-zan yuqori martabali shahslar faoliyatida yuz bergan salbiy hodisalar mehnatkash insonning dilini qattiq ranjitib, hafsalasini pir qildi, qadr qimmat va nafsoniyati kamsitilnshiga olib keldi. Kapitalistik mamlakatlarda inson haq-huquqlari, erkinlik, qadriyatlari nest nobud qilinayotganligi haqida istagancha gapirdiq shov-shuv ko'tardik o'zimizdagi uncha muncha yutuqlarni esa mutlaqlashtirdik, keragidan ortiq maqtadik. Afsuski, o'sha kezlarda sobiq sovet jamiyatida insonning or nomusi va qadriyatlari istalgancha oyoq osti qilinayottan edi. Ijtimoiy adolat buzilgan, qonun qoidalar, xuquq tartibot suiste'mol qilingan edi. O'sha davrlarda ko'pchilik odamlar noxaq qamaldi, jazolandi, aybsiz aybdor bo'lib qolishdi, insoniy qadriyatlari erga urildi.

Mahkamachilik, ma'muriy-bo'yruqbozlik xukmronlik qilgan sharoitda umumiylikning yakkalikdan, ijtimoiy manfaatlarning shaxsiy manfaatlardan ustunligi barchasi ortida inson moddiy manfaatlarining oqilona chegaralari keskin toraytirildi, socialistik to'zumning insonparvarlik mohiyati yo'qqa chiqarila boshladi. Amalga oshmagan da'vatlar va va'dalar shu qadar ko'p bo'ldiki, oqibatda ularga hech kim ishonmay qo'ydi. Insonning manfaatlari moddiy resurslar, xukuqiy kafolatlar bilan mustahkamlanmadi.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, qadrlashning teskarisi bo'lgan qadrsizlanish ko'p qirrali, murakkab aksiologik jarayondir. U xilma-xil sohalarda, turlicha tarzda, o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Mazkur muammoni o'rganish, bu jarayonga xayrixohlik kishi sifatida oddiy kuzatuvchi bo'lib qolishni emas, balki umuminsoniy qadriyatlarning haqiqiy mazmunini to'g'ri anglash, inson qadrini yanada oshirish uchun kerakli dalillar olishni bildiradi;

ikkinchidan, qadriyatlarning shaxsiy darajada qadrsizlanishida: shaxs qadrini haddan ortiq bo'rttirish, shaxsni qadriyat ob'ekti sifatida qadrlamaslik, ba'zi qadriyatlarning shaxs uchun individual tarzda qadrsizlanishi, shaxsning qadriyatni yaxshi anglanmaganligi, bilmasligi, tushinmasligi bilan bog'liq sabablar mazmunini kuzatish mumkin.

Savollar va torshiriqlar:

3. Qadrsizlanish qanday yuz beradi?
4. Shaxsiy qadriyatlar qadrsizlanishi mumkinmi?
5. Sobiq sho'rolar davrida qadrsizlangan jihatlarni ko'rsating ?

II.BOB. JAMIYAT QADRIYATLAR SOHASI VA TUZILISHI

6-mavzu. Moddiy – iqtisodiy qadriyatlar, inson hayoti va ularni jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.

1. Moddiy-iqtisodiy qadriyatlar tizimi.
2. Geografik muhit tushunchasi, uning moddiy qadriyatlarning negizi ekanligi.
3. Inson va jamiyatning tabiiy resurslardan foydalana olish imkoniyati.
4. Ikkinchi tabiat (sun'iy tabiat) moddiy qadriyat sifatida. Mulk – iqtisodiy qadriyatlar negizi ekanligi.
5. Bozor munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy qadriyat sifatida.

1. Moddiy-iqtisodiy qadriyatlar tizimi.

Ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos qonunlari mavjud, ammo ular jamiyatdan, taraqqiyotdan, qadriyatlardan ustun turadigan, ularni «belgilab keladi»gan tizim emas, balki ularning immanent xususiyati va belgilaridir. Agar qonunlar hayotdan, taraqqiyotdan ustun turganida hayotni, taraqqiyot xususiyatlarini tadqiq etib, ijtimoiy borliqning o'zgartirish yo'llarini izlab o'tirishga hojat qolmasdi. Qonunlarni o'rganib, ularning ijtimoiy hayotga samarali ta'sir etish mexanizmlarini topish etarli edi. Ammo iqtisodiy qadriyatlar jamiyat qonunlariga mutlaq bog'liq emas, degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Qadriyatlar ham, qonunlar singari ijtimoiy taraqqiyotning kategorial ifodalaridir.

Iqtisodiy qadriyatlarni sub'ektlarning maqsadi, manfaati va ehtiyojlari nuqtai nazaridan guruhlash mumkin. Bu taqdirda ular **shaxsiy, guruhiy (korporativ), milliy-etnik, umummilliy, umumijtimoiy va umuminsoniy** maqsadlarga yo'naltirilgan iqtisodiy qadriyatlarga bo'linadi. **Maqsad** qadriyatlarga mohiyat va yo'nalish berib, ularning funksional xususiyatlarini aniqlaydi. Shu bilan birga iqtisodiy qadriyatlar yo'nalishlariga, makon va zamonda namoyon bo'lishiga, tashqi va ichki belgilariga qarab ham tizimlarga ajratilishi mumkin.

Iqtisodiy qadriyatlar shaxsiy maqsadlarni inkor qilmaydi, bozor munosabatlarining liberal-demokratik tamoyillari shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning faol sub'ekti bo'lishini shart qilib qo'yadi. Akademik M.Sharifxo'jaev yozganidek, «Fuqarolik jamiyatining asosi bu – tamaddunlashgan, faoliyatda ongli va erkin, to'laqonli huquqqa ega individdir»¹. Demak, jamiyat mohiyati va sifati, eng avvalo, unda yashovchi shaxslarning teran insoniy fazilatlariga – ma'naviy madaniyatiga bog'liq. O'zbekistonda rivojlanayotgan fuqarolik jamiyatining asosida shaxs manfaatlarining tamaddunlashgan, ongli, erkin faoliyati yotadi. **Shaxsiy iqtisodiy qadriyatlar** ularning ko'rinishlariga qarshi chiqmaydi. Balki ular bilan ijobiy musobaqaga, sog'lom raqobatga, quvib o'tishga kirishib, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Korporativ (guruhiy) iqtisodiy manfaatlar mohiyatan tor doiradagi kishilarning xohish, intilish va qiziqishlari ifodasidir. Shuning uchun guruhiy (korporativ) qadriyatlarda guruhiy, sinfiy, tabaqaviy manfaatlar uyg'un keladi va kishilar ijtimoiy faoliyatining yo'nalishini, boshqarilishini belgilaydi.

Korporativ manfaatlar har doim ham shaxsiy va umumijtimoiy manfaatlar bilan uyg'un kelavermaydi, goho ular milliy-etnik yoki jamiyat manfaatlariga zid kelishi mumkin. Bu taqdirda nafaqat manfaatlar, shuningdek, qadriyatlar tizimiga taalluqli tushunchalar, hayot tarzi, normalar o'rtasida ham to'qnashuv yuzaga keladi. Bunday to'qnashuvlardan, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida, birorta davlat, jamiyat mutlaq xoli bo'lolmaydi. R.A.Dalning fikriga ko'ra, jamiyatdagi, shu jumladan, korporasiyadagi tenglik shaxs erkinligiga, adolat tamoyillariga xavf solishi mumkin². Gap shundaki, xususiy mulkning paydo bo'lishi korporasiyalarda demokratiya va o'zini o'zi boshqarishni fiksiyaga, noreal narsaga aylantiradi, chunki xususiy mulk egasi hech qachon demokratik korporativ boshqarishga yo'l

¹ Қаранг: Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т.: Шарқ, 2003; Умаров Б. Ғарб ва Шарқ либерализми//Тафаккур, 2004, 4-сон. – Б. 17-19.; Адылхожаева С. Либерализм: истоки, проявления, сущность. – Т.: Адолат, 2006. – С.12-18.

² Даль Р.А. Введение в экономическую демократию. – М.: Наука, СП «ИКПА», 1991. – С. 28-30.

qo'ya olmaydi. Korporasiyaning taqdiri, rivojlanishi uchun jamoa mas'uliyatni, mablag', resurs, xodimlar bilan ta'minlashni hech qachon o'z ustiga ololmaydi. Bu esa korporasiyadagi demokratik tizim o'zini o'zi boshqarishini shubha ostiga qo'yadi. Natijada korporasiya manfaati, qadriyati shaxsiy mulk egasining manfaatlari, qadriyatlariga aylanishi murakkablashadi¹.

Milliy-etnik qadriyatlar polietnik davlatlarda yashayotgan etnoslarga taalluqlidir. O'zbekistonda 130 dan oshiq millat va elat vakillari yashaydi. Markaziy Osiyoda ularning soni 160 dan ziyoddir. Ushbu etnoslarning milliy-etnik qadriyatlari titul millat bag'rida, ichida rivojlanish xususiyatiga ega². O.R.Musaevning fikricha, O'zbekiston uchun «bozor iqtisodiyotiga o'tish birdan-bir maqsad emas, balki shu yo'l orqali yangi qadriyatlarni shakllantirish, millatidan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun o'z qobiliyatlarini namoyon qilishlariga teng imkoniyatlar yaratish, qolaversa odamlar farovonligining sifat jihatlaridan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir»³. Demak, iqtisodiy qadriyatlar substansional asosiga ko'ra, bozor iqtisodiyotiga, milliy-etnik qadriyatlar esa millatlararo munosabatlarga asoslanadi. Iqtisodiy qadriyatlar jamiyatning bazisi sifatida milliy-etnik qadriyatlarning konstruktiv yoki destruktiv kechishiga ta'sir etadi. Ularni uyg'unlashtirish, bir-biriga xizmat qildirish davlatning iqtisodiy va etnosiyosatiga bog'liqdir.

«Umummilliy qadriyatlar» titul millatning turmush tarzi, tili, madaniyati, yaratgan artefaktlari, gnoseologik izlanishlariga taalluqli tushunchadir. Polietnik davlatlarda iqtisodiy qadriyatlar biror-bir millatgagina taalluqli bo'lib qololmaydi, ular barcha millat, elat, etnoslarga taalluqlidir. Biroq bu umummilliy qadriyatlar birligini, ularning iqtisodiy hayotga, jarayonlarga ta'sirini inkor qila olmaydi. Masalan, o'zbek xalqiga xos mehnat qilib kun ko'rish, oila boqish, birovning

¹ Ўша асар. – Б. 98-99.

² Қаранг: Саралаев У.К. Международное общение: теория и практика. – Т.: Мехнат, 1999. – С.54-56; Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этник жараёнлар. –Т.: ТМИ, 2004. – Б. 62-66; Мусаев О.Р. Мустақил Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: Ijod dunyosi. 2004. – Б. 14-15.

³ Мусаев О.Р. Мустақил Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: Ijod dunyosi, 2004. – Б. 58.

mulkiga ko'z olaytirmaslik, boshqalardan o'zib ketib, boyligini ko'z-ko'z qilmaslik, topganiga shukur qilib yashash kabi fazilatlar – qadriyatlar bugun qaror topayotgan bozor iqtisodiyotining asosi bo'lib qolmoqda. Demak, iqtisodiy qadriyatlar umummilliy qadriyatlardan ayricha shakllanmaydi, ular bir-birini to'ldirib, boyitib keladi.

Umumijtimoiy qadriyatlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, avvalo manfaatlar shaklida namoyon bo'la boradi. Binobarin, ehtiyoj, manfaat, qiziqish tushunchalari umumijtimoiy qadriyatlar sifatiga kiradi. **Ehtiyoj** – odamning biologik, psixologik, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – huquqiy, ma'naviy talablaridir. Masalan, yaxshi san'at asari badiiy-estetik talablarimizni qondirsa, yaqin kishilarning yaxshi muomilasi, munosabatini, insoniy odob-axloqi, faxm-farosati, ma'naviy istak va ehtiyojlarimizni qondiradi. Manfaat esa – odamning inson ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan yoki qondira oluvchi predmet va voqea – xodisalarga yo'naltirilgan his – tuyg'usi, fikridir.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha qadriyatlarning yuqori cho'qqisi, ular uchun mayoqdir. Milliy-etnik qadriyatlarning qanchalik progressiv yoki regressiv ekanligi umuminsoniy qadriyatlar orqali aniqlanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan umuminsoniy qadriyatlar bugun bozor iqtisodiyotida namoyon bo'lmoqda. To'g'ri, bozor iqtisodiyotining barcha modellari va qadriyatlari ham ayrim olgan davlatga yoki xalq hayotiga to'g'ri kelavermaydi. Bu taqdirda bozor iqtisodiyotini milliy zaminga moslashtirish, uyg'unlashtirish talab etiladi. Masalan, «turk modeli», «xitoy modeli», «o'zbek modeli» kabi milliy taraqqiyot yo'llari shunday sa'y-harakatlar mahsulidir.

Yuqoridagilardan xulosasiga ko'ra, iqtisodiy qadriyatlar, munosabatlar jamiyat uchun bazis rolini o'tasa-da, ular quruq joyda, ayrim kishilar yoki guruhlarining xohishi natijasida shakllanmaydi, balki ular butun ijtimoiy hayot, jamiyatda amal qilayotgan qonunlar, millat, elat va xalqlarning farovon yashashga

bo'lgan intilishlari kabi rang-barang omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ularda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, integrasion aloqalarining ko'lami, ilmiy-texnik imkoniyati va kishilarning turmush darajasi aks etadi. Shu tariqa qadriyatlar sub'ektiv kategoriyadan kishilar va jamiyat taraqqiyotiga taalluqli ob'ektiv voqelikka aylanadi.

2. Geografik muhit tushunchasi, uning moddiy qadriyatlarning negizi ekanligi.

Jamiyatga ta'sir etadigan tabiiy omil – geografik muhit hisoblanadi. Tabiatning jamiyatga ta'sirining muhim tomonini geografik muhit tashkil etadi. Geografik muhit muayyan tarixiy davrda inson va jamiyat hayoti kechadigan makon. «Geografik muhit» tushunchasi ijtimoiy falsafaga olimlar E.Reklyu va L.M.Mechnikov tomonidan kiritilgan.

Geografik muhit inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiat elementlari majmuasi, ijtimoiy munosabatlar kechiradigan tabiiy makon. Geografik muhit bilan jamiyat orasidagi uzviy bog'liq, aloqadorlik dialektik xarakterga ega. Buning ma'nosi shuki, geografik muhit jamiyatga, jamiyat ham o'z tavbatida geografik muhitga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Jamiyat tabiatdan oziq-ovqat mahsulotlarini, ishlab chiqarish vositalari uchun xomashyolarni va energiya manbalarini oladi. Geografik muhit ishlab chiqarishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Geografik muhitning jamiyatga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Geografik muhit ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mehnat taqsimotining chuqurlashib boruvida, ishlab chiqarish turli sohalarining joylanishi va taraqqiyotida namoyon bo'ladi.

2) U mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi. Buni ob-havo sharoitlarining ishlab chiqarishga ta'siri misolida ko'rish mumkin. Aynan tabiiy hodisalar inson

faoliyati natijalarini yo'qqa chiqarish mumkin. (Masalan: suv toshqini, qurg'oqchilik va h.k.).

3) Geografik muhit, tabiiy shart-sharoitlar ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining tezlashuvi yoki sekinlashuviga ta'sir ko'rsatadi.

4) Geografik muhit inson qobiliyatlarining taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir avvalo ijtimoiy ongning shakllanishi va taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda geografik muhit jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sir qiladi.

5) Geografik muhit jamiyat taraqqiyoti templariga o'z ta'sirini o'tkazadi. U jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin.

6) Geografik muhit ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasida tabiiy shart-sharoitlar juda qadimlardan boshlab sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan.

7) Geografik muhit jamiyatning ijtimoiy-ruhiy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi.

“Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik?”... Shu o'rinda Prezidentimiz butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilib, unga sabab bo'layotgan omillarni nomma-nom sanab o'tadi. Ular quyidagilar:

- ✓ bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish;
- ✓ etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

- ✓ qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;
- ✓ dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;
- ✓ mamlakatlar, halqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi.

3. Inson va jamiyatning tabiiy resurslaridan foydalana olish imkoniyati

Tabiiy qadriyatlarga er va er osti boyliklari, suv, xavo, o'rmonlar, o'simliklar, xayvonot dunyosi va boshqalar kiradi.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston zamini xilma xil qazilmalarga boy. Er yuzasiga yaqin yotgan qazilmalarning aksariyati ochilgan va ular xalq xo'jaligi, fan va texnika tarakqiyoti uchun xizmat qilmoqda. Shu bilan birga xali ochilmagan, ruyobga chiqmagan konlar ham ko'p. Bu konlarning juda oz qismi bevosita er yuziga chiqqan bo'lsa, aksariyati er ichkarisida yashirinib yotibdi.¹ Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy xom ashyo uyumlari «foydali qazilmalar» O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, uning asosiy qadriyatlaridandir. O'zbekiston behisob tabiiy boyliklarga, qulay jug'rofik muxitga ega.

Tabiat tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar, ya'ni yonilg'i, har xil metallar, rudalar, havo, suv, o'simliklar, xayvonot dunyosi bo'lmasa insoniyat yashay olmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarning bosh manbai sifatida ham, cog'lik, shodlik, turmushga mehr-muxabbatning va har bir kishidagi

¹ Қаранг:Хамроев И. Кўз илғамас хазиналар. -Т.:Фан,1990.

ma'naviy boyliklarning bitmas tuganmas omili sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yuqotmaydi.

Ona Er kishilar uchun moddiy ne'matlar manbai, dastlabki mehnat vositalarining xazinasidir, insoniyat taraqqiyotining beshigidir. Erdan inson o'zi uchun zarur narsalarni undiradi. Er insonni boqadi. Taniqli ingliz iqtisodchi olimi Vil'yzm Petti aytganideq, mehnat boylikning otasi bo'lsa, Er uning onasidir. Insonning kundalik hayoti va sevinchlari ham Er tufaylidir. Shunday ekan, inson uchun g'oyat darajada muxim va zarur bo'lgan hayot manbai Erni qadrlamaslik e'zozlamaslik mumkin emas!

Zotan, O'zbekiston Konstitusiyasining 55-moddasida yozib qo'yilgan: «Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir»¹.

Tabiiy moddiy qadriyatlarimizdan unumli foydalanishda mulkiy munosabatlarning tubdan o'zgartirish katta ahamiyat kasb etadi. Shuni e'tiborga olgan holda respublikamizda mulkni davlat tasarrufmdan chiqarib, uni haqiqiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib beri shva mulkdorda mulk egasi hissiyotini tarbiyalashga qaratilgan ishlar rivoj topmoqda.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida turli foydali qazilma boyliklarining 200dan ortiq zaxirasi aniqlanib rasmiylashtirilgan. O'zbekiston oltin zaxirasi bo'yicha ilg'or beshlikka kiradi va uni qazib olish bo'yicha to'qqizinchi o'rinda turadi². Bugungi kunda O'zbekistonda 900 ta kon ochilgan, ularda mineral xom ashyoning qariyb 100 turi qazib olinadi, shundan 60 turdan ortig'i sanoatda o'zlashtirilgan va ishlatiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон, 2012, 11 – бет.

² Мамашакиров С.Ваҳимами ёки Ҳақиқат. Т.: Iqtisod-Moliya, 2012, 185-бет

Mintaqaviy va jahon iqtisodiyotiga qo'shilishda davlatlararo munosabatlarni, jumladan, markaziy Osiyo va mustaqqil davlatlar hamdo'stligi bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, tabiiy, moddiy qadriyatlarimizni birga baham ko'rish katta ahamiyat kasb etadi. MDHni tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish – O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston hamdo'stli g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, barcha qatnashchilarning teng huquqliligi asosida uni mustahkamlash va rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, O'zbekiston MDHdagi sheriklari bilan o'z munosabatlarini ko'p tomonlama davlatlararo va hukumatlararo shartnomalar hamda bitimlar doirasida ham, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri ikki tomonlama muloqotlar, o'zaro manfaatli savdo – iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy aloqalarni o'rnatish tarafdoridir. Ana shunga qat'iy amal qilib, respublikamiz o'zimizga yondosh bo'lgan markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish sohasida ko'p ishlarni amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo respublikalarining tarixi, madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihatlarini bir-biriga nihoyatda o'xshash. Ularning hozirgi kundagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik muammolari ko'p jihatdan bir xildir. Mazkur respublikalarning iqtisodiyoti bir-biri bilan tutashib ketgan va ular bir-biriga o'zining ta'sirini o'tkazib turadi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma'naviy aloqalari qanchalik chuqur va tez mustahkamlansa mazkur mamlakatda islohotlar shunchalik tez amalga oshadi. Xalqimizning farovon yashashiga keng imkoniyatlar ochiladi. Markaziy Osiyo respublikalari yaxlit energetika, transport, irrigasiya tarmoqlari, suv va gaz ta'minoti tizimidan birgalikda foydalanish imkoniyatiga ega. Shuningdek, ular mineral xom – ashyo

resurslarini va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash sohasida mintaqaviy kooperasiyani yo'lga qo'yishdan, Orol bo'yidagi ekologiya falokati oqibatlarini bartaraf etish, orol dengizini qutqarish kabi tadbirlarni birgalikda amalga oshirishdan foydalanadirlar.

Markaziy Osiyo respublikalari behisob tabiiy boyliklarga ega. Biz bu boylikni birgalikda o'zlashtirishimiz, iqtisodiy, ma'naviy va insoniy salohiyatlarimizni yanayam jipslashtirish yo'lidan borishimiz maqsadga muvofiqdir. Bu to'g'risdagi I.A.Karimov shunday deydi: «Eng avvalo, iqtisodiy mustaqqilligimizni ta'minlaydigan sanoatning butun negizini rivojlantirish, boy xom-ashyo, moddiy resurslarimiz asosida tayyor mahsulot olishga qaratilgan yuksak texnologik loyixalarni, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish – mamlakatimizning oldida turgan muhim vazifadir».

Jahon hamjamiyatiga qo'shilishdan milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz bir-biriga yaqinlashtirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish katta o'rin tutadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Biz turli mamlakatlar iqtisodiyotini o'ziga xos taraqqiyotini katta diqqat e'tibor bilan o'rganamiz, jahon amaliyoti va jahon taraqqiyotida to'plangan eng yaxshi tajribalarni o'zimizda qo'llanishni or bilmaymiz, aksincha bunday yo'nalishni har jihatdan rag'batlantiramiz».

4. Ikkinchi tabiat (sun'iy tabiat) moddiy qadriyat sifatida. Mulk – iqtisodiy qadriyatlar negizi ekanligi.

Inson mehnati, xatti-harakati, aql zakovati bilan yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni turli tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob-uskunalar, turar joy, mol-mulk, noz-ne'mat va shu qabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi.

Tabiatga antropogen va antropotexnogen ta'sir, ya'ni tabiatni «ijtimoiylashtirish» jarayoni biologik organizmlarning tabiatga moslashish xususiyatlariga jiddiy putur etkazmoqda. Xususan, XX asrda «insonning industrial

va texnik qudrati g'oyat kuchayib ketishi biosferaga zarar etkazadi, uning tirik mavjudotlari miqdori va xilma-xilligini yo'qota boshladi. Insoniyat tirik organizmlarni shunday yuk bilan bosdiki, bu ularning kompensatorlik imkoniyatlaridan oshib ketdi"¹. Shuning uchun jamiyat ekologik barqaror taraqqiyoti muammolari echimi, ularning ob'ektiv shart-sharoitlari va sub'ektiv omillari birligini ta'minlaydigan ilmiy asoslarini ishlab chiqishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Zero, jamiyat ekologik barqaror taraqqiyotning asosiy maqsadi ham tabiatga antropotexnogen ta'sir natijasida vujudga kelgan sun'iy muhitga insonni va boshqa tirik organizmlarni samarali moslashtirish usullarini, vositalarini topishdan iboratdir.

Atmosfera ozon qatlami emrilishi haqidagi tahlika, sarosima asossiz, ya'ni industrializasiya, iqtisodiy taraqqiyot natijasida vujudga keladigan "parnik effekti" shakllanishi uzoq davom etadigan hodisa bo'lib, insoniyatning kelajagiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti natijasida energiyaaning noan'anaviy yangi manbalari qidirib topilmoqda, masalan keyingi 30 yil ichida quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyati oshib, har o'n yilda ikki marta arzonlashmoqda va bu jarayonning keyinchalik ham jadallashuvi kutilmoqda.

Mulk – iqtisodiy qadriyatlar negizi ekanligi. Mulk avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishi ham mumkin. Mulk mulkdorning tasarrufida bo'lgan barcha tirikchilik va ishlab chiqarish vositalaridir. Mulkning shaxsiy, xususiy, jamoa, davlat mulki singari shakllari mavjud. Mulk egasi o'z tasarrufidagi mulkni avaylab-asraydi, tejaydi, undan oqilona foydalanid va muttasil ravishda ko'paytirishga harakat qiladi. Bozor munosabatlarining o'tish davrida davlat hususiy mulkni qo'llab-quvvatlaydi, mulkdorlikning turli shakllarini rivojlantiradi, xususiy mulk dahlsizligini huquqiy kafolatlaydi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun imtiyozli predmetlar berishni yo'lga qo'yadi. Bu esa ularning mulkdor bo'lishi, o'ta mulkdor bo'lishi, o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishi

¹ Мамашокиров.С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Тошкент. Иқтисод-молия 2012, 40-бет

uchun keng imkoniyat yaratadi. Mustaqqillik sharoitida aqliy mehnat maxsuli bo'lgan fan, san'at asarlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ta'lim-tarbiyaning yangi konsepsiyalarini yaratish intellektual mulk hisoblanadi. Intellektual mulk egasi o'z mehnati mahsulini o'z hoxishiga tasarruf etadi. Bunday mulkning qadrigimmati, bahosi, sifati, jamiyatda tutgan o'rni raqobatli muhitda yaqqol namoyon bo'ladi. Intellektual mulkning talablari buyurtmachisi davlat va jamiyatdir.

Hozirgi paytda mehnat, mulk, foyda hal qiluvchi o'rin tutadi. Hozirgi paytda mehnat, mulk, foyda tushunchalarini falsafiy, iqtisodiy jihatdan teran idrok etish, yoshlar dunyoqarashidan yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularni jahon sivilizasiyasi andozasi talablari darajasida fikr yuritishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi.

Mulkiy munosabatlar jamiyatda kishilar kirishadigan barcha boshqa munosabatlarning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Inson jamiyati tarixiy taraqqiyotini barcha bosqichlari ayni mulkchilikning muayn tarixiy shakllari bilan izohlanadilar. Kishilarning mulkka bo'lgan munosabatlari ular o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarning xususiyatlarini aniqlaydi. Masalan, mulkdorlar o'rtasida tenglikka asoslangan o'zaro foydali hamkorlik munosabatlari qaror topsa, mulkdorlar bilan mulksizlar o'rtasida – xo'jayinlik va tobelik munosabatlarining tegishli turlari o'rnatiladi. Mulk to'g'risida taniqli faylasuf A.Jalolov shunday deydi:

Egasiz narsa – Mulk emas, Mulksiz kishi – shaxs emas;

Mulkdor – qadrining, Mulksiz – qornining quli;

Shaxs – qaror, ijro va mas'liyat uyg'unligi sohibi;

Mulksiz uchun na Manfaat, na Bozor, na Axloq va na Qonun bor;¹

¹ Жалолов А. Манглик – эзгуликда! // Самарқанд-Тошкент. Илм-фан ва таълим – истиқлол пойдевори номли република илмий-назарий семинар материалдан. 2013, 14-б

5. Bozor munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy qadriyat sifatida.

Bozor munosabatlari xalqimiz ongida yangi iqtisodiy qadriyatlarni yaratib, ularni yangicha yashash tarziga kiritib bormoqda. Kishining erkin mehnatiga, oldi-sotdiga va iste'molchilar ehtiyojlarini to'la qondirishga asoslanganlik ushbu qadriyatlar xalqimizni azaliy qadriyatlarga zid emas.

Keyingi yillarda bozor munosabatlari ijtimoiy borliqdan, jamiyat hayotidan chuqur joy oldi. Ular jamiyatni demokratlashtirish, erkinlashtirish va modernizasiyalashtirishning samarali vositasi ekanligini namoyon qildi, insonning borliqdagi o'rnini yangi pog'onaga ko'tardi. R.A.Dalning ta'rifiga ko'ra, demokratiya «inson erkini, faoliyat tarzini, korporasiyalardagi o'zini o'zi boshqarishni, butun ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotni «haqiqiy erkinlik» tomon o'zgartirishga yordam beradi¹.

N.Jo'raevning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyoti O'zbekistonda shakllangan bozor munosabatlari quyidagi hayot mantig'iga mos keladigan yo'nalishlarga muvofiq keladi: «birinchidan, mulkchilikning barcha shakllariga erkinlik berilishi, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka yo'l ochish, tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi; ikkinchidan, iqtisodiy jonlantirish uchun xususiylashtirish jarayonining tezlashuvi, mulkchilik, mulkka egalik huquqining kengaytirilishi; uchinchidan, milliy valyutaning joriy qilinishi, jahon moliya tizimi maydonlariga endigina kirib kelgan valyutamiz qadr-qimmatini, barqarorlik darajasining ta'minlanishi; to'rtinchidan, iqtisodiy siyosatda dehqonchilikka, umuman, qishloq hayotiga an'anaviy muhim tarmoq sifatida qaralishi; beshinchidan, o'tmish madaniyati va qadriyatlarini tiklash ishlarini yo'lga qo'yish, bu boradagi izchil tadbirlarni amalga oshirishdan iborat konsepsiya va iqtisodiy islohot nazariyasining yaratilishi»². Mazkur vazifalarning bajarilishi O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirishga qaratilgan tub islohotlarni bosqichma-

¹ Каранг: Даль Р.А. Введение в экономическую демократию. – М.: Наука, СП «ИКМА», 1991. – С. 66-68.

² Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 301.

bosqich amalga oshirish imkonini beradi. Demak, O'zbekistonda joriy etilgan bozor munosabatlari nafaqat real, shu bilan birga pozitiv voqelikka aylandi. Buni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan aniq vazifalarda ko'rish mumkin:

birinchidan, o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratilishi. Bu o'rinda Respublikamizda *Fuqarolik, Er, Soliq va Bojxona kodekslari*, *«Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»*, *«CHet el investisiyalari to'g'risida»*, *«CHet ellik investorlar» huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»*, *«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»*, *«Xususiy korxona to'g'risida»*, *«Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»*, *«Fermer xo'jaligi to'g'risida»* kabi 400 dan ziyod qonunlar qabul qilindi. Me'yoriy-huquqiy bazaning yangilanib, to'ldirilib borilishi hayot talabidir. Shuning uchun I.A.Karimov quyidagilarni amalga oshirish lozim deb ko'rsatadi: «Birinch navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkning daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir»¹. Shuningdek, davlat rahbarimiz **«Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida»**gi Qonunni ishlab chiqishni, biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish, xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish haqida, **«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»**, **«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»**, **«Raqobat to'g'risida»** kabi yangi qonunlar qabul qilish zarurligini uqtiradi². Demak,

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш — мамлакатимиз taraqqiётининг asosiy mezonidir. Т.19. — Т.: O'zbekiston, 2011.— Б. 99.

² Ўша asar. — Б. 102-104.

ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar mavjud me'yoriy-huquqiy bazani doimo to'ldirib borishni taqozo qiladi, yangi qonunlar ishlab chiqish va ularni qabul qilish bozor munosabatlarini rivojlantirish shartidir. Gap shundaki, qonunlar strategik maqsadlarga xizmat qilishga qaratilgani uchun hayot ortidan chopmasligi, balki hayotdan oldinroq yurishi darkor. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud voqelikni qayd etishga qaratilmaydi, balki, iqtisodiy, umuman, barcha munosabatlarni jamiyatning strategik maqsadiga yo'naltiradi;

ikkinchidan, ma'muriy buyruqbozlik tartibotlariga barham berilishi va institusional qayta qurishlarni amalga oshirilishi. Bozor iqtisodiyoti va ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bir-biriga zid, antipod hodisalardir. Bozor iqtisodiyoti faoliyatni erkin, bozor talablariga va xaridor ehtiyojlariga muvofiq olib borishni taqozo etadi. Erkin faoliyat ham, xaridor ehtiyoji ham bozor munosabatlarini yo'lga qo'yuvchi, rivojlantiruvchi qadriyatlardir. Mazkur ikki qadriyat yo'q joyda bozor munosabatlari ma'muriy-buyruqbozlik boshqarish usuliga aylanadi. Masalan, totalitar tuzum davrida ham ishlab chiqarish bilan xaridor, sotuvchi bilan oluvchi o'rtasida munosabatlar bor edi, ammo unda xaridorning ehtiyoji emas, balki socialistik xo'jalik manfaatlari ustun turgan.

Jamiyatning yangilanishi mazkur iqtisodiy munosabatlarni qayta qurishni, inson manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladigan yangi ishlab chiqarish kompleksini yaratishni talab etdi. Natijada O'zbekistonda davlat mulki hissasini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ko'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirishga kirishildi. Mana shu jarayonda xususiy mulk, oilaviy biznes, tadbirkorlik, raqobat, iqtisodiy erkinlik, fermerlik, xususiy kapital degan yangi qadriyatlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, individlarning mehnat jamoalariga, biznes bilan shug'ullanuvchi firma, qo'shma korxona, kooperativlarga birlashib ixtiyoriy faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega edi. Chunki «Iqtisodiyot tovarlar, xizmatlar, faoliyatlar almashish jarayoni bo'lib, unda alohida-alohida individlar ijtimoiy jamoalarga birlashadilar. Bunda munosabatlar sub'ekti bo'lib, birinchi navbatda

individlari hisoblanadi. Ikkinchidan, individlarda birlashgan ijtimoiy guruhlarining roli yaqqol sezilib turadi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida manfaatlar turli o'ringa va turli xil mulk hamda madaniyatga ega bo'lishsa-da, ularda mushtarak manfaatlar ifodalandi. Bu fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tarkibini tashkil etadi»¹. Demak, ma'muriy buyruqbozlik boshqarishi o'rniga barpo etilgan bozor munosabatlari, iqtisodiy demokratiya yangi qadriyatlarni shakllantirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etishga olib keladi;

uchinchidan, «O'zbek modeli»ning O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi o'rnini. Totalitar tuzum davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, ishlab chiqarishning zamon talablaridan orqada qolgani, ishlab chiqarish bilan inson manfaatlari, ehtiyojlari o'rtasidagi ziddiyatlarning o'sishi, ko'payishi butun ijtimoiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmasdi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirmay, shu bilan birga yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni joriy qilmay tanazzuldan chiqish amri mahol edi. «O'zbek modeli» bir-biriga dialektik bog'liq: birinchidan, jamiyatda yangi qadriyatlarni, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tamoyillarni qaror toptirishga, ikkinchidan, milliy zaminga, xalqimiz mentaliteti, tarixiy-madaniy tajribasi, turmush tarziga mos kelgan, hammaga tushunarli andozani yaratishga qaratilgan bo'lishi zarur edi. O'tgan yigirma yil mazkur yondashishning to'g'riligini ko'rsatdi va jamiyatni inqirozdan olib chiqdi. «...biz bugungi kunda butun dunyoda tan olingan taraqqiyot modelini ishlab chiqdik. Bu modelning asosiy tamoyillari, ya'ni iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tajrijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyillari barchamizga yaxshi ayon»². Ushbu fikrni ahamiyati shundaki, «o'zbek modeli» jamiyat yangilanishining iqtisodiy andozasi sifatida a) kishilar ongida bozor munosabatlarini yangi qadriyat sifatida shakllanishiga yordam beradigan tushunchalar va qarashlarni paydo qildi; b) jahon andozalarini, umuminsoniy

¹ Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т.: Шарк, 2003. – Б. 46.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 103.

qadriyatlarni milliy zaminga tatbiq etish imkonini berdi; u milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zaminida uyg'unlashtirish yo'llarini ko'rsatdi; g) har qanday islohot, ayniqsa, u xalq, millat hayotiga taalluqli bo'lsa, tarixiy-madaniy qadriyatlarga, milliy an'analarga, xalqning, millatning mentaliteti, ehtiyoji va qiziqishlariga mos kelgan taqdirdagina kutilgan natijalarga olib kelishi mumkinligini isbotladi.

Bozor munosabatlari sharoitida shaxs erkinligi masalasi muhim vazifalardan biriga aylanadi. Insoniyat erk, erkinlik va hurlikni orzu qilib, ijtimoiy hayotda ularni qaror toptirishga intilib keladi. To'g'ri, bu borada turli qarashlar, konsepsiyalar mavjud. Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti bergan imkoniyatlardan foydalanish, o'zini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda to'la namoyon etish kishiga erkin yashashni o'rgatadi. Shu paytgacha tadqiqotchilar, mutfakkirlar erkinlikni, inson erkini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan tashqaridan qidirib keldilar, vaholanki bazis insonni ijtimoiy hayotning haqiqiy sub'ektiga aylantirishi mumkinligi e'tirof etilmadi. T.Gobbs qayd etganidek, «Erkin inson deganda, o'zi istagan narsani qilishga aqlan va jismonan qodir bo'lgan insonga qarshi to'sqinlikning yo'qligini anglatadi. Bizning erkin gapirayotganimiz – ovoz yoki ifoda erkinligi emas, balki aynan shunday so'zlash biror bir qonun bilan taqiqlanmaganini anglatadi. Erkin iroda deganda iroda, xohish yoki maylning erkinligi emas, balki insonning irodasi, xohish-istagi yoki mayliga to'sqinlikning mavjud emasligi tushuniladi»¹. Bozor munosabatlari ana shunday to'sqinliklarga o'rin qoldirmagani tufayli o'ziga xos «erk maydoni» vazifasini o'taydi, ya'ni shaxsga o'z qobiliyatlarini, iqtidorini to'la namoyon etish imkonini beradi. T.Gobbs iborasi bilan aytganda, «fuqarolar suveren davlat (hokimiyat, hukmdor) tomonidan qonun-qoida vositasida belgilab qo'yilmagan sohalaridagina (masalan, erkin sotish va sotib olish, bir-birlari bilan o'zaro shartnomalar tuzish, yashash joyini

¹ Қаранг: Умаров Б., Саидов У. Ғарб ижтимоий тафаккурида эркинлик ғояси тақомили (Биринчи китоб). – Т.: Академия, 2010. – Б. 276.

belgilash, ovqatlanish va turmush tarzi, o'z xohishiga ko'ra bolalariga tarbiya berish va hokazo) erkindirlar»¹.

Bozor munosabatlari raqobatni ham qadriyatga aylantiradi. Kishilar raqobatni dushmanchilik kayfiyati, ko'raolmaslik singari illat sifatida emas, balki bozor iqtisodiyoti va demokratiyasi bergan “sog'lom raqobat” imkoniyati deb tushunishlari lozim. Aynan shu ma'noda ular raqobatni ham erk, erkin yashashning bir ko'rinishi sifatida qabul qiladilar. Bozor munosabatlari deganda ko'pincha ilmiy adabiyotlarda xususiy mulk, mulk shakllari tushuniladi yoki asosiy e'tibor mulkka qaratiladi. Mulkning pozitiv, demokratik xususiyatlarini e'tirof etgan holda aytishimiz kerakki, mulk ham erk, erkinlik ifodasidir. Bugun kishilarimiz mulkni bozor munosabatlari yaratgan qadriyat sifatida qabul qilmoqda. Ammo, bizning fikrimizcha, mulk ham, erk ham bir-biriga bog'liq qadriyatlardir. **Birinchidan**, mulkni o'z iqtidori, kuchi, erkiga ishongan kishigina yarata oladi. Mute kishiga berilgan mulk uni battar mutega aylantiradi. Shuning uchun o'z iqtidori, kuchi va erkiga ishongan kishigina mulkning haqiqiy egasi, xususiy mulkdor bo'la oladi. **Ikkinchidan**, mulki yo'q odam mulki bor odamga yo bevosita yoki bilvosita bog'liq, hatto qaram bo'ladi. Agar jamiyat va davlat xususiy mulkdorlar sinfini yaratishni bosh maqsad qilib qo'ysa, mulki yo'q kishining mulkdorga qaram bo'lishi turgan gap. Jamiyatning barcha a'zolarini xususiy mulk egasi, mulkdor qilishni tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, bozor munosabatlari barchani xususiy mulk egasi, mulkdor qilishni emas, balki barchaga o'z iqtidori, kuchi, intellektini to'la namoyon qilish imkonini berish bilan e'tiborlidir.

¹ Ўша асар. – Б. 277.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, Milliy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar genezisida, negizida egosentristik emas, balki ekssentrik, ya'ni boshqa xalqlar, millatlar va mintaqalar bilan integrasiyaga kirishib yashash kurtagi mavjudligida. Ma'lum bir siyosat, tuzum, mafkura xalqlarga, millatlarga integrasiyaga kirishib yashashga xalaqit berishi mumkin. Masalan, sobiq ittifoq totalitar davlati paytida shunday bo'lgan edi. Lekin xalqlar, millatlar boshqa xalqlar, millatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga kirishib yashash istagidan hech qachon voz kechmagan. Integrasiya xalqlar, millatlar rivojlanishining immanent xususiyatidir;

Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlarning rivojlanishi, yoyilishi, jahon sivilizasiyasidan o'rin egallashi uchun imkoniyat berganida. Tor, milliy qobiqda qolish qadriyatlarning ijtimoiy mohiyatiga ziddir, ularga «ochiq tizim» bo'lish xosdir. Bunday ochiqlik ularni boshqa milliy qadriyatlarga intilib, ular ta'sirida boyib, rivojlanib, umuminsoniy fazilatlarni, xislatlarni barqaror voqelikka aylantirib yashashga undaydi;

Uchinchidan, bozor munosabatlari hamma narsani, hatto insonning aqlu idroki, quvvati, topqirligini ham oldi-sotdi ob'ektiga aylantirishi mumkin. Bunday salbiy hollardan hatto bir necha asrdan beri bozor munosabatlari ayrim nomaqbul hollarni ham keltirib chiqargani uchun jamiyatning barcha a'zolari tomonidan faqat pozitiv qadriyat sifatida qabul qilinmasligi mumkin.

Savollar va torshiriqlar:

1. Moddiy iqtisodiy qadriyatlar tizimi qanday shakllanadi?
2. O'zbekistonda necha xil mulk turi mavjud?
3. Suniy tabiat va tabiiy riallik mavzusida esse tayyorlang?

7- mavzu. Madaniy – ma’naviy qadriyatlar, ularni inson va jamiyat hayotidagi o’rni.

1. Ilm - fan yutuqlari qadriyat sifatida
2. O’zbekistondagi arxitektura, madaniy obida va yodgorliklar, adabiyoti san’at asarlari va ularni jamiyatimiz ma’naviy rivojida roli.
3. O’zbekistonning ilmiy - texnikaviy va intellektual salohiyati uni ilg’or mamlakatga aylanishining zamini ekanligi.

1. Ilm - fan yutuqlari qadriyat sifatida. Bilishning ma’naviy qadriyatlari.

Har qanday ilmiy tadqiqotda ma’naviy qadriyatlar va me’yorlar mavjuddir. Ilmiy metod negizini ob’ektivlik va oqilonalik kabi an’anaviy ma’naviy qadriyatlar tashkil etishi lozim. Ob’ektivlik olim tadqiqot me’yorlarini tanlashga nisbatan vijdonan yondashishi, shaxsiy manfaatdorlikni siqib chiqarishi, haqiqatni guruh manfaatlaridan ustun qo’yishini nazarda tutadi.

Ayrim ilmiy konsepsiyalar eskirishiga qarab o’ziga xos «timsol» belgilarini kasb etadi. Eskirgan konsepsiyalardan voz kechish ko’pincha ularni yaratuvchilarning qarshiligini bartaraf etish bilan bog’liq. Olim ba’zan fanda inqilobga yo’l ochuvchi yangi g’oyalarni afzal ko’rishga o’zida kuch topa olmay, eskicha yondashuvlar asiri bo’lib qolishi mumkin.

Bilim va haqiqat amalda ayniy tushunchalardir. Bilish – narsalarning haqiqiy holatiga mos keluvchi ishonchli axborotga ega bo’lish demak. Haqiqiy bilimga erishish mumkinmi? Qanday bilimni haqiqiy deb hisoblash mumkin? Bilim haqiqiyligining ob’ektiv va mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu savollarga javoblar fan va falsafaning rivojlanishiga doimo yo’ldosh bo’lgan. Masalan, Aristotel haqiqatni borliq bilan tenglashtirgan. Uning fikricha, o’zgarmas narsalargina haqiqiydir, haqiqat borliqning oliy shaklidir.

Skeptisizm vakillari, aksincha, bilimning predmetga muvofiqligi masalasi bahsli bo’lib, uni isbotlash mumkin emas, chunki bilishni chalg’ituvchi yoki unga

monelik qiluvchi omillar mavjud, deb hisoblaganlar. Bilimning nomuvofiqligi sabablari bilish ob'ekting tarkibida bo'lishi mumkin. Dunyo shu darajada cheksizki, inson o'z tafakkuri bilan uni qamrab olishga qodir emas. Haqiqiy bilimga erishishga qiluvchi sub'ekting xossalari ham monelik qilishi mumkin. Inson sezgi a'zolarining aldamchiligi va ishonchsizligi antik davridayoq qayd etilgan edi. Keyinchalik Yum, Berkli va uning izdoshlari insonning sezgilar dunyosini mutlaqo sub'ektiv deb ko'rsatdilar va shu yo'l bilan insonning sezgi a'zolariga ishonchsizlik bildirdilar.

Bilishning taraqqiyoti jarayonida olimlar bilimlar haqiqiyligining ishonchli mezonlarini topish yo'lida ham izlanishlar olib bordilar. Haqiqatning mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu mezonlarni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkinmi yoki u faqat ilmiy bilimga nisbatan amal qiladimi? Falsafada bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin bo'lgan mezonlar, shuningdek faqat ilmiy bilim talablariga javob beradigan mezonlar yaratilgan. Ular orasida quyidagilar qayd etilgan: umumiy ahamiyatga moliklik mezoni (ko'pchilik qabul qiladigan narsa haqiqiydir); g'oyaning foydaliligi, amaliy samaradorligi va ishga yaroqliligi, uning u yoki bu maqsadga erishish uchun foydaliligi mezoni (pragmatizm). Odamlar ishonadigan narsalar, olimlar o'rtasidagi shartli kelishuvga mos keladigan narsalar va hodisalar (konvensionalizm), mavjud nazariyaga muvofiqlik mezoni talablariga javob beruvchi narsalar va hodisalar haqiqiy deb atalgan.

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy – ma'naviy taraqqiyotida, ijtimoiy – siyosiy, axloqiy, diniy, falsafiy ta'limotlari rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'ldi.

Bu madaniyat jonlanish va yuksalish jamiyat hayotini qamrab oladi. Ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, etakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. Markaziy osiyo jahon

madaniyati taraqqiyotining yirik uchoqlaridan biriga aylanishi xudi shu paytlarga to'g'ri keladi.

Madaniyat va ma'naviyatning jadal sur'atlar bilan taraqqiyo etib borishini hayotiy zaruriyatga aylantirgan eng asosiy sabablaridan biri – Markaziy osiyo xalqlarining erk, adolat, haqiqat, mustaqillik uchun arab va mo'g'o'l bosqinchilari zulmiga qarshi olib borgan hayot-momot janglaridir.

Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining qomusiyliigi – bir paytning o'zida ham faylasuf, ham musiqashunos, ham mantiqshunos, sosiolog va filolog, ham tarixchi, shoir, matematik xullas ilmning hamma sohasida etukli bilan ajralib turadilar. Bu siymolarning kishini lol qoldiradigan jihatlaridan yana biri sifatida ularning bir necha tilda bermalol gaplasha olganliklari, ijod qilaolganliklari, ilmiy manbalar, asarlardan bekamu ko'st foydalana olganliklarini ham aytish lozim.

Buyuk mutafakkirlar tomonidan cho'qur ilmiy asoslangan g'oya va ta'limotlar faqat ular yashagan davr uchungina emas, balki kelajakni oldindan bashorat qilish, tabiiy, ijtimoiy voqea va jarayonlarni oldindan aytib berish nuqtai nazaridan ham bebahodir. Donishmand bobolarimizning ilmiy – falsafiy ta'limotlari tor ilmiy qobiqda o'ralib qolgan emas, balki ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limotlardir. YAna shu narsa e'tiborga sazovordirki, Sharq mutafakkirlarining deyarli hammasi o'z davrining qaynoq hayoti markazida bo'lishdi, amaliy ishlarda faol ishtirok etishda, ilmiy, xalqim, yurtim deya yashashdi.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo'lib, u taxminan 783 yilda tug'ilgan va 850 yilda Bog'dodda vafot etgan. Xorazmiy ilm-fan va madaniyatning kadimiy beshiklaridan hisoblangan Xorazmda qomusiy olim sifatida shakllandi, voyaga etdi va shu erning o'zida uning nomi dunyoga ma'lum bo'ldi. Muso Xorazmiy ilmiy ijodiy faoliyatining juda katta davri arab xalifaligining poytaxti Bog'dod bilan uzviy bog'liqdir. Xorazmiy xalifa Ma'mun rahnamoligida islom Sharqining Fanlar

akademiyasi — «Bayt ul hikma» («Donishmandlar uyi»)da ishladi. Bu ilm dargohida u juda ko'plab astronomik kuzatishlar olib boradi, matematik va astronomlarning katta bir jamoasiga ustozlik qiladi hamda o'zining ko'pgina shox asarlarini yozadi. Xorazmiyning Bog'dodda yashab ijod etgan zamondoshlari orasida Ahmad Farg'oniy, Axmad ibn Abdullox Marvaziy kabi Markaziy Osiyolik olimlar bo'lib, ular o'rta asr ilmu-fani rivoji va ijtimoiy falsafiy fikr taraqqiyotiga katta xissa qo'shganlar.

Muhammad Muso Xorazmiyning ko'p qirrali ilmiy qiziqishlari matematika, nazariy va amaliy astronomiya, geografiya, tarix va boshqa ko'plab fanlarga oiddir. Uning nomini tarixda abadiy iz qoldirgan asarlardan biri — «Al jabr va muqobala»dir. Bu asar Fapb va Sharq olimlariga algebra fani bo'yicha dasturiy amal bo'lib xizmat qildi, «Algoritm» va «Algebra» degan atamalar Xorazmiy nomi bilan bog'liqdir.

Allomaning algebra, arifmetika, matematika, geometriyaga oid asarlari asplap davomida taqsimlashda, vasiyatnomalar tuzishda, mol- mulkini o'zaro bo'lib olishda, sud ishlarida, savdo-sotiq muomolalarida, shuningdek erlarni o'lchashda, kanallar qazishda, bino qurishda katta xizmat qildi.

Xorazmiy aytib o'tilgan asarlaridan tashqari «Kitob surat al arz» («Er surati») degan risola ham yozdi. Asarda u Ptolomeyning «Geografiya» nomli kitobini butunlay qayta ishlab chikdi. Sharq mamlakatlari tug'risida ko'pgina qimmatli ma'lumotlar berdi. Unda mamlakatlar, shaharlar, ularning nomlari, hajmi ko'rsatilgan va bir necha izohlar berilgan haritalar mavjud. Bu kitobda Orol dengizining tasviri ham berilgan. Asarda bundan tashqari 637ta muxim joylar, 209ta torning geografik tafsiloti, daryolar, dengizlar va okeanlar xavzasining shakli, ularda joylashgan orollarning muhim koordinalari bayon etilgan. Olimning bu kitobi Sharq mamlakatlarida geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

«Astronomik jadvallar», «Quyosh soati to'g'risida risola», «Hind hisobi xaqida risola», «Usturlab olati qasida risola», «Zij» («Astronomik jadval»), «Musina bo'yicha risola», «Tarix bo'yicha risola» va boshqa ko'plab nodir asarlar ham Muso Xorazmiy kalamiga mansubdir. Ana shu asarlar nomining o'zidyoq Xorazmiyning ilmiy tafakkuri benihoya kengligi, qomusiy alloma ekanligini, nafaqat o'z davrining balki hamma zamonlarning eng buyuk matematik va tabiatshunos olimi ekanligini ko'rsatadi.

Demak, yurtimizda qadriyatlar mavzusi o'zining o'tmishiga ega. Uning ildizlari esa qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G'arbdan balki, Sharqdan ham qidirilmog'i lozim. Qadriyatshunoslik faniga yurtimiz tarixida o'z o'tmishiga ega bo'lgan bilimlar sohasi sifatida qarash va mamlakatimizda bu fanning zamonaviy rivojlanishini belgilaydigan asoslar bor, deyish mumkin. Afsuski masalaning zamonaviy qadriyatshunoslik bilan bog'liq bu jihati haligacha to'la tukis o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini ko'tmoqda.

2. O'zbekistondagi arxitektura, madaniy obida va yodgorliklar, adabiyot, san'at asarlari va ularni jamiyatimiz ma'naviy rivojidadagi roli.

Markaziy Osiyo azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning, adabiyot va san'atning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lkada etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va o'lmas asarlari bilan ijodiy boyitib, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Butun madaniy olamga taniqli olimlar va mutafakkirlar, Samarkand, Buxoro, SHahrisabz, Xiva singari muxtasham shaharlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'vorligi va go'zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirmoqda.

Mustamlakachilik siyosati odamlarning qalbiga va shuuriga ta'sir o'tkazish yo'lidan borib, adabiyot va san'at asarlariga o'ziga xos yondashuvni vujudga

keltirdi. Ma'lumki, abadiy va estetik qadriyatlar kishilarning obrazlar vositasida tarbiyalashga, ularga ruhiy oziqa, ma'naviy madad bo'lishga da'vat etganlar.

Agar bu qadriyatlar biror maqsad sari qat'iy yo'naltirilsa, avlodlarning ongida, tarbiyasida, binobarin va ularning dunyoqarashi va turmush tarzida jadal o'zgarishlar yasashi mumkin. Bosqinchilar adabiy – estetik qadriyatlarimizga tajovuzlarida ikki xil usul yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni Chor mustamlakachilari xalqimiz qo'lidagi noyob qo'lyozmalarni (ularni ko'pchiligi yakka nusxada saqlanib kelgan) turli yo'llar bilan egallab olib, metropoliyaga ko'paytirish natijasida ulardan millatimizning bahramand bo'lish imkoniyatini yo'qqa chiqargan bo'lsa, qizil mustamlakachilar abadiy javohirlarni xalq ko'zidan pano qilish, ularni boshqacha, o'zlariga yoqadigan alfozda talqin etish yo'lidan bordilar. Adabiy qadriyatlarimizni mensimaslik tamoyili istilochilarning daho, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini yangilik emas, balki forsiy adabiyatining tarjimasidir, deb e'lon qilishga o'rinada ham ko'rinadi. Garchi Alisher Navoiy buyuk siymo, so'z san'atkori sifatida tan olingan, uning asosiy asarlari ko'plab nusxada chop etilgan bo'lsada, ulug' ustozning hamma g'oyalari asarlarning to'la estetik quvvati keng kitobxonlar nazaridan cheta qolaverdi. Uning asarlari zamonni zayliga, komunistik mafkuraga mos tarzda tarliq qilindi yoki bu maqsadga mos kelmaydigan o'rinlar bosib chiqarilmadi.

Xususan, «Xamsa» kirgan dostonlarning bosh qismlari olinib, nashr etiladigan bo'ldi. Buyuk shoirning asl falsafiy, axloqiy g'oyalari, tasavvufona fikrlari, Ollohga va uning rasuliga aziz -avliyolarga bag'ishlangan hamdi – sanoatlarni, uning o'z shaxsini, kayfiyatini, dunyoqarashini yorqin ifoda etuvchi o'rinlari qisqarib tashlash odatdagi holga aylangan edi.

Adabiyot tarixiga boylar adabiyoti va yo'qsillar adabiyoti pozitsiyasidan baho berish natijasida millatimiz mulki, bo'lgan o'lkan adabiyo xazina la'natlanib, xalq nazaridan soqit qilib kelindi. Saroy adabiy muhitida Kim ijod qilgan bo'lsa,

uning badiiy salohiyatidan qat'iy naazr, asarlariga g'oyaviy dushmanlik yorlig'i osilaverdi. Xalqning ardog'ida bo'lgan qadriyatlarni ikkiga bo'lib, bir - biriga qarama-qarshi, zid, boy-kambag'al, feodal-mazlum singari sinfiy tushunchalarga bo'lib tashlanar, natijada, xalq o'z o'tmishini o'z qo'li bilan qora buyoqqa bo'yadi. O'zbek millatini o'zligini, qalbini parchalashga, uni ikki qismga bo'lib tashlashga harakat ko'p bo'ldi. Taqiqlangan adabiy merosimizning yana bir qatlami sufiyona ruhda yozilgan asarlar edi. Xususan, ulug' mutasavvir shoir, Turkiston piri Ahmad Yassaviy xazratlarini komil inson tarbiyalashga qaratilgan, kishini poklashga xizmat qiladigan she'rlari, hikmatlari, So'fi olloyorning asarlari o'ta jiddiy taqiq ostiga olindi. Hatto bu ulug' ijodkorlar haqida tadqiqot yozgan olimlar ham yaqin-yaqingacha quvg'in qilingani hech kimga sir emas.

Sho'rolar davrida ma'lum maqsadlarni izlab adabiyot va san'atga alohida e'tibor bilan qaraldi, adabiyot ishi umumkamtar ishining bir qismi, deb e'lon qilindi. Adabiyotning partiyaviy qoliplariga sig'magan asarlari ularning badiiy qimmatidan qat'iy nazar tanqid qilindi, mualliflari tazyiq ostiga olindi. Biz oldingi sahifalarda yozgan satrlarimiz aynan ijodkorlarga ko'proq tegishli ekanligini anglashilgan bo'lsa kerak.

3. O'zbekistonning ilmiy - texnikaviy va intellektual salohiyati uni ilg'or mamlakatga aylanishining zamini ekanligi.

Milliy mustaqillik tufayli xalqimizning ko'pasrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy - intellektual merosini o'rganish, jahon ilm- fan va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, jahonning mashhur ilm dargohlarida o'qish- o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol inson shaxsini shakllantirishda ilm- fan xulosalariga tayanish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov o'zining «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asr

bo'sag'asida...», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» va boshqa asarlarida ilm - fanni rivojlantirish islohotlar muvaffaqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosi ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Uzbekistonning jahondagi "taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, taraqqiy etishi, shubxasiz, uning ilm- fan salohiyatiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda 1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon standartlari talablariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy modelining 4-bo'limi 4.13-qismida "Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish" degan ijobiy fikr mavjud. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi, ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiq kelishini tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki rag'batlantiriladi, pedagogik va ilmiy-tadeqiqot jarayonlarining aloqasi ta'minlanadi. Yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi¹.

Insonning hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rin egallaydi. Unga ilmiy texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi maxsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokazolar kiradi.

Markaziy Osiyo azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning, adabiyot va san'atning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lkada etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va o'lmas asarlari

¹ Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент, 1997 йил 22-бет

bilan ijodiy boyitib, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Butun madaniy olamga taniqli olimlar va mutafakkirlar, Samarkand, Buxoro, SHahrisabz, Xiva singari muxtasam shaharlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'vorligi va go'zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirmoqda.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, yurtimizda ilmiy qadriyatlar o'zining o'tmishiga ega. Uning ildizlari esa qadim zamonlarga borib taqaladi;

ikkinchidan, ilmiy qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G'arbdan balki, Sharqdan ham qidirilmog'i lozim. Qadriyatshunoslik faniga yurtimiz tarixida o'z o'tmishiga ega bo'lgan bilimlar sohasi sifatida qarash va mamlakatimizda bu fanning zamonaviy rivojlanishini belgilaydigan asoslar bor;

uchinchidan, afsuski masalaning zamonaviy qadriyatshunoslik bilan bog'liq bu jihati haligacha to'la tukis o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini ko'tmoqda. chidan, mustamlakachilik siyosati adabiyot va san'at asarlariga nisbatan o'ziga xos yondashuvni vujudga keltirdi. O'tmishni buyukligini ko'rsatadigan arxetektura, san'at va adabiyot meroslarini noto'g'ri talqin eta boshladilar;

to'rtinchidan, ma'lumki, abadiy va estetik qadriyatlar kishilarning obrazlar vositasida tarbiyalashga, ularga ruhiy oziqa, ma'naviy madad bo'lishga da'vat etadilar;

beshinchidan, qadriyatlar biror maqsad sari qat'iy yo'naltirilsa, avlodlarning ongida, tarbiyasida, binobarin va ularning dunyoqarashi va turmush tarzida jadal o'zgarishlar yasashi mumkin.

Savollar va torshiriqlar:

1. Ilmiy qadriyatlar deganda nimani tushinasiz?
2. Intellektual mulk deganda nimani tushinasiz?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining ma'no mohiyati haqida referat tayyorlang?

8-mavzu. Ijtimoiy – siyosiy qadriyatlar demokratik tamoyillarni joriy qildirish asoslari.

1-ma'ruzasi

1. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar tizimi.
2. Mustaqillik – yangi ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida.
3. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi va uni o'rnatish masalalari.
4. Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik – jahon hamjamiyatiga yo'lovchi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ekanligi.

1. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar tizimi. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni sub'ekti va ob'ektiga, maqsadiga, funksional xususiyatlariga, tashqi va ichki aloqalariga ko'ra klassifikasiya qilish mumkin. Lekin bizning fikrimizcha, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar hozirgi rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyatida o'ziga xos funksional xususiyatlariga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagicha bo'ladi:

1. Demokratiya.
2. Fuqarolik jamiyati
3. Markazlashgan boshqarish.
4. Koordinasiya.
5. Kooperasiya.
6. Gumanizasiya.

7. Qonun ustuvorligi.
8. Ijtimoiy adolat.
9. Rasionalizasiya.
10. Ijtimoiylashuv.
11. Barqarorlik
12. Modernizasiya.

Demokratiya, demokratik qadriyatlar degan tushunchalar bugun siyosiy-falsafiy, ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarda ko'p qo'llanilmoqda. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ularni Sharqona va G'arbona ko'rinishlarga ajratadilar¹. F.Musaevning yozishicha, «G'arb qadriyatlaridan kelib chiqqan ushbu ta'riflarda e'tibor ob'ektga, ya'ni ijtimoiy-siyosiy institutlarga qaratiladi. Ularda demokratiyani harakatga keltiruvchi kuch va uning pirovard maqsadi bo'lgan inson, inson manfaatlari, insonning ichki ma'naviy olami diqqat markazida turmaydi. Natijada G'arb demokratiyasi tashqi olamni, ijtimoiy-siyosiy hayotni, institutlarni o'zgartirishga, takomillashtirishga yo'naltirilgan yondashuvga aylanadi. Sharqona demokratiya esa dunyoni, ijtimoiy hayotni o'zgartirishni, takomillashtirishni insondan, uning ichki, ma'naviy hayotini mukammallashtirishdan boshlaydi. Uning maqsadi insonni, uning ma'naviyatini mukammallashtirish orqali etuk davlat, ideal jamiyat qurishdir»². Demak, G'arb qadriyatlari, demokratiyasi, tafakkuri «insonning olamdan ustunligini ta'minlash va tasdiqlashga qaratilgan sosioantroposentrizmga moyil – u dunyoni mensimaydi. Sharqona qadriyatlar, donishmandlik esa kosmosentrik bo'lib, unda insonning barcha o'y-fikr va xatti-harakatlari koinot qonuniyatlariga muvofiq kelishi zarur, degan xulosaga keladilar. Bu bejiz emas. Konfusiylilik, daosizm, buddaviylilik, islom, hatto nasroniylilik ham dunyoni zo'rlik bilan o'zgartirish tarafdorlari emas. Ularda insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini mukammallashtirish orqali farovon hayot qurish g'oyasi

¹ Қаранг: Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: Академия, 2003; Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О'zbekiston, 2007; Умаров Б., Саидов У. Эркинлик тақомили ғояси. – Т.: Akademiya, 2010; Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.

² Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О'zbekiston, 2007. – Б. 36.

ilgari suriladi. Adolat erdagi odamlarning koinot qonuniyatlari va tartib-qoidalariga muvofiq yashashi, nomukammalning mukammaldan ibrat olishi, unga ixlos qo'yishi va e'tiqod qilishi bilan bog'liqdir»¹.

Markazlashgan boshqarish davlatning idora usullaridan biridir. Davlat mavjud ekan, markazlashgan boshqarish ham siyosiy-ijtimoiy qadriyat sifatida mavjuddir. F.Musaev mazkur qadriyatni «subordinasiya va ierarxik munosabatlar» deb ataydi. Ular «dinamik tizimlarga xos bo'lgan beqarorlikni, risolaga tushmaydigan sinergetik hodisalarni jamiyat taraqqiyoti manfaatlariga muvofiq tashkil etishga qaratilgan unsurlardir. Jamiyat va davlat kabi dinamik tizimlar mavjud ekan, subordinasiya va ierarxik munosabatlar ham saqlanib qolaveradi»².

Sentralizm, eng avvalo, davlat hokimiyati bo'g'inlarining, institutlarining, qaysi pog'onada turishidan qat'iy nazar, umumiy tartibga, qonunlarga muvofiq faoliyat ko'rsatishini, yuqoridan qabul qilingan qarorlarning to'la-to'kis bajarilishini, quyi idoralarning yuqori idoralarga itoat etishi va ularga hisobot berib borishini yo'lga qo'yish usulidir. Jamiyat yangi pog'onaga, qadriyatlarga o'tayotganida kuchli davlatga ehtiyoj paydo bo'ladi; davlatning yirik siyosiy-ijtimoiy institut ekanligi unga islohotlarni amalga oshirishga va ular uchun mas'uliyatni o'z ustiga olishga undaydi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi davlat va markazlashgan boshqarishni samarali olib borishsiz sodir bo'lmaydi. Shuning uchun ham F.Fukuyama qayd etganidek, «Kuchli davlat barpo etish jahon hamjamiyati oldidagi eng muhim muammolardan biridir, davlatning zaifligi yoki emirilishi qashshoqlikdan OITS kasalligigacha, narkotikdan terrorizmigacha bo'lgan ko'p jahon muammolarini keltirib chiqaradi»³. Faqat markazlashgan boshqarishni eng muhim siyosiy-ijtimoiy qadriyat sifatida e'zozlaydigan va amalga oshiradigan kuchli davlatgina nafaqat yuqoridagi salbiy hollarni bartaraf etadi, balki jamiyatning ma'naviy yangilanishini ta'minlaydi. Shu

¹ Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О'zbekiston, 2007. – Б.39.

² Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О'zbekiston, 2007. – Б. 38.

³ Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. – М.: АСТ, 2006. – С. 5.

tariqa davlat markazlashgan boshqarishni ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida e'zozlashiga erishadi va ma'naviy islohotlarning tashkilotchisi sifatida jamiyatga bosh-qosh bo'ladi.

Koordinasiya funksiyalari yaqin bo'lgan turli ob'ektlarni umumiy maqsad sari yo'naltirish, boshqarish usulidir. Markazlashgan boshqarish pog'onama-pog'ona, vertikal boshqarish usuli bo'lsa, koordinasiya gorizontal boshqarishdir¹. Aslida demokratiya koordinasiyaga tayanadi va demokratik tamoyillarga asoslangan koordinasiya siyosiy-ijtimoiy qadriyatga aylanadi.

Koordinasiya umumiy maqsadni anglash, unga intilish, funksiyalarini samarali bajarishga yordam beradigan imkoniyatlardan to'la foydalanishdir. Ob'ektlar ontologik nuqtai nazardan turli tizimlarga, institut va jamiyatlarga qarashli bo'lishi mumkin. Masalan, jamiyatning yangilanishi faqat davlatning funksiyasi bo'lib qololmaydi, ma'naviy islohotlarda boshqa institutlar – nodavlat tashkilotlari, xususiy korxonalar, siyosiy partiyalar, OAV, o'zini o'zi boshqarish organlari, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari ham faol qatnashishi shart.

Kooperasiya mavjud kuchlarni, imkoniyatlar va vositalarni yig'ish, ulardan jamoa bo'lib foydalanish usulidir. U ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida kishilarni uyushtirishga qaratilgan faoliyat turidir.

Kooperasiyada ma'lum bir tartiblarga, me'yorlarga rioya etiladi, zarur paytda moddiy qurollar va vositalar yig'ilib, birlashtirilib umumiy maqsadga erishiladi. Birgalashib ishlash, faoliyat olib borish umumiy ma'naviy-axloqiy qarashlarni, maromlarni shakllantiradi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi individual tarzda emas, balki kooperativ tarzda kechadi. Kishilar birlashmay, bir umumiy maqsadga intilmay ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy qadriyatlar yaratolmaydi. Sharq xalqlariga xos jamoa bo'lib yashash tarzi ham kooperasiyani muhim qadriyat sifatida yashab kelganidan dalolat beradi.

¹ Марков М. Теория социального управления. –М.: Политиздат, 1978. – С. 103-105; Мескон М.Х., Альберт М., Хераурн Ф. Основы менеджмента. –М.:Экономика, 1997. – С. 144-146; Алексич М.Т. Социология и менеджмент. – М.: ЛОГОС, 1995. – С. 102-103.

Gumanizasiya (insonparvarlik) umuminsoniy qadriyatdir. U mohiyatan jamiyatni, hayotni, ijtimoiy-siyosiy borliqni insonparvarlashtirish demakdir.

Ijtimoiy-siyosiy hayotni insonparvarlashtirish qadimdan kishilarning, xalqlarning orzusi bo'lib kelgan. Al-Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabilar mazkur orzuni podshohni, hukmdorlarni ma'naviy-axloqiy etuk shaxs maqomida ko'rishda, deb biladilar. Ular «podshohni komil inson sifatida tasvirlaganlarida, birinchidan, hukmdor o'z fazilatlari bilan qolgan barcha amaldorlar va fuqarolardan yuqori turishi lozim, u eng olijanob va ezgu niyatlarga ega bo'lgani, eng xayrli maqsadlarni ko'zlagani tufayli elga, xalqqa murabbiylik, otalik qila oladi»¹, deb hisoblaganlar. Umuman, Sharqda ijtimoiy-siyosiy ishlarni olib borganda, ularni baholaganda ma'naviy-axloqiy me'yorlarga tayanilgan. «Iymon-e'tiqod, ezgu amal, xushmuomalalik, birovning mulkiga ko'z olaytirmaslik, haqqiga xiyonat qilmaslik, murosayu madora bilan jamoa bo'lib yashash, o'zaro izzat-hurmatda bo'lish, amaldorlar faoliyatini qadrlash, farmonlarga bo'ysunish va ishonch bilan qarash, odamlarning arz-dodiga quloq tutish, nohaqlik ro'y berganida zaif, yordamga muhtoj tomonning tarafini tutish, poklikni, mehr-muruvvatni va beg'arazlikni ulug'lash kabi fazilatlar – qadriyatlar ana shu me'yorlarni belgilab bergan»².

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha, shu jumladan, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy islohotlar ham, mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarni inson manfaatlariga yo'naltirishni, unda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Insonparvarlik yuksak ma'naviy qadriyat sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, davlat va jamiyatni boshqarish ishlariga gumanistik an'analar, qarashlar va me'yorlarni olib kiradi. Shu tarzda u ijtimoiy-siyosiy sohani gumanistik qadriyatlar bilan boyitadi.

¹ Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. –Т.: О'zbekiston, 2007. – Б. 38-39.

² Ўша асар. – Б. 39.

Qonun ustuvorligi demokratik huquqiy davlatda barcha amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qadriyat – me'yordir. Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar bevosita ma'naviy ishlarga aralashmaydi, ammo ularning ishtirokisiz, ta'sirisiz jamiyatni ma'naviy yangilash mumkin emas. Eng muhimi shundaki, milliy parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar yurtimizda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga, bozor munosabatlarini shakllantirishga, xuddi shuningdek, tinchlik, barqarorlik, hamjihatlik kabi ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «YUrtimizda qaror topgan tinchlik, barqarorlik va fuqarolar hamjihatligi respublikamiz iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi tub islohotlar muvaffaqiyatiga asosiy kafolat bo'ldi. Bu natijalar, eng avvalo, dunyoqarashimizdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Fidoyi, mehnatkash, tanti xalqimiz mustaqillik va mamlakatimizning buyuk istiqboliga intilib, Vatanning qadru qimmatini, millatning sha'ni ekanini anglab, iste'dodini, butun imkoniyatini, butun kuchini elu yurt istiqboliga baxshida etmoqda»¹. I.A.Karimov qonun ustuvorligi to'g'risidagi fikrini quyidagicha davom ettiradi: «Biz huquqiy demokratik adolatli davlat qurish yo'lidan borayapmiz. Biz, mamlakat fuqarosining kimligidan qat'i nazar, **qonun oldida tengligiga, qonun ustuvorligiga** erishishga intilamiz.

Ijtimoiy adolatga intilmaydigan davlat, jamiyat, inson yo'q. Asrlar davomida shakllangan ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, qarashlar keyinchalik kishilar ongida, qalbida e'zozlaydigan qadriyatga aylangan.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi, kishilar ongi va tasavvurida ro'y bergan o'zgarishlar har doim ijtimoiy adolatni qaror toptirish bilan bog'liq bo'lib kelgan. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, qaerda adolat o'rnatilgan bo'lsa, davlat va jamiyat ishlarini boshqarish adolat tamoyiliga muvofiq amalga oshirilsa, o'sha joyda tenglik va ma'naviy-axloqiy me'yorlar qaror topadi. Demak, jamiyatning ma'naviy yangilanishida ijtimoiy adolatning o'rni katta, uni qaror toptirmay turib, jamiyatda

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан.Т.4. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 268-269.

sof insoniy, ma'naviy-axloqiy munosabatlarni, qadriyatlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Rasionalizasiya inson faoliyatini, xatti-harakatlarini ilmiy asoslangan tavsiyalarga, aqlu idrokka, ob'ektiv hayot talablariga muvofiq qurishni anglatadi. Ijtimoiy-siyosiy hayotni rasionallashtirmay boshqarib bo'lmaydi. Davlat, institutlar tomonidan qabul qilinadigan qonunlar, dasturlar, rejalar, modellar ob'ektiv hayot talablariga javob berishi va amalga oshiriladigan tadbirlarni, vazifalarni rasional asoslab berishi darkor. Jamiyat ma'naviy hayotini yangilash ham rasional usullar bilan amalga oshiriladi. Ushbu talabni, siyosiy-tashkiliy qadriyatni unutish islohotlarni mavhumlashtiradi va amalga oshirilmaydigan orzuga, mashg'ulotga, utopiyaga aylantiradi.

Ijtimoiylashuv insonni davlat va jamiyat hayotida faol qatnashishini ifodalaydigan tushuncha – qadriyatdir. Bugun davlat va jamiyat kishilardan faol bo'lishni talab qilayotgan, shaxsning tadbirkorligi, tashabbusi, faolligi ijtimoiy borliqni o'zgartirish omiliga aylangan paytda sosializasiya (ijtimoiylashuv) e'zozlanadigan fazilat – qadriyat hisoblanadi. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi bir tomondan, butun davlat va jamiyat institutlarining islohotlarda keng, faol ishtirokini, ikkinchi tomondan, har bir shaxs o'z ustiga ma'lum bir vazifalarni, davlat va jamiyat hayotiga taalluqli ishlarni olishini talab etadi.

Ijtimoiylashuv davlat va jamiyat hayotida shunchaki ishtirok, shunchaki faoliyat va faollik turi emas, u, eng avvalo, el, yurt, vatan, kelajak oldida mas'uliyat bilan bog'liq qadriyatdir. Jamiyatning ma'naviy yangilanishiga shunday qadriyatga ega shaxsgina e'tiborli hissa qo'shadi.

Barqarorlik jamiyatning evolyusion rivojlanishini kafolatlaydigan qadriyatlar sirasiga kiradi. Bu borada ko'plab asarlar chop etilgan, tadqiqotlar o'tkazilgan. Bizningcha, barqarorlik va tinchlik, umuminsoniy qadriyat sifatida, jamiyatda o'zaro ishonch, hurmat, osuda yashab, hayotdan zavqlanish, farzandlarni voyaga etkazish,

farovon turmush kechirish kabi ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantiradi. Barqarorlik va tinchlik siyosiy-ijtimoiy institutlarning o'z vazifalarini to'la bajarish imkonini beradi. Xuddi shuningdek, ma'naviy yangilanish barqarorlik va tinchlik o'rnatilgan jamiyatdagina amalga oshirilishi mumkin.

Modernizasiya ijtimoiy hayotimizni yangilashga, takomillashtirishga qaratilgan voqelikdir. Respublikamiz mustaqil rivojlanishga qadam qo'ygan kundan beri yangilanish, modernizasiya jarayonini yo'lga qo'yish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

“Mamlakatni modernizasiya qilish va yangilashni davom ettirish – davr talabi”- degan edilar Prezidentimiz I.A.Karimov. Har qanday o'zgarish va tadqiq etish uchun turli xil nazariy metodologik yondashuvlar mavjud. Hozirgi davrda modernizatsiya paradigmasi ular orasida alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Modernizasiya – o'ta murakkab jarayon. Modernizasiya jarayonida o'zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro'y beradi. O'zgarishlar natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar shakllanadi. Ular esa milliy g'oya qamrovini yanada kengaytiradi va yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Modernizasiya qilishning maqsadi yangilanish, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tish, rivojlanishda yuqoriroq bosqichlarga erishishdir.

Modernizasiya nafaqat ishlab chiqarish sohasiga, balki butun ijtimoiy hayotni zamonaviylashtirishga qaratilgandir. Ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilgan barcha o'zgarishlar modernizasiyalashish xususiyatiga ko'ra uni ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga kiritish mumkin. Ma'naviy yangilanish ham modernizasiya ko'rinishidir. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayotimizga umuminsoniy tushunchalar, me'yorlar, qadriyatlar kirib keldi. Masalan, parlament, prezident, munisipalitet, nodavlat tashkilotlari, Ombudsman, yuvinal huquq, huquqiy qadriyatlar, demokratik qadriyatlar, siyosiy kurash, siyosiy

raqobat, impichment va boshqalar. Bugun kishilarimiz ularni o'zining ma'naviy, ma'rifiy, ilmiy tushunchalariga aylantirgan va ularga muvofiq siyosiy-ijtimoiy qadriyatlar haqida mulohaza yuritadilar.

2. Mustaqillik – yangi ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida.

Mustaqillik substansional mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy qadriyatdir. U butun siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarga, jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga bab-baravar tegishli, ularning erkiga, ozodligiga daxldor, xalq, millat taraqqiyotini belgilab beruvchi qadriyatdir.

Mustaqillik xalq, millat, shaxsga erkin yashash, etnogenezi va madaniyatiga muvofiq yaratish, ijod qilish imkonini beradi. Shunday imkonga ega bo'lmagan ob'ekt (sub'ekt) o'z taqdirini o'zi belgilash va yaratish imkonidan mahrumdir. Mustaqillik inson va uning erki, u orqali esa jamiyatni, ma'naviy muhitni yangilash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Aslida bu masala ijtimoiy falsafada eng dolzarb, falsafa azaldan tadqiq etib, mohiyatini ochib berishga intilib kelayotgan insonning borliqdagi o'rni masalasiga borib taqaladi. Shuning uchun mustaqillik fundamental ahamiyatga ega mavzu bo'lib, u, eng avvalo, insonning borliqdagi o'rni masalasi bilan bog'liqdir.

Insonning borliqdagi o'rni uning erkida namoyon bo'ladi. Erk mustaqil yashash, mustaqil fikrlash, mustaqil yaratishning shartidir. Erk bo'lmagan joyda mustaqillik yo'q, mustaqillik yo'q joyda erkin fikrlash, erkin yaratish yo'q. Mustaqillik va erk mohiyatan yaqin tushunchalardir, ammo mustaqillik ko'pincha siyosiy-ijtimoiy borliqqa, erk esa ko'proq shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

Reallik, erk va shaxs muammolari, N.A.Berdyaev ta'kidlaganidek, «har qanday falsafa uchun haqiqiy sinovdir. Reallik, erk va shaxs muammolarini echishda o'zgarish va ularni soxta echish falsafa yomon sifatining ko'rsatkichi, u

tanlagan yo'lning soxtaligidir. Reallik xayoliy, erk xayoliy, shaxs xayoliy bo'lgan falsafa shubhalidir. Bunday falsafaga ishonmang, boshqasini qidiring»¹.

Hamma narsani ham ob'ektiv borliq, reallik nuqtai nazaridan qarab, asoslab bo'lmaydi. Falsafada transsendental qarashlar, mistisizmga berilish ma'naviy qadriyatlar hisoblanadi va ularni real hayotiy muammolar bilan bog'lash talab etiladi. Mistisizm – individual tajriba, ayrim olgan kishining ruhiy izlanishlari, kechinmalari ifodasidir. Mistisizmda ijtimoiy borliq, real talablarga muvofiq keladigan tamoyillarni, qoidalarni topish qiyin, shuning uchun ob'ektiv yondashuvlar uni rad etadi, norasional fikr, mushohada, xayol, uydirma, deb biladi. Lekin falsafada keyingi yillarda rasional bilan irrasionalni, ob'ektivizm bilan sub'ektivizmni uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi farqni emas, balki muvofiq jihatlarni izlash va shu asosda ijtimoiy borliqni, inson ma'naviyatini yuksaltirish yo'llarini qidirish an'anaga aylanmoqda. Erk va mustaqillikni falsafiy tadqiq qilish, o'rganish ham mazkur yondashuvdan uzoqda qololmaydi. Zero, «siyosatda diniy qadriyatlarga tayanish uning mazmun va mohiyatiga zarar etkazmaydi. Aksincha, uni insonlar, turli xalqlar maqsad manfaatlari ishonch hamda e'tiqodlari bilan hamohang bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi»².

Mustaqillik, erk muammosini o'rgangan N.A.Berdyaev mistisizmni ochiq qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, falsafa uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan individ, shaxs erki butunga (u buyuk, betakror, muqaddas degan iboralarni ishlatadi) intilishda, deb qaraydi. Tashqi ta'sirlardan, tazyiqlardan xalos bo'lish emas, balki butun bilan yashash haqiqiy erkdir, mustaqillikdir. Butunni biz, mavzumiz maqsadiga yaqinlashtirish uchun jamiyat (milliy qadriyatlar) va insoniyat (umumbashariy qadriyatlar) deb tasavvur qilsak, tadqiqot maqsadi ham oydinlashadi. Natijada «shaxs-jamiyat-insoniyat» triadasi paydo bo'ladi. Mavzuning falsafiy, fundamental mohiyatini ochib berish mazkur triadadagi dialektik

¹ Бердяев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества. – М.: Правда, 1989. – С. 21.

² Хўжамуродов И.Р., Абдураимова М. Сиёсат, дин ва миллий ўзликини англаш. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2010. – Б. 92.

bog'liqlikni, uyg'unlikni ko'zdan kechirishga, mustaqillik va erk mavzusini u orqali ochib berishga undaydi. Falsafiy tadqiqotlar uchun mustaqillikni yuksak ijtimoiy-siyosiy qadriyat, erkin shaxsning huquqiy qadriyati sifatida e'tirof etish etarli emas, u mavzu, muammo negizidagi fundamental mohiyatni izlashni talab qiladi.

Inson, eng avvalo, biologik mavjudot¹. Unda mazkur xislatning qay darajada qolgani har doim bahslar uyg'otib kelgan. Uning «ijtimoiy mavjudot» (Aristotel) ekani mazkur fazilatning genezisi va shakllanish jarayonlari ham cheksiz bahs-munozara uyg'otib keladi. Shaxsning ijtimoiy fazilati biologik omillar natijasi emasligi, u ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlar mahsuli ekanligi bugun aksiomadir. Biroq fundamental muammo shundaki, agar ijtimoiy fazilat ijtimoiy borliq mahsuli bo'lsa, insonning erki qaerda qoladi? Demak, inson erki haqida fikrlar nisbiy, ijtimoiy borliqqa qaram shaxs butunlay erkin bo'lishi mumkin emas.

Mustaqillik yillarida kishilar mehnat, ijtimoiy faoliyat turlarini erkin tanlash imkoniga ega bo'ldilar. Endi ular totalitar tuzum davridagidek davlat korxonalari yoki kolxozdagi ish joyini, mehnat turini tanlashga majbur emas, mulkchilik turli shakllarining paydo bo'lishi bilan ular qaysi sektorda ishlashni, mehnat qilishni ham tanlash imkoniga egadirlar. Xususiy sektor bugun jadal rivojlanmoqda. Kichik korxonalar, qo'shma korxonalar, xususiy mulk egalari va tadbirkorlarning ya'ni ularning mamlakat yalpi mahsulotini yaratishdagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu o'rinda ko'plab statistik ma'lumotlar, raqamlar keltirish mumkin. Hozir gap bu ma'lumotlar va raqamlarni keltirishda emas, balki kishilarning erkin mehnat qilish, faoliyat turini erkin tanlash imkoniga ega bo'lganini tasdiqlashdadir. Demak, o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar kishilarimizning manfaatlariga mos kelmoqda, ularning mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Bozor munosabatlari chuqur

¹ Каранг: Дубинин Н.П. Что такое человек. – М.: Мысль, 1983; Сержантов В.Ф. Человек, его природа и смысл бытия. – Л.: ЛГУ, 1990; Шарден П.Т. Феномен человека. – М.: Наука, 1987; Человек: мыслители прошлого и настоящего о его жизни, смерти и бессмертии. Древний мир – эпох Просвещения. – М.: Политиздат, 1991; Jensen A. Genetecs and education. – L., 1997.

ildiz otgan, umumjahon tizimlari bilan har tomonlama integrasiyalashgan, iqtisodiy baquvvat, demokratik davlatgina inson erki, haq-huquqlarini himoya qilishi, munosib turmush sharoitini yaratib berishi mumkin. Shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy islohotlarni jadallashtirish, jamiyatimiz hayotida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, avval ko'p marta zikr etganimizdek, iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishning muhim shartidir»¹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik va erk o'zidan o'zi kishini baxtiyor qilmaydi, ular baxtni va'da qilolmaydi. Baxt, baxtiyorlik birinchidan, chuqur shaxsiy, xususiy tuyg'udir; ikkinchidan, siyosiy ijtimoiy qadriyatlar kishiga o'zini baxtiyor sezish, baxtli yashash imkonini beradi, lekin baxtning o'zini emas. Mustaqillik ijtimoiy-siyosiy borliqni yangilaydi, unga yangicha qarashlarni, tasavvurlarni, ideallarni olib kiradi, kishilar qalbida yangicha yashash istagini kuchaytiradi. Bularning ma'no-mag'zi esa yangicha qadriyatlarda namoyon bo'ladi. Demak, yangi qadriyatlar yaratish nafaqat davrning, taraqqiyotning, xuddi shuningdek, mustaqillik, erk bergan hayotning immanent xususiyatidir. Mustaqillik yangi qadriyatlar yaratayotgani tufayli e'zozli, qadrlidir; u yaratayotgan qadriyatlari orqali jamiyatni ma'naviy yangilashga xizmat qiladi; xalq, millat tarixida buyuk voqelik, yangi ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida qoladi.

3. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi va uni o'rnatish masalalari.

Keyingi yillarda «fuqarolik jamiyati» tushunchasi O'zbekiston Respublikasining strategik maqsadlaridan biri sifatida ishlatilmoqda. Fuqarolik jamiyati ijtimoiy kommunikasiya, sotsal aloqalar va qadriyatlar majmui bo'lib, unda bosh sub'yekt fuqarolar, ularning huquqlari va fuqarolik tashkilotlari (siyosiy, noiyosiy, nodavlat), turli birlashmalar, uyushmalar, ijtimoiy harakatlar, fuqarolik institutlari hisoblanadi.

¹ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 364.

Hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarning XX –XXI asrlardagi tajribalari umumlashtirilganida, hozirgi zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga doir tasavvur namoyon bo'ladi. Ular, asosan, quyidagilardan iboratdir:

iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar, kooperativ-shirkatlar, ijara jamoalari, aksionerlik jamiyatlari, uyushmalar, korporasiyalarning mavjudligi.

ijtimoiy sohada: oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar, ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari, ijtimoiy ixtiloflar kuch ishlatmay, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

ma'naviy sohada: so'z, vijdon erkinligi va fikr erkinligi, o'z fikrini ochiq bildirish olishning real imkoniyatlari, ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» deb ataladi. «Ayni paytda, - deb ko'rsatadi I.A.Karimov, - barchamiz bir haqiqatni o'zimizga aniq tasavvur etishimizni istardim. YA'ni erishilgan bunday marralar – barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismi, xolos»¹.

Mazkur ma'ruzada mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid fundamental g'oyalar ilgari surilgan, strategik maqsadga yaqinlashtiruvchi, jamiyat ma'naviy

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз таракқиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 39.

yangilanishining immanent xususiyatlari talab etayotgan aniq vazifalar belgilab berilgan. Ularni quyidagi yo'nalishlarda qarash mumkin:

Birinchisi. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish. Davlat hokimiyatini va boshqaruvini demokratlashtirish, hokimiyatlar bo'linishini ta'minlash, qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarini shakllantirish, xo'jalik faoliyatlariga davlat organlarining aralashuvini qisqartirish, milliy parlamentni tuzish kabi o'ta muhim siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar mamlakatimizda o'tgan yigirma yil ichida erishilgan yutuqlardir. «O'zbek modeli» o'zining rasionalligi, konstruktiv ahamiyatiga ega ekanligini va milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar va tajribalar bilan uyg'unlashtirish mumkinligini ko'rsatdi. «O'zbekistonning jahon xalqlari taraqqiyotining tajribasini o'rganib, o'z taraqqiyotimodelini yaratishi, belgilab olishi zarur edi. Ijtimoiy hayotda o'tkaziladigan har bir islohot ana shu modeldan kelib chiqishi kerak, albatta. Olimlarimiz va mutaxassislarimiz jahon modellarini o'rganishga kirishdilar, ulardagi ijobiy jihatlardan foydalanish yo'llarini belgilay boshladilar»¹. Shu tariqa bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirishga kirishildi. Unda ilg'or davlatlar, jahon tajribasi, ya'ni umuminsoniy qadriyatlar hisobga olindi.

YUrtboshimiz ma'ruzasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim o'zgarishlar sifatida bir qator takliflarni bayon qiladi: Bosh vazir nomzodini Parlamentga saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etadi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi instituti joriy qilinadi, Prezident bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i lavozimidan xoli qilinadi, ya'ni ilgari Prezident egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimi tugatiladi, endilikda Bosh Vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan mas'uldir. Siyosiy partiyalar mavqeining oshirilishi, parlament faoliyatidagi ishtirokining

¹ Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: ИИВ Академия, 2003. – Б. 78.

kengaytirilishi, ijro hokimiyati mas'uliyati kuchaytirilishi haqidagi taklif-fikrlar davlat hoqimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tomon tashlangan yangi, tamoyilial ahamiyatga ega qadamdir.

Ikkinchisi. Sud-huquq tizimini isloh etish. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar milliy va umuminsoniy tamoyillar, qadriyatlar, taraqqiyot talablari asosida fuqaro huquq va erkinliklarini himoya va muhofaza etishga qaratilgandir. Bu demokratik huquq davlat qurishning asosiy talabidir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi qurilishining mutlaqo yangi Konstitusiyasiga ko'ra:

a) Sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi;

b) qonunchilikka binoan sud ishlarini apellyasiya va kassasiya tarzida ko'rib chiqish instituti joriy etildi;

v) tergov-surishtirish va kishilarni hibsda saqlash muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi, ishlarni sudlarda ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilandi;

g) sud sohasidagi kadrlarni tanlash va tasdiqlashning xalqaro tajribalardan o'tgan samarali va demokratik huquqiy mexanizmlari yaratildi¹.

Mazkur o'zgarishlar inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va muhofaza qilishga qaratilgan bo'lsa-da, ular jamiyatdagi ma'naviy muhitni mustahkamlashga, kishilar ongida, hayot tarzida yangi qadriyatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat ijtimoiy-ma'naviy jarayonlardan alohida shakllanmaydi, har qanday huquqiy voqelik

¹ Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – Б. 150.

jamiyat va kishilar ma'naviy hayotida o'z ta'sirini qoldiradi, fuqarolarning davlat haqidagi fikrlarini yuzaga keltiradi»¹.

Uchinchi. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlashdir.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Oliy Majlis tomonidan «Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida», «Telekommunikasiyalar to'g'risida», «Reklama to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida», «Axborotlashtirish to'g'risida» kabi qonunlar qabul qilindi. Keyingi o'n yil ichida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron axborot vositalarining soni 7 barobar ko'paydi va umumiy soni 1200 taga etdi. Bugun barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning 85 foizi nodavlat tashkilotlariga taalluqlidir. O'zbekistondagi telekommunikasiyalar tizimi dunyoning 180 mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega². Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Axborot va so'z erkinligi bir tomondan, inson erki va huquqlarini ta'minlash vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda demokratik qadriyatlarni yoyish, qaror toptirish orqali ma'naviy yangilanishni jadallashtirish kafolatidir. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, aynan so'z erkinligi, axborotlar olish orqali kishilarning ijtimoiy hayotga faol ishtirok etish imkoniyati kengayadi, xalq, millat qanday qadriyatlarga muvofiq yashayotgani, davr ulardan qanday qadriyatlarni talab qilayotganini biladi.

1991 yilda Respublikamizda 351 ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bugun ularning soni 1200 taga etgani ham bu boradagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. O'zbekistonda mingga yaqin gazeta va jurnallar

¹ Қаранг: Джавакова К.В. Институты народовластия в Республике Узбекистан. – Т.: О'qituvchi, 2006. – С. 197-199.

² Уша асар. – Б. 73-74.

chop etiladi, teleradiokompaniyalar soni 38 dan 70 taga, nashriyotlar soni 14 tadan 60 taga etgan. Biroq jahon standartlariga muvofiq 100 kishiga 10 nusxa kundalik gazeta to'g'ri kelsa, bizda bir mingdan ziyod kishiga 0,09 nusxa gazeta to'g'ri keladi¹. Demak, bu boradagi izlanishlarimiz davom etishi, mavjud qonunlarning samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilishi lozim.

Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida OAVning o'rni haqida turli tadqiqotlar o'tkazilgan. CHop etilgan adabiyotlarda esa OAVning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi vazifalari, jurnalistlar etikasi va ularning mahoratini oshirish masalalari ochib beriladi. Shunday bo'lsa-da, OAVni erkinlashtirish, ularda kun tartibiga qo'yiladigan materiallarning hozirjavobligini oshirish hali ko'p izlanishlarni taqozo etadi. Viloyat, tuman va qishloqlarga esa vaqtli matbuot hali o'z vaqtida etkazib berilmayotgani, kishilarni o'ylashga, fikrlashga undovchi materiallar etishmasligi ko'zga tashlanadi.

To'rtinchisi saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirishdir. O'tgan yigirma yil ichida mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy huquqini belgilab beruvchi, ularning Prezident saylovi, parlament saylovi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda ishtirok etishini ta'minlaydigan muhim qonunlar qabul qilindi.

Saylovlar nafaqat siyosiy, xuddi shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega voqelik hamdir. Fuqaro siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etib, o'z nomzodini qo'yish, deputatlik mandatini qo'lga kiritib, butun jamiyat hayotiga taalluqli qonunlar, qaror va dasturlar qabul qilish huquqiga ega bo'ladilar. Bunday shart-sharoit, imkoniyat kishiga, uning yon-atrofidagilarga ijtimoiy-ma'naviy ta'sir etmay qolmaydi.

Beshinchisi fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.

¹ Қаранг: Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: ИИВ Академия, 2003. – Б. 199.

Mustaqillik yillarida fuqarolik institutlarini, nodavlat jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlarini mutlaq yangi asosda tashkil etishga qaratilgan ko'plab qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Ularga «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari», «Jamoat fondlari to'g'risida», «Homiylilik to'g'risida», «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida», «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida», «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida» qonunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarorini kiritish mumkin. Mazkur institutlar O'zbekistonda demokratik qadriyatlarni qaror topishiga munosib hissa qo'shmoqda. I.A.Karimov qayd etganidek, **«Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sosial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda»**¹. Xuddi shuningdek, nodavlat tashkilotlari jamiyatining ma'naviy yangilanishiga, unda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning qaror topishiga muhim hissa qo'shadi.

Fuqarolik institutlarining substansional mohiyati keng, global voqelikka aylanayotgan grajdanlik jamiyati qonuniyatlariga asoslangan holda milliy davlatni jahon tajribasi, qadriyatlari bilan boyitishdir. Fuqarolik jamiyatining o'zi bugun global siyosiy-ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu umuminsoniy

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. – Т.: О'zbekiston, 2011. – Б. 91.

qadriyatdan foydalanish, uning negizidagi qonuniyatlarga amal qilish, shubhasiz, milliy taraqqiyotimiz uchun muhimdir.

Shu bilan birga I.A.Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida», «Ekologik nazorat to'g'risida» kabi qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish zarur deb ko'rsatadi. Ular qatorida sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarga oid davlat dasturlarini amalga oshirishda fuqarolik institutlari ishtirokining huquqiy asosini yaratadigan qonunlar ishlab chiqish davr talabidir. Shu tariqa fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tomon, asta-sekinlik bilan, erishilgan demokratik qadriyatlarni mustahkamlash orqali boriladi.

Olтинchisi demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir.

Fuqarolik jamiyati bazasini tashkil etuvchi bozor munosabatlari va iqtisodiyot bugun yangi-yangi qonunlar qabul qilishga undamoqda. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala – **mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish** masalasi biz uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning bu yilgi yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoatda etakchi o'rinni egallay olmayapti. Ushbu vazifani hal etish uchun «**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida**»gi Qonunning yangi tahririni tayyorlash zarur»¹.

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т.: O'zbekiston, 2011. – Б. 103.

Haqiqatan ham, maxsus tadqiqotlar qonunlar bilan ularning ijrosi, iste'molchilar talabi bilan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik yo'nalishlari o'rtasida hali tafovutlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yangi iqtisodiy jinoyatchilik ko'rinishlari bilan to'qnash keldi. Korxona va tashkilotlar orasida mulkiy, moliyaviy nizolar ko'paydi. Ular echimida mulkning daxlsizligi bilan bog'liq nizolarni sudda hal qilishdek, demokratik huquqiy tartiblar joriy etildi. Afsuski, huquqiy va qonunchilik tajribamizda ushbu tartib hamisha ham kutilgan samarani berayapti, deb aytish dushvor»¹. Mazkur muammolarni hal etishda, deb ko'rsatadi D.Z.Dexkanova, mulkchilik va tadbirkorlik qadriyatlariga, o'zbekchilik qadriyatlarining asosi bo'lgan tarixiy qadriyatlarga, ma'naviy-axloqiy merosga alohida e'tibor berish darkor. Milliy huquqiy qadriyatlar bilan umuminsoniy huquqiy qadriyatlar uyg'unlashuvi ham shu asosda ro'y beradi. Prezidentimiz Islom Karimov yuqorida ko'rsatgan qonunlarning qabul qilinishi, bozor iqtisodiyoti, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi ham umuminsoniy huquqiy qadriyatlarga aylangan huquqiy me'yorlarni milliy qonunchilikka implementasiya qilish orqaligina amalga oshiriladi.

4. Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik – jahon hamjamiyatiga yo'lovchi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ekanligi.

Mamlakatimiz asrlar davomida orzu qilgan o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar ro'y berib, yurtimiz, millatimiz va sharqona turmush tarzimizga xos yangi ijtimoiy munosabatlar, xalqimizning maqsad-muddaolarini ifoda etuvchi, oliyjanob umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlar, ilg'or va bunyodkor g'oya, mafkura va ma'naviyat kundalik ijtimoiy hayotimizga keng kirib bormoqda. Bu jarayonlar mustaqilligimizning eng muhim vositalari sifatida komil inson va barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

¹ Дехканова Д.З. Ўзбекистонда демократик жараёнларни ривожлантиришнинг ҳуқуқий ва маънавий-ахлоқий негизлари. Юридик фан. номзоди... дисс.автореферати. –Т.: 2000. – Б. 18.

Hozirgi davrda O'zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish, fuqarolarning siyosiy va milliy o'zligini anglashi, yangi demokratik qadriyatlarning shakllanishi, ochiq demokratik, huquqiy davlat qurilishi va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishidek qiyin, ammo jo'shqin va izchil jarayonlar kechmoqda. Jamiyatning liberallashtirilishi mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlik va tolerantlikni mustahkamlash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning I sessiyasida nutq so'zlab, "Har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, umumiy gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma'naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo'lishi shart. Bu ishlardagi pirovard maqsadimiz – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. YA'ni, mustaqil dunyoqarashga ega ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat,"¹ - deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasida demokratiya, inson, uning hayot erkinligi, sha'ni va boshqa bo'linmas huquqlari oliy qadriyatdir, degan umuminsoniy tamoyillarga tayaniladi. O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingan kundan boshlab, demokratik tamoyillarni shakllantirish o'zbek zaminida istiqomat qilayotgan millatlarning huquqlari, har bir xalqning an'ana va udumlari, tilini rivojlantirish va ularga bo'lgan hurmatni yanada mustahkamlash borasida izchil ish olib borilmoqda².

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq, mamlakat aholisining 60 foizdan ortig'ini tashkil etgan yoshlarning tolerantligini, ijtimoiy faolligini va siyosiy madaniyatini oshirish uchun shart-sharoit yaratib berishga katta ahamiyat berildi.

¹ Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000. Т.8. 341-б.

² Қаранг: Мы благодарны тебе, Узбекистан! // Узбекистан – страна толерантности. – Ташкент: Ўзбекистон, 2007. -С.268-275.

Tolerantlik odamlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishiga, murosa qaror topishiga, mojarolarning bartaraf etilishiga yordam beradi. Tolerantlik o'zgalar fikri, e'tiqodi, madaniyati, axloqiga toqatsizlikni bartaraf etish mexanizmi sifatida ishlovchi umuminsoniy, milliy ijtimoiy-axloqiy qadriyat va tamoyillar tizimi bilan bog'liq bo'lib, insonning turli-tuman motivlari, mayllari, mo'ljallaridan kelib chiqib, kuch ishlatish, inson qadr-qimmatini oyoq osti qilishdan emas, balki gumanitar imkoniyatlar – muzokara, tushuntirish, hamkorlikdan foydalanib, hamjihatlik va totuvlikka erishishga intilishida o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, 1995 yil YUNESKO tomonidan Xalqaro tolerantlik yili deb e'lon qilingan edi. Shu yildan boshlab turli mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham dunyo madaniyati mafkurasi va bevosita tolerantlik muammosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar, seminarlar o'tkazilmoqda.

Ilmiy manbalar o'lkamizda qadim zamonlardan oq zardushtiyluk, buddaviyluk, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganliklaridan dalolat beradi¹. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz aholisi 2008 yilgacha bo'lgan vaqtda 27072,2 ming kishidan iborat bo'lib, shulardan 80 %ini o'zbek, 4,9 %ini tojik, 3,8 %ini rus, 3,6 %ini qozoq va 7,7 %ini boshqa turli millatlarga mansub kishilar tashkil etdi. Ko'p millatli davlat ko'p konfessiyalilikka asos bo'ladi. Jami 130 dan ziyod millat va elat vakillari orasida islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviyluk va boshqa konfessiyalarga e'tiqod qiluvchilar ham bor².

Ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatimizda millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan izchil davlat siyosati turli millat hamda

¹ Дервиш Р.А., Левтеев Л.Г., Мусакаева А. Памятники истории религии и культуры в Узбекистане. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – С.10-12, 56-60.

² Каримов Н. Бебаҳо хазина // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2006 йил, 10 ноябрь.

barcha diniy konfessiya vakillarining emin-erkin yashashlari uchun mustahkam asos yaratdi. Bugungi voqelik buning yorqin isbotidir.

1991 yilning 14 iyun kuni davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Uning qabul qilinishi din va turli din vakillarining hayotida muhim o'rin egalladi. 1991 yil 31 avgust Respublika parlamentida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingan kundan e'tiboran yurtimizda din yo'nalishiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi.

1992 yil 7 mart O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Qo'mita tarkibida diniy konfessiyalar bilan ishlash uchun maxsus tashkil etilgan sho''ba ish boshlaganidan so'ng, respublikamiz hududida joylashgan va diniy faoliyat yuritayotgan barcha tashkilotlar haqida ma'lumotlar to'plana boshlandi.

1998 yil 1 may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qonun moddalarini bajarishni takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998 yilning 20 iyun kuni qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi qaroriga asosan respublikada faoliyat ko'rsatayotgan barcha diniy tashkilotlar Adliya idoralarida qayta ro'yxatdan o'tishlari belgilab berildi.

Mazkur bo'limda soha bo'yicha qonunlarning takomillashib borish jarayoni ko'rsatib berilishi bilan birga mamlakatimizdagi 16 ta konfessiya faoliyati ilmiy ravishda o'rganildi, dinlararo bag'rikenglikka tahdid soluvchi missionerlik faoliyati tahlil qilindi.

Ma'lumki, missionerlik (lot. yuborish, topshiriq) deganda biror dinni o'z yoki o'zga yurtlardagi boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar orasida targ'ib qilish tushuniladi. Missionerlik, asosan, xristianlikka xos hodisa – fenomendir.

Konstitutsiya asosida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunga muvofiq, «Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va

totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar»¹. Missionerlarning asosiy maqsadlaridan biri turli yo'l va usullar bilan o'z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdir. O'zbekistonda o'tgan asrning 90-yillarida missionerlik yuzaga kelishining ob'ektiv sabablaridan biri bu II jahon urushi yillarida majburan O'zbekistonga repatriasiya qilingan oz sonli millat vakillarining tarixiy vatanlariga qaytishlari bilan bog'liq. Adeptlari sonining keskin kamayib ketishini «to'ldirish» maqsadida ba'zi sektalar missionerlikka ruju qildilar. Qonunda bunday diniy mojarolarga sabab bo'luvchi xatti-harakatlar oldining olinishi masalaga insonparvarlik jihatidan yondashilganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarni turkiylar va forsiylarga ajratib, ular orasiga nifoq solish yo'li bilan, ularning ustidan hukmronlik qilishga da'vat etuvchi rejani rossiyalik politolog Aleksandr Dugin o'zining “Основы геополитики”² (“Geopolitika asoslari”) nomli asarida ochiqchasiga ilgari suradi. Bunday xatti-harakatlar yaqinda o'zbek va qirg'iz xalqini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga intilish ko'rinishida, O'rta Osiyo respublikalari orasida vujudga kelgan suv va energetika mojaralarida ham yaqqol sezilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Olmaotada so'zlagan nutqida muxoliflarimiz naql qilib kelayotgan “Bo'lib tashla va hukmronlik qil!” – degan tamoyilga asoslanib ish yuritishmoqda³, deb juda to'g'ri ta'kidladi.

Axborot xurujlari avj olayotgan globallashuv sharoitida o'zligimizni saqlab qolish, o'z qadriyatlarimizga sadoqatni tarbiyalash o'ta mushkullashib boradi, chunki, g'arbcha turmush tarzi, ommaviy madaniyat soddadil kishilarni o'ziga qamrab olayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu esa o'z navbatida bizning

¹ Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 19-сон. – Т.: Адолат 1998. – Б. 225-226.

² Дугин А. Основы геополитики. М.: АРКТОГЕЯ-центр, 2000.

³ Каримов И.А. // Халқ сўзи, 2009 йил 30 апрел.

qadriyatlarimizdan begonalashuvimizga olib boradi. Bu ma'naviy tahdidning o'zidir. Bunday sharoitda sog'lom ma'naviyatga ehtiyoj tug'iladi. Prezidentimiz I.Karimov shunday sharoitni nazarda tutib, **“odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol”¹** – deb yozadi. Sog'lom ma'naviyat bag'rikenglikka tayansa – u buzg'unchi tahdidlarga nisbatan juda bardoshli bo'ladi.

Xullas, yuqoridagi holatlar yoshlarimizning milliy qadriyatlarimizni to'g'ri anglab etishiga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Natijada, yoshlar orasida **“milliy nigilizm”** degan mafkuraviy kasallik yoyilmoqda. Buning ma'nosi qo'yidagicha: “nigilizm” lotincha **nihil** – hech nima so'zidan olingan bo'lib, o'zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlikni anglatadi. Milliy nigilizm esa muayyan millat vakillarining o'z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholash, o'z yurtining qadriga etmaslik, mamlakatida ro'y berayotgan o'zgarishlar miqyosini anglay olmaslik tarzida namoyon bo'ladi.

Milliy nigilizm kasalligiga yo'liqqan yoshlarning mafkuraviy immuniteti zaif bo'lib, ular begona g'oyaviy ta'sirlarga tez beriluvchan, o'z yurtining manfaatlarini himoya qila olmaydigan, o'z yurtining har qanday yutug'iga nisbatan befarq va ularni o'ta negativ baholovchi, “qildan qiyiq axtaruvchi” nochor kimsalarga aylanib qolishadi. Bunday kishilar mafkuraviy opponentlarimiz uchun yaxshigina “emish”dir. Milliy nigilizmdan qutulishning asosiy yo'li yoshlar orasida Respublikamizda bugungi kunda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohatlarning mazmuni va mohiyatini to'g'ri va muntazam ravishda tushuntirib borishdir.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008. 113-б

Bu yo'nalishda respublikamiz hukumati juda ko'p ishlarni amalga oshirmoqda: o'tmishda o'tgan buyuk allomalarimizning yubileylarini nishonlash, shaharlar yubileylarini, milliy qadriyatlarimiz va bayramlarni o'tkazish, muzeylar, ziyoratgohlar tashkil etish va boshqalar. Bularning barchasi xalqimizning milliy g'ururini ko'taradi.

Xulosa qilib aytganda, biz o'zimizning axborot fazomizni turli xil ichki va tashqi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan asrashimiz, yoshlarimiz ongida mafkuraviy immunitetining shakllanishiga sharoit yaratishimiz va ularda milliy-ma'naviy qadriyatlarga sadoqat ruhini tarbiyalashimiz, bilim doirasi va dunyoqarashini kengaytirishimiz zarur bo'ladi. Bu ma'naviy tarbiyaga taalluqli masaladir. Ma'naviy tahdidlarga, deb yozadi YUrtboshimiz I.A.Karimov, "har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin"¹.

Millatlararo totuvlik g'oyasi-milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o'zbek millati va shu bilan birga o'zlarining o'rtasida ko'p yillarga mo'ljallangan ezgulik, ishonchlilik, do'stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosaliylik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi. Bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub bo'lgan kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik kabi munosabatlarning mavjudligini va shunday munosabatlarni qaror toptirish, mustahkamlashga qaratilgan fikr – millatlararo totuvlik g'oyasining mazmun-mohiyatining muhim jihatini tashkil qiladi. Bu g'oya bo'yicha, milliy g'oyaviy va amaliy hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Diyorimizda asrlar davomida istiqomat qilib kelgan millat va elat vakillari o'rtasida milliy adovat kuzatilmaganligi, bu g'oyaning bir muhim tarixiy ildizidir.

¹ Ўша асар. 115-116б.

Bu g'oya jamiyatimizda to'la-to'kis amal qilishi uchun, u zarur bo'lgan huquqiy qonunlar bilan ta'minlangan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan beri yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning tarixi mufassal ko'rib chiqilsagina, millatlararo totuvlik g'oyasining naqadar chuqur va baquvvat tomirlari mavjudligiga amin bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Vaqti kelib, bu tomirlar to'g'risida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib boriladi va qanchadan-qancha badiiy asarlar yoziladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasining mazmun-mohiyati, uning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri anglash uchun, Markaziy Osiyo xalqlarining kamida uch ming yillik madaniy va ma'naviy tarixini yaxshi bilishimiz talab qilinadi. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, hozir bu g'oya jamiyatimizning barcha jabha va sohalarida uzul-kesil amal qilib kelishi tasodifiy bir hol emas, balki u zaruriy hodisa sifatida xalqimizning ongi va qalbida etishib, shakllanib, uning hayotida ming bor marta sinovlardan o'tib, duri-gavhardek baholanib va ma'qullanib kelgan.

Quyidagi fikrlarda biz bu o'zlikning ayrim muhim jihatlarini yoki boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g'oyasining tarixiy ildizlarini qisqa ko'rsatib o'tamiz, ya'ni:

a) Markaziy Osiyo hududida azaldan istiqomat qilib kelayotgan barcha millat va elatlar bir necha ming yillar davomida asosan bitta davlat miqyosida yonma-yon turib va birgalikda hayot uchun kurashib kelgan;

b) ularni faqat uzoq yo'llar va yo'l azoblari ajratib turgan bo'lsada, biroq ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy aloqalari va bir-biriga bo'lgan turli xildagi o'zaro ijobiy ta'sirlari tinimsiz davom etgan;

v) bu xalqlar ming-ming yillar davomida umumiy bosqinchilar tomonidan ularga o'tkazilgan sitam va azob-uqubatlarni birgalikda baham ko'rgan, birgalikda kurashib ozodlikka erishishga muvaffaq bo'lganlar;

g) Markaziy Osiyoda joylashgan respublikalarning har biridagi ko'pdan-ko'p yoki deyarli barcha qishloq va shaharlarida turli millat va elat vakillari bir-birlari bilan yon qo'shni va jon qo'shni, bir jon va bir tan bo'lib qudo-anda, tog'ali-jiyan, yoru birodar va boshqa turdagi yaqinliklar o'rnatilgani holda yashab kelganlar.

Qadimdan beri Markaziy Osiyo hududida yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning madaniy-ma'naviy birligi nihoyatda mustahkam va uning tarixiy tomirlari o'ta chuqurdir. Bu birlik shu qadar boy mazmunga egaki, uni to'laligicha ko'rsatish uchun, bir nechta kitoblar yozishga to'g'ri keladi. Biz bu birlikning eng umumiy va muhim tomonlariga e'tibor beramiz.

Yuqorida ko'rsatilgan millat va elatlarning birligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan, ya'ni:

-bir qismi qon-qarindosh bo'lib ketganligida;

-tillari bir-biri hisobiga boyib borib juda ham yaqinlashib borganligida;

-urf-odatlari, udumlari, marosimlari, taomillari, yurish-turishlari, hayot tarzi va boshqalari ham juda o'xshash bo'lib ketganligida. Shu tufayli aytish mumkinki, ular uchun O'zbekiston nafaqat hududiy, iqtisodiy va siyosiy ma'nodagi Vatan, balki ularning umumiy urf-odatlari, an'analari, marosim va udumlari vatani hamdir (bu-etno-ma'naviy va mafkuraviy birliklardir);



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

birinchidan, siyosiy ijtimoiy qadriyatlar kishiga o'zini baxtiyor sezish, baxtli yashash imkonini beradi, lekin baxtning o'zini emas;

ikkinchidan, mustaqillik ijtimoiy-siyosiy borliqni yangilaydi, unga yangicha qarashlarni, tasavvurlarni, ideallarni olib kiradi, kishilar qalbida yangicha yashash istagini kuchaytiradi;

uchinchidan, siyosiy-ijtimoiy tuzum va davlatning gumanistik mohiyati fuqarolarda yuksak, olijanob ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirganidek, yuksak, olijanob, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ham, o'z navbatida xalqni, millatni, davlatni kuchli qiladi;

to'rtinchidan, yangi qadriyatlar yaratish nafaqat davrning, taraqqiyotning, xuddi shuningdek, mustaqillik, erk bergan hayotning immanent xususiyatidir;

beshinchidan, mustaqillik yangi qadriyatlar yaratayotgani tufayli e'zozli, qadrlidir; u yaratayotgan qadriyatlari orqali jamiyatni ma'naviy yangilashga xizmat qiladi; xalq, millat tarixida buyuk voqelik, yangi ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida qoladi;

Savollar va torshiriqlar:

1. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar deganda nimani tushinasiz?
2. Fuqarolik jamiyati qanday qadriyat?
3. Mustaqillik yangi ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida deb nomlangan referat tayyorlang?

9-mavzu. Axloqiy, badiiy-estetik qadriyatlar, ularning tiklanishi va ahamiyati.

1-ma'ruza

1. Axloqiy qadriyatlar tizimi.
2. Sharq falsafasi va islom ta'limotida ahloq – odob masalalari.
3. Axloqiy qadriyatlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni.
4. Vatanparvarlik – oliyjanob fazilatlar ekanligi.

1. Axloqiy qadriyatlar tizimi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «axloq – (arab. til. olingan- kishilar tabiati) muomala, hatti harakat odobi»deb ta'rif berilgan. Ta'rifdan ko'rinib

turibdiki, axloqning mazmun-mohiyatida insoniyatning muayyan hatti harakatlari muomala madaniyati va uning yig'indisi sifatida e'tirof etilgan. Falsafa ensiklopedik lug'atda «Axloq (arabcha xulq so'zining ko'pligi) – kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalari yig'indisi», – deb ta'kidlanadi. “Falsafa. Qomusiy lug'ati” da esa «Axloq (adab, xulq so'zining ko'pligi; lotincha moralis- xulq-atvor) – ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi», - deb ta'rif berilgan.

Axloqiy qadriyatlarning tabiatini ochish, ularni tasniflash muammosi birinchi navbatda “axloq” tushunchasini teran anglashni taqozo etadi. Axloq nima? Bu haqda axloqshunoslik ilmi tarixida juda ko'plab ta'riflar berilgan. Ushbu tadqiqotda milliy axloqning o'ziga xos xususiyatlari, axloq va axloq ilmiga doir fikrlar bayoni va ularning ilmiy asoslari qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, Abdulla SHerning “Axloq-jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy hatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisadir”¹, degan talqinini, shuningdek, faylasuflar A.A.Guseynov va R.G.Apresyanlarning “Axloq - bu aqlning affekt (jazava) ustidan hukmronligi; oliy baxt-saodatga intilishi; jamiyatda insonning yashash usuli; erkin yashashi, beminnat xizmat qilishi; insoniylik yoki odamlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishi; iroda erkinligi; axloqiylikning oltin qoidalari asosida o'zaro munosabatda bo'lishi”², - A.Raduginning “Axloq - bu burch va axloqiy qadriyatlarni shaxsiy, sub'ektiv, beg'araz hurmat qilish asosida inson xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarni qadriyatli-qat'iy talab, amr asosida tartibga solish shaklidir”³, degan ta'riflarini qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqotchi fikricha, unda birinchi bor axloqiy qadriyat axloqning ajralmas manbai sifatida

¹ Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2010. -8 б.

² Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика /Учебник. -М.: Гардарики, 2004. -26 с.

³ Радугин А.А. Этика. /Учебное пособие для высших учебных заведений. -М.: Центр, 2003. -88 с.

tilga olingan, bo'lsada ammo, u ham axloq tushunchasiga berilgan to'laqonli ta'rif vazifasini bajara olmaydi.

Axloq tushunchasiga falsafiy ta'rif berish uchun eng avvalo jamiyat axloqiy hayotining mazmunini to'g'ri anglash kerak. Shu ma'noda tadqiqotchi jamiyatning axloqiy hayotini o'zida aks ettiruvchi axloqni ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida e'tirof etib, uning uchta tarkibiy tuzilishini ko'rsatib o'tadi. Bular: 1. Kishilarning kundalik hayotida sodir etadigan axloqiy hatti-harakatlaridan iborat bo'lgan amaldagi axloq, ya'ni axloqiy amaliyot. 2. Muayyan qadriyatlar asosida fikr yuritish, baholash, qadr-qimmatini belgilashni o'z ichiga oluvchi axloqiy ong. 3. O'z-o'zini axloqiy anglash, ya'ni mavjud vaziyatni axloqiy jihatdan tahlil qilishni - qalban o'zi bilan gaplashish, o'zicha baholash, o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi takomillashtirish; boshqa odamlar bilan birga ich-ichidan aziyat chekish; aniq vaziyatda yaxshi va yomonni qalban his qilish; yaxshi va yomondan birini tanlashga irodaviy jihatdan tayyor turish kabi darajalarga ajratish mumkin.

Har qanday murakkab, ijtimoiy rang-barang, ayniqsa, polifunksional ob'ektlar, hodisalar modellashtirish orqali tahlilni taqozo etadi. Tadqiqotchining ilmiy maqsadi, ob'ekt haqidagi tasavvurlari, uni o'yi, xayoli, ongida sub'ektivlashishi, holati va kelajagini prognozlashtirishi ana shunday modellashtirish ifodasidir. Demak, har qanday murakkab, ijtimoiy rang-barang voqelik modellashtirish orqali tadqiq etilganida ma'lum bir natijaga kelinadi¹. Tadqiqot ob'ektiga tizimli-funksional yondashuv ana shunday tahlillardan biridir. Uning mohiyati ob'ekt ichki va tashqi aloqalarining funksional xususiyatlarini rang-barangligi va nigohga tashlanmaydigan dinamik, sensitiv korrelyasiyaga muhtoj jihatlarini mikrososial pog'onadan makrososial pog'onaga, darajaga ko'tarib kompleks tadqiq etishdir².

¹ Каранг: Клиланд А., Кинг В. Системный анализ и целевое управления. – М.: Прогресс, 1972; Ларичев О.И. Методологические проблемы практического применения системного анализа//Системные исследования. Методологические проблемы. Ежегодник. – М.: Наука, 1979. – С.44-68; Уемов А.И. Системный подход и общая теория систем. – М.: Наука, 1979.

² Каранг: Bertalanfi L.V. General system theor. Foundations, development, applications. – N.Y. 1972; Системное исследование. Методологические проблемы. Ежегодник. – М.: Наука, 1974. – С. 24-28.

Sub'ektiv voqelikni anglash, tadqiq etish mudom ma'lum bir qiyinchiliklar uyg'otib kelmoqda. Birinchidan, ularni ob'ektiv baholash, o'lchash qiyin, deyarli mumkin emas. Ikkinchidan, sub'ektiv voqelik tezda o'zgaruvchan, har bir onda, makonda va turli ta'sirlar sababli rang-baranglashish xususiyatiga ega. Uchinchidan, u insonning ongi, tasavvuri, dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lgani uchun har bir shaxsda har xil ifodada keladi. Shuning uchun sub'ektiv voqelikni tadqiq etishda mutlaq haqiqatga erishish aslo mumkin emas. Ammo bu qarash uni tadqiq etish kerak emas, degan xulosaga asos bo'la olmaydi. Axloqiy qadriyatlar ana shunday murakkab sub'ektiv qarashlar, tushunchalar, affektiv kechinmalar ifodasi bo'lgani uchun ularni tizimli-funksional tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Umuman bunday yondashish qadriyatlarning boshqa shakl, ko'rinishlariga ham tatbiq etiladi.

Eng avvalo, axloqiy qadriyat va ularning sosiumdagi ahamiyati, shaxs hayotiga ta'siri (antropologik yondashuv), milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi dinamikasiga bevosita taalluqli bo'lgan ilmiy-metodologik masalalar haqida to'xtalib o'tish lozim. Mazkur ilmiy-metodologik masala axloq, uning normativ (me'yoriy) qadri, ijtimoiy tuzumdagi ko'rinishlari, shakllari bilan bog'liqdir.

Axloq - umuminsoniy, diniy, milliy va individual xulq-atvorga doir normalar, aqidalar, ko'nikmalar va tasavvurlar birligidan tashkil topgan va muayyan shaxs, millat va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi ijtimoiy qadriyatdir. Axloq-odobning o'z shakllanish va rivojlanish qonuniyati bor bo'lib, u o'ziga xos milliy va umuminsoniy ko'rinishda amal qiladi. Ular ona suti, ota o'giti, millat taqdiri va xotira zahirasi, diniy aqidalar orqali inson ma'naviy olamini boyitib boradi. Bu jarayon millat, jamiyat va shaxslarning orzusi, maqsadi, mukammallik haqidagi qarashlari sifatida axloqiy ideal ko'rinishini ola boshlaydi. Ana shu tariqa «inson etuklikni ikki tomondan, birinchidan, o'z ichki ruhiy olamidan, ikkinchidan, tafakkuri va amaliyotidan, ya'ni tashqi olamidan izlab keladi».

Axloqning me'yoriy qadri uning kishilar, jamiyat tomonidan ixtiyoriy tarzda qabul qilinishida, ularning axloqiy imperativlarga bo'ysunib yashashidir. Axloq kishilar xulq-atvori, xatti-harakatlari, simpatiya va antipatijasida qadriyatlarga aylanadi. Jamiyatning mazkur qadriyatlarga munosabati – axloqiy qadriyatlardagi pozitiv yoki negativ, progressiv yoki regressiv jihatlarni aks ettiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, **axloq insonning ijtimoiy-tarixiy sharoitda o'zining xulq-atvor va insoniylik fazilatini namoyon etishidir.** Axloqda odamlarning muayyan jamiyatda yashash tarzini belgilovchi jamoaviy, shaxsiy va milliy xulq-odob me'yorlari, o'zaro muomala va muloqotda namoyon bo'luvchi ma'naviy kamolot ramzidir. Axloqiy mukammallik yo'q yoki talab qilinmaydigan joyda ma'naviy yuksaklik va mukammal shaxs shakllanmaydi. Axloqiy ideal zaminidagina insonlarda hayotiy maqsad, jamiyat va millat oldidagi burch, adolat va adolatsizlikka nisbatan munosabat me'yorlari shakllanadi. Bu fikrlardan shu narsa ma'lumki, axloqiy ong va axloqiy ideal odamzodning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy tajriba, tabiiy muhit, diniy tasavvurlar, urf-odatlar, an'analar, inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq g'oyalar zahirida tafakkurda shakllanadigan etuklik va komillik sari chorlovchi timsoldir.

Axloqiy qadriyatlarga tizimli-funksional yondashuv axloqiy voqealarni ma'lum bir kategoriyalar, tushunchalar tarzida qarashni taqozo etadi. Bu borada turli fikrlar, klassifikasiyalar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda axloqiy voqealarga ezgulik, burch, vijdon, sha'n, ideal, adolat, baxt-saodat kabi kategoriyalar kiritilishi keng tarqalgan. Shuningdek, o'zbek olimlari ularga mehr-muhabbat, karamlilik, muloyimlik, sabr-bardoshlilik, bilimdonlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqat, ibo, hayo kabi xislatlarni kiritishadi¹. Professor X.O.SHayxova o'zbek ayollariga xos axloqiy qadriyatlar va ularning ma'naviy-axloqiy madaniyati haqida fikr yuritib yozadi: «Ma'naviy, axloqiy madaniyatni tarbiyalash jarayonining muhim vazifalaridan biri umuminsoniy va

¹ Шайхова Х. Ўзбек аёли – одоб тимсоли. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. – Б. 24-28.

milliy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirishdan iborat. Axloqiy qadriyatlar orqali aql-idrok va e'tiqodli, imonu iboli yuksak axloqiy fazilatlarni qaror toptirmasdan turib, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish, ma'naviy kamolot, axloqiy etuklik to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Inson or-nomusli, halol, vijdonli, pok qalbli va o'z-o'ziga talabchan bo'lmasdan turib, axloqan etuk shaxs bo'la olmaydi»¹. Shu tariqa olim axloqiy qadriyatlar doirasini yanada kengaytiradi.

Klassik falsafada shakllangan an'anaga ko'ra, axloqiy voqeliklar va qadriyatlar ezgulik va yomonlik, burch va mas'uliyatsizlik, vijdon va vijdonsizlik, sha'n va qadsizlik, ideal va idealsizlik, adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizlik kabi antinomiylar orqali tahlil qilinadi. Mazkur qadriyatlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bilan birga keyingi yillarda ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar, ayniqsa, mustaqillik yillarida axloqshunoslik sohasidagi izlanishlar yuqoridagi kategoriyalar doirasini kengaytirdi. Shuning uchun yuqoridagi jahon falsafasida keng muhokama etilib kelingan axloqiy qadriyatlarni milliy tiklanish (mustaqillik) davridagi axloqiy qadriyatlar bilan to'ldirish lozim. Demak, axloqiy qadriyatlar tizimini

- ezgulik;
- burch;
- vijdon;
- sha'n;
- axloqiy ideal;
- adolat;
- baxt-saodat;
- milliy-ta'lim tarbiya;

¹ Шайхова Х. Ўзбек аёли – одоб тимсоли. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. – Б. 28.

- milliy-madaniy meros;
- sharqona odob;
- milliy urf-odatlar;
- mehr-oqibat;
- osoyishtalik;
- xotirjamlik;
- sihat-salomatlik;
- daxldorlik;
- hamkorlik va hamjihatlik tarzida qarash mumkin.

Mazkur axloqiy qadriyatlarni alohida-alohida tadqiq etish va ularning har biri axloqshunoslik, pedagogik, psixologik tadqiqotlar ob'ekti bo'lishi mumkin. Biz mazkur axloqiy qadriyatlar tizimining jamiyat ma'naviy yangilanishiga umumiy ta'sirini hamda ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan funksional aloqalarini ko'rsatish bilan cheklanamiz.

Ezgulik, burch, vijdon, sha'n, ideal, adolat va baxt-saodat axloqiy qadriyatlar sifatida ilk falsafiy qarashlar – mifologiya va kosmologiyadayoq kun tartibiga qo'yilgan, muhokama etilgan. Ibtidoiy odamlarning ruhi, ongi yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik kategoriyalarini anglashga, ularning sabab va oqibatini tabiiy borliqdan izlashga intilgan. Bu davrda inson o'zini hali tabiatdan ajratmagan, ya'ni u o'zini «notirik tabiat bilan aynanlashtirgan» edi. V.Alimasov yozganidek, «Odam o'ziga xos xislatlarni, tushunchalarni notirik tabiatga ko'chirganida gnoseologik, ontologik va sosiologik muammolarni hal etishga intilgan. U notirik tabiatni gapirtirmay, uni o'zi kabi fikrlashga, ishlashga, yashashga majbur qilmay ehtiyojlarini qondirolmasdi. Shuning uchun notirik narsalar (tosh, ip, gazlama, ro'mol, taroq, uzuk va b.)da kishilarning o'yi, orzu istaklari, ideal tasavvurlari aks

etgani bois ular odamning o'zi edi»¹. To'g'ri, V. Alimasovning hayotni, borliqni, insonning o'zini ham mif deb atashiga qo'shilib bo'lmaydi, lekin ilk odamlar tasavvur qilgan qadriyatlar mohiyatan axloqiy edi. Ular uchun axloq ezgulik va zo'ravonlik kerakmi yoki zararlami degan oddiy, primitiv tushunchalar bilan belgilangan. Ammo mifologik va kosmologik tasavvurlarning axloqiy normalar, konsepsiyalar tarzida qaralishining shakllanishi bilan odam ma'lum bir ijtimoiy-axloqiy normalar, qadriyatlar bilan yashashi lozimligini anglagan. Shu tariqa odam o'zini tabiat bilan aynanlashtirishdan sosial muhit bilan aynanlashtirishga o'tgan.

Mustaqillik tufayli boshlangan milliy tiklanish axloqiy qadriyatlarning nafaqat mohiyatini, xuddi shuningdek, ularning shakllarini, ko'rinishlarini ham boyitdi. Ularga milliy ta'lim-tarbiya, ma'naviy-tarixiy meros, sharqona axloq-odob, urf-odatlar, an'anaviy hayot tarzini, tasavvur va fazilatlarni mustahkamlovchi mehr-oqibat, osoyishtalik, hamkorlik, hamjihatlik kabi qadriyatlar kiradi. Mazkur axloqiy qadriyatlarga alohida urg'u berilayotganining ijtimoiy-siyosiy sabablari bor, albatta. Aynan ushbu axloqiy qadriyatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida jamiyatimizning ma'naviy yangilanishiga, xalqimiz orzu qilib kelgan siyosiy tuzum, davlat qurishga yordam bermoqda.

Qadriyatlar inson axloqiy kamolotining muhim mezonlaridan birini tashkil etadi. Shu tufayli milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy negizlarini har tomonlama tadqiq, tahlil qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Ham ma'nan, ham jismonan barkamol shaxsni tarbiyalash, ular ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda shakllantirish dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

Milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarning mazmunini bilish, ularga e'tiqod qo'yish, shaxs ongida insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini

¹ Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. – Т.: Noshir, 2008. – Б.7.

shakllantiradi. Vatan baxt-saodati va milliy istiqbolimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga, komil inson bo'lib voyaga etishga undaydi. M.Nurmatova axloqiy qadriyatlarning mohiyatini jamiyat va shaxs manfaatidan tashqarida qidirish mumkin emasligini va u dunyoviy va diniy negizga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy kuch ekanligini hamda jamiyat rivojining burilish nuqtasida millat va xalqni har xil bo'hrondan asrab qoluvchi, ma'naviy zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi¹.

«Qadriyatlar muayyan millat va xalqlarning shonli va musibatli o'tmishi, tarixiy-madaniy tajribalari, saboqlari, surur va baxtiyor damlarining ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, urf-odatlar, rasm-rusm va marosimlar turmush tarzining shakliy ko'rinishi sifatida xalq hayotining ma'naviy-axloqiy negizlarini tashkil etadi. Qadriyatlar hamisha muayyan faoliyatlar tarzida namoyon bo'lib, kishilarning voqelikka bo'lgan munosabatlari mazmunini ifoda etadi hamda ularning fe'l-atvorlari, sa'y-harakatlari yo'nalishlarini belgilaydi»².

2. Sharq falsafasi va islom ta'limotida axloq – odob masalalari.

Islom dinida ma'naviyat va axloqning uyg'unligi to'g'risida fikr yuritish ekanmiz, inson hayoti keyingi bir ming ikki yuz yil davomida Islom axloqi ta'siri ostida bo'lganligini unutmasligimiz lozim. Din – inson ma'naviyati rivojining muhim omilidir. Barcha dinlar kabi Islom dini ham kimlarnidir xohish-istagi tufayli yaratilgan emas. Chunki har qanday diniy ta'limotlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ob'ektiv va sub'ektiv ehtiyojlar, zaruriyatlar asosida kelib chiqadi. Islom dinining asosini tashkil etuvchi Qur'oni karim, Hadis Sharif, shariat qoidalari, islom huquqi asoslarida ilgari surilgan g'oyalar zaminida imon, e'tiqod, vijdon, ruhiy poklanish bilan bog'langan dunyoviy muammolar o'rta qo'yilgan.

¹ Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. –Т.: Университет, 2007. – Б. 170.

² Ўлмас қадриятлар. – Т.: «Адиб» нашриёти, 2009. – Б.10.

Islom dini mazmunining markaziy g'oyasini jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun inson o'zi ruhan, vijdonan pok, iymonli, e'tiqodli, halol bo'lishi kerakligi tashkil etadi. Sovet tuzumi davrida ilgari surilgan "Din xalq uchun afyundir" degan g'oya dinga nisbatan salbiy munosabatni yuzaga keltirdi. O'sha davrda keng avj olgan ma'naviy-axloqiy inqiroz ham islom diniga bo'lgan ana shunday noto'g'ri munosabatga borib taqaladi. Chunki juda ko'p yillar davomida Shohro' tuzumining ateistik siyosati ta'sirida ish yuritilishi natijasida ma'naviy-axloqiy kamolot rivojida, ma'naviy tafakkur taraqqiyotida bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keldi. Vaholanki, jamiyatning dinga bo'lan munosabati bir jihatdan ma'naviy-axloqiy kamolot darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Islom dinining g'oyalari asosan Qur'on, hadislar va shariat hukmlarida bayon etilgan. Islom dinining ana shu manbalarida ma'naviyat va axloqning uyg'unligini, ular biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmasligini, biri ikkinchisini to'ldirib, taqozo etib turishini kuzatishimiz mumkin. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'onda (arabcha qiroat, o'quv) Islom aqidalari, e'tiqod talablari huquqiy va axloqiy normalari, cheklash va ta'qiqlashlari o'z ifodasini topgan.

Qur'on Islom diniga e'tiqod qo'yuvchi xalqlarning falsafiy, axloqiy va huquqiy qarashlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Qur'on - tarixiy yodgorlik va ma'naviy qadriyatdir. U asrlar osha sinovdan o'tib, yanada sayqal topib bizgacha etib keldi.

Islom dini tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u mavjud bo'lgan yillarda jamiyat hayotida ko'plab siyosiy, mafkuraviy qarashlar tizimi shakllandi va vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketdi, lekin dinning ijtimoiy ildizlari zaiflashmadi. U kishilarning ongi, e'tiqodi, faoliyati, axloqiga doimo ta'sir etib keldi. Ma'naviy-axloqiy kamolotga bo'lgan ehtiyojning bir ko'rinishi - bu jamiyatning dinga bo'lgan ehtiyojidir. Agar xalqning mana shu ehtiyoji qondirilmas ekan, jamiyat ma'naviy-axloqiy jihatdan qashshoq bo'lib qoladi.

Dinga nisbatan shakllangan yangicha munosabat tufayli mustaqil O'zbekistonda xalqni ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy jihatdan yuksaltirish bilan bog'liq ezgu ishlarni amalga oshirishda islom dinining imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Chunki islom dini asrlar davomida odamlarni ulug' maqsadlar sari birlashishga, milliy, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka, mehnatsevarlikka, mehr-oqibatlilikka chorlab kelgan. Mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, ahillikni ta'minlashda islom dinining ahamiyati kattadir.

Diniy va dunyoviy bilimlarni egallashga intilishni, olimlarni qadrlashni ham islom dini muqaddas burch deb biladi. Diniy e'tiqod bilan dunyoviy bilimlar birlashsagina ular inson qalbidan chuqur o'rin egallaydi. Demak, diniy va dunyoviy bilimlar mushtarakligi hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ma'naviy-axloqiy kamolotning muhim shartlaridan biridir. Shunday ekan, Islom dinida ma'naviyat bilan axloqning uyg'unligi Qur'oni Karim, Hadisi-SHarif inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan axloqiy tarbiyaning barcha muammolarini o'z ichiga olganligida ko'rinadi. Ushbu muqaddas manbalar axloqiy tarbiyaga oid fikrlarning mukammal to'plamidir. Ularda inson kamoli, halollik, poklik, imon va e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan birorta ham axloqiy masala e'tibordan chetda qolmagan.

Hadislardagi axloq-odobga doir g'oyalar shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, hadis – Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari va ko'rsatmalari to'plamidir. Boshqacha so'z bilan aytganda Islom dinining axloqiy tarbiyaga doir fikrlar to'plami ham deyish mumkin. Shuning uchun, musulmon olamining ijtimoiy hayotida hadislar muhim o'rin tutadi. Zero, 1998 yil 6 noyabrda poytaxtimizda YUNESKO Ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig'ilishida so'zlagan nutqida Prezidentimiz ma'naviy madaniyatimizga, uning elementlaridan biri bo'lgan islmomga, uning tarkibiy qismi hisoblanadigan hadislarga, ularni to'plagan, nashr ettirgan al-Buxoriyning xizmatlarini alohida ta'kidlaganlari bejiz emas edi.

Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” asarida yaxshi xulqli bo’lish haqidagi pand-nasihat, da’vat, maslahatlar bayon etilgan. 271-hadisda “Sizlarning yaxshilaringiz axloqi yoqimli bo’lganlaringizdir”, deyilsa, 272-hadisda payg’ambarimizga eng yaqin bo’lganlar “...axloqda (xalqqa) yoqimliroq bo’lganlarimizdir, deyiladi. 273-hadisda esa “men yaxshi xulqlarni kamolotga etkazish uchun payg’ambar bo’lib keldim” deyilgan. Aksariyat hadislarda yaxshilik qilishning eng asosiylari ota-onaga qilinadigan yaxshilik, e’tobor, oqibat, mehr-muruvvat, farzandlik burchini chuqur his etish, ularga nisbatan bo’ladigan muomalada hushyorlik, keksaygan chog’larida moddiy javobgarlik va o’ta xushfe’llikni unutmaslik hisoblansa, undan keyingisi etim-esir, beva-bechoralarga va urning o’z ayoliga qilgan yaxshiligidir. 7-hadisda Abdulloh ibn Abbos roviylariga Muhammad (S.A.V.) dedilar: “Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan birini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha, Alloh taolo undan rozi bo’lmaydi”.¹ Zero, ota-onani duosini olgan insonning rizqi ulug’, tole’i baland, ro’zg’orida qut-baraka, xonadonida fayz, turmushida totuvlik, ko’nglida xotirjamlik, ishlari omadli, hayoti mazmunli bo’lishi hech kimga sir emas. Yana bir hadisda “Diling yumshab qomating ravon bo’lishini xohlaysanmi? (Xohlasang) etimga rahm qil, boshini sila, ovqatingdan edir, shunda diling yumshaydi va hojating chiqadi”, deyiladi.

Imom al- Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” to’plamidagi 223-hadisga e’tiborimizni qaratamiz.”Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: Rasululloh: “yaxshi deb hisoblanadigan har bir ish sadaqa bo’ladi”,- dedilar. 224-hadis esa ushbu fikrni yanada quvvatlaydi: “Abu Muso al-Ash’ari aytadilar: Rasululloh:-“Har bir musulmon kishi sadaqa qilishi kerak”,-dedilar. Sahobalar : “Sadaqa qilishga qodir bo’lmasa-chi?”-deb so’rashdi. Rasululloh: “Sadaqa qilishga qodir bo’lmasa ishlaydi-da, o’ziga ham foyda va undan boshqa faqir miskinlarga ham sadaqa bo’ladi”,-dedilar. Sahobalar yana: “Ishlashga ham qurbi etmasachi?”-deyishdi. Rasululloh: “U vaqtda

¹ Имом ал-Бухорий Ал-Адаб ал-Муфрад. Т., Маънавият. 1990. 14-б.

muhtoj va mazlum kishiga qo'li yoki tili bilan yordam qiladi",- dedilar. Ular: "Buni ham qila olmasachi?-deganlarida, Rasululloh: "Kishilarga yomonlik qilishdan o'zini saqlaydi. Bu ham kishi uchun sadaqa bo'ladi",- dedilar.¹ Ko'rinib turibdiki, hadislarda har bir inson ezgu niyat va ezgu amalni o'z faoliyatining shiori va dasturilamali qilib olishga, ularni yomon fikrlardan, gina kuduratdan, jahldorlikdan, g'iybatning turli- tuman ko'rinishlaridan, xudbinilikdan, sabrsizlikdan, noshukurlikdan, ko'zbo'yamachilikdan, riyokorlikdan, bee'tiborlik va badnafslilikdan qaytarishga da'vat etiladi.

Mustaqillik tufayli jamiyat hayotining barcha sohalarida asta-sekin amalga oshirilayotgan poklanish, birinchi navbatda, ma'naviy-axloqiy hayot borasida tobora oydinroq ko'zga tashlanmoqda. YOsh avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, ularda iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, ta'lim tarbiya borasida milliy, umuminsoniy, islomiy an'analar va qadriyatlardan keng va unumli foydalanish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadidir.

3. Axloqiy qadriyatlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni.

Insoniyat o'zining uzoq tarixi mobaynida hali ko'pchilik orzu qilgan huquqiy-demokratik davlat, odil fuqarolik jamiyatining mukammal shaklini yarata olgani yo'q. Demokratiya tamoyillarini qaror toptirish chindan ham murakkab masala. Ayniqsa, bu uzoq vaqg totalitar tuzum asoratida yashagan va hali uning illatlardan butkul qutula olmagan jamiyatda yanada murakkabroq kechadi. Fuqarolik jamiyatiga o'tish, bu ko'p bosqichli, ham sertarmoqli jarayondir. Shuning uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarining hususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zahiriga tayanayadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir

¹ Ўша асар. 77-78-б.

narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umumisoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo''tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr – qimmat, mehr – oqibat, axloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi mezondir. Fuqarolik, adolatli jamiyat tushunchalari yaxlit, bir butun tushunchalardir.

Insonning xatti-harakati, fe'l-atvori shaxsda o'z ifodasini topadi va shu bilan birga jamiyatda inson u yoki bu huquq va burchlarga ega bo'lishi natijasida shaxsga aylanadi. Falsafiy nuqtai nazardan shaxs bir insonning jamiyatdagi o'rnini bildiradi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi jamiyatga bog'liq bo'ladi, shuningdek jamiyat taraqqiyoti ham shaxsning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Jamiyat taraqqiyotidagi yangi tarixiy sharoitlar, zaruriyatlar yangi ma'naviy extiyojlarni va ularning ruyobga chiqishi uchun kengroq imkoniyatlarni ham yuzaga keltiradi. Inson ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida bo'lgan davrlardan boshlab jamit vujudga kela boshlaydi va rivojlanadi. Shundan boshlab jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv va sub'ektiv asoslari o'rtasida murakkab dialektik munosabat shakllanadi. Inson yashayotgan ob'ektiv sharoitlar bilan uning faoliyatiga asos bo'lgan ma'naviyati o'rtasidagi dialektik munosabat zaminida jamiyat rivojlanishi amalga oshadi. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyoti uning ma'naviy rivojlanishi bilan o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisiz amalga osha olmaydigan jarayonga aylanadi.

Axloqiy qoidalar mazmunan boy bo'lib, ruhiy, hissiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham huquq va axloq ijtimoiy ongning shakllari sifatida ular o'rtasidagi munosabatlar murakkab bo'lib dialektik ta'limotning dialektik birlik, tafovut, o'zaro ta'sir va ziddiyatlardan iborat kategoriyalari bilan tushuntirilishi mumkin. Ularning huquqiy va axloqiy normalar o'rtasidagi umumiy tomonlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan - ularning har ikkalasi ham ijtimoiy normalar bo'lib, kishilarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi normalar hisoblanadi;

Ikkinchidan, axloq va huquq ijtimoiy ong shakllari sifatida, ustqur-maviy hodisalar bo'lib, jamiyatning bazisi, ya'ni iktisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan belgilanadi;

Uchinchidan, axloq va huquq ijtimoiy hayotni yanada takomillashtirish, adolat, insonparvarlik tamoyillarini joriy qilishga qaratilgan umumiy vazifani amalga oshiradilar.

Huquqshunos olim Akmal Saidov: “Jamiyatdagi yozilmagan xulq – atvor qoidalarining majmuidan iborat bo'lgan axloqdan farqli ravishda huquq – ma'lum yuridik shakllar, ya'ni manbalarda, jumladan qonun, farmon, qaror va huquqda namoyon bo'luvchi ijtimoiy xulq – atvor qoidalarining qat'iy ifodalangan tizimi. Huquq normalari asosan yozma shaklda bo'ladi. Axloqdan farqli ravishda, huquq qoidalari umummajburiy xususiyatga ega. Ularni bajarish davlatning majburlash kuchi orqali ta'minlanadi. Shu kabi ba'zi farqlarga qaramay, axloq va huquq umumiy hususiyatga ega”, deb ko'rsatadi.¹

Axloq va huquqning umumiy jihatlarini ifodalovchi boshqa omillar ham mavjud. Huquq va axloq ayni paytda, bir-birlaridan muhim belgilari bilan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat bo'ladi.

Birinchidan, huquqiy normalar jamoa tashkilotlarning, jamiyat a'zolarining faol ishtirokida davlat tomonidan qabul qilinadi. Davlat ayni paytda, mazkur huquqiy normalarni o'zgartirishi, ularga qo'shimchalar kiritish va xatto ba'zi xollarda, ularni bekor qilishi mumkin. Shuning uchun ham davlat ma'lum ma'noda huquqning siyosiy asosi, uning yaratuvchisidir. Va ayni paytda huquq davlatning xosilasi hamdir. Demak, huquq shunchaki faqatgina xalq irodasini ifodalabgina qolmay, balki uning davlat manfaatlari ustuvorligini aks ettiruvchi irodasini

¹ Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Т., Шарк. 2002. 32-б.

ifodalaydi. Bu ma'noda huquq faqat kishilarni xatti-harakatlarini tartibga soluvchi maxsus davlat maqomidagi regulyator deyishimiz to'g'riroq bo'ladi.

Axloq esa, davlat tomonidan emas, balki butun jamiyat tomonidan yaratiladi. Axloqni ijtimoiy xayotga joriy etilishi, ya'ni uning «huquqi» rasmiy ruxsatnoma, yoki boshqa biror bir huquqiy xujjatning bu xaqidagi bo'lishni talab qilmaydi. Eng muximi, jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruxlar, jamoatchilik tomonidan axloqiy normalarni ma'qullashi va qabul qilinishidir. Axloqiy normalarning shakllanishida va rivojlanishida davlat va jamiyatdagi jarayonlarining ham ahamiyati katta bo'ladi. Bundan tashqari huquq va axloq tarixiy va madaniy qadriyatlar bo'lib, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi mezonlardan biridir.

Axloq ijtimoiy normalar asosiy turlaridan biri bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, axloq insonning ichki-ruhiy munosabatini ijtimoiy-huquqiy xodisalarni, yaxshilik va yomonlik, burch va vijdon nuqtai nazaridai o'zida aks ettiradi. Axloqiy normalar yoxud axloq normalari deb bir xildagi ish-amallarga joriy qilinadigan umumiy buyruqlar va taqiqlar orqali kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi axloq-odob talablarining shakliga aytiladi.

Axloq normalarini ijtimoiy munosabatlarda tutgan o'rni hamda ularning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida namoyon bo'lishini taxlil etib, olim N. Muxammadiev axloq normalarini ikki xil ko'rinishda, ya'ni axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi va axloqiy ong shakllarida mavjud bo'ladi, deb ta'kidlaydi.¹

Axloq normalarni axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatidagi ko'rinishi ko'pchilik kishilarning bir xildagi xatti-harakatlari tufayli kelib chiqqan va keyinchalik barcha uchun bajarilishini shart bo'lgan qoidalar tusini olgan normalardir. Axloqiy ong esa axloqiy normalarning boshqa bir shakli bo'lib, u

¹ Қаранг: Мухаммадиев Н.Э.. Ички ишлар ходимларининг касб этикаси ва эстетикаси маданияти. Т. ИИБ Академиси. 1998.

insoi ongida o'z aksini topgan muayyan qoida sifatida namoyon bo'ladi va buyruq boshqaruv majburiylik xususiyatlari ko'zga tashlanadi.

Jumladan, islom dinidagi asosiy tushunchalar sifatida «harom», «makruh», «taloq», «o'ldirma», «insof», «o'g'irlama» va boshqalarni keltirish mumkin. Demak, ijtimoiy normalar tizimida axloq normalari faqatgina axloqiy ongning sodda ko'rinishi bo'lmay balki, u kishilarni harakatga, sobitqadamlikka, komilikka undovchi motiv hamdir. Axloq ijtimoiy normalarning turi sifatida o'zida ikki asosni mujassam etadi.

Birinchi asos - axloqiy ong bevosita alohida olingan shaxs, individning ichki erkinligi, axloqiy xatti-xarakatlari va ularni baholash bilan bog'liqligi bilan belgilanadi. Zero, inson, shaxsning ichki axloqiy, ma'naviy, ruxiy xolati tabiat va jamiyat xodisalariga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Axloqiy normalar, boshqa ijtimoiy normalarga nisbatan xuquqiy normalarga yaqinroq va ular bilan uzvny bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi asos - axloqning mohiyatini ob'ektiv, shaxs va insonga bog'liq bo'lmagan jihatlari bilan belgilanadi. Falsafa fanida axloq ijtimoiy ongning shakli sifatida, uning umumnazariy jixatlarini esa mustqil falsafiy ta'limot etika fani o'rganadi.

Umuman olganda, axloq, asosan shaxs, individning sub'ektiv ongi, tafakuri, dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lsada, ammo axloqda shaxsga, individga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv mazmun ham mavjud bo'ladi. Jumladan, uning bu ob'ektiv mazmuni jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari hamda mavjud ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy guruhlar manfaatlari, qadriyatlari, individ xatti-harakatining normalari, mezonlari, madaniy-ma'rifiy andozalari bilan bog'liq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jamiyat xayotida axloqiy etuklik, hamkorlik, hamjixatlik, insonparvarlik, demokratiya va qonun ustivorligiga

tayanish, fan va texnika yutuqlaridan taraqqiyot va inson manfaatlari yo'lida e'tibor berilmasa, inqiroziy jarayonlar, falokat, to'qnashuvlar, ekologik fojealar ko'payib, va kengayib boraveradi. Hozirgi taraqqiyotning bu muammolarini dolzarb, e'tibordan chetda qoldirish aslo mumkin bo'lmagan vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. XXI asr ma'naviy kamolot davri bo'lishi zaruriyati ham shu bilan belgilanadi.

4. Vatanparvarlik – oliyjanob fazilatlar ekanligi.

Vatanparvarlik. Axloqiy tamoyillar ichidagi eng nomdor tamoyil – vatanparvarlik hisoblanadi. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Vatanparvarlik – bir ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan insonlarning o'z tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlarini bilishi, ularni hurmat qilishi barobarida boshqa xalqlarning ham obro'–e'tiborini, manfaatlarini hurmat qila bilishini ifodalovchi umuminsoniy ma'naviy fazilatdir. Uni ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng bo'lib, insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. Vatanparvarlik eng avvalo, o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi xatti-harakatlardir. Vatan himoyasi bu - inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg'urish, Vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich eriga, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash bularning hammasi vatanparvarlik uchun asos vazifasini bajaradi.

CHin ma'nodagi vatanparvarlik tuyg'usi mustaqillikni mustahkamlash va Vatan barqarorligini ta'minlash jarayonlarida zaruriyatga aylanadi. Vatanparvarlik tuyg'usining milliy o'ziga xosligi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-

ma'rifiy sohalarda erishilgan va erishilayotgan yutuqlardan fahrlanish bilan ham belgilanadi. Shuningdek, bu yuksak tuyg'u mamlakatimizdagi erkinlik, mustaqillik va osoyishtalikka hasad ko'zi bilan boqayotgan g'animlarga nisbatan nafrat bilan qarash orqali ham aks etadi. Vatanparvarlik tuyg'usini har bir fuqaro mustaqil yurtimizning taqdiri uchun o'zining mas'ulligini xis etishi lozim. Vatanparvarlik tuyg'usi mamlakatimiz fuqarolarining hamjihatligini, tinch-totuv yashashlari va kelajakka umid bilan qarashlarini ta'minlaydi. Vatanparvarlik tuyg'usining ma'naviy asoslari anashu tuyg'ularning qaror toopishi bilan belgilanadi.

Odamlar Vatanni onaga qiyoslaydilar. Zero, Vatan inson uchun ona kabi qadrdon va mo''tabardir. Inson uchun ona bitta bo'ladi. Iymonli, e'tiqodli kishilar uchun vatan ona kabi muqaddas va bittadir. Vatanga bo'lgan muhabbat insonlarni har qanday g'oyalardan kuchliroq asosda birlashtiradi, ulug' ishlarni bajarishga safarbar etadi.

Bejizga prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida shunday fikrlarni keltirmadilar: "Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarmiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin"¹

Vatanparvarlik ayni paytda etuk ma'naviyatdir. Ma'naviyati zaif bo'lgan xalqda vatanparvarlik tuyg'usi ham yuksalmaydi. Bu xususda faylasuf olim E. Yusupov shunday deydi: "Vatanparvarlik muayyan milliy madaniyat, mafkura, e'tiqodlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu ma'noda hozirgi milliy istiqlol mafkurasi mustaqil O'zbekiston vatanparvarligining nazariy asosini tashkil etadi. Shu mafkura asosida shakllangan vatanparvarlik umummilliy fazilat sifatida shakllanadi va saqlanadi."² Xalqimizning vatanparvarlik e'tiqodi mamlakatimiz

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008. 90 - б.

² Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., Университет, 1998, 156-б.

istiqloli va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy mafkuraviy muammolarni chuqur anglab etish asosida shakllanadi.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, axloq - umuminsoniy, diniy, milliy va individual xulq-atvorga doir normalar, aqidalar, ko'nikmalar va tasavvurlar birligidan tashkil topgan va muayyan shaxs, millat va jamiyat ma'naviyatini belgilovchi ijtimoiy qadriyatdir;

ikkinchidan, axloqning me'yoriy qadri uning kishilar, jamiyat tomonidan ixtiyoriy tarzda qabul qilinishida, ularning axloqiy imperativlarga bo'ysunib yashashidir;

uchinchidan, axloq kishilar xulq-atvori, hatti-harakatlari, simpatiya va antipatiyasida qadriyatlarga aylanadi. Jamiyatning mazkur qadriyatlarga munosabati – axloqiy qadriyatlardagi pozitiv yoki negativ, progressiv yoki regressiv jihatlarni aks ettiradi;

to'rtinchidan, axloq insonning ijtimoiy-tarixiy sharoitda o'zining xulq-atvor va insoniylik fazilatini namoyon etishidir;

beshinchidan, yosh avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, ularda iymon, vijdon, halollik, ta'lim tarbiya borasida milliy, umuminsoniy, islomiy an'analar va qadriyatlardan keng va unumli foydalanish hozirgi kundagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadidir.

Savollar va torshiriqlar:

1. Axloq va diniy qadriyatlarni qanday o'xshashligi bor?
2. Axloqiy ong va uning tuzilishini nima o'zida aks ettiradi?
3. Axloqiy qadriyatlarni ahamiyati nimada?
4. “Vatanparvarlik tamoyili qadriyat ko'zgusida” mavzusida referat tayyorlang?

9-mavzu. Axloqiy, badiiy -estetik qadriyatlar, ularning tiklanishi va ahamiyati.

2-ma'ruza

1. Estetik qadriyatlar tizimi.
2. Estetik his – tuyg'u, did, baho berish, kechinmalar, ularning jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyati.
3. Axloqiy va estetik qadriyatlarning transformasiyasi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot sifatida

1. Estetik qadriyatlar tizimi.

Nafosat olamidagi ob'ektivlik va sub'ektivlik estetik qadriyatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, qadrlanishi va qadrsizlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va u inson go'zalligining ma'no-mazmunini belgilab beradi. Nafosat olamining ijodkori bo'lgan inson naslining har biri alohida shaxsga bog'liq bo'lmagan holda ob'ektiv mavjudligi;

- inson tomonidan asrlar mobaynida mashaqqatli ijodiy mehnat tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning mavjudligi;
- insonning tuyg'ulari, zavqlanishi, hayratlanishi, didi va estetik bilimi ob'ektiv olamning sub'ektiv obrazi ekanligi;
- tabiat insonning estetik olami va duyoqarashini boyituvchi go'zallik manbai ekanligi;
- inson va u yashayotgan jamiyatning mavjudligi nafosat olamidagi uyg'unlikni barqarorlashtirishi;
- inson amaliy faoliyatining ob'ektiv mavjudligi.

Nafosat olami haqidagi mazkur mulohazalar shundan dalolat beradiki, estetik qadriyatlar ham ob'ektiv mazmun va sub'ektiv ifodaga ega bo'lgan voqelik bo'lib, o'zida real va ideal shakllarni namoyon etadi. Nafosat olamining ob'ektiv

va subʼektiv mavjudlik qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda estetik qadriyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tabiatdagi nafosat olamini aks ettiruvchi estetik qadriyatlar.
2. Ijtimoiy voqelikdagi nafosatni aks ettiruvchi estetik qadriyatlar.
3. Maʼnaviy olamdagi nafosatni aks ettiruvchi estetik qadriyatlar.
4. Inson borligʻidagi nafosatni aks ettiruvchi estetik qadriyatlar.

Odatda har qanday ijtimoiy hodisa, xatti-harakat yoki inson faoliyatining motivi ayni vaqtda axloq ahamiyatiga (qiymatiga) ega boʻlib, bir tomondan goʻzallik yoki xunuklik sifatida, boshqa tomondan, ezgulik yoki yomonlik sifatida baholanishi mumkin. Nafosat va axloqning obʼektiv (ijobiy yoki salbiy) mezoni bir. Zero, voqelikning qandaydir ajralgan “estetik xossalari” ham, shuningdek axloqning alohida, predmetidan ajralgan “faktlari” ham mavjud emas.

Masalan birinchidan, jamiyatda yaratilgan majruhona ijtimoiy shart-sharoitlar sababli goʻzallik va ezgulikning bir-birini rad etishi, qusur va axloqsizlikning ijobiy estetik ahamiyatga daʼvo qilishi, goʻzallikning oʻz estetik mazmunidan mahrum boʻlishi.

Ikkinchidan, shaxsning bir tomonlama rivojlanishi va tarbiyalanishi bunda, tashqi tomondan jozibador qiyofaning axloqiy boʻshliq bilan yonma yon kelishi, yoki axloqning umum eʼtirof etadigan qoidalariga rioya etish xoʻjakoʻrsinga, munofiqlona tarzda amalga oshirilishi.

Bunday holatlarning paydo boʻlishi uni atrofdagilarning salbiy jihatdan estetik baholashiga sabab boʻladi. Bunday ziddiyatlarni faqat shaxsning har tomonlama va yaxlit rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadini oʻz oldiga qoʻyadigan buyuk estetik ideal - komil inson gʻoyasini amalga oshirish

orqali bartaraf etish mumkin. Xususan, badiiy ijod sohasida nafosat va axloq birligi g'oyasi san'at va axloqning o'zaro munosabatlarida ro'yobga chiqadi.

Shuningdek, faylasuf Tilab Maxmudovning "Go'zallik – estetika tushunchasi. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg'ulari hosil qilishga qodir bo'lgan xususiyatlarni ifodalaydi. Go'zallik – inson va hodisalarni umuminsoniy va milliy qadriyat sifatida belgilovchi ijtimoiy, ijobiy va ijodiy tushunchadir"¹-, degan qarashlarini ilgari surib go'zallikni namoyon bo'lishi, aks etishi va amaliy ko'rinishiga ko'ra turlarga ajratadi. Bular:

1. Tabiatdagi go'zallik.
2. Jamiyatdagi go'zallik.
3. Insondagi go'zallik.

Yuqoridagi mulohazalar asosida go'zallikning ta'rifidan kelib chiqib, uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi.

- go'zallik ob'ektiv mazmunga ega bo'lgan sub'ektiv obrazlar, tasavvurlar, idroklar, tafakkurlarning hosilasidir. Go'zallik ob'ektivlik va sub'ektivlikning o'zaro munosibligi, uyg'unligidir;

- go'zallik – bu narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning insonni ruhlantiradigan, ilhom bag'ishlaydigan, yuksak olijanob maqsadlar sari etaklaydigan, jo'shqinlik baxsh etib jonlantiradigan tomonlaridir. Go'zallik xuddi shu ma'noda jism va ruhning uyg'unligidir. Ruhni oziqlantirib, jismni yanada ulug'vor qiladigan narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning xossasidir;

¹ Махмудов Тилаб. Гўзаллик. /Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. -Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. -139 б.

- go'zallik – bu insonning erkin faoliyatidir. Hayotda o'z huquqini, erkini, qadrini topgan insongina go'zaldir. Erkin ijod, mehnat bo'lmagan joyda go'zallik yo'qdir;

- go'zallik – bu odamlarning jamiki yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan voqelikdir. Zero, shunday ekan go'zallik mavhum emas, balki muayyan shakl-shamoyil, ma'no-mazmunga, mohiyatga ega bo'lgan real narsa, hodisadir;

- go'zallikda mujassamlashgan ana shu xususiyatlar uni oliy estetik qadriyat darajasiga ko'taruvchi kuchdir. Ana shu kuchni axloqiy qadriyatlarning kuchi bilan uyg'unlashtirish zamonaviy estetik tafakkurning bosh vazifalaridan biridir.

Qadrsizlanish asosan ikki - shaxsiy va umumijtimoiy darajalarda namoyon bo'ladi. Qadrsizlanishning shaxsiy darajasi individual tarzda kechib u kishilarda yashashni istamaslik, hayotdan bezish, beparvolik, loqaydlik, pastkashlik kabi illatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Estetik qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib keluvchi quyidagi sabablar mavjud:

- shaxsning go'zallikni etarlicha idrok qilish qobiliyati shakllanmaganligi;
- shaxsning ijtimoiy hayotdan shavq-zavq olishi uchun shart-sharoitlarning yo'qligi yoki etishmasligi;
- shaxs ishlayotgan jamoada sog'lom muhitning yo'qligi xamda ishxonasining xunukligi, ya'ni etarli darajada jihozlanmaganligi;
- shaxsdagi jismoniy va ma'naviy fazilatlarni rahbarlar va hamkasblar tomonidan etarlicha baholanmasligi;
- tabiat quchog'iga yoki o'zga shahar-qishloqlarga chiqib u erdan ma'naviy ozuqa olishning tashkil qilinmaganligi va hokazolar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda estetik qadriyatlarning qadrsizlanishi deb, jamiyat tomonidan tan olingan nafosat olami normalarini qadrlamasdan qo'pol tarzda buzish tufayli kelib chiqadigan estetik aksilmadaniyatning paydo bo'lish jarayonlariga aytiladi.

2. Estetik his – tuyg'u, did, baho berish, kechinmalar, ularning jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyati.

Estetik anglash inson ruhiyatida o'ziga xos, chuqur ijobiy ruhiy o'zgarishlarni vujudga keltiradigan estetik holat. U estetik faoliyatining boshlanishidan avval insonni unga tayyorlovchi hodisa sifatida muhim: usiz estetik faoliyatning ro'y berishi mumkin emas. Estetik anglashning murakkab hodisa ekani unda estetik ehtiyoj, turli hislar va ma'naviy andozalarning har bir shaxs uchun alohida ruhiy evrilish tarzida namoyon bo'lishi bilan bog'liq; bu evrilish kuchli va asosan his–hayajon, ehtirosli kechinmalar asosida vujudga keladi.

Estetik ehtiyoj. Estetik anglash va shu asosdagi faoliyat jarayonining ibtidosi estetik ehtiyojga borib taqaladi. Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan barcha estetik hodisalarning asosi sifatida ham tabiiy–biologik, ham ijtimoiy–ma'naviy mohiyatga ega; «go'zal nafs», nafosatga tashnalik, insonda estetik hissiyotni qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolgan holda, keyinchalik uning butun umri mobaynida takomillashib boradi estetik muhokama, estetik baho, estetik did va estetik idealning shakllanishiga xizmat qiladi. Har bir shaxsdagi madaniyatlilik darajasi, ma'naviy salohiyati uning estetik ehtiyoji doirasi bilan o'lchanadi. U «go'zal nafs» sifatida boshqa ehtiyojdan talab etilayotgan ob'ektdan moddiy–iqtisodiy, ijtimoiy–siyosiy va boshqa manfaatlar kutmasligi, beg'arazligi bilan ajralib turadi. Estetik ehtiyoj estetik hissiyot bilan uzviy, dialektik bog'liq; estetik ehtiyoj ko'pincha estetik hissiyotni uyg'otsa, ba'zan estetik hissiyot estetik ehtiyojni vujudga keltiradi.

Estetik hissiyot. Ko'pincha adabiyotlarda estetik hissiyot «estetik tuyg'u» so'zida, birlik shaklida beriladi. Goh estetik kechinmaning, goh estetik hayajonning sinonimi tarzida talqin qilinadi. Bizningcha, bu unchalik to'g'ri emas. Chunki hayajon ham, kechinma ham bitta tuyg'udan emas, tuyg'ular silsilasidan iborat bo'ladi, shu sababdan uni ko'plikda—hislar yoki hissiyot shaklida qo'llash maqsadga muvofiq.

Estetik baho. Qadriyat va baho, yuzaki qaraganda, mohiyatan bir xil bo'lishi kerakdek tuyuladi. Aslida ular orasida o'ziga xos farq mavjud. To'g'ri, estetik qadriyat ob'ektning sub'ektga munosabatini anglatadi, ob'ekt, odatda, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu — muayyan go'zallik yoki ulug'vorlik hamma uchun ham, hamma vaqt ham bir xildagi go'zallik va ulug'vorlik bo'lib qolaveradi, degani emas. Chunki estetik baho sub'ektning ob'ektga munosabati, u ob'ektning qadriyatini belgilaydigan xususiy mezon, bu xususiylik shaxsga, jamiyatga va zamonga tegishlidir. Shu jihatdan bir ob'ekt—qadriyat har xil baholanishi va hatto muayyan vaqt mobaynida baholanmasligi mumkin. Shunday qilib, estetik baho shunday ma'naviy hodisaki, garchand qadriyat yaratmasa ham, qadriyatni idrok etish faqat u orqali amalga oshadi

Estetik bahoning yana bir muhim xususiyati shundaki, u estetik anglash tuzilmasi ichidagi eng qamrovli, eng miqyosli ta'sirga ega. U ma'lum ma'noda estetik anglashning deyarli barcha unsurlari uchun mezon vazifasini o'taydi. Chunki, estetik xissiyot, estetik did va estetik idealda buni yaqqol ko'rish mumkin. Ayniqsa, u estetik did bilan chambarchas bog'liq. Endi ana shu estetik did masalasini ko'rib chiqamiz.

Estetik did. Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his—hayajon, sub'ektiv baxolash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik did deganda —

insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi. Masalan, osmonni qora bulut to'liq qoplab olganini ko'ra-bila turib, yomg'irpushsiz va soyabonsiz yulga chiqqan odamni *fahmsiz*, chang, loy poyafzalini echmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni *farosatsiz* deb ataymiz, qalampir nusxa rangli ko'ylak, jinsi shim va ayni paytda kirza etik kiyib, salla o'rab olgan odamni ko'rsak, uni *didsiz* deymiz. Birinchi hodisada biz tabiiy sharoitga moslashmay, o'ziga jabr qilayotgan kishini, ikkinchisida ham gigienik, ham axloqiy qonun-qoidalarga amal qilmay tarbiyasizligi tufayli uy egasini ranjitgan odamni, uchinchi hodisada kiyinishdagi uyg'unlikni tushunmagan, go'zallik bilan bachkana yaltiroqlilikning farqiga bormagan kimsani ko'ramiz. YOki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go'zallikka munosabatini uchratamiz. Har uchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Zero, fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiy-tug'malikka borib taqalsa-da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did murakkab tarbiya jarayonini taqazo etadi. CHunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Biz yuqorida estetik bahoning estetik did va ideal bilan bog'liqligini aytib o'tgan edik. Huddi shunday holat estetik did uchun ham xos. U estetik baho bilan shu qadar uzviy bog'liqlik, ularni ba'zan ajratib bo'lmay qoladi, go'yo estetik baho estetik didning ajralmas qismiday tuyuladi. Lekin, shunday bo'lsa-da, ularni aynanlashtirish yoki bir hodisa sifatida qabul qilish mumkin emas, aks holda bunday qarash ilmiy tahlil tamoyillaridan yiroq «ko'cha gapi»ga aylanib qoladi. Zero estetik did muayyan estetik baho yoki baholar yig'indisi emas, balki estetik bahoga layoqatni anglatadigan, sub'ekt uchun baho me'yorlarini va mezonlarini tayyorlab beruvchi — «ishlab chiqaruvchi» jarayondir. Demak, estetik didsiz estetik bahoning mavjudligi mumkin emas. Ayni paytda shunday holni estetik

ideal bilan bog'liqlikda ham ko'rish mumkin: estetik ideal estetik didning yashash sharti hisoblanadi; did ma'lum ma'noda idealning amaliyotda namoyon bo'lishidir; estetik idealning o'zgarishi albatta didning o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, did estetik anglash jarayonidagi o'rnini almashtirib bo'lmaydigan muhim xalqlaridan biri, estetik anglashning eng muhim unsuridir. Ana shu nuqtai nazardan estetik did tarbiyasi inson shaxsi kamolotida katta rol o'ynaydi, estetik did tarbiyasining asosan uch ildizi mavjud. Ular go'zallik, san'at va badiiy ijod. Albatta, badiiy ijod deganda faqat san'at asarlarining yaratilish jarayonini tushunish kerak emas, u ayni paytda dizaynda, modada, atrof-muhitni va mehnatni go'zallashtirishda ham namoyon bo'ladi. To'g'ri, badiiy did estetik didga nisbatan xususiy, tor qamrovli, lekin u shuning barobarida estetik didning asosini tashkil etadi, deyish mumkin.

Estetik ideal. Ideal deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy-tarixiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak namuna, oliy maqsad hamda komillik tarzida qabul qilinishini nazarda tutamiz. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo'yish, ya'ni ideallashtirish bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonni kelajagi buyuk davlat sifatida tasavvur etishimiz uning hozirgi reallikdan baland, namunaviy bo'lishi lozimligini anglatadi. Ayni paytda ana shu yuksak namunaviylik har bir o'zini tanigan odam uchun oliy ijtimoiy maqsaddir. Yoki Navoiy shaxsini olib ko'raylik, u komil inson sifatida biz uchun ideal hisoblanadi. Bularni biz ijtimoiy ideallar sirasiga kiritamiz. Shuningdek, har bir inson o'zi intiladigan sub'ektiv ideallar ham mavjud bo'ladi, o'z idealini belgilab olmagan inson shaxs hisoblanmaydi. Zero har bir odam ko'rib turganidan yorug'roq, musafforoq, yuksakroq narsaga intilishi shart, aks holda uning hayoti ma'nosiz kechadi, uning mavjudligi faqat biologik jonzodligi bilan chegaralanib qoladi.

Kulgililik. Bu bordagi mavjud nazariyalar kulgililikning predmetini ob'ektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning sub'ektiv imkoniyatlari natijasi yohud sub'ekt va

ob'ekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko'rib chiqiladi va mazkur metodologik yondoshuv kulgililikdagi ko'pma'nolikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o'rganilgan. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, deydi. Nodonlik esa insonni kulgili qiladi. Biroq, kulgililikning mohiyati, uning kelib chiqishi sabablari haqida Aflotun biror-bir fikrni aytgan emas. Quldorlik tuzumi zodagonlarining namoyondasi bo'lgan Aflotun uchun kulgililikning demokratik mohiyati begona edi.

Aristotel fikricha, kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor etkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi. Insondagi jahldorlik, suskashlik, qizg'onchiqlik, subutsizlik, izzattalablik, shuhratparrastlik kabi illatlar kulgililik uchun ob'ekt bo'ladi. Aristotel fikricha, kulgi–axloq hududlarini bezarar buzishdir. Aristotel estetikasida kulgi inkor etilib, komediyaning xarakteri nazariy jihatdan asoslanadi. Aristotelning fikriga ko'ra, har qanday ozod inson hazil bilan ro'baro' kelishi mumkin. Bu xolatda kulgi insonning shaxsiy ehtiyojini qondiradi. Qiziqchi esa–boshqalarning ermagi, ovunchog'idir.

O'rta asrlarga kelib kulgililikka insonning Xudoga bo'lgan e'tiqodini susaytiruvchi vosita sifatida qaraldi, «Islom dini kulgini inkor etadi», – degan fikrlar ham yuzaga keldi. Aslida esa Islom dinining muqaddas manba'larida kulgi va kulgilik ulug'lanadi. Jumladan, hadislarda «Kulduruvchi ham, yig'latuvchi ham Olloh taolodir!», –deyiladi. Bundan tashqarii qiyomat kunida ummatlarning ahvoli, ularning sirot ko'prigidan o'tishiga doir «Sirot – jahannam ko'prigi xususida» deb nomlangan hadisi sharifda Abu Xurayra rivoyat qilishicha, yuzi jahannam otashiga qaratilgan bir bandning «YO rabb, meni jahannamning tutuni zaharlab, alangasi kuydirayotir, yuzimni o'tdin o'zga tomong'a qaratg'il, meni baxtiqaro banda qilib qo'ymag'il»– deb iltijo qilaverganidan Olloh taolo kulib yuborgani, Ollox

taoloning kulgani uni jannatga kirish uchun izn berilganligining alomati ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shundan so'ng «Ul jannatga kimgach, falon narsalarni ham tilayvergil, deyilg'aydir, ul tilag'aydir. So'ng YAna falon va falon narsalarni ham tilaverg'il, deb aytilg'aydir, ul jamiki tilaklarini aytib tugatmaguncha, tilak qilaverg'aydir. Shundan so'ng Ollox taoloning o'zi: «Mana bu ham senga, anavi ham senga!»— deb ne'matlar ato etg'aydir»: bu odam eng keyin jannatga kirgan jannat ahlidan bo'lishi ta'kidlanadi. Demak kulish Xudodan, kuldirish esa faqatgina bandasiga nasib etgan tuyg'udir

3. Axloqiy va estetik qadriyatlarning transformasiyasi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot sifatida

Jamiyatning ma'naviy yangilanishida axloqiy, umuman qadriyatlar to'g'risida gap ketganida ushbu ikki – o'zak va ustki qismdan qaysi biri nazarda tutilayotganini esdan chiqarmaslik zarur. Mazkur mavzuda biz asosan axloqiy qadriyatlardagi ustki qatlam haqida fikr yuritamiz, chunki o'zak qism haqida oldingi mavzuda mushohada yuritilgan. O'zak qism ham transformasiyaga uchrashi tabiiy holdir, buning uchun ustki qismga taalluqli qarash, an'ana, urf-odat, baho, ideal o'zgarib, ijtimoiy tuzum imperativiga, paradigmasiga aylanishi zarur. Ustki qismning o'zakka o'tishi uzoq kechadigan jarayon, ammo u muqarrar hodisadir.

Estetika va axloqning uzviy birligini umumiylikdan xususiylikka qarab borish usulida tadqiq qiladigan bo'lsak, u san'at va axloq o'rtasidagi munosabatda yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. San'at va axloq – ijtimoiy ong hamda inson ma'naviy-amaliy faoliyatining chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lgan ikki shakli bo'lib, ushbu o'zaro ta'sirning asosida ijtimoiy hayot hodisalaridagi nafosatdorlik va axloqiylikning o'zaro birligi yotadi. Tarixiy va estetik jihatdan qaraganda san'at va axloq muammosiga uch xil yondashuvni ajratish mumkin: 1. Nasihatgo'ylik yondashuvi – bunda san'at va axloqning birligi ilgari suriladi,

ammo badiiy ijod axloqning maqsad va vazifalariga bo'ysundiriladi (Aflotun, J.J.Russo, L.N.Tolstoy va boshqalar). 2. G'ayrinasihatto'g'ylik yondashuvi - bunda ikkita san'at va axloq shakli bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi, axloq va san'at bir-biridan ajratiladi, hatto estetizm va g'ayriaxloqiy tamoyillar oqlanadi. 3. San'at va axloqning birligi konsepsiyasi – san'atga “axloqning estetik maktabi” (Gersen) sifatida qaraladi va estetik tamoyilning o'zi axloqiy ahamiyatga egaligi uqtiriladi (Arastu, A.SHeftsberi, SHiller, Gegel va boshqalar).

O'zbek milliy estetikasi haqiqiy san'at va chin axloqning maqsadlari pirovardida mos kelishidan kelib chiqadi. Buni hayotiy haqiqat, yuksak g'oyaviylik va badiiyat tamoyillariga asoslangan milliy san'at amaliyoti tasdiqlaydi. San'at va axloq o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarning sababi san'atning tabiatida emas, balki ularning asosiy predmeti bo'lmish ijtimoiy insonning mavjudlik va rivojlanish sharoitlaridadir (san'at ham, axloq ham bir xilda “insonshunoslik” deb atalishi mumkin). Tarixda san'at ushbu shart-sharoitlarni turli ko'rinishlarda aks ettirib, ko'pincha butunlay qarama-qarshi maqomdagi, deylik, nasihatgo'ylik yoki estetizm ko'rinishida bir birini inkor etadi. Bu borada faylasuf olim Erkin Umarovning san'at va axloq o'rtasidagi uyg'unlik dialektikasini ifodalovchi quyidagi talqin qiladi. “San'at va axloqning bosh mavzusi insondir. San'at voqelikni aks ettirish jarayonida jamiyatda amal qilayotgan axloqiy munosabatlarni, odob qoidalarini, axloqiy g'oyalar va qarashlarni, inson ichki dunyosini, axloqiy qiyofasini ham ochib beradi. Shu bois san'at inson axloq-odobining ko'zgusidir. Axloq san'atning mag'zini tashkil etadi. San'at asarlari axloq mazmuniga ega bo'lmasa, o'zining insonparvarlik xususiyatini yo'qotadi. San'at hamisha axloqiylik bilan sug'orilgan bo'lib, unda umuminsoniy ruh ustuvor qaror topadi.”¹

O'tgan asrning oxirida totalitar tuzumning tarqatilishi bilan yuzaga kelgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy o'zgarishlar ilmiy adabiyotlarda

¹ Умаров Э. Эстетика (Нафосатшунослик) /Ўқув қўлланма. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995. -Б. 148-149.

«transformasiya» deb atala boshladi. «Transformasiya» so'zi lotincha bo'lib o'zgartirish, qayta tashkil etish, boshqa ko'rinishga o'tkazish, degan ma'nolarni anglatadi. Milliy respublikalarning yuzaga kelishi bilan «transformasiya» kategoriyasi jamiyatni o'zgartirishga, yangilashga qaratilgan jarayonlarga nisbatan qo'llanila boshlandi¹.

Axloqiy qadriyatlar transformasiyasi o'zidan-o'zi ro'y beradigan hodisa emas, uning negizida shakllangan normalar, qarashlar, qadriyatlarning ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob berolmay qolgani yotadi. F.Nisshe nigilizmi ham XX asrlik Evropa xristianlik taraqqiyoti yangi to'siqlarga duch kelib, yangi bosqichga o'tishi zarurligini anglatgan. To'g'ri, F.Nisshe Evropa uchun ahamiyatli bo'lgan axloqiy qadriyatlar yaratolmadi. Shunday maqsadni u o'z oldiga qo'ygan, ammo jamiyat uning g'oyalarini qabul qilish va qo'llab-quvvatlashga tayyor emas edi. XX asrning oxiriga kelib sosializm va uning qadriyatlari davr talablariga javob berolmay qoldi, natijada yangi qadriyatlar yaratishga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Axloqiy qadriyatlar transformasiyasida ikki, bir-biriga dialektik bog'liq, birinchidan, progressiv tarixiy-madaniy an'analar, tajribalar, qadriyatlarga tayanish, ikkinchi tomondan, ularni yangi mazmun, shakl, yo'nalish bilan boyitish orqali o'zgartirish maqsadi mavjuddir. Shuni alohida esda tutish kerakki, axloqiy qadriyatlar sohasida revolyusion o'zgarishlarni tezda amalga oshirish qiyin va ro'yobga chiqarilishi dargumondir. Qaysi bir davrni, tub o'zgarishlar amalga oshirilgan davlatni olmang, ularda oldingi davrga xos axloqiy qadriyatlar saqlanib qolganini, hatto ular yangi axloqiy qadriyatlarga fundament bo'lib xizmat qilganini ko'rasiz.

Ilmiy adabiyotlarda ma'naviyat, axloq, madaniyat sohasidagi transformasiya ijtimoiy hayotning tubdan o'zgarishi tizimida sodir bo'ladigan, hatto ijtimoiy-

¹ Қапанг: Hahnschke B. Transformation und Identitat (Aspekte, Erfanzungen, Tendenzen). – Berlin, 1994; Костюк В.Н. Изменяющиеся системы. – М.: Экономика, 1993.

iqtisodiy va siyosiy islohotlarga ilova sifatida talqin etiladi¹. Bu, bizning fikrimizcha, totalitar tuzum davrida olib borilgan madaniy-ma'naviy hayotga, sohaga qoldiq tamoyili nuqtai nazaridan yondashishning davomidir. Transformasiya ayrim olgan sohaning mahsuli emas, u butun jamiyat taraqqiyotining immanent xususiyatidir. Transformasiyani ushbu xususiyatdan ajratgan zahoti u xalq, millat, jamiyat ehtiyoji emas, balki ayrim guruh, partiya yoki shaxsning xohishi, xayoliy modeli va ular manfaatlarining ifodasiga aylanadi. Bu ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlariga ham, jamiyatning immanent xususiyatlariga ham ziddir.

Transformasion o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotning immanent xususiyati bo'lsa-da, uning barcha xalqlar, millatlar, davlatlar uchun birdek mos keladigan modeli yo'q. Har bir xalq, millat, davlat uni o'zining strategik maqsadlariga muvofiq ishlab chiqadi va amalga oshiradi². O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatni tubdan o'zgartirishga, uni ma'naviy yangilashga qaratilgandir. Axloqiy qadriyatlar borasidagi transformasiya esa totalitar tuzum davrida targ'ib etilgan tor, sinfiy, g'ayrimilliy qadriyatlarni milliy axloqiy qadriyatlar bilan almashtirishga, ularni umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida milliy tiklanishga xizmat qildirishga yo'naltirilgandir. Bu totalitar tuzum davridagi axloqiy qadriyatlar, masalan, ezgulik, adolat, burch, vijdon, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, mehnatsevarlik rad etiladi degani emas, balki mazkur qadriyatlarning mohiyati, ularga yondashuv tubdan o'zgaradi, xolos. Umuminsoniy belgilar axloqiy qadriyatlarning o'zagidir, ularni davr talablariga moslashtiruvchi yondashuvlar esa qadriyatlarning ustki, o'zgaruvchan talablarga muvofiq yangilanuvchi qismidir.

Jamiyatda iqtisodiy va siyosiy mentalitet bilan birga axloqiy ma'naviy mentalitet ham o'z o'rnini topib bormoqda. Bu yangi qadriyatlarning

¹ Данилов А. Переходное общество. Проблемы системной трансформации. –Мн.: ООО «Харвест», 1998. – С.10.

² Ўша асар. – Б.12.

shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. «Iymon, adolat, mehr-oqibat, sabr-qanoat, vijdon va ezgulik bor joyda ma'naviy etuklik, axloqiy kamolot mavjuddir. Chunki, xulq-odob ya'ni axloqiy kamolot har qanday jamiyatda ham ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Axloq va odob ma'naviyatning asosiy manbai va mezon bo'lib voqelikni, hodisa va munosabatlarni, ijtimoiy muhitni ifodalovchi o'ziga xos tushunchadir». Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy sohadagi islohotlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'z ifodasini topmoqda. Bugun yurtimizda yoshlarni kamolotga eltuvchi qadriyatlarning qaror topishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Istiqlol davrida mulkchilikning turli shakllari rivoj topib, tadbirkor, ishbilarmon va fermerlarga keng yo'l ochildi, fuqarolarda kasb-korga muhabbat va mulkka egalik tuyg'usi uyg'onmoqda, bozor munosabatlariga mos faoliyat turlari rivojlanib, respublikamiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishida axloqiy sog'lom fikrlash, shu xalqning bir bo'lagi ekanligini his qilish kabi tuyg'ular ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridir. Ijtimoiy taraqqiyot asrlar osha yashab kelgan boqiy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga yangi qadriyatlarni qabul qilish, shakllantirish va takomiliga etkazishni ham talab qilmoqda.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, estetik qadriyatlarning qadrsizlanishi deb, jamiyat tomonidan tan olingan nafosat olami normalarini qadrlamasdan qo'pol tarzda buzish tufayli kelib chiqadigan estetik aksilmadaniyatning paydo bo'lish jarayonlariga aytiladi.

Ikkinchidan, axloqiy qadriyatlar sohasida inqilobiy o'zgarishlarni tezda amalga oshirish qiyin va ro'yobga chiqarilishi dargumondir. Qaysi bir davr yoki davlatda tub o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsa ham, ularda oldingi davrga xos axloqiy, estetik qadriyatlari saqlanib qolganini, hatto ular yangi axloqiy qadriyatlarga fundament bo'lib xizmat qilganini guvohi bo'lish mumkin.

Uchinchiidan, transformasiya ayrim olgan sohaning mahsuli emas, u butun jamiyat taraqqiyotining immanent xususiyatidir. Transformasiyani ushbu xususiyatdan ajratgan zahoti u xalq, millat, jamiyat ehtiyoji emas, balki ayrim guruh, partiya yoki shaxsning xohishi, xayoliy modeli va ular manfaatlarining ifodasiga aylanadi.

To'rtinchidan, umuminsoniy belgilar axloqiy qadriyatlarning o'zagidir, ularni davr talablariga moslashtiruvchi yondashuvlar esa qadriyatlarning ustki, o'zgaruvchan talablarga muvofiq yangilanuvchi qismidir.

Beshinchidan, jamiyatning ma'naviy yangilanishida axloqiy sog'lom fikrlash, shu xalqning bir bo'lagi ekanligini his qilish kabi tuyg'ular ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridir. Ijtimoiy taraqqiyot asrlar osha yashab kelgan boqiy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga yangi qadriyatlarni qabul qilish, shakllantirish va takomiliga etkazishni ham talab qilmoqda.

Savollar va torshiriqlar:

1. Estetik qadriyatlar tizimini aniqlab ko'rsating?
2. Axloqiy va estetik qadriyatlar tizimi bir-biriga juda o'xshashmi?
3. Estetik qadriyatlarning transformasiyasi qanday yakunlanadi?
4. Axloqiy va estetik qadriyatlarning yangilanishi mavzusida referat tayyorlang ?

10-mavzu. Diniy qadriyatlar va ularning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

1. Din- ijtimoiy ongning alohida shakli.
2. Transsendental qadriyatlar: tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari
3. Dunyoviy va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi
4. Jamiyatning ma'naviy hayoti va diniy qadriyatlar

1. Din- ijtimoiy ongning alohida shakli.

Din ijtimoiy hayotni, voqelikni o'ziga xos tarzda aks ettiruvchi ijtimoiy ongning shakli bo'lib, diniy ta'limotlar jamiyat hayoti bilan bo'g'liq ravishda paydo bo'lib, diniy ta'limotlar jamiyat hayotidagi voqea-hodisalar diniy ta'limotlarda o'z ifodasini topadi. Diniy ong, urf'odatlar, diniy dunyoqarash ko'p jihatdan inson his-tuyg'ulari, ehtirolari, hayollari ta'siri ostida paydo bo'ladi. Dinda ijtimoiy tarixiy, gnesiologik va psixiologik ildizlari mavjuddir. Dinning ildizi dinning vujudga kelishini, uning qayta tiklanishi zaruriyati va imkoniyatlarini, umumman, uning salohiyatini yaratuvchi kishilar yig'indisidir. Dinning ujtimoiy-iqtisodiy ildizi deyilganda dinni vujudga keltirgan kundalik hayoti shart-sharoitlar yig'indisi tushuniladi. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyot darajasining pastligi, odamning tabiat kuchlari oldidagi ojizligi ularda ilk diniy tasavvurlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Jamiyat hayotining ma'lum bosqichida vujudga kelgan din tarixiy va ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat hayotida sodir bo'luvchi voqea va hodisalar diniy ta'limotlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Dinlar dastlab politeistik, ya'ni ko'pxudolik dinlardan iborat bo'lib, insonda ong tafakkur shakllanishi jarayonida inson tevarak atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning sabablarini tushunishiga harakat qila boshlaydi. Dinning gnesiologik ildizlarini tashkil etuvchi bu narsa-hodisalarning bu sabablarini bilmaslik inson tomonidan butun tevarak atrofdagi narsa va hodisalarni jonlantirib tasavvur qilishiga olib keldi. Jamiyat hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar, yirik davlatlarning vujudga kelishi,

hokimyatning yakka hukumdor qo'lida to'planishi odamlarning politeizmdan monoteizmga o'tishiga, ko'plab hudolar ichidan yagona hudoga e'tiqod qilishining boshlanishiga olib keladi. Dinning psixologik ildizlari dinlarning ma'naviy ruhiy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liqdir. Insonning o'ziga doimo taskin beruvchi, uning his-tuyg'ularini yengillashtiruvchi kuchga bo'lgan ehtiyoji dinning psixologik ildizlarini tashkil etadi.

Din so'zi o'zbek qiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, ishonmoq degan ma'noni bildiradi. E'tiqod so'zi ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, chuqur mustahkam ishonch degan ma'noni anglatadi.

Din bu insonda tashqarida bo'lgan insonga birdan-bir to'g'ri hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va e'tiqodni ifoda etadigan maslak, qarash hamda ta'limotdir. Diniy imon va e'tiqod din yo'lining to'g'riligi, haqligi ishonchdan iborat ma'naviy ruhiy holatdir.

Dinning tarkibiy qismi muayyan elementlardan, diniy ong, diniy ibodat va diniy tashkilotlardan iborat bo'lib, diniy tashkilotlar faoliyati ijtimoiy vazifalar bilan belgilanadi. Jamiyatdagi diniy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlari, ya'ni siyosiy, huquqiy axloqiy-ma'naviy, iqtisodiy mehnat munosabatlari hamda jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Diniy jamoa diniy e'tiqodga asoslangan kishilar birligining asosiy belgilari quyidagilardan iboratdir: 1) Diniy e'tiqod, maqsad va vazifalar birligi, 2) Diniy marosimlar va undan tashqaridagi faoliyatlarning birligi, 3) Etnik birlik tuyg'usi, 4) Jamiyat azolari orasidagi o'zaro taqsimlangan mavqe va vazifalarning tuzilishi an'analar va urf-odatlar, huquq yoki umumiy dasturlar, qoida, fatvolar bilan belgilanadi.

Dinlar tarixida ko'p hollarda diniy birlik etnik birlikka mos kelgani uchun din etnik milliy birlik ma'nosini ham anglatgan. Masalan, islom dinida millat emas, islom diniga e'tiqod qiluvchi, Muhammad payg'ambar targ'ibotiga ergashgan

kishilar birligi-ummat tushunchasi ishlatiladi. Diniy munosabatlar eng tez o'zgaruvchan munosabatlar bo'lib, bevosita diniy ehtiyojlar bilan bog'lanmagan, ayni zamonda kundalik va muhim ijtimoiy vazifalarni ham qilishga qaratilgan, kishilarning xatti-harakatlarini diniy qarashlar, pand-nasihatlar, odatlar orqali belgilash, yo'naltirish natijasida vujudga keladi.

Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyoti jarayonida diniy e'tiqod va dinga munosabat masalasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ibtidoiy jamiyat sharoitida inson tabiat kuchlarini ilohiylashtirib ularga sig'ingan, natijada dinning tarixiy shakllari, animizm, fetishizm, totemizm, shomonizm va magiya kabilalar vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning siyosiy tizimi, davlatlarning vujudga kelsihi, xususiy mulk, ijtimoiy tabaqalarning shakllanishi natijasida diniy tasavvurlarda ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan:

1. Dunyo uch bosqichdan iborta deb hisoblanib, jannat, do'zax, odamlar yashaydigan dunyoning mavjudligi haqidagi qarashlar ilgai surildi.

2. Insonning bu dunyodagi hayoti, diniy e'tiqod talablarini bajarish, uning u dunyodagi hayotini belgilashi to'g'risidagi qarashlar bayon etildi.

3. Dinga e'tiqod qiluvchi alohida kishilar guruhi hamda tabaqasi-ruhoinylar paydo bo'ldi.

4. Diniy ibodatxonalar qurilib, dinga e'tiqod qilish talablari hamda marosimlari sihlab chiqildi. Ibodatxonalar qoshida dastlabki maktablar, kutubxonalar vujudga kelib, yozuvning paydo bo'lishi natijasida diniy va dunyoviy bilimlar taraqqiy etib bordi.

5. Diniy mafkura vujudga kelib jamiyat hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Diniy dunyoqarash odamlarning ong-tafakkuri, kundalik hayoti, urf-odat hamda marosimlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

2. Transsendental qadriyatlar: tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari

I.Kant «Sof aqlning tanqidi» asarida: «Inson aqliga g'alati qismat tushgan: unga tabiat tomonidan berilgan savollarga javob izlashdan o'zini tiya olmaslik, shu bilan birga ushbu savollarga, kuch-quvvati etishmasligi bois javob topolmaslik xosdir»¹. U fikrini davom ettirib transsendent haqidagi qarashining asosini belgilab beradi: «Mazkur ahvol aqlga muvofiq tushmaydi. Aql tajribada qo'llanilishi shart bo'lgan asosiy tushunchalar va tajriba bilan cheklanishga majbur»². Natijada aql tajribadan tashqaridagi, o'zi boshlagan «asosiy tushunchalar»ga qaytadi. Shu tariqa I.Kant tajribadan tashqarida, «asosiy tushunchalar» bilan ifodalanadigan voqelikni transsendent deb ataydi. «Men, - deb yozadi u, - predmetlarning o'zini emas, balki bizning predmetlarni anglashga qodir qobiliyatlarimizni, chunki ular avval boshdan apriori tarzida mavjud bo'lishi kerak edi, o'rganuvchi har qanday bilimlarni transsendental deb atayman»³. Xullas, ob'ektiv borliq, predmet va tajribalardan tashqaridagi «sof aql» bilan bog'liq «asosiy tushunchalar» I.Kant talqinida, transsendentdir.

XIX asrning 30-50 yillarida AQSHda yuzaga kelgan «Transsendentalistlar klubi» va transsendentalistlar oqimi bu borada faol harakat qildi. F.Emerson, G.Toro, F.Xudj, O. Braun, A.Olkott, J.Riply, M. Fuller, O.Rozingem kabi faylasuflar insondagi ilohiy axloqiy sifatlarni yoqlab chiqdilar. Ular xudoga ko'r-ko'rona sig'inishni emas, balki real munosabatlarni, kishilarning ma'naviy-axloqiy dunyosini yuksaltiradigan ilohiy sifatlarga, fazilatlarga urg'u berdilar⁴.

G'arb faylasuflarining transsendental g'oyalari va ularning diniy, hayotiy, metafizik qadriyatlar bilan bog'liq, borliqning shaxsiy qadriyatlarga ta'siri A.Avgustin, F.Akvinskiy, B.Paskal, S. Kьerkegor, M.SHeler, G.Marselъ, M.Buber, K.YAspers,

¹ Кант И. Критика чистого разума. – СПб.: ИКА «ТАЙМ-АУТ», 1993. – С.11.

² Ўша жойда.

³ Ўша асар. – Б. 44.

⁴ Каранг: Паррингтон В.Л. Основные течения американской мысли. Т.2. – М.: Изд. Иностран. Лит-ры, 1962. – С. 200-264; The transcendentalists. Anantologiy. – Camb. 1971; Boller B.F. American transcendentalism. 1830-1860. An intellectual inguiri. – N.Y. 1974; Торо Г. Высшие законы. – М.: Республика, 2007. – С. 57-258.

E.Osis, K.Bart asarlarida u yoki bu yo'nalishda tadqiq qilingan. Ular insonning din, xudo, ilohiylik bilan bog'liq fazilatlarini, aloqalarini «transsendental qadriyatlar» tizimiga kiritishga harakat qiladilar va shu bois, inson ruhi, qalbi, e'tiqodi, dogmaga moyilligi masalalarini sub'ektivizm, ekzistensiya, affektiv ta'sirlar mahsuli sifatida talqin qilishga intiladilar. Ushbu faylasuflarning har biri mavjud borliqdan o'zishga, tajribadan tashqariga chiqishga intilgan transsendental holatni anglash va izohlashga harakat qiladilar. Ular transsendental voqelik va qadriyatlar birligini tan oladilar va ularni o'zining sensitiv anglashiga muvofiq talqin etadilar.

Xo'sh, transsendental qadriyatlar nima? Ularning mohiyati va xususiyatlari nimalardan iborat? **Ilmiy-falsafiy qarashlarning tahlili ko'rsatadiki, transsendental lotincha transsendens so'zidan olingan bo'lib imkondan, tajribadan, aqldan tashqarida, degan ma'nolarni anglatadi.** Sxolastik falsafada u «Xudoning borlig'i»ni anglatuvchi kategoriya, Xudo, Teizm ma'nolarida, I.Kant falsafasida «tajribadan tashqari», idrokkacha bo'lgan apriori, bilish metodi, transsendentalistlar asarlarida insondagi ilohiy-axloqiy sifatlar, zamonaviy tadqiqotlarda esa Xudo, Iloh, Mangulik ilohiy xislatlar sifatida talqin qilinadi. Xullas, barcha yondashuvlar u yoki bu yo'nalishda, mazmunda transsendent ilohiy voqeliklarning umumiy ifodasi, real hayot va tajribadan tashqaridagi ishonch, e'tiqod, affektiv, intuitiv yoki irrasional anglanadigan hodisalarning ta'rifi sifatida ishlatiladi.

Transsendental qadriyatlar mazkur bilish usuli, metodi yo'naltirilgan, tajriba, reallik, aqldan tashqarida mavjud deb hisoblangan Xudo, Ruh, Iloh, Mangulik, Muqaddaslik va ularga ishonch, e'tiqodlardir. Ba'zan ularni ilohiy qadriyatlar deb atashadi. Bunda Mangulik, Muqaddaslik, Ruh kabilar faqat ilohning atributi sifatida kelishi mumkin. Transsendent Mangulik, Muqaddas, Ruhni Xudoning atributi emas, balki u bilan teng, faqat trans holatida anglanadigan voqeliklar deb biladi.

Ilohiy qadriyatlarda Xudoga, Ilohga, din bilan bog'liq dogmatikaga ishonch, e'tiqod mavjud. Masalan, xristianlikda «Tavrot», «Injil», Iso allayhissalomni xudoning o'g'li ekanini tan olish, islom dinida Qur'onni muqaddas kitob deb bilish, Allohga e'tiqod qilish, Muhammad payg'ambarni Alloh elchisi deb tan olish, uning hayoti va aytganlari bitilgan hadislariga ishonish diniy, ilohiy qadriyatlardir. Mazkur qadriyatlarga dindorlar to'la ishonadi, ularning soxtaligi haqidagi xayollarni rad etadi. Diniy dogmatika shuning uchun mavjudki, u muhokama qilinmaydi, xudojo'y dogmatikada o'rnatilgan tartiblarga rioya etishi va undagi idealga mutlaq haqiqat sifatida ishonishi shart.

Odamning xudoni, ilohiy qadriyatlarni, diniy dogmatikani tan olgani uning xudo tasvirida va xudoga, uning obrazi tarzida yaratilganidadir. Har holda diniy-falsafiy izlanishlarning xulosasi shunday. Iloh, ilohiy qadriyatlar spekulativ mushohadalarga undaydi, goho ularning «tajribadan tashqarida» (I.Kant) ekanini bilish qiyin emas. Biroq inson ruhi, qalbi reallikdan tashqariga chiqishga intilar ekan, ilohiy qadriyatlarning mavjudligiga ishonish an'ana bo'lib qolaveradi. Ilohiy qadriyatlarda diniy dogmatikadan mutaassiblikka o'tish xavfi mavjud. Shuning uchun ilohiy qadriyatlarni pozitiv voqelikka aylantirish, ya'ni ularni inson va jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga yo'naltirish muammosi kun tartibidan tushmaydi.

Metafizik qadriyatlar olam, odam, manguilik, muqaddas haqidagi shunchaki mulohazalar emas, ular insonning gnoseologik izlanishlariga borib taqaluvchi, uning hayotdan ma'no-mazmun, mohiyat izlashga undovchi ongli faoliyatining ifodalaridir. Transsendental g'oyalar borliqdan, hayotdan mutlaq voz kechish emas, inson ongida, tasavvurida, hatto tajribadan tashqariga chiqqanida ham u real borliq shakllantirgan tasavvurlar, qadriyatlar orqali mulohaza yuritishga majburdir. Demak, metafizik qadriyatlar substansional negiziga ko'ra, real voqelikka, insonning ijtimoiy-tarixiy tajribasiga tayanadi, ular faqat irrasional mulohazalarida shaxsiy hayotiy tajribadan o'zishga harakat qiladi, xolos. Ammo undan ham mutlaq ozod bo'lolmaydi. *Transsendental qadriyatlar tizimidagi Manguilik,*

Muqaddas, Ruh haqidagi tasavvur, tushuncha va simvollarni biz shartli tarzda metafizik qadriyatlarga ajratdik. Bular ilohiy qadriyatlardagi dogmatikadan farq qiladi. Agar dogmatik qadriyatlar soʻzsiz, mulohazasiz qabul qilinsa va ularga qatʼiy amal qilinsa, metafizik qadriyatlar erkin fikrlashga imkon beradi. Agar dogmatik qadriyatlar asrlar davomida oʻzgarmay, dinning asosiy tamoyillari, ustunlari boʻlib kelgan boʻlsa, metafizik qadriyatlar davr talablari, maʼnaviy-ruhiy oʻzgarishlar va ehtiyojlar taʼsirida transformasiyaga uchrab turadi, yangi shakl, yoʻnalish va mavzular bilan boyib keladi. Ayniqsa, ilmiy-falsafiy va maʼrifiy qarashlar metafizik qadriyatlarga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Muqaddas qadriyatlar haqida mulohaza yuritish, ularni metafizik talqin qilish intellektual izlanishlarning azaldan mavzusi boʻlib keladi. Mana yigirma asrdan beri «Injil» faylasuflarning ham, teologlarning ham metafizik tahlili obʼekti boʻlib keladi. U xristianlar tomonidan muqaddas kitob, muqaddas bitik sifatida eʼtirof etilgan boʻlsa-da, hammadan koʻp xristianlarning oʻzi uni qayta-qayta tahlil qilishga, undagi dogmalar haqida turli-tuman fikrlarni bildirishga intilishadi. Buddaviylikning kanonlari bitilgan «Dxammapada»dagi pessimizm, itoatgoʻylik gʻoyalarini tanqid qilish hech qachon toʻxtamagan. Aynan shunday yondashuv mazkur qadriyatlar haqidagi metafizik qarashlarni rivojlantirgan, ular avloddan-avlodga oʻtib, diniy qadriyatlarning muqaddasligini taʼminlagan.

3. Dunyoviy va diniy qadriyatlarning uygʻunlashuvi

Insoniyat tarixida diniy qadriyatlar kishilarda sogʻlom turmush tarzini, milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻusini, axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlib keladi. Maxsus tadqiqotlar koʻrsatadiki, din, diniy qadriyatlar insonning olamni anglash yoʻlidagi muhim kashfiyoti, maʼnaviy taraqqiyot yoʻlidagi muhim qadamidir¹. «Buddizm, xristianlik va islomning jahon dinlari sifatida vujudga kelishi insoniyatning maʼnaviy taraqqiyotida, shubhasiz,

¹ Қамбаров А. Маънавият ва илмий қадриятлар. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. – Б.35.

katta ahamiyatga ega bo'lgan»¹. Ularda e'tiqod dalillari bilan aql dalillarini o'zaro muvofiqlashtirishga, ommani dunyoviy va diniy ilmlarni egallashga, olam sirlarini bilishga da'vat etilgan².

Sharq jahon sivilizasiyasining beshigi deganda, avvalo, Sharqning madaniy qadriyatlar poydevoriga tamal toshini qo'ygan buyuk mutafakkirlar, taraqqiyotga faqat ezguliklar bilangina erishish mumkinligini asoslagan Zardusht, Budda va Konfusiy ko'z oldimizga keladi. Ma'lumki, zardushtiylik, buddaviylik va konfusiychilik ijtimoiy taraqqiyot tarixida ilk ta'limotlar bo'libgina qolmay, balki dunyoviy dinlar orasida eng qadimgilari, insoniyat taraqqiyotiga bevosita va bilvosita katta ta'sir ko'rsatgan ma'naviy boyliklar, qadriyatlar hisoblanadi.

Sharqliklarning turmush tarzi, falsafasi asosan, diniy sistemalar doirasida shakllangan va rivojlangan. Yuqoridagi diniy ta'limotlar Sharq xalqlarning taqdiriga, madaniy turmush tarziga, milliy psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Muqaddas kitob «Avesto»ning muallifi Zardusht (Zoroastr er.avv.7-6 asr) oltin asrning kelishi to'g'risida fikr yuritisa, Konfusiy (Kun-szi mil.av.551-479 yy.) xitoyliklar uchun oltin asr – bu CHjou sulolasining (1027-256 yy.) dastlabki yillari deb hisoblaydi. Konfusiy hayotiy muammolarni echishda axloqiy qadriyatlarga murojaat qiladi. «Olijanob inson» (szyunъ-szi) va «past kishi» (syao-jenъ») kabi qarama-qarshi obrazlar timsolida diniy-axloqiy me'yorlarga erishish yo'llarini ko'rsatadi.

Avesto ta'limotining asoschisi Zardusht haqida turli rivoyatlar mavjud. Shulardan birida uning tug'ilgan chog'ida kulganiga ishoralar bor. Xristian dinida ham Iso alayhissalomning chaqaloqligida gapirgani qayd etiladi. Ma'lumki, mazdaparastlar dinida ochiq chehra bilan tabassum qilib yurish muqaddas xislat hisoblanadi, chunki kulgi va shodlikni insonlar uchun ezgulik ma'budi Axuramazda yaratgan. G'am, yig'i, nola esa yomonlik ma'budi Axriman ijodidir.

¹ Ўша жойда.

² Ўша асар. – Б. 78.

Zardushtiylik ta'limotida insonparvarlik g'oyalari ilohiylashtirilgan, dunyoviy hayot muqaddaslashtirilgan, uning asosiy aqidalari keyingi jahon dinlari – xristianlik va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo'lgan. F.Nisshe «Zardusht tavallosi» va «Esse Xomo» asarlarini Zardushtga bag'ishlagan. U «Zardusht tavallosi» asarida tushunchasi, fikrlashi, bilim saviyasi past bo'lgan olomon bilan emas, balki, tanlangan odamlar, ya'ni olimlar bilan muloqot qilish zarurligini, ana shundagina ular olomonni asta-sekinlik bilan yo'lga solishi mumkinligini ta'kidlaydi. «Alohida kishilar da'vat qilinishi, tushuntirilishi kerak»¹, - deydi u. Qur'oni karimda ham Alloh faqat o'zi xohlaganlarnigina bilimli qilishi, uning oyatlarini anglashlari uchun qalb ko'zlarini ochib, quloqlarini eshitadigan qilib qo'yishi ta'kidlanadi. Bu esa o'z o'rnida zardushtiylikning islom dini bilan birgalikda Evropa mutafakkirlari ijodiga ham ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Zardushtning uqtirishicha, ming yilliklardan so'ng hamma ruhlar qayta tiriladi va so'nggi sud, ya'ni so'rov berish sodir bo'ladi. Olov xudosi Atar tog'laridagi temirlarni eritib, olovsimon suyuqlikni yoki alangali daryoni er yuziga qaratadi. Har bir inson bu daryodan o'tishi lozim bo'ladi. Daryo haqiqatguy va ezguliklar qilgan ruhlar uchun yangi sog'ilgan sut daryosiga o'xshab qoladi. Hamma gunohkorlarning ichi eritilgan temir bilan to'ldirilib, yovuzlik xudosi Axriman bilan birgalikda do'zaxda halok bo'ladilar. Bundan keyin erda baxt-saodat, adolat va yaxshilik ustunlik qilib, insonlar abadiy farovonlikka erishadilar. Islom dinida esa Sirot ko'prigi haqida so'z yuritiladi. Kimki Alloh nazdida gunohkor bo'lsa, do'zaxga qulaydi. Qur'oni Karimning Sajda surasi 13-oyatida Alloh «Men jahannamni (kofir) jin va (dinsiz) odamlarning barchasi bilan to'ldirurman»², deydi. Kimki pok bo'lsa, qil ko'prikdan uning qilgan savob ishlari o'tkazib qo'yishi ta'kidlanadi. Yuqoridagi misollarning o'ziyoq islom va xristian diniga zardushtiylikning katta ta'sir ko'rsatganligidan va bu din an'analari hozirgacha e'zozlanib kelinayotganidan dalolat beradi.

¹ Ницше Ф. Сочинения в двух томах. Т. 2. – М.: Мысл, 1993. – С.224.

² Куръони карим (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 377.

Konfusiylar bilimga intilish mustaqil bo'lishga va donishmandlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishga yordam berishini ta'kidlab, ayniqsa, yoshlarning bilim orqali fikrlashi foydali, ammo bilimsiz fikrlashi kelajak uchun juda xavfli, deydi. O'zining bilimga tashnalligini ulug'lab, har qayerda himmat ko'rsatmaydigan odamlar topiladi, ammo bilimga tashnallik bobida menga teng keladigani topilmaydi, deydi. Konfusiylar ta'limoti bo'yicha axloq-odob o'zining ko'p yillik tarixida o'ziga xos yo'lni bosib o'tdi va rivoj topdi. Mutafakkir urf-odat va qonunlarni hurmat qilgan holda ularni ko'r-ko'rona bajarish noto'g'riligiga e'tiborni qaratdi. Allomaning fikricha, hokim hokimligini, vazir vazirligini, ota otaligini, o'g'il o'g'illigini qilishi kerak. Agar bunga amal qilinmasa, davlatning rivoji va gullab-yashnashiga putur etadi¹.

Konfusiychilik g'oyalari insonning axloqiy-ruhiy mohiyatini ochuvchi hodisa sifatida jahon dinlaridan farqi shundaki, ko'pgina dinlarda insonning mo'jizaviy paydo bo'lishi haqida aytilsa, bu ta'limotda insonning real hayotda qanday yashashi va o'z o'rnini topishi haqida so'z boradi. Konfusiylarning quyidagi ikki g'oyasi hozir ham ahamiyatlidir:

1. Davlat ichida tartib-intizom va iqtisodiy rivojlanish bo'lishi kerak.
2. Oila ichida uning a'zolari ochlik va sovuqdan qiynalmasliklari lozim².

M.Qirg'izboev yozganidek, «Konfusiylarning jamiyatni takomillashtirish, insoniy axloq me'yorlarini ma'naviy qadriyatlar bilan boyitish kabi ta'limotlari jahondagi barcha jamiyatshunos va siyosiy fanlar olimlari uchun dastlabki manbalar sifatida xizmat qilmoqda. Hozirgi Xitoyda konfusiylar butun bir xalqning diniy qadriyati darajasiga ko'tarilgan»³.

Zardushtiylarning uch ming yil osha bizgacha etib kelgan, hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydigan buyuk umuminsoniy qadriyatga aylangan g'oyasi bu

¹ Каранг: История китайской философия. – М.: Прогресс, 1978. – С. 62-63.

² Ўша асар. – Б.72.

³ Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. –Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б.10.

– ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amaldir. Shuningdek, «Avesto»da ezgulik va yovuzlik kurashi asosida qaror topadigan olam tartibiga insonning ongli ravishda boʻysunishi kerakligi gʻoyasi ilgari suriladi. Zero, «Zardusht tomonidan olgʻa surilgan qator qadriyatlar hozirgi kunda ham jahon xalqlari tomonidan mamnunlik va xayrixohlik bilan eʼtirof etiladi. Zardushtiylik tarixini oʻrganish – minglab yillar davomidagi insoniyatning maʼnaviy-axloqiy taraqqiyoti tarixini chuqurroq anglash demakdir»¹.

F.Sulaymonova «Sharq va Gʻarb» asarida zardushtiylikning YUnoniston madaniyati va diniy-falsafiy qarashlariga katta taʼsirini asoslab beradi². A.Erkaevning xabar berishicha, koʻplab xorijlik mutaxassislar X.Nbyuberg, S.P.Tolstov, I.Braginskiy kabilar Zardusht taʼlimoti boʻyicha izlanishlar olib borganlar³. X.Nbyuberg Advisura Anaxite obrazi Sirdaryoda yashagan saklar orasida shakllangan, deb hisoblaydi. I.Braginskiy «Avesto»dagi joy atamalarining nomlari Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning xususiyatlarini aks ettirishini taʼkidlasa, S.P.Tolstovning Xorazmda Varaga oʻxshash «Avesto»da tasvirlangan joy qoldigʻini topishi diqqatga sazovordir⁴. Xullas, zardushtiylik, buddaviylik va konfusiylilikda davlatga, oilaga hurmat jamiyatning siyosiy va iqtisodiy hayotida etakchilik rolini oʻynashi taʼkidlanadi. «Avesto»dagi ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal gʻoyasi konfusiychilikda axloqiy meʼyorlarni saqlay bilish va tabiat tartibiga amal qilish kabilar dunyoviylikka singdirib yuborilgan ilohiy maʼnaviy qadriyatlardir. Eng muhimi shundaki, mazkur taʼlimotlarda ilohiylik bilan dunyoviylik, axloq bilan transsendent uygʻun qaraladi, ular insonning maʼnaviyatini yuksaltirish omillari sifatida ulugʻlanadi.

¹ Миллий ғоя ва маънавий қадриятлар: назария, методология ва амалиёт. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2004. – Б. 7.

² Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.: Шарқ, 1997. – Б. 22-39.

³ Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. Т.: Маънавият, 2002. – Б.107.

⁴ Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 107.

4. Jamiyatning ma'naviy hayoti va diniy qadriyatlar

Jamiyatning ma'naviy hayoti murakkab, rang-barang omillar ta'sirida shakllanadi va bu jarayon hech qachon to'xtagan emas. Taraqqiyotning dinamik xususiyati aslida ma'naviy hayotning murakkab va rang-barang o'zgarishlar ta'siri orqali aks etadi. Shuning uchun jamiyat ma'naviy hayotini ma'lum bir me'yorlarga, o'lchov va ko'rsatkichlarga solish har doim qiyinchiliklar uyg'otib kelgan. Ayniqsa, diniy qadriyatlarning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sirini aniqlash oson emas.

Bizning maqsadimiz ma'naviy hayotning ko'rsatkichlari va me'yorlarini izlash emas, balki transsendental voqelik bo'lgan diniy qadriyatlarning jamiyat hayotiga ta'sirini ochib berishdir.

Mustaqillik diniy qadriyatlarni qayta tiklash, ulardan jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonlarida foydalanish imkonini berdi. Ayniqsa, islomiy qadriyatlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islomiy qadriyatlarni anglash va qayta tiklashda Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih», Abu Iso Termiziyni «Sahihi Termiziy», «SHamoili Muhammadiya», Abu Lays as-Samarqandiyning «Bo'ston ul-orifin», Abulqosim Firdavsiyning «SHohnoma», Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining «Bahouddin Balogardan», Abu Homid G'azzoliyning «Qalblar kashfiyoti», «Tafakkur», Burhoniddin al-Marg'inoniyni «Hidoya», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Rabg'uziyning «Qisai Rabg'uziy», YAssaviyning «Hikmatlar», Muhammad ibn Abubakrning «Hadisi Usfuriy», Sayfuz-Zafar Navbahoriyning «Durr ul-majolis», Muhammad Zakariyoning «Fazoilul a'mol», Xo'janazar Huvaydoning «Rohati dil», Kaykovusning «Qobusnoma», Farididdin Attorning «Ilohiynoma», Nizomulmulknig «Siyosatnoma», Rizoiddin ibn Faxruddinning «Nasiyhat» kabi asarlarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, mustaqillik yillarida ulug' ajdodlarimiz haqida Najmiddin Komilovning «Kubro», Hamidxon Islomiyning «Iprior hid ila

tug'ilgan orif», Sadriddin Salim Buxoriyning «Tabarruk ziyoratgohlar», «Hazrat mavlono Orif Dehgaroniy», Nasafiyning «Hazrat Bahouddin Naqshband», B.Valixo'jaevning «Xoja Ahror tarixi» kabi asarlarining chop etilishi yurtdoshlarimizning diniy qadriyatlar asosida o'zligini anglashida muhim ahamiyatga bo'ldi.

A.SH. Jo'zjoniy «Tasavvuf va inson» kitobida tasavvuf tariqatining Islom falsafasida shakllanishi Hindiston va YUnon falsafasidagi inson ruhi haqidagi xilma-xil ta'limotlarga borib taqalishini asoslab beradi. Ma'lumki, o'sha davrda Hindistonda Budda hamda YUnonistonda Suqrot va Aflotun ta'limotida tasavvufning ilk belgilarini ko'rish mumkin.

Masalan, Budda o'z ta'limotida odamlarni boylikdan jirkanishga, nafsdan kechib kamolotga erishishga chaqirsa, Suqrot ta'limotida inson muammosi, uning axloqiy qarashlari asosiy o'rinda turadi. Aflotun «G'oyalar va soyalar» asarida ezgulikka baxt-saodat, farovonlik olib keladigan tushuncha sifatida qaraydi. Faylasuf o'zining «Qonunlar» kitobida esa ne'matlarni insoniy va ilohiyga bo'ladi.

Xristianlikdagi tarkidunyochilik ta'limoti ham tasavvufga ta'sir qilgan. Islomgacha mazdaparastlik, buddizm, xristianlik kabilarga amal qilib kelingan yurtimizdan islom dini ta'siri ostida ko'plab tariqat namoyondalari etishib chiqdilar.

Agar e'tibor qiladigan bo'lsak, o'sha davrda Xitoyda konfusiychilik maktablari shakllangan. Arabiston, Iroq, Markaziy Osiyo kabi mamlakatlarda esa tasavvuf tariqatlari keng rivojlangan. Bu ta'limotlar va tariqatlarning har biri inson ruhiga, uning zohiri va botiniga alohida e'tibor berilishi bilan bir-biriga yaqin va uyg'undir.

Xullas, tasavvuf tariqatlari va uning namoyondalari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatlarini yuksaltirib, milliy o'zlikni anglashda, bag'rikenglik, vatanparvarlik, tinchlik, xotirjamlik, barqarorlikni ta'minlashda o'z o'rniga ega bo'lib, ulardagi kishilar o'rtasidagi munosabatlar,

hatto hayvonlar va o'simliklarga ham ozor bermaslik g'oyalari tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash jihatidan ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitda dinga bo'lgan ijtimoiy munosabatning tadrijiy o'zgarishi natijasida shakllanuvchi ma'naviy ehtiyoj ham muhim tadqiqot manbai hisoblanadi. Inson yashar ekan, qadriyatlar qanday holatda bo'lmasin, diniy yoki dunyoviy, eski yoki yangi, oddiy yoki murakkab, doimiy va o'tkinchi, tasodifiy yoki zaruriy, imkoniyatda yoki voqelikda, tabiiy yoki sun'iy, shaxsiy yoki umumiy, hozirda yoki kelajakda namoyon bo'laveradi.

Xalqimiz ongida ko'plab diniy qadriyatlar diniy marosim va an'analardan kelib chiqib milliy qadriyatlarga aylangan. Masalan, zardushtiylikdagi tabiatga e'tiqod, olov va suvni e'zozlash, ularga yashash manbai sifatida qarash, bug'doyni tirikchilik vositasi sifatida ulug'lash va alohida mehr bilan parvarish qilish, islomdagi aniqlik, lafz, o'simlik va hayvonot dunyosiga munosabat, hech kimga ozor bermaslik, qo'ldan kelgancha yaxshilik qilish, qo'shnichilik, qarindoshlar o'rtasidagi munosabat, ota-onaga hurmat, kichiklarni e'zozlash kabilar ajdodlarimiz ongiga singib, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketgan.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, ibtidoiy jamiyat sharoitida inson tabiat kuchlarini ilohiylashtirib ularga sig'ingan, natijada dinning tarixiy shakllari (animism, fetishizm, totemizm, shomonizm va magiya kabilalar) vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning siyosiy tizimi, davlatlarning vujudga kelsihi, xususiy mulk, ijtimoiy tabaqalarning shakllanishi natijasida diniy tasavvurlarda ham o'zgarishlar sodir bo'lgan;

ikkinchidan, ijtimoiy ong sohalari rivojlangandan so'ng dunyo uch bosqichdan iborta deb hisoblanib, jannat, do'zax, odamlar yashaydigan dunyoning mavjudligi haqidagi qarashlar ilgai surildi. insonning bu dunyodagi hayoti, diniy

e'tiqod talablarini bajarish, uning u dunyodagi hayotini belgilashi to'g'risidagi qarashlar bayon etildi;

uchinchidan, transsendental qadriyatlar tizimidagi Mangulik, Muqaddaslik, Ruh haqidagi tasavvur, tushuncha va simvollarni biz shartli tarzda metafizik qadriyatlarga ajratish mumkin va ular erkin fikrlashga imkon beradi;

to'rtinchidan, agar dogmatik qadriyatlar asrlar davomida o'zgarmay, dinning asosiy prinsiplari, ustunlari bo'lib kelgan bo'lsa, metafizik qadriyatlar davr talablari, ma'naviy-ruhiy o'zgarishlar va ehtiyojlar ta'sirida transformasiyaga uchrab turadi, yangi shakl, yo'nalish va mavzular bilan boyib keladi;

beshinchidan, xalqimiz ongida ko'plab diniy qadriyatlar diniy marosim va an'analardan kelib chiqib milliy qadriyatlarga aylangan. Masalan, zardushtiylikdagi tabiatga e'tiqod, olov va suvni e'zozlash, islomdagi aniqlik, o'simlik va hayvonot dunyosiga munosabat, hech kimga ozor bermaslik, qo'ldan kelgancha yaxshilik qilish, qarindoshlar o'rtasidagi munosabat, kabilar ajdodlarimiz ongiga singib, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketgan.

Savollar va torshiriqlar:

1. Dinning qanday funksiyalari mavjud?
2. Zardushtiylik dinida qanday ekologik munosabatlar mujassam?
3. Transsendental qadriyatlarni qanday tasavvur qilasiz?
4. Diniy qadriyatlarni klasterini tuzing?

11-mavzu. Milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning mushtarakligi.

1. Milliy qadriyatlar tushunchasi va ularning milliy o'zlikni anglashdagi roli.
2. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va bashariyat ko'zgusida.
3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar: jamiyat va ma'anviy yangilanishda dialektik bog'liqlik masalalari.
4. Axloqiy qadriyatlar dinamikasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi.

1. Milliy qadriyatlar tushunchasi va ularning miliy o'zlikni anglashdagi roli.

Milliy qadriyatlar tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish kerak. Tushunchaning ta'rifi, tavsifi, mazmuni, kelib chiqishi va rivojlanishi, ijtimoiy maqsadi va vazifalari, shakllari, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta'sirini bilish lozim. Qadriyat tushunchasi – juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning bir qismi – milliy qadriyatlardir. Ko'pincha milliy – ma'naviy qadriyatlar shaklida manbalarda uchraydi. Ushbu tushuncha ikki – «milliylik» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada paydo bo'lgan ma'naviy hodisadir. Milliy qadriyatlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **millat, elat uchun zarur va ahamiyatli, qadr-qimmatli bo'lgan, manfaati va ehtiyojlariga, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan ma'naviy-mafkuraviy ahamiyat kasb etadigan boyliklar – milliy qadriyatlardir.**

Milliy qadriyatlarni yuksaltirish borasida barcha sog'lom kuchlar bilan hamkorlikni kuchaytirish katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning urf-odat, an'analarini tiklashda diniy arboblari, ruhoniylar, mahalla va guzarlarning oqsoqollari yaqindan yordam berayaptilar. Ularning tashabbusi va faol ishtiroki bilan vayrona, xarobalarga aylangan masjidlar qayta tiklandi, yangilari qurilib,

ishga tushirildi. Navro'z, hayit, singari bayramlarning tiklanishi va boshqa xayrli ishlarda ham ularning salmoqli ulushi bor. Milliy qadriyatlarining tiklanishi tufayli bugun jonajon Vatanimizning «har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb xis etayapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlool bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak aslo yanglishmagan bo'lamiz»¹.

Har bir xalqning o'zi uchun ezozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asarlar davomida avloddan – avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixori manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, O'zbeklar Samarqand, Buxoro va Xiva singari tarixiy obidalari, dunyo sivilizasiyasiga hissa qo'shgan buyuk shaxslari bilan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalari, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odati va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol uynaydi. Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan hudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'rmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy meros bilan bog'liq qadriyatlar ham muhim o'rinni egallaydi².

Milliy qadriyatlarda millat, muayyan bir xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bular millatning ma'naviy-ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu – umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusida aks etadi. N.Ortiqovning fikricha, “milliy qadriyatlar tor va

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. - Т.:Ўзбекистон,1993, 4-бет.

² Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). Тошкент, “Ўзбекистон файласуфларини миллий жамияти” 2004, 90-бет

keng ma'noda ishlatiladigan tushunchadir. Milliy qadriyatlar tor ma'noda muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlarini ifodalovchi munosabatlar yig'indisini, mazmunini tashkil etsa, keng ma'noda muayyan bir davlatda yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlari va qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yig'indisini aks ettiradi"¹.

Q.Nazarovni fikricha, milliy qadriyatlar: kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy biriligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga. Hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi; Kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi; Moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishi, kishilar uchun zaruriyat sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etishi, ularga foyda keltirishi ham mumkin; ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avlodan avlodga o'tadi, meros qoladi².

Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

birinchidan, milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi;

¹ Ортиқов Н.Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. Тошкент, "Ўзбекистон"1997, 8-бет

² Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). Тошкент, "Ўзбекистон файласуфларини миллий жамияти" 2004, 93-бет

uchinchidan, milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezoni bo'lib maydonga chiqadi¹.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi har bir millatning o'ziga xos tarixi, tili, madaniyati, axloqiy va psixologik fazilatidan, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'langandir. Milliy qadriyatlarning har bir ko'rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin. Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanishi va amal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarmas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi.

Qadriyatlarga baho berishning bosh mezoni — tarix saboqlari, tajriba, hozirgi davr va istiqlolning talablari ehtiyojlaridir. Shuning uchun qadriyatlarga aqidaparastlik, qiroatxonlik, ko'r-ko'rona sig'inish yuli bilan emas, balki sog'lom aql, fan yutuqlari, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot talablari va imkoniyatlariga asoslanib yondashmoq kerak. Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbai an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod hagi'ida g'amho'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan. Afsuski, bu qadriyatlarga ham qatog'onlik davrida jiddiy putur etdi. Sovet tuzumi xususiy tadbirkorlikni taqiqlab, «yaqinlarini qo'llash» ga qarshi kurash bahonasida oilalardagi va qarindosh – urug' ichidagi

¹ Миллий истиқлол ғояси. Т. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. 2005, 165-166 бетлар

kasbiy ko'nikmalarning meros bo'lib o'tishini yo'qqa chiqardi. Oilalar va tadbirkorlarning an'anaviy kasbiy va iqtisodiy «o'rni» yo'qotilishiga sabab bo'ldi.

Milliy qadriyatlarning kuchayib borishi milliy mahdudlikka, milliy xudbinlikka, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmaslikka olib kelmaslik kerak.

Milliy qadriyatlarning milliy ma'naviy meros tarkibidagi ko'rinishlari. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorlik, osoriatiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilm - fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot;
- axloqiy vazilatlar; - diniy qadriyatlar;
- urf-odat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida tarixiy meros va tarixiy xotira muhim o'rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini kutarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

O'zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qaditmiy qo'lyozmalar – milliy ma'naviyatning bebaho undonalari, xalqimiz uchun eng qadrlil va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylab – asrash, kelajak avlodlarga etkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir. Ilm-fan va uning yutuqlari – milliy va hududiy chegaradan

chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umumsoniyaga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatini jami bashariyatning yutug'iga aylantiradi.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr – oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillikni xususiyatlarini tasvirlash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Insonning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davlatlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsa-da, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar tur xil shaklda namoyon bo'ldi. O'zbek oilalariga uch-to'rt. Hatto besh avlod vakillari (ya'ni bobo-buvilar, ota-onalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar. Har bir bug'inning o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqei bor.

Oila – muqaddas. Oila qurish – o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila – eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. YOshlarni tarbiyalash, kamolotga etkazish, ilm-hunar berish, uyli – joyli qilish – aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi – bola - chaqali bo'lish, bularning to'yini, orzu-havasini ko'rish. YOsh avlodni hayotga yo'naltirish, bular uchun muayyan boshlang'ich nuqta – startpozitsiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga etgach, oilasi, ota-onasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand

ko'rib, uni katta qilganda – u ham avlodlar vorisligiga chek qo'yib oilasini tark etadi.

O'zbeklarda yoshlar uchun juda yuqori start pozitsiyasi yaratib, hayotga yo'llanadi. Uylanayotgan yigitga kamida 1-2 xonali uy, turmushga chiqayotgan qizga mebel va jihozlari va uy anjomlari taqdim etiladi. Ikki yosh farzandli bo'lgach, o'z navbatida, estafetani qabul qilib, keyingi avlodni hayotga tayyorlay boshlaydilar. Ushbu milliy qadriyat oilaviy munosabatlarda ham vujudga kelishi mumkin bo'lgan begonalashuv jarayonini bartaraf etadi, avlodlar vorisligi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda, bu qadriyat, yoshlardagi boqimandalik, bag'amlik, o'z hayoti uchun mas'uliyatini faqat kattalarga topshirib qo'yish kabi illatlarni inkor etadi, o'z kelajagini o'z qo'li bilan yaratishga ishtiyoqni rag'batlantiradi. Ahil oilalarda aksariyat masalalar o'zaro fikr almashuv, maslahat va kengash orqali hal etiladi. Er-xotin, qaynona-kelin, aka-ukalar orasida sodir bo'ladigan ba'zi ixtiloflar mahalla va qarindosh-urug'lar vositachiligida bartaraf etiladi.

Mahalla – o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla – tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. O'zbek xalqining hayoti, kundalik turmushi, qadriyatlari bilan tanishgan xolis fikrli xorijliklar mahallani noyob qadriyat, buyuk kashfiyot sifatida e'tirof etmoqdalar. Qo'ni – qo'shnihilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim erlarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatning oldini olish muhim.

O'zbek xalqining qadriyatlari tizimida qo'shnilarga munosabat katta o'rin egallaydi. Xalq yaratgan maqol va matallar (masalan «YOn qo'shnim – jon qo'shnim», «Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo'shni afzal», «Hovli olma – qo'shni ol» va hokazo) uning bu masalada o'ziga xos falsafasi boriligidan dalolat

beradi. YAxshi ko'pchilik munosabatlari buzilgan, arziyas sabab bilan qo'shnilar yuz ko'rmas bo'lgan hollarda qanchalar teran milliy qadriyat oyoq osti bo'lganligi, bag'rikenglik va murosas tamoyili lat eganligi ayon bo'ladi. Keksalarga hurmat – inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azguncha jon fido qilish xollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvatko'rsatish – insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamiz tasavvur eta olmaymiz.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma'naviy borlig'imizning muhim va serqirra sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi ta'lim va tarbiyani talab qiladi. Milliy qadriyatlar ba'zilar o'tmish mustabid tuzum sharoitida tazyiq va tahqirlarga uchragan, ularni «eskilik sarqiti», «o'tmishning qodig'i» degan tamg'alar bosilgan edi. Xatto bolani beshikka belash, isiriq tutatish, maxsi-kavush kiyish, oyoqni sandalida issiq tutish kabi beg'ubor odatlar ham shu taqdirda chetda qolmagan.

Xalqimizga xos milliy xususiyatlar, ayniqsa, tuy-tantanalar va marhumni xotirlash marosimlarining tashkil etilishida yorqin namoyon bo'ladi. Bunday marosimlar qarindosh-urug'chilik va yor-do'stlik munosabatlarini yana da mustahkamlaydi, kishi uchun eng dahshatli bo'lgan yolg'izlikni bartaraf etadi. Sobiq mustabid tuzum chog'ida tazyiq va tahqirlarga uchragan milliy urf-odat va rasm-rusumlar mustaqqillik tufayli qayta tiklandi. Ruhiy tayanch va madad beradigan bunday marosimlarni ochiq-oydin, emin-erkin ado etish imkoniyati paydo bo'ldi.

2. Umuminsoniy qadriyatlar milliylik va bashariyat ko'zgusida.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizasiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanlining ifodasidir. Kishilarning turmush sharoitlarida, kasb-hunarlarida, milliy, diniy mansubligida, faoliyatida, yoshida farq bo'lsa ham ularning hammasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tub mohiyatli jihatlar ham bor. Har bir inson yaxshi yashashga, oila qurishga, farzand ko'rishga, boshqalar bilan yaqin do'st, qadrdon bo'lishga intiladi, farovon turmush qurishga, madaniyat, fan, texnika yutuqlarini egallashga, baxtli bo'lishga harakat qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarning ildizlari barcha davrlar, jamiyatlar, mamlakatlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, kishilarning mehnati, turmush sharoiti va uning darajasi, niyat va intilishlari, maqsad yo manfaatlaridagi birlikdir. Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqboli, istiqbol va manfaatlarida mavjud bo'gan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hodisalar va boyliklarga aytiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarimas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin, bu o'zgarishlardan qat'iy nazar umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolotning muayyan maqsadlari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Q.Nazarovning fikricha, **“umuminsoniy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, unga mansub turmush, oila, urug', qabila, elat, millat, xalq, davlat va boshqalarning ijtimoiy holati, ma'naviy hayoti, axloq, huquq, din, madaniyat, nafosat, san'at, ilm-fan sohalari bilan bog'liqlikda ham namoyon bo'ladi”**¹. Umuminsoniy qadriyatlar milliy yo mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan

¹ Назаров Қ. Қадрият фалсафаси. Тошкент, “Академия”, 2004, 87-бет

ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi, ular, ayni vaqtda, barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma erda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma erda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir. Umuminsoniy qadriyatlar insonlarda axloq va madaniyatning ustunligini e'tirof etishda, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil qilishda va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishida, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohaning, aloqaning mamlakatlarda va xalqlarda rivojlantirishda ko'rinadi¹.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosida amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, elatlar, millatlarning o'tmishidagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizasiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalanganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlar tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar kategoriyasining mazmunini o'rganish uchun, avvalo, «umuminsoniylik» tushunchasining ma'nosini tahlil qilmoq lozim. Bu tushuncha jamiyatning asosiy jihatlari, turli ijtimoiy sifatlar, xususiyatlar va boshqalarning umuminsoniy xarakterga ega ekanligini anglatadi. «Umuminsoniylik» tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamoloti hamda tarixiy, siyosiy va boshqa birliklar (ijtimoiy sub'ektlar) uchun ahamiyati ham o'z aksini topadi. Shu bilan birga

¹ Жўраев Н. Янгиланишлар концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. Т.: “Маънавият” 2002 й, 42-45 бетлар

umuminsoniylikda umumijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy-axloqiy jihatlar, ijtimoiy muhitning eng umumiy tomonlari bilan bog'liq sifatlar ham aks etadi. Bir so'z bilan aytganda, umuminsoniylik odamlar uchun umumiy bo'lgan mezonlar, ob'ektiv holatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshqalarni o'zida aks ettiradigan tushuncha sifatida ishlatiladi.

Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz hayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir. Insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina umuminsoniy qadriyatlarning yaratuvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushuncha. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardangina iborat emas. Uni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo'lmaydi. Bu qadriyatlar, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan kishilar uchun umumiy bo'lgan qadriyatlar tizimini hosil qiladi, boshqa qadriyatlar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog'lanishda namoyon bo'ladi.

Tabiatni muhofaza qilish ekologik tarbiya va madaniyatning rivojlantirish insoniyatning sihat-salomatligini saqlab qolish, havfli kasalliklarni o'zaro hamkorlikda oldini olish, oziq-ovqat, energiya va yoqilg'i tanqisligini tugatish, madaniy boyliklarni, sivilizasiyani eson-omon saqlab qolish, urishlarning boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish – ularning hammasi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlardir. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlar va millatlarnigina emas, balki bashariyatning mulkidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkisi bir-biriga ta'sir etadi, birinchisi ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan, mazmun jihatidan chuqur va keng bo'lib, u o'z ichiga oladi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar,

elatlar, va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlardan ajratib olib, unga mahliyo bo'lib ketish, o'z millatini maqtash, uning tarixi madaniyati ideallashtirish boshqa millatlar vakillarining milliy tuyg'ulari va nafsoniyatlariga birmuncha tegib ketadi. Bu milliy tuyg'ular millatchilik tuyg'ulariga aylanib ketishi mumkin. Shuning uchun ham bu masalada hushyorlik, nazokat, insof, diyonat, kamtarlik, quyushqondan chiqib ketmaslik, o'zga millat kishilari tili, madaniyati, tarixi, an'ana va udumlarini astoydil hurmat qilish talab qilinadi.

Keng ma'nodagi milliy qadriyatlar asosida turuvchi umummilliy manfaatlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek shunday umummilliy munosabatlarni namoyon etadiki, bularga quyidagi talablarni kiritish mumkin:

- mamlakatda yashovchi barcha kishilarning, millati va istiqomat joyidan qat'i nazar teng huquqliligi va erkin rivojlanishini ta'minlash;
- halqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, milliy qadr-qimmatni qaror toptirish:
- ona tilini va madaniyatini, halq urf-odat va an'alarini rivojlantirish huquqi berilishi.
- mustaqil davlatlar ko'p millatli, halqlarining hamdo'stligini mustaqamlash, shu jumxuriyatlar tarkibidagi hamma turdagi muxtoriyatlarning ham mustaqilligini amalda ta'minlash:
- kamsonli halqlarning, milliy guruhlarining manfaatlari va qiziqtirishlarini ximoya qilish, ular turmushining an'anaviy shakllariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, qatag'onga uchragan va zo'rberib ko'chirilgan halqlarning huquqlarini tiklash, zo'ravonlik harakatlari oqibatlarini bartaraf etish;
- aholining nohaqlikdan ko'chishining oldini olish, qochoqlar uchun huquqiy maqomlar joriy etish, ularga zaruriy yordam berish;

- milliy ekstremizm, shovinizm, irqchilik diskriminasiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish;
- ko'pmillatli davlatning umummilliy xavfsizligini ta'minlash va qo'riqlash,

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan munosabatlarning barchasi aynan hayotimiz mezonidan kelib chiqayotgan xaqqoniy talablardir. Bularga o'z navbatida, e'tibor bermaslik salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi muqarrar. Biroq muammolarni xal qilish jarayonida faqat muayyan jumxuriyatdagi u yoki bu millat va elating talab va ehtiyojlariga zo'r berish, milliy mahudlikka, xudbin manfaatlarga asir bo'lib qolish ham yaramaydi. Chunki bu hol muayyan jumhuriyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ravnaqiga xissa qo'shmaydi, aksincha, salbiy ta'sir etadi, milliy xis-tuyg'ularning junbushga kelishiga sabab bo'ladi.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar: jamiyat ma'naviy yangilanishida dialektik bog'liqlik masalalari

Qadriyatlarga milliy tiklanish va rivojlanish konsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashishda umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish, ular o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni o'rganish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyoti shunday bir tarixiy bosqichga qadam qo'ydiki, endi hech bir xalq, millat, davlat boshqa xalq, millat va davlatlar bilan keng integrasiyaga kirishmay, umumjahon taraqqiyotiga o'zining hissasini qo'shmay, global muammolarni hal etishda qatnashmay hamda umuminsoniy me'yorlardan, boyliklardan, yutuqlardan – qadriyatlardan foydalanmay rivojlana olmaydi. Platon nazarda tutgan «qismning butunga bog'liqligi o'z-o'zidan ayon, butun esa qismning mohiyatidir»¹, degan fikrlar bugungi global taraqqiyotdagi integrasion aloqalarni, xalqaro munosabatlar sub'ektlarining yaxlitlik, bir-biriga bog'liqlik, kelgusida mavjudlik shartidir. Ammo bu yaxlitlik, butunlik «qismlar»ning shunchaki yig'indisi emas, ular «bir-biridan farq qilgan, o'ziga zarur bo'lgan, hatto bir-biriga zid narsalar bilan shug'ullangan»

¹ Платон. Сочинения в трех томах. Т.3. Часть 1. – М.: Мысль, 1971. – С. 224.

taqdirda ham yaxlit, butun amal qiladigan adolatga bo'ysunadilar¹, natijada qismlardagi o'ziga xoslik, milliylik rad etilmaydi, balki, aksincha, ular saqlangan holda, integrasiyaning uzluksizligiga, aloqalarning keng qamrovligiga erishiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan birinchi kunlardayoq YUrtboshimiz I.A. Karimov milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish Respublikamiz taraqqiyotini ta'minlovchi ijtimoiy omil ekanini nazarda tutib, quyidagi, bizning mavzumiz uchun fundamental ahamiyatga ega g'oyani ilgari surdi: «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak, - deydi u, - Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas»².

I.A.Karimovning mazkur asarini va undagi milliy va umuminsniy qadriyatlar uyg'unligining jamiyat hayotiga, ma'naviy yangilanishiga ta'sirini falsafiy tahlil qilib J.Tulenov quyidagi xulosaga keladi: «Mazkur asarda, istiqlol tufayli jamiyatimizda milliy qadriyatlarimizning tiklanishi, milliy qadriyatlar tushunchasining ko'p qirraligi, milliy o'z-o'zini anglash, milliy psixologiya, milliy tuyg'u, milliy madaniyat, til, urf-odat, udum va an'analar, ularning inson barkamolligini ta'minlashda, dunyoqarashini shakllantirishda, bunyodkorlik faolligini oshirishdagi o'rni, shuningdek, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy, moddiy qadriyatlar hamda yuksak milliy ma'naviyatimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishdagi vositachilik roli kabi dolzarb muammolar falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi»³. Haqiqatan ham, I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining mustaqil taraqqiyot yo'li haqida fikr yuritir ekan, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishni alohida ta'kidlaydi. O'tgan yigirma yil mazkur yondashishning to'g'ri va milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega g'oya, ko'rsatma,

¹ Ўша асар. – Б. 33.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.73.

³ Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.7.

nazariya ekanini ko'rsatdi. Demak, respublikamizda bu borada ma'lum bir tajriba to'plandi, uni o'rganish, umumlashtirish va bu borada duch kelinayotgan yangi muammolarni, ularning pozitiv echimlarini topish tadqiqotchilar, mutaxassislar oldidagi vazifadir.

AQSHlik faylasuf, siyosatshunos, futurolog F.Fukuyama er yuzida umumiy tartibni, taraqqiyotni ta'minlash uchun milliy hududlarni, madaniyatlar va qadriyatlarni rasional boshqarishga qodir, kuchli milliy davlatlar zarur¹, degan g'oyani ilgari surdi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshida milliy-etnik nizolar, S.Xantington aytganidek, «madaniyatlar to'qnashuvi»² global voqelikka aylanib, insoniyatning umum taraqqiyotiga, sivilizasiyaga xavf uyg'otdi. Qism, ya'ni milliy kuchli davlat o'zini-o'zi boshqarish va o'z qismlarini umuminsoniy manfaatlar, global taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish imkoniga ega. F.Fukuyamaning «milliy kuchli davlat» g'oyasi, aslida amerikanizm g'oyasiga, ya'ni global taraqqiyotni AQSH boshqarishi lozim, degan konsepsiyaga ziddir. Unga ko'ra, milliy davlatlar qancha kuchli bo'lsa, global boshqaruvga xalaqit beruvchi milliy-etnik nizolarni, madaniyatlar to'qnashuvini, barcha destruktiv hodisalarni hal etish shuncha oson kechadi.

Milliy qadriyatlarda salbiy tomonlar, jihatlar borligini eslasak, ular ham goho umuminsoniy qadriyatlarga qarshi chiqishini, butun manfaatlaridan o'zining tor, egoistik manfaatlarini ustun qo'yishi mumkinligini anglaymiz. Milliy qadriyatlarning umuminsoniy taraqqiyot talablariga zid kelmasligi uchun ham milliy qadriyatlar va madaniyatlarning rasional, maqsadli boshqarishga qodir milliy kuchli davlat zarurdir. Bunga O'zbekistonning diniy mutaassiblik, separatizm va terrorizmga qarshi izchil kurash olib borayotgani ibratli misoldir.

Milliy qadriyatlarga to'xtalganda, alohida shaxslar yaratgan qadriyatlarni e'tirof etish lozim. Alohida shaxslarning qadriyatlari ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarila olishini xalqimiz tarixidan ko'plab

¹ Каранг: Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок. – М.: АСТ, 2006. – С.88.

² Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: АСТ, 2005. – С. 220.

misollar keltirib isbotlash mumkin. Masalan, Farg'oniyni «Astronomiya negizlari», Ibn Sinoning «Tib qonunlari», Xorazmiyni «Algoritmi», Beruniyni «Minerologiya»si, Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asari, Buxoriy, Termiziy, Naqshbandiy, Kubroviy, YAssaviy kabilarning ma'naviy meroslarini keltirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, mutafakkirlarning umuminsoniy fazilatlarini qadriyatlar darajasida tan olinishi jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissalari bilan belgilanadi.

Bugun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zarurligini deyarli barcha tadqiqotchilar tan oladilar. Ammo ushbu aksiomani evroposentrizm, amerikanizm g'oyalari ostida o'zining qarashlarini, madaniyatlarini, qadriyatlarini dunyo xalqlariga singdirishga intilayotgan kuchlar ham yo'q emas. Ko'p qutbli dunyoni bir qutbli dunyoga aylantirishni, ya'ni etnomadaniy plyuralizm o'rniga global madaniyat, global davlat, global boshqaruvni shakllantirish tarafdorlari sezilarli mablag', vosita va imkoniyatlarga ega. «Evrosentrizm barcha xalqlar va barcha madaniyatlar, o'zining rivojlanish bosqichlarida farq qilgan holda, bir xil yo'lni bosib o'tadilar, degan qarashlarni ta'kidlovchi va universalizmga da'vogar mafkuradir»¹. AQSHlik siyosatchi, mutaxassislar esa «Shunday qadriyatlar borki, ularni qaror toptirish uchun ayrim davlatlar mustaqilligini cheklash mumkin»², deb da'vo qiladilar. «Shunday qadriyatlar» deyilganda AQSH gegemonligini ta'minlashga qaratilgan siyosat, g'oya nazarda tutiladi. Mazkur da'vatning mohiyati va oqibatini anglash qiyin emas.

«Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ma'lum bir ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy muhit ta'sirida, madaniy negizlar, ob'ektiv va sub'ektiv omillar asosida yuzaga keladi. Agar ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy aniq davr munosabatlar va integrasion aloqalar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishiga,

¹ Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. – М.: ЭКМО, 2003. – С. 212.

² Қаранг: Уткин А. Американская империя. – М.: ЭКМО, 2003. – С. 56.

ularning dialektik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, madaniy negizlar va sub'ektiv omillar ularni aniq ko'rinishlarda ifodalab, sintezlashtirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasini ob'ektiv ijtimoiy-tarixiy muhitdan alohida qarash mumkin bo'lmaganidek, ularni madaniy negizlar va sub'ektiv omillar ta'siridan ham ayricha qarash mumkin emas»¹.

Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi ijtimoiy-tarixiy muhit, ushbu muhitda yuz berayotgan transformasiya, modernizasiya va demokratlashtirish jarayonlari, dunyo xalqlarining integrasion aloqalari orqali o'rganilishi lozim. «Umumning g'oyasini anglash va qismlarning bir-biriga munosabatini ushbu umumdin chiqarish»², qanchalik muhim, zarur bo'lmasin, aniq ijtimoiy-tarixiy muhit milliy madaniyatni tahlil qilishdan umumga, ya'ni umuminsoniy qadriyatlarga borish ham shuncha muhim, zarurdir. Unga retrospektiv-analitik yondashmay, qadriyatlar dialektikasini ijtimoiy taraqqiyot bilan birga o'rganmay, jamiyat ma'naviy yangilanishini anglab bo'lmaydi. To'g'ri, mazkur tadqiqot faqat retrospektiv –analitik yondashuv doirasi bilan cheklanib qololmaydi, unga O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ro'y bergan va ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy jarayonlarning sosiologik tahlili ham lozimdir. Qadriyatlarning murakkab, ko'p qirrali voqea ekanligi esa ularga kompleks yondashishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida, qadriyat va qadriyatlarning tizimi, xususiyatlari, belgilarini tadqiq etishga undaydi.

4. Axloqiy qadriyatlar dinamikasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi

Axloqiy qadriyatlar dinamikasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi Markaziy Osiyo Uyg'onish davrlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlari shakllanishida muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyodan etishib chiqib,

¹Темирова Н.Э. Талаба ёшларнинг маънавий шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар диалектикаси. Фалсафа фан.номзоди... дисс.автореферати. – Т.: 2006. – Б.18.

² Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысль, 1966. – С. 321.

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'z faoliyatlari davomida shakllanishiga katta rol o'ynagan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarimiz xizmatlari e'tirof etilib, ular haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Ularning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Markaziy Osiyo Uyg'onish davri jahon, jumladan, G'arb ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan. Sharq Uyg'onish davri madaniyati fanlarning rivojlanishi, qomusiy olim, mutafakkirlar etishib chiqishi bilan butun kishilik jamiyati rivojlanishining yuksak bosqichidir. Bu davrda yaratilgan asarlar, obidalar milliy qadriyatlarimizga aylanish bilan bir qatorda, umumjahon e'tirofiga sazovor bo'lgan¹.

Forobiyni «Fozil odamlar shahri» asarida fozillar shahri hokimining o'n ikki fazilati bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Bular: sog'lomlik, farosatlilik, kuchli xotiraga ega bo'lish, zehnlilik, chiroyli muomalalik, ma'rifatga intilish, nafsni tiya olish, haqiqatgo'ylik, oliyhimmatlilik, boylikka qiziqmaslik, adolatparvarlik va jasurlik². Alloma, moddiy va ruhiy ne'matlarning hammasi birgalikda uyg'unlashgan chog'dagina haqiqiy baxt-saodatga erishish mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Bu fikrlar O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini yoshlarimizda shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

YUrtimizda yashayotgan barcha xalqlarning millat sifatida yanada rivojlanishi uchun ularning milliy qadriyatlariga e'tibor berilib, buning uchun respublikamizda barcha sharoitlar ta'minlangan. Respublikamizda 130 dan ortiq millat yashasa, 150 dan ortiq milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatyapti. Masalan, O'zbekistonda rus madaniyat markazi bilan birgalikda rus provaslav cherkovining 28 muassasasi, rus tilida o'qitiladigan 776 o'rta o'quv yurti bo'lib, 65 oliy o'quv yurtidan 63 tasida darslar rus tilida olib boriladigan bo'limlar bor. Toshkentning qoq markazida rus shoiri Aleksandr Pushkin haykali savlat to'kib turibdi, Anna Axmatova, Sergey Borodin davlat muzeylari, 5 ta davlat rus teatri va ko'plab madaniy-ma'rifiy

¹ Қаранг: Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 18-24; Носиров Р.Н., Сирожиддинов Ш.С., Зияутдинова Х.А. Ўрта Осиёлик алимларнинг фалсафий қарашлари. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. – Б.54-56.

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий, 1993. – Б. 98.

muassasalar faoliyat olib boryapti. Boshqa millatlar to'g'risida ham shunday misollarni keltirish mumkin¹.

Ma'lumki, biror bir hodisa, jarayon yoki axloqiy qarash ko'pchilik tomonidan e'tirof etilib, rivojlantirilsa qadriyat sifatida e'zozlanadi. Jumladan, BMTning 2000 yil sentyabrida bo'lgan uch kunlik sammiti umumbashariyat uchun quyidagi 6 ta asosiy qadriyatni belgiladi:

- ozodlik;
- tenglik va birdamlik;
- bag'rikenglik;
- zo'ravonlikdan yuz o'girish;
- tabiatga hurmat va e'tibor;
- umumiy mas'uliyat.

Mazkur qadriyatlar xalqimizga xos bo'lgan mustaqillik, insonni asrab-avaylash, do'stlik, o'zaro hamkorlik, vatanga muhabbat kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'undir.

Ozodlik haqida gapirganda, shuni aytish mumkinki, har bir odam hur tug'iladi. Demak, uning hayoti hurriyatga asoslanmog'i, har xil xavflar uning hayotiga rahna solmasligi kerak. O'zbekistonda 2008 yilning yanvaridan o'lim jazosining bekor qilinishi ham xuddi ana shu umuminsoniy qadriyatga yo'naltirilgandir.

O'tgan yillar mobaynida o'lim jazosiga mahkum etilganlar 33 tadan 2 taga qisqartirilgan bo'lsa, 2007 yil 28 iyunda Oliy Majlis Qarori bilan o'lim jazosi bekor

¹ Қаранг: Мусаев О. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: Фан, 2006. – Б. 48-52; Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. – Т.: Абу matbuot-konsalt, 2008. – Б. 18-120.

qilindi. Bu xulosaga kelish uchun 2-3 yil vaqt ajratib odamlar o'rtasida "yashash huquqi" to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi.

Jazoni engillashtirishga yo'naltirilgan liberallashtirish natijasida «O'zbekistonda hozirgi kunda qaiqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir»¹.

Tenglik va birdamlik mustaqilligimizga, millatimizga xos asosiy tushunchalardir. CHunki O'zbekistonda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga amal qilinmoqda. Insonning ijtimoiy, ma'naviy, madaniy huquqlari ta'minlangan. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshib bormoqda. Konstitusiyamizning 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar»², - deyilgan bo'lsa, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida «Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi»³, - deb bu tushunchalar qonun asosida kafolatlangan.

Bag'rikenglik azaliy bizning xalqimizga xos xususiyat bo'lib, madaniyat me'yori hisoblanadi. Millatimiz qadimdan mehr-oqibatli, oriyatli xalq bo'lgan.

¹ Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т.: O'zbekiston, 2011.– Б. 59-60.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б. 6.

³ Олий таълим. Меърий-хуқукий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Истиқлол, 2004. – Б. 3.

«O'zbek xalqi hamisha – kulfatda ham, quvonchda ham boshqa millat va elatlarga alohida hurmat bilan qarab kelgan, mamlakat xalqlarining qardoshligi va do'stligini muqaddas bilib ardoqlab kelgan. Bu narsa butun dunyoga ma'lum. Bu – biz bebaho boylik deb asraydigan hayotiy qadriyatdir»¹.

Bugun yurtimizda bag'rikenglikka asoslangan 16 ta diniy konfessiyaning o'zaro hamkorlikda ishlab turishi o'zbek xalqining murosasozligi, boshqa xalqlarning diniy e'tiqodlariga hurmat e'tiboridan dalolatdir. «Dunyoda katta yoki kichik millat yo'q, balki har bir millatning o'z g'ururi bor. Uni kamsitishga esa hech kimning haqi yo'q... Shu ma'noda, o'z kuchiga, salohiyatiga ishongan xalqning bag'ri keng bo'ladi»².

Zo'ravonlikdan yuz o'girish. Xalqimizda halimlik, mehribonlik, zo'ravonlikdan nafratlanish azaldan mavjud qadriyatlardir. Ularning tub mohiyatini Prezidentimizning «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin»³, - degan fikrlari aniq ifodalaydi.

Milliy madaniyat va ma'naviyatni yuksaltirishda xalqimiz tomonidan yaratilgan urf-odat, an'ana, do'stlik, mehr-oqibat, saxovat, mehribonlik kabilarning o'z o'rnini bor. Yadro maydonlaridan ham kuchli bo'lgan mafkura maydonlarida qattiq g'oyaviy kurash ketayotgan ayni damlarda xalqimizdagi bu ajoyib fazilatlarni yanada rivojlantirib, yoshlarimizning ijtimoiy hayotida qo'llashga yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Mustaqil O'zbekistonning siyosati – insoniylik, ezgulik qonunlariga asoslanadi hamda fuqarolar osoyishtaligi va milliy murosa siyosati bo'lib qoladi»⁴.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 230.

² Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 149.

³ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 88.

⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 404.

Tabiatga hurmat va e'tibor kishilik jamiyatining muhim muammolari jumlasiga kiradi. Bu masalani to'g'ri hal etish esa odamlarning hayotini yaxshilashga, madaniy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Tabiat yaxlit tizim sifatida o'ziga nisbatan oqilona munosabatni talab qiladi. Tabiiy muhit inqirozga yuz tutgudek bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni, barqaror siyosiy muhitni ta'minlab bo'lmaydi. Faqat tabiat bilan uyg'unlashgan hayotgina taraqqiyotga olib boradi. Zero, «Xalqimizning tabiat bilan bog'liq qadriyatlarini bilish, ularga chuqur e'tibor bilan qarash va e'zozlash har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir. Chunki inson farzandi bo'la turib, uning o'ziga xos madaniy-ma'rifiy qadriyatlari qadriga etmaslik insoniylikdan emas. O'zini madaniyatli va ma'rifatli deb bilgan har bir kishi, yosh-keksaligiga, ayol-erkakligi va kasb-amalidan qat'iy nazar, yon-atrofini o'rab turgan muhit, to'rt unsur, ya'ni er, havo, suv va olov, shuningdek, o't-giyohlar, dov-daraxtlar, kata-kichik jonli-jonsiz narsalar haqida qayg'urishi, jon kuydirishi, qisqasi tabiat chiroyiga chiroy, tarovatiga tarovat qo'shishni vijdoniy burch, imon-e'tiqod ishi, deb bilmog'i lozim»¹.

Umumiy mas'uliyat istiqlool davrida qayta sayqallangan, millatimizga xos fazilatlardan biridir. Umumiy mas'uliyat bu - Vatan, oila, jamiyat oldidagi vazifalarni ado etishda javobgarlik va daxldorlikni his etish tuyg'usidir. Ular O'zbekiston xalqiga xos bo'lib, islohotlarda faol qatnashayotganda namoyon bo'ladi. Jumladan, mamlakatimizda tinchlik, xalqaro xavfsizlik, ekologik, yadro urushi fojiasining oldini olish, demografik muammolar, hamkorlik, erkinlik, demokratiya, mustaqillik, tenglik, sosial adolat, inson huquqlarini himoya qilish, umumsiyosiy va huquqiy hodisalar, baxt, vijdon erkinligi, or-nomus, vatanga muhabbat kabi tuyg'ular kamoloti xalqimiz ongu shuuridagi mas'uliyatdan dalolatdir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitida axloqiy qadriyatlar dinamikasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirishda quyidagilarga e'tiborni kuchaytirish lozim:

¹ Муродов М., Ҳакимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. – Т.: Ғ.Ғулом, 2001. – Б. 69.

- har bir kishining o'zligini anglashida milliy qadriyatlar muhim rol o'ynagani bois, yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini singdirishda individual yondashishni yo'lga qo'yish;

- milliy qadriyatlarning shakllanishi oiladan boshlanishini hisobga olib, oila qadriyatlari mavzusida uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish;

- bog'cha, maktab, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va liseylarda qadriyatlar asosida oila - mahalla - bog'cha - o'quv yurti hamkorligini yo'lga qo'yish uslub va vositalarini yaratish;

- oliy o'quv yurtlarining ma'naviyat xonalarida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish yo'llarini o'zida ifoda etgan burchaklar tashkil etish va tadbirlar o'tkazish;

- mahallalarda qadriyatlarga asoslangan to'garak va tadbirlar tashkil qilib, ularga asosan keksalarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

birinchidan, milliy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma'naviy boyligimizning muhim va serqirra sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi ta'lim va tarbiyani talab qiladi;

uchinchidan, milliy qadriyatlar ba'zilar o'tmish mustabid tuzum sharoitida tazyiq va tahqirlarga uchragan, ularni «eskilik sarqiti», «o'tmishning qoldig'i» degan tamg'alar bosilgan edi.

Tortinchidan, biroq muammolarni hal qilish jarayonida faqat muayyan respublikadagi u yoki bu millat va elating talab va ehtiyojlariga zo'r berish, milliy mahudlikka, xudbin manfaatlarga asir bo'lib qolishga olib keladi.

beshinchidan, chunki bu hol muayyan jumhuriyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ravnaqiga hissa qo'shmaydi, aksincha, salbiy ta'sir etadi, milliy his-tuyg'ularning junbushga kelishiga sabab bo'ladi.

Savollar va torshiriqlar:

1. Milliy qadriyatlar deganda nimani tushinasiz?
2. Mintaqaviy qadriyatlarning o'ziga xosligini tushintiring?
3. Milliy iqtisodiy qadriyatlarning umuminsoniy ko'rinishlari qanday bo'ladi?
4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birligi haqida referat tayyorlang?

12-mavzu. Mustaqillik va yangi qadriyatlar tizimi.

1. Mamlakatimizda jahon sivilizatsiyasining to'laqonli tarkibiy qismi bo'lgan yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi uchun ob'ektiv va sub'ektiv omillarning paydo bo'lishi.
2. Yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi va takomillashuvi
3. Qadriyatlar tizimi – jamiyat a'zolarining birligi va hamjihatligini ta'minlovchi mezon va milliy g'oyaning asosi sifatida.
4. Jamiyat sohalarini modernizasiyalash – yangi ijtimoiy-siyosiy aksiologik jarayon sifatida

1. Mamlakatimizda jahon sivilizatsiyasining to'laqonli tarkibiy qismi bo'lgan yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi uchun ob'ektiv va sub'ektiv omillarning paydo bo'lishi.

O'zbekistonning mustaqilligi va unda vujudga kelayotgan yangi qadriyatlar tizimining ijtimoiy-siyosiy asoslari dialektik davomiylik asosida mustahkamlab borildi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 1991 yil 18 noyabridagi Qaroriga asoslangan, 1991 yil 24 dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi davlat miqyosidagi referendum va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari buning yana bir bor isboti bo'ldi. I.A.Karimov O'zbekistonning Prezidenti etib saylandi.

1992 yil 29 yanvarda BMT Xavfsizlik Kengashi, 1992 yil 2 martda esa BMT Assambleyasining 46 sessiyasi Qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bu mo''tabar tashkilot a'zosi bo'ldi. 1992 yil 8 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilindi. O'zbekistonni dunyo mamlakatlari tan oldi, ular respublikamiz bilan diplomatik aloqa o'rnatdilar. "O'zbekiston jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zosi, xalqaro huquqning mustaqil ishtrokchisi – sub'ekti sifatida bashariyat ahliga tanildi"¹.

Keyingi o'tgan yillar davomida mamlakatimizda mustaqillik mustahkamlanib, ijtimoiy-siyosiy tizim takomillashib bordi. Bugungi kunga kelib, bu takomillashishning in'ikosi sifatida jahon andozalariga mos keladigan qonunlar qabul qilindi. "Taraqqiyotning o'zbek modeli"ni amalga oshirish, "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" konsepsiyasini hayotga tadbqiq etish jarayoni bormoqda. Mamlakat demokratiyani yangi pog'onasiga ko'tarilmoqda.

Yangi qadriyatlar tizimi asoslanadigan mezonlarni aniqlashda I.A.Karimovning asarlariga tayanish lozim. Ularda O'zbekistonga xos yangi qadriyatlar tizimini vujudga keltirish va barqaror etish quyidagilarga asoslanishi ko'rsatiladi:

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т.: Ўзбекистон, 1996, 9-бет

- O'zbekiston xalqining ajralmas huquqi – o'z taqdirini o'zi belgilash huquqining ro'yobga chiqarilganligi;
- Uning hududdagi beqiyos boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo'lib qolganligi va respublikada demokratik – huquqiy jamiyatning asoslarini vujudga keltirishga harakat qilayotganligi;
- Jamiyat rivojida xalqning keng qatlamlariga tayanilayotganligi, ularning hamjihatligi va kelishuvi asosidagi barqarorlik doirasida tadriijiy o'zgarishlar yo'lidan sobitqadamlik bilan borilayotganligi;
- Respublikaning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalari hisobga olinayotganligi;
- O'zbekistondagi demografik vaziyat, aholining milliy tarkibi, respublikaning qulay geostrategik mavqei, tabiiy-iqlim sharoitining o'ziga xosligi, ishlab chiqarishi, sanoati, qishloq xo'jaligining potentsiallari va istiqbollari e'tibor berilayotganligi;
- Davlat mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va reformalarni amalga oshirish bilan dialektik uyg'unlikda milliy manfaatlariga mos keladigan faol tashqi siyosat olib borilayotganligi;
- Ko'pgina xalq manfaatlariga javob beruvchi iqtisodiy siyosat, inson manfaatlariga qaratilgan ba'zi iqtisodiyotning real yo'llari tanlab olinayotganligi;
- Respublikamizning barcha fuqarolari va yuridik shaxslariga tashabbus ko'rsatish va ishbilarmonlikni rivojlantirib, erkin xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun teng imkoniyat yaratish kafolatlanayotganligi;
- Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy negizlari sifatida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimiz madaniy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlikning asosiy omili sifatida qaralayotganligi¹.

¹ Бу ҳақда кенгроқ И.А.Каримовнинг «Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура» Т.1. 1996 ва бошқа асарларига қаралади.

2. Yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi va takomillashuvi

Jamiyatdagi asosiy ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro hamjihatligi, kelishuvi, hamkorligi asosidagi faoliyatining mezoniga aylanishi bir qancha vaqtni talab qiladigan o'zgarishlarni amalga oshirish davrini qamrab oladi, bu davrda bir tomondan, ilgarigi qadriyatlar tizimining muayyan ta'siri, ikkinchi tomondan esa yangi tizimning turli jarayonlar, o'zgarishlar orqali o'ziga yo'l ochayotganligining guvohi bo'linadi. O'zbekistonda ham ana shunday dialektik inkor, vorisiylik va navqironlik orqali boradigan jarayon davom etmoqda. Biz bu jarayonda tarixning burilish davrlarida sodir bo'ladigan umumiy aksiologik fenomen bilan, ya'ni kishilar ilgaridan o'rganib qolgan ba'zi jihatlar va xususiyatlarning o'z qadrini muayyan davrda saqlab qolish holati bilan duch kelmoqdamiz. Zero, odamlarning umri o'sha qadriyatlar ustuvor bo'lgan davrda o'tganligidan, ularning amaliyoti butun-butun avlodlarni o'rab turuvchi ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lganligidan bu qadriyatlarning ta'siri kishilarning turmushi, faoliyati va qiyofasida biror muddat davomida saqlanib qolishi tabiiy hol. Ushbu ob'ektiv holatni hisobga olgan holda I.A.Karimov "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay" kitobida "Har qanday holda ham biz o'zimizni boqib, to'ydirib kelgan narsalarni vayron qilishga berilib ketishga haqqimiz yo'q", - deya ogohlantirgani bejiz emas¹.

Mustaqil O'zbekiston vujudga kelayotgan qadriyatlar tizimining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish jarayonidagi ijtimoiy realliklarga nisbatan tadrijiy rivojlanish modelining dialektik mohiyatini quyidagi tarzda ifodalash mumkin: "Asosiy vazifamiz hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, ochlik, qashshoqliksiz, odamlarga ziyon etmaydigan tarzda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishdan iborat"².

Har qanday tadrijiy o'zgarishning asosi ijtimoiy barqarorlikdir, barqarorlikning asosi esa jamiyatdagi asosiy ijtimoiy sub'ektlar va boshqalar o'rtasidagi muayyan qadriyatlarga asoslangan kelishuv, Hamjihatlik va hamkorlikdir.

¹ Каримов.И.А. Янги уй курмай туриб, эскисини бузманг. – Т.: Ўзбекистон, 1993. 5-бет.

² Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.-Т.: 1996. 249-бет

Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tilayotgan davrda davlatning zimmasiga eng qiyin, eng murakkab va eng serqirra vazifalar qoladi: davlatning ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishi, xalqning nihoyatda qashshoqlashib ketishining oldini olishi, eskilikning o'rniga yangilikning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni barataraf qilishi, o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlab turishi lozim. Bunday sharoitda davlat aholining barcha qatlamlarida qonunlarga rioya qilish borasida sobitqadamlik bilan harakat uchun kurash olib borishga majbur bo'ladi. Bir qadriyatlar tizimidan ikkinchi qadriyatlar tizimiga o'tishning O'zbekiston sharoitidagi asoslarini yaratish bilan bog'liq amaliyotida "... davlat asosiy islohotchi bo'lishi kerak, u eng muhim sohalarni belgilab berishi, islohotlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar va konservatorlarning qarshiligini sindirishi lozim"¹.

Bizningcha, O'zbekistonda yangi qadriyatlar tizimining shakllanish istiqbollari jahon xalqlari taraqqiyoti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va mintaqamizda kechadigan jarayonlar bilan uzviy bog'liq. MDHning vujudga kelishi, unga a'zo bo'lgan davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qonuniy va teng huquqlik asosida vujudga keltirishga intilish borayotganligi, MDH davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni "Evropa hamkorligi" mamlakatlari orasidagi aloqalarga o'xshatish uchun harakat qilinayotganligi bejiz emas.

Xalqlari azal-azaldan qondosh va qardosh bo'lgan mintaqamiz davlatlari orasidagi munosabatlar oddiy qo'shnichilik aloqalaridan farq qilishi, bu borada umumiy o'tmish, tarixiy, madaniy, ma'naviy, yaqinlik o'ziga xos ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Ularning har biridagi qadriyatlar tizimini barqaror qilishda o'ziga xoslik bo'lishi bilan birga umumiy yaxlitlik, o'xshashlik bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham mintaqamizdagi yangi qadriyatlar tizimining shakllanish istiqbollari ijtimoiy rivojlanishning muayyan yo'llarini tanlab olish bilan ham bog'liq.

O'zbekistondagi yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi, bunda eskining o'rnini yangi egallashi, barqaror tizimga aylanishi eski ijtimoiy tizimdan

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.-Т.: 1996. 149-бет

yangisiga o'tish davriga mos keladi, bu jarayonda qadriyatlarni barqaror qilish, ularning amaliyotdagi turli farqlar, tafovutlar, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, bu boradagi rang-barang ehtiyoj, qiziqish, maqsad va intilishlarni hisobga olish zaruriyati paydo bo'ladi, aynan ana shu zaruriylik esa bu jarayonning samarali amalga oshirish yo'llarin va usullarini tanlashda, amalga oshirishda adashmaslik, ehtiyot bo'lish hamda sobitqadamlikni talab qiladi. Shu bilan birga, nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki iqtisodiy va ma'naviy sohalarida bu o'zgarishlar bo'lishini zaruriyatga aylantiradi. Bu masala nihoyatda keng mavzu bo'lganligidan unga alohida va atroflicha yondashish lozim.

3. Qadriyatlar tizimi – jamiyat a'zolarining birligi va hamjihatligini ta'minlovchi mezon va milliy g'oyaning asosi sifatida.

Mustaqillik – o'z taqdiriga egalik qilish huquqi berish bilan birga, ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarga tayanib yashash va yurtimiz boyliklaridan xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyati ham ekanligi barchaga ma'lum. Qo'lga kiritilgan yuksak marralarning ildizi, zaminida mustaqillik deb atalgan bebaho ne'mat turibdi. O'z taqdirimizni qo'lga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga xalqaro hamjamiyat hamkorligiga tayangan holda, dunyodagi zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishdan iborat ezgu maqsadlarga erishish yo'lidan bormoqdamiz. Prezident Islom Karimov iborasi bilan aytganda, “Ayni shu yo'l yigirma yillik yangi tariximiz davomida har tomonlama o'zini oqlab, isbotlab bergan, jahonda “O'zbek modeli” deb nom olgan eng to'g'ri yo'l”¹dir.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g'oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyo xaritasida yangi davlatlarning vujudga kelishi, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilish, bu taraqqiyotga g'ov bo'ladigan, demokratik rivojlanishini izdan chiqaradigan, jamiyat birligiga rahna soladigan g'oyaviy to'siqlarning paydo bo'lishi, globallashuv jarayonining jamiyat hayotiga

¹ Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Халқ сўзи. 2011. 1 сентябрь.

kirib kelishi bilan izohlanadi. Oqibatda tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, insonning erkin bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zlaydigan mafkuraviy, g'oyaviy xurujni ifodalovchi "ma'naviy tahdid" tushunchasi o'ziga xos ma'no va mazmun kasb etadi. Bu tushuncha muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitusion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligi, ma'naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar yig'indisidir. Uning mazmun-mohiyati, zararli oqibatlari va bunday tahdidlarga qarshi kurashish kerakligini Prezident Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida har tomonlama asoslab, "...hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishni, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlash va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur"¹, deb ta'kidladi. Darhaqiqat, ana shunday insoniy fazilatlarni o'ziga mujassamlashtirgan har bir ma'naviyatli shaxs, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga ta'sir qilib, ularning qarashlarini o'zlariga ma'qul yo'nalishda o'zgartirish, ekstremizm, vayronkorlik, buzg'unchilik, ahloqsizlik g'oyalarini zimdan targ'ib-tashviq etib singdirish kabi g'arazli maqsadlarni amalga oshirish mumkin emas. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin².

Milliy istiqlol g'oyalarni ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar orqali tarbiyalashda yana bir muhim omilni e'tiborga olishimiz lozim. Globallashuv jarayonining

¹ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент, Маънавият, 2008. –Б.17.

² Назаров Қ. Маънавий қадриятларнинг янгиланиши ва уларни асраб-авайлаш масалалари//Маънавият – жамият тараққиётининг бош мезони. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами.– Тошкент, 2011. –Б.7.

o'ziga xos jihati shundan iboratki, mafkuraviy tazyiqlar o'tkir qurolga aylanib bormoqda. Bu ta'sir asosan insonning ongini zaharlaydi. Bu borada ma'naviyat beshigi bo'lgan oila, onalar va ayollarning jamiyatdagi insonni tarbiyalashda asosiy kuchligini inobatga olib, ularning o'rnini alohida e'tirof etish lozim. Ayollarga nisbatan siyosat bizning jamiyatimizda ma'naviyatimizning belgilovchi kuchidir ham. Insoniyat rivoji shuni isbotlamodaki, ayollar, avvalo, onalar sifatida, nafaqat o'sib kelayotgan avlodga o'zini bag'ishlovchi, balki tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga intiluvchi eng muhim kuchlardan biridir. Ular bilan birgalikda nafaqat davlat miqyosida, balki global ravishda turli muammolarni hal qilish mumkin: narkobiznes, ayollar va bolalar traffigi, OITS, yuqumli kasalliklar, yod etishmasligi natijasida onalik va bolalik xastaligi va hokazo. Ijtimoiy masalalarni ko'targan Kopengagen va Pekinda (1995 y)gi (Butunjahon konferensiyasi) bo'lgan anjumanlar ham buni tasdiqladi. Evropa parlamenti ham ularga qo'shilgan holda 1995 yilda har bir davlat strategiyasida ayollarga alohida o'rin ajratish lozimligini taklif etdi.

Mamnuniyat bilan aytish lozimki, O'zbekiston davlati mustaqillikni qo'lga kiritgach, davlat strategiyasida ayollarga alohida e'tibor qarata boshladi.

Aytish lozimki, dunyoning biror bir mamlakatida ayollar masalasi davlat siyosati darajasida shunday ko'tarilmagan. Bularni amalga oshirish uchun kerakli huquqiy hujjatlar ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, mustaqillik davrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (46,63,66 moddalar) unga asoslanib, 1995 yil 2 martdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 1999 yili "Ayollar yili" munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturi, 2004 yildagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Prezidentning Farmoni va h.k. Ayollar bugungi kunda demokratik jarayonlarning rivojlanib borishida, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlashda katta hissa

qo'shmoqdalar. Undan tashqari, ona sifatida yosh avlodni dunyoqarashini, tibbiy va huquqiy savodxonligini, milliy g'ururni, vatanparvarlik tuyg'ularini, diniy bag'rikenglikni va boshqa umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim o'rin egallaydilar.

Ayollar, onalarga ko'p narsa bog'liq. Ular farzandlariga nafaqat hayot hadya etadilar, balki ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy hayot negizlarini tushuntiradilar.

Amaliy istiqlol g'oyalarini tatbiq etishda yana bir muhim omil: bu fuqarolarda tahdid soluvchi g'oyalarga, oqimlarga zarba bera olish qobiliyatlarini tarbiyalash. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov qator nufuzli anjumanlarda, asarlarida, jumladan: "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir", "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" va boshqalarda qayd etgan. Xususan, "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ma'naviyat to'g'risida quyidagi fikrlar bildirildi:

"Ma'naviyat dunesiga nistabat mavjud bo'lgan xavf-xatarlardan ko'z yumib bo'lmaydi... Xalq bamisoli ulug' va sharaflil yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni chalg'itishga urinuvchilar bo'lishi mumkin..."¹

Haqiqatdan, taniqli olim, falsafa fanlari doktori, professor Q. Nazarov o'z "G'oyalar falsafasi" qo'llanmasida ta'kidlaganidek: "Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko'proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta'kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish geosiyosatining eng ta'sirchan vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni qator yirik davlatlarning maqsadlari o'zga mamlakatlar aholisi turli guruh va qatlamlari, xususan, yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali, ularning faoliyatini o'z ta'sir doirasiga

¹ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 172 б.

kiritishga, ya'ni geostrategik manfaatlariga xizmat qiladigan mafkuraviy muhitni yaratishni ko'zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni oldindan payqash, uning qanday uslub va vositalar bilan amalga oshirilishini aniq bilish murakkab masala. Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo'lib qolganligini alohida ta'kidlagani bejiz emas"¹.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, milliy istiqlol g'oyalarini ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar orqali singdirishda quyidagi olimlarga diqqat qaratish lozim:

- Milliy istiqlol g'oyalari faqat mustaqillikni qo'lga kiritganda muhim deb hisoblanadi;
- Madaniy qadriyatlar sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan;
- Ma'naviyatli-ma'rifatli kishilar ruhan kuchli bo'ladi;
- Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni singdirishda oila, ona muhim ahamiyat kasb etadilar;
- Milliy istiqlol g'oyalarini tatbiq etishda fuqarolarda tahdid soluvchi g'oyalarga zarba bera olish qobiliyatni tarbiyalash lozim.

Milliy g'oya – millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir. Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfaat va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

¹ К. Назаров. Фоялар фалсафаси. –Т.: Академия, 2011, 274-275 б.

O'zbekistonda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar xotin-qizlarga munosabatda asosiy qonunning xalqaro huquqqa mos qoidalariga amal qiladilar. O'zbeklar ayolga, avvalo, Ona, mehribon opa-singil, ardoqli qiz deb qaraydilar. Oilada ayolning o'ziga xos mavqei va o'rni bor. Xalqning madaniy merosi, adabiyoti, san'ati va falsafasi milliy g'oyasida aks etadi. Shuningdek, ayollarining go'zallik va nafosati, ularning vafo va sadoqati timsoli sifatida gavydalanadi.

Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat – eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda, Ona nomi qo'shiladi. Milliy istiqlol g'oyasi onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkin-ligi va o'z qadr-qimmatini anglab etishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishiga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan. Milliy g'oyaga ma'naviy poydevor bo'ladigan milliy qadriyatlar doirasiga urf-odat va marosimlar, ularga asos bo'lgan insoniylik va jamoachilik tamoyillari, axloqiy fazilatlar kiradi. Uning tayanchi, negizi bo'lib ham xizmat qiladi. Chunki, bu qadriyatlarda millatning, xalqning ruhi mujassam.

4. Jamiyat sohalarini modernizasiyalash – yangi ijtimoiy-siyosiy aksiologik jarayon sifatida

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatiga jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizasiya qilish modellariga asoslangan holda, o'ziga xos taraqqiyot yo'llarini izlash va amaliyotga tatbiq qilish xosdir. Bu borada O'zbekiston Prezidenti I.Karimov tomonidan nazariy va amaliy jihatdan asoslangan taraqqiyotning "O'zbek modeli" konsepsiyasi jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishga, uning dunyodagi taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin olishiga xizmat qiladi. Bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tish jamiyat hayotining har bir jabhasida amalga oshiriladigan tub sifat o'zgarishlari orqali sodir bo'ladi.

Modernizatsiya ijtimoiy voqelikning tizimli o'zgarishi, rivojlanishi, takomillashuviga olib keladigan jarayon bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining barcha

sohalariga taalluqlidir. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, madaniy modernizasiyaning asosiy omili, eng avvalo, olamning ilmiy manzarasidagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan namoyon bo'ladi.

Modernizatsiya (ingl. modernization – o'zgarish, yangilanish, zamonaviylashtirish) – industriallashtirish, sanoatlashtirish davrida agrar, tarixiy va zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishini ifoda etuvchi ijtimoiy jarayondir. Bu industriallashtirish yoki kapitalistik ishlab chiqarishga o'tishga nisbatan ham keng bo'lgan ijtimoiy jarayondir.

Fransuz olimi E.Dyurkgeym modernizasiyani ijtimoiy differensiallashuv sifatida talqin etib, uning vositasida mehnatning ijtimoiy taqsimoti amalga oshiriladi. Nemis sosiologi M.Veber modernizasiyani xo'jalik sub'ektlarining o'z shaxsiy iqtisodiy foizlarini imkon darajada oshirishga intilishlaridan iborat bo'lgan rasionallashuv jarayoni sifatida talqin etadi.

Amerika funksionalizm maktabi vakillari tomonidan 1950-60-yillarda taklif etilgan ijtimoiy taraqqiyot modeliga ko'ra, modernizasiya jarayonining mazmun-mohiyatini ifodalovchi asosiy omil – ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan an'anaviy qadriyatlar o'rniga zamonaviy yondashuvlarning vujudga kelishidir. G'arb ilmiy adabiyotida jahondagi bir qancha rivojlangan mamlakatlar mazkur yondashuvlarga tayanib, modernizasiya bosqichidan keyingi – postmodernizasiyalashgan jamiyatga qadam qo'yib, unga xos xususiyatlar, muammo va ziddiyatlar atroflicha tadqiq va tahlil etilmoqda. Modernizasiyaning hal qiluvchi omili ijtimoiy o'zgarishlar va iqtisodiy o'sish sur'atlariga g'ov bo'luvchi an'anaviy qadriyatlarni engish hamda, ularni xo'jalik sub'ektlarining innovasion faoliyati – yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish, tarqatish va yangi tashkiliy iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishga undovchi qadriyatlarga almashtirishdan iboratdir. Fanda modernizasiyani zamonaviy ishlab chiqaruvchi kuch-qudratning rivoji emas, balki texnologik tobelikni engib o'tish sifatida talqin etilmoqda. Bunda birinchidan, modernizasiyalashtirish o'ta zamonaviy tashkilotni

tashkil etishnigina emas, balki ilg'or ilmiy texnik g'oyalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lishni hamda ilmiy tadqiqot va tajribaviy konstruktorlik ishlari natijalarini eksport qila olish zaruriyatini nazarda tutadi. Ikkinchidan, modernizasiya globallashuv sharoitida mamlakatning dunyo xo'jaligiga birikuvi asosidagi hamkorlikni, raqiblarning ilmiy-texnik yutuqlaridan foydalana olishni taqozo etadi.

Uchinchidan, modernizasiya muayyan tovar turlarini ishlab chiqarishni o'stirishnigina emas, balki bir axborot texnologiyasidan boshqasiga tez ulanish imkoniyati berilishini talab etadi. Zamonaviy jamiyatni modernizasiya qilish iqtisodiy faoliyat ko'lamlarining kengayishinigina emas, balki butun dunyoda texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar uchun impuls vazifasini bajaruvchi turli iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi munosabatda teng huquqlilik ta'minlanishini nazarda tutadi.

Modernizasiyani uch darajani: **makrodaraja** – negiz innovasiyalar majmui asosida keng quloq yozuvchi ilg'or texnologik tartiblar almashinuvi sifatida; **megodaraja** – davriy ravishda taxminan 10 yilda amaldagi texnika avlodining almashinuvi, asosiy fondlar faol qismining yangilanishi asosida sodir bo'luvchi jarayon sifatida; **mikrodaraja** – mahsulot modellari va modifikasiyalarining doimiy yangilanishi, uning ko'rsatkichlarining sanoat korxonalari doirasida takomillashib boruvchi innovasiyalar asosida mukamallashishib borishini qamrab oluvchi jarayon sifatida farqlash mumkin.

Davlatning innovasion potentsiali tarkibiy o'zgarishlarning asosi sifatida modernizasiyaning omili hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 80 foizi innovasiyalar hisobiga qondiriladi. Fan taraqqiyotning asosiy resursiga aylanib, tabiiy boyliklarni tejagan holda yangi texnologik asosda iqtisodiy qayta ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning fanga muvofiqligi sur'atining ortishi zamonaviy modernizasiya uchun ob'ektiv

voqelikdir. Har qanday davlatning muvaffaqiyatli modernizasiyalashuvi uchun uning hududiy chegaralari va tabiiy sharoitlaridan qat'i nazar texnologik yangiliklarning manbai sifatida fan taraqqiyotining muayyan darajasiga ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu daraja fan va iqtisodiyotning tarkibi hamda holati, shuningdek, jamiyat rivojining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadi bilan belgilanadi.



DEMAK ESLAB QOLAMIZ

Birinchidan, O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganligi unda umumiy qadriyatlar tizimining shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydigan asos omillaridan biridir. Mustaqillik tufayli respublikamizda yangi demokratik qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoni tug'ildi. Mustaqillik bugungi O'zbekistonda ideal qadriyatlardan amaliyotga aylanib bormoqda.

Savollar va torshiriqlar:

1. Mustaqillik va erkinlikni siz qanday tushinasiz?
2. Mustaqillik qadriyatlari klasterini tuzing?

XULOSA

Qadriyatlar o'z mohiyatiga ham, ijtimoiy, ham siyosiy va mafkuraviy tushunchadir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Biroq, shunday bo'lsa-da, kadriyatlarning eng oliysi insonning o'zi, uning hayoti, haq-huquqi va erki, sog'lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafigini ulug'lash-jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir. Buni biz islohotlar davrida ko'rib turibmiz.

Qadriyat insonning borlig'i ham jamiyatning axloqiy estetik, huquqiy sohalarni ham, ijtimoiy ong sohasining ham qamrab olgan murakkab jarayondir. Insonning o'zligi, menligi borlig'ining asosiy fundamenti qadriyat bilan boyitiladi, to'ldiriladi. Kishilar o'zlarining amaliy faoliyatida hayot uchun zarur bo'lgan tabiiy talab, ehtiyojlarini predmetlar va hodisalarning xossa-xususiyatilaridan foydalanib qondiradilar. Masalan, odamning chanqovini suv, ochlik hissini non, kislorod nafas oliy orqali tananing unga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham biz bu «ne'matlarni qadrlaymiz. Lekin shunday narsalar ham borki, ular bizga yoqmaydi, ular hayotimiz uchun zarardir. Qo'pollik, behayolik, o'g'rilik, yolg'onchilik, ifloslik, loqaydlik va hokazolar ana shunday yoqimsiz narsalar bo'lib, biz ulardan qo'tilishga intilamiz.

Qadriyat inson ongi, manfaatlari, gnoseologik qiziqishlari orqali ifodalanadigan tushunchadir. Ammo qadriyatlarning sensitiv-kognitiv xususiyatlari ularning ontologik asoslari borligini rad etmaydi. Aynan mazkur ontologik asos, qadriyatlarning inson va jamiyat ma'naviy hayoti bilan bog'liqligi ularni o'rganishning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi. Demak, qadriyatlardagi sensitiv-kognitiv belgilar bilan ularning ob'ektivlashishi mumkinligi o'rtasida bog'liqlik borligini unutib bo'lmaydi.

Qadriyatlar qo'lanilmaydigan soha, faoliyat turi, hayot tarzi, tafakkur tarzi yo'q. Qadriyatlarning bunday polifunksional xususiyati va keng tarqalgani tadqiqot ob'ektini aniqlashtirishga, uni tipologik xususiyatlariga muvofiq klassifikasiya qilishga undaydi. Bizning fikrimizcha, qadriyatlarni guruhlash, klassifikasiya qilib o'rganish, bir tomondan, murakkab va rang-barang voqelik bo'lgan qadriyatlarning asosiy xususiyatlarini topish, ikkinchi tomondan, ularning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini, ma'naviy yangilanish jarayonlariga ta'sirlarini, uchinchi tomondan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishning samarali yo'llarini, usullarini aniqlash imkonini beradi. Qadriyatlar tushunchasini arab tilidan kelib chiqqan degan fikrlar uchraydi. Lekin Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u Blig" asarida qadriyat, inson qadri masalasi ilk marta uchraydi. Endigi ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-uslubiy ishlar aynan shunday ma'naviy merosga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu uslubiy ishimiz qadriyatlar haqida ilk izlanishlar namunalari bo'lib, ayrim kamchiliklardan xoli emas. Chunki qadriyatlar haqidagi tadqiqotlar hali konkretlashmaganligi, hozirgi davr transformasiyaga uchragan qadriyatlarning to'liq klassifikasiya qilinmagani shuni taqozo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.:Ўзбекистон, 2014,11-б.
2. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Тошкент, 1997 йил 22-бет
3. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодиёти ислохотларини чуқурлаштириш йўлида.-Т.:Ўзбекистон, 1995, 140-бет
4. Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.-Т.: 1996. 249-бет
5. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – Б. 125-126.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 404.
7. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т.: О'zbekiston, 2011.– Б. 99.
8. Авесто. -Тошкент: Шарқ, 2001.
9. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2 жилд.- Т.:Фан,1968,106- бет.
- 10.Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2 жилд.- Т.:Фан,1968,177-бет.
- 11.Афлотун. Қонунлар. –Т: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 4.
- 12.Аристотель. Сочинения. В четырех томах. Т.4. – М.: Мысль, 1983. – С. 71.
- 13.Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Дарслик. –Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2010. -8 б.
- 14.Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. – Т.: Noshir, 2008. – Б.7.
- 15.Брентано Ф.О. Происхождении нравственного познания. – Алетеия: СПб, 2000. – С.22.
- 16.Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика /Учебник. -М.: Гардарики, 2004. -26 с.
- 17.Жўраев З. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.15-17.
- 18.Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 301.
- 19.Зайниддин Муҳаммад Ғаззолий. Кимёи саодат. – Тошкент: Камалак, 1995. – 50 б
- 20.Зайниддин Муҳаммад Ғаззолий. Кимёи саодат. – Тошкент: Камалак, 1995. – 62 б.
- 21.Джавакова К.В. Институты народовластия в Республике Узбекистан. – Т.: О'qituvchi, 2006. – С. 197-199.
- 22.Туленов Ж., Туленова К. Қадриятлар фалсафаси. –Т.: «Меҳнат», 2007 - 5бет
- 23.Ўзбек Совет Энциклопедияси. 14 – жилд. -Т., 1980, 7- бет.
- 24.Ўзбек халқ мақоллари.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.
- 25.Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1995, 6-бет

- 26.Фалсафа. Қомусий луғат. Тошкент, “Шарқ” 2004-17-бет
- 27.Философская энциклопедия. 5-Жилд. -М.: Наука, 1970, 462-бет
- 28.Фозила Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 23 б.
- 29.Оқмуродов. Т. О. Тасаввуф – саодат илми // Фалсафа ва тасаввуф: Республика Илмий-амалий семинар материаллари:– Бухоро, 2008. – Б.139
- 30.Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. – Тошкент: Movaunnahr-O'zbekiston, 2009. – 52 б
- 31.Пардаева М.Д. Тасаввуфда комил инсон масаласи // Фалсафа ва тасаввуф: Республика Илмий-амалий семинар материаллари: – Бухоро, 2008. –Б.223 .
- 32.Наврўзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: фалсафа фанлари д-ри дисс. автореферати. – Тошкент: 2002. Б. 29.
- 33.Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. – Тошкент: Movaunnahr-O'zbekiston, 2009. –Б.133.
- 34.Назаров. Ғоялар фалсафаси. –Т.: Академия, 2011, 274-275 б.б.
- 35.Рассел Б. История западной философии. – Новосибирск, Новосибирск. ун-та, 1999. – С. 505, 528.
- 36.Локк Дж.Сочинения в трех томах. Т.3. – М.: Мысль, 1988. – С. 286.
- 37.Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысль, 1966. – С. 269.
- 38.Ницше Ф. Воля к власти. Опыт переоценки всех ценностей (1884-1888). – М.: ТОО «Транспорт», 1995. – С. 30.
- 39.Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, “Академия” 2004,34-бет
- 40.Шермухаммедова Н.А. Қадриятларни баҳолашнинг категориал тизими // ЛСА – Япония ҳамкорлик агентлигининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси билан ҳамкорликда 2012 йил 13 апрелда Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган “Шахс баркамоллиги: ахлоқий-эстетик жхатлар” мавзuidaги халқаро конференция материалларидан.Б-127
- 41.Каримов.Б.Р, Тўраев. Б.О. Оқилона қадрият мўлжаллари. – Т.: ТошДУ, 1994. 5-бет
- 42.Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т.: Шарқ, 2003; Умаров Б. Ғарб ва Шарқ либерализми//Тафаккур, 2004, 4-сон. – Б. 17-19.; Адылхожаева С. Либерализм: истоки, проявления, сущность. – Т.: Адолат, 2006. – С.12-18.
- 43.Даль Р.А. Введение в экономическую демократию. – М.: Наука, СП «ИКПА», 1991. – С. 28-30.
- 44.Саралаев У.К. Международное общение: теория и практика. – Т.: Меҳнат, 1999. – С.54-56; Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этник жараёнлар. –Т.: ТМИ, 2004. – Б. 62-66; Мусаев О.Р. Мустақил Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: Ijod dunyosi. 2004. –

- Б. 14-15.
45. Мусаев О.Р. Мустақил Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: Ijod dunyosi, 2004. – Б. 58.
46. Мамашакиров С.Ваҳимами ёки Ҳақиқат. Т.: Iqtisod-Moliya, 2012, 185-бет
47. Жалолов А. Манглик – эзгуликда! // Самарқанд-Тошкент. Илм-фан ва таълим – истиклол пойдевори номли република илмий-назарий семинар материалдан. 2013, 14-б
48. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 46.
49. Умаров Б., Саидов У. Ғарб ижтимоий тафаккурида эркинлик ғояси такомили (Биринчи китоб). – Т.: Академия, 2010. – Б. 276.
50. Ҳамроев И. Кўз илғамас хазиналар. -Т.:Фан,1990.
51. Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: Академия, 2003; Мусаев Ф. Демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: О'збекистон, 2007;
52. Умаров Б., Саидов У. Эркинлик такомили ғояси. – Т.: Akademiya, 2010; Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.
53. Фукуяма Ф. Сильное государство. Управление и мировой порядок в XXI веке. – М.: АСТ, 2006. – С. 5.
54. Марков М. Теория социального управления. –М.: Политиздат, 1978. – С. 103-105; Мескон М.Х., Альберт М., Хераурн Ф. Основы менеджмента. –М.:Экономика, 1997. – С. 144-146; Алексич М.Т. Социология и менеджмент. – М.: ЛОГОС, 1995. – С. 102-103.
55. Бердяев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества. – М.: Правда, 1989. – С. 21.
56. Хўжамуродов И.Р., Абдураимова М. Сиёсат, дин ва миллий ўзликни англаш. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2010. – Б. 92.
57. Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т.: ИИВ Академия, 2003. – Б. 78.
58. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – Б. 150.
59. Радугин А.А. Этика. /Учебное пособие для высших учебных заведений. - М.: Центр, 2003. -88 с.
60. Шайхова Х. Ўзбек аёли – одоб тимсоли. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. – Б. 24-28.
61. Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. –Т.: Униветситет, 2007. – Б. 170.
62. Ўлмас қадриятлар. – Т.: «Adib» нашриёти, 2009. – Б.10.
63. Имом ал-Бухорий Ал-Адаб ал-Муфрад. Т., Маънавият. 1990. 14-б.
64. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Т., Шарқ. 2002. 32-б.

- 65.Муҳаммадиев Н.Э.. Ички ишлар ходимларининг касб этикаси ва эстетикаси маданияти. Т. ИИВ Академиси. 1998.
- 66.Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., Университет, 1998, 156-б.
- 67.Маҳмудов Тилаб. Гўзаллик . /Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. -Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. -139 б.
- 68.Умаров Э. Эстетика (Нафосатшунослик) /Ўқув қўлланма. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995. -Б. 148-149.
- 69.Halnschke В. Transformation und Identitat (Aspekte, Erfanzungen, Tendenzen). – Berlin, 1994; Костюк В.Н. Изменяющиеся системы. – М.: Экономика, 1993.
- 70.Данилов А. Переходное общество. Проблемы системной трансформации. –Мн.: ООО «Харвест», 1998.
- 71.– С.10.
- 72.Кант И. Критика чистого разума. – СПб.: ИКА «ТАЙМ-АУТ», 1993. – С.11.
- 73.Қамбаров А. Маънавият ва илмий қадриятлар. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. – Б.35.
- 74.Қуръони карим (Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 377.
- 75.Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. –Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б.10.
- 76.Миллий ғоя ва маънавий қадриятлар: назария, методология ва амалиёт. – Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2004. – Б. 7.
- 77.Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.: Шарқ, 1997. – Б. 22-39.
- 78.Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. Т.: Маънавият, 2002. – Б.107.
- 79.Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 107.
- 80.Ортиқов Н.Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. Тошкент, “Ўзбекистон”1997, 8-бет
- 81.Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: АСТ, 2005. – С. 220.
- 82.Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. – М.: ЭКСМО, 2003. – С. 212.
- 83.Уткин А. Американская империя. – М.: ЭКСМО, 2003. – С. 56.
- 84.Темирова Н.Э. Талаба ёшларнинг маънавий шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар диалектикаси. Фалсафа фан.номзоди... дисс.автореферати. – Т.: 2006. – Б.18.
- 85.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т.: Абдулла Қодирий, 1993. – Б. 98.
- 86.Мусаев О. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар. – Т.: Фан, 2006. – Б. 48-52; Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. – Т.: Avit matbuot-konsalt, 2008. – Б. 18-120.
- 87.Муродов М., Ҳакимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. – Т.: Ғ.Ғулом, 2001. – Б. 69.

- 88.Абдуллаев Т. Турмуш соҳ,асида миллий ва умуминсоний кадриятларнинг диалектикаси: фалс..ф.д-ри дисс...-Т.,1992.
- 89.Дехканова Д.З. Ўзбекистонда демократик жараёнларни ривожлантиришнинг ҳуқуқий ва маънавий-ахлоқий негизлари. Юридик фан. номзоди... дисс.автореферати. –Т.: 2000. – Б. 18.
- 90.Назаров Қ. Қадрият тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари): фалс..ф.д-ри дисс...-Т., 1996.-Б.105
- 91.Саифназаров И., Саифназарова Ф. Маънавиятимизнинг умрбоқий сарчашмалари.-Т.: Меҳнат, 1997.-Б.10

GLOSSARIY

Milliy ma'naviyat – bu muayyan millatning tarixiy o'tmishi, dini ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi hamda dunyoqarashining ifodasi. Unda milliy urf-odatlar, an'analar, moddiy-madaniy meros, tarixiy yodgorliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy ma'naviyat esa - barcha xalqlarga xos bo'lgan, ularning barcha ijtimoiy ideallarini aks ettiruvchi an'analar, g'oyalar, intilishlar, maqsad-muddaolarni ifodalovchi qadriyatlar tizimidir. Bunday qadriyatlar biror bir davlat, jamiyat, mafkura tomonidan yaratilmaydi, u barcha insonlarning orzu-umidini ifodalaydigan, ularga birdek manzur bo'lgan, yovuz g'oyalarga qarshi yagona kuch sifatida qaror topadigan qadriyatlar tizimidir. Tinchlik, erk, istiqlol, demokratiya kabi tushunchalar bashariyatning azaliy qadriyatlaridir.

Umuminsoniy ma'naviyat milliy ma'naviyatdan, milliy ma'naviyat shaxs ma'naviyatdan o'sib chiqadi. Milliy va umuminsoniy ma'naviyat belgilari shaxs ma'naviyatida tajassum topadi. Shaxs ma'naviyatining yuksak bo'lishi, uning umuminsoniy va milliy ma'naviyat bilan qanchalik mushtarakligiga bog'liq.

Shaxs ma'naviyati – bu har bir kishi o'zini erkin, muayyan millat vakili, o'zligini anglagani holda yuksak qadriyatlarga sodiqligi, odam va olamga oqilona munosabatda bo'lishi, o'z hayotining ma'nosini to'g'ri belgilashi, ezgulik va go'zallik ideallariga sodiqligi bilan belgilanadi. SHu ma'noda shaxsning ma'naviyati avvalo, hissiy va aqliy jihatdan o'zligini anglashga bog'liq. Ikkinchidan, shaxs ma'naviyati - o'zi mansub bo'lgan oila, millat, vatan bilan faxrlanish, g'ururlanish tuyg'usi orqali namoyon bo'ladi. Uchinchidan – shaxs ma'naviyati yurt tinchligi, Vatan obodligi, xalq farovonligi, ilm, ma'rifat va tarbiyaga rag'bat ko'rsatishi bilan kamol topadi.

Qadriyat- biror bir tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub'ekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy falsafiy-sosiologik va aksiologik kategoriyadir

Qadriyat- xalq, millat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlariga mos keluvchi, ularning maqsadlarini ifodalaydigan ijtimoiy hodisalarning odamlar tomonidan baholanib, qadrlanadigan ma'naviy boyliklar majmui bo'lib, u o'zining axloqiy va estetik mazmunini ezgulik va go'zallik mezonlari bilan boyitib boradi. Zero, qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar tafakkuriga singib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklardir.

Milliy qadriyatlar muayyan millatning kelib chiqishi, rivojlanishi, suveren yashashi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, siyosiy-xuquqiy, faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nisbiy, barqarorlik namunasi bo'lib, o'sha millat vakilida g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadigan voqelikdir. Masalan, o'zbek xalqining milliy qadriyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. O'zbek tili. U mohiyatan barcha milliy qadriyatlarimizning yaratuvchisi. Ona tilimiz har bir qadriyatimizning vujudga kelishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Masalan, adabiyot va san'at turlarida yaratilgan asarlar, diniy-e'tiqodiy qadriyatlarimiz, hayot tarzimiz bevosita muloqotlar til orqali amalga oshadi.

2. Milliy urf-odat va marosimlar. O'zbeklarda hech bir millatda takrorlanmaydigan milliy an'analar mavjud. Bu borada «uloq-ko'pkari», «O'zbek kurashi» kabi sport o'yinlarini ko'rsatish mumkin.

3. Buyuk allomalarimizning ilmiy, ma'naviy merosi, ularning axloqiy va estetik ideal sifatidagi faoliyati.

4. Xalqimizning axloqiy-estetik fazilatlarlari - mehmondo'stlik, saxiylik, mehr-oqibat, shukronalik, qanoat, bag'rikenglik, kattalarga hurmat, tug'ilgan joyiga sadoqat va boshqalar.

Estetik qadriyatlar- sof ma'naviylik, ya'ni intellektual-hissiy jihati bilan birga, ma'naviylik va moddiylikning omuxtas sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, go'zallik, ulug'vorlik singari tushunchalarni ma'naviy estetik qadriyatlar ifodasi desak, konkret ob'ekt Registon me'moriy majmuini moddiy estetik qadriyatlar sirasiga kiritish mumkin. Ulardagi moddiylik ma'naviy estetik xususiyatlarni namoyon etish bilan belgilanadi. Har bir mulkning qiymati iqtisodiy-moliyaviy birlik – pul bilan narxlanadi, estetik qadriyatlar esa ma'naviy-ruhiy ta'sir darajasiga qarab baholanadi.

Estetik qadriyatlar. Tabiatga xos ob'ektiv estetik qadriyatlar. Ijtimoiy borliqda amal qiluvchi estetik qadriyatlar. Ma'naviy olam bilan bog'liq estetik qadriyatlar. Inson hatti-harakatlari va axloq – odobiga taaluqli estetik qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar- inson kuchi, aqli – zakovati bilan yaratilgan atrof-muhitdagi go'zallik, har xil san'at turlari namunalari, madaniy obidalar;

ma'naviy qadriyatlar- esa axloq, odob, bilim, ilm, malaka, iymon, insof, e'tiqod kabi tushunchalar

Umuminsoniy qadriyatlar - deganda, odatda butun insoniyat ozodligi, farovonligi, ravnaqi yo'lida xizmat qilgan va qiladigan umumijtimoiy ahamiyatga molik voqelikni tushunamiz. Uni Er sayyorasining atmosfera qatlamini asrash, er yuzida tinchlikni saqlash, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, demokratiyani qaror toptirish, inson erki va huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, halqaro xavfsizlikni ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish, turli xil adabiyot va san'atning taraqqiyparvarlik g'oyalari ilgari surilgan mumtoz asarlari, tarixiy-madaniy obidalar, jahonshumul ilmiy kashfiyotlar, shuningdek, kasalliklarning oldini olish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, onalik va bolalikni muhofaza etish va hokazolar tashkil qiladi.

Axloqiy qadriyatlar - deb, har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg'un, barqarorlik kasb etib, o'zligini bildirib, namoyon etib nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlarning muayyan tizimiga aytiladi".

Axloqiy qadriyatlarga insonparvarlik, jamoatchilik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, ochiq ko'ngillik va mardlik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, sabr-qanoat, hayolilik va pokizalik, homiylik va saxovat, fidoyilik, sadoqat, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, sihat-salomatlik, jasurlik va boshqalar kiradi.

Tabiiy qadriyatlar tabiiy xom ashyo-foydali qazilmalar;

Moddiy qadriyatlar zavodlar va fabrikalar, transport vositalari, asbob-uskunalar, turar-joy, mol-mulk, noz-ne'matlar; **madaniy-ma'naviy qadriyatlar** maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, madaniy meros, til,

adabiyot, san'at, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, me'morchilik obidalari;

shaxsiy qadriyatlar:

- odam zotining tabiiy-tarixiy qadriyatlari;
- ma'naviy-axloqiy qiyofa, nafosat va go'zallik bilan bog'liq qadriyatlar;
- mehnat va iqtisod bilan bog'liq qadriyatlar;
- individual kamolot va ijtimoiy mavqe bilan bog'liq qadriyatlar;
- huzur-halovat bilan bog'liq (hedonistik) qadriyatlar;
- qobiliyat va iste'dod bilan bog'liq intellektual qadriyatlar;
- his-hayajon, tuyg'ular bilan bog'lik «emosional» qadriyatlar/